



**Jahongir Zokirxo'jani har eslaganida «musofirlikda oltin topish oson, jon taslim qilish qiyin», deb qo'yardi. Aslida bu Zokirxo'janing gapi. Tanasi kafan ko'rмаган, лаҳад ко'rмаган muslimning gapi. Qulog'iga Olloh nomi bilan azon aytilgan, «Olloh» deb tili chiqqan, umri bo'yi toatibodatda bo'lган muslim janозасиз ketdi. Inson bolasining boshiga turli kulfatlar tushishi mumkin. Bu dunyo azoblarini behad ko'p totishi mumkin. Lekin Jahongirning nazarida, kulfatlarning eng beshafqati o'sha Zokirxo'jaga nasib etdi. «Bir hovuch ona tuproqqa zor bo'lib ko'z yumishni hech bir andaga nasib etmasin.» Bu ham Zokirxo'baning gapi...**

*Nohaqlik, tuhmatlar jabrini ko'p tortgan, ammo vijdoniga xiyonat qilmagan tabarruk inson, tog'am Mirzakalon Ismoiliyning pokiza ruhiga xolis niyat ila baxshida etdim.*

## MUQADDIMA

«Bismillohir Rohmanir Rohiyim!».

U shunday deb miltiq qo'ndog'ini yelkasiga tirab, bargga qarab oldi.

Kuzning sovuq nafasida titrab-qaqshab turgan yaproqlar qitday shabadaga ham tob berolmay chirt uziladigan ahvolga kelgan. Yomg'irdan oldinroq uzilib xazonga aylangan barglar esa chirishga yuz tutgan. Bugungilari ham, agar shamol uchirib ketmasa, o'z daraxtining poyida chiriydi.

Kun og'ib shabada esmay qo'ygan. Daydidaradagi do'nglikda — tanho savlat to'kib turuvchi chinorning eng pastki shoxidagi barg uzilgani hamon miltiq otiladi: kimdir — ikkisidan biri qulashi kerak...

Bir yoniga sal qiyshayib turgan yigit, garchi yagona bargga tikilib qolgan bo'lsa ham uni ko'rmaydi. Ukasi bilan otishishga shartlashib, qo'liga miltiq olgach, titrab turgan barg o'lim xabarchisiday tuyulib, ko'z oldi xiralashgan. Endi u faqat Xudodan najot kutadi.

«Padarkushligim rost bo'lsa, Xudo avval ko'zimni ko'r qiladi. Bargning uzilganini ko'rmay qolaman. Jahoning qahri qattiq. U ayamaydi... Barg qani? Nimaga ko'rmayapman? Xudo jonimni ukamning qo'liga topshirdimi? Peshonamga yozilgani shumi?»

- Jahan... Jahongir!
- Nima deysiz? — Jahongir bargdan bir zumgina ko'zini olib, akasiga qaradi.
- Ulushim ko'milgan yerni aytaymi?

— Kerak emas.

— Jahan!

— Bargga qarang!..

«Talvasaga tushib qoldilar. O'lim haqligini sezdilarmikan? Tepada Xudo kim haq, kim nohaqligini ko'rib turibdi. Agar otamni bila turib atayin o'ldirgan bo'lsalar, omon qolmaydilar. Xudo jazosini beradi. Ammo jazosini mening qo'llarim bilan berishiga qanday chidayman keyin! Otamning qabri sovimay turib, akamdan ham ayrilsam, kimga suyanaman? Akamning qazosini qo'limga topshirib qo'yib Xudo meni ham jazolamoqchi emasmikin? Nima uchun? Qaysi gunohlarim evaziga menga buni ravo ko'rmoqchi? «Sen o'ldirding-u, buning mukofotiga seni mahv etdilar. Endi qotilingning jonini qaerda olishar ekan...» Mashoyixlardan qolgan bu so'zlar nahot chinga aylansa? Otamni akam o'ldirdi. Men akamni... Mening jonim kimning qo'lida? Barg qimirlamayapti. Barmoqlarim qotib qolay deyapi. Qancha kutamiz? Balki barg ertaga ham uzilmas? Balki qishi bilan qolib ketar? Axir hamma barglar ham uzilib tushavermaydi-ku? Akam bargga qarayaptilarmi?»

Jahongir akasiga ko'z qirini tashladi. Olamgir miltig'inining og'zini yerga qaratgancha ukasiga ma'nosiz tikilib turardi.

— Aka, bargga qarang!

Jahongirning ovozi toshlarga urilmay, yomg'ir suviga to'yan yerga singib ketgan bo'lsa-da, Olamgirning nazarida aks-sado berganday tuyulib, seskandi. Ukasining ketma-ket ogohlantirishlari ko'ngliga og'ir botdi. Miltiqning og'zini unga to'g'riladi.

— Mening tashvishimni chekmay qo'yaver.

Olamgir bargga qaradi: titrab turibdi. «Uzilsa uzila qolmaydimi? Padariga la'nat!»

Olamgir alamini o'sha jonsiz bargdan olmoqchi bo'ldi. U dastlab ukasining gaplariga e'tiborsiz qaragan edi. Hech zamonda aka-uka Xudoning nomini o'rtaga qo'yib, bir-biriga miltiq o'qtalib turadimi?

Xudo shohid, Olamgir otasiga beixtiyor o'q uzdi.

Yarim kecha edi. Uyqusi o'chib hovliga qaradi. Bog' tomonda sharpa ko'rib, miltiqni olib chiqdi. Boqqa kirdi. Sharpa tut tomonga yurdi. Tut tomonga! Olamgirning ulushi o'sha yerga ko'milgan. Buni faqat o'ziyu otasi biladi. Jahongirning ulushi esa boshqa yerga ko'milgan. Bu faqat otasigayu Jahongirga ma'lum. Otasi o'zining haqini ham chegirib olib qolgan. Shuni sho'ro odamlariga berib, ularning da'volaridan qutulmoqchi. Qolgan umrini osoyishtalikda o'tkazmoqchi. Qaysar chol! Xorijga o'tishga qarshilik bildiryapti...

Sharpa tut oldida ivirsib qoldi. Olamgirning xayoliga kelgan yagona fikr shu bo'ldi: o'g'ri! Ko'z oldiga xumcha to'la tilla tangayu zeb-ziynat keldi. Boshqa hech nima ko'rinxay qoldi. «O'g'ri... o'g'ri... Hech vaqosiz qolyapsan, Olamgir!» degan ovoz qulog'idan kirib, yuragini zirillatib, tovonidan chiqqanday bo'ldi. Jonholatda tepkini bosib yubordi. Otasi ekanini qaydan bilibdi? Ukasi esa «Xorijga yo'l bermaganlari uchun atayin otgansiz», deydi. Jahongirga o'xshagan qaysar odam ularning yetti pushtida bo'limgandir. Tabiatan quv, irodasi beqaror bo'lgan Olamgir esa, o'jarlikning, jasurlikning afzalliklarini baholay olmas ham edi.

Otasi kamgap odam edi. Gapdan ko'ra ishni ma'qul ko'rardi. Bomdoddan shomga qadar daladan beri kelmasdi. Jahongir otasining qarol yollab ishlatganini bilmaydi. Zafarbek islom yo'lida qilich yalang'ochlaganda ham otasi qishloqni tashlab ketmadi. «Men dehqonman, men odamlarni boqishim kerak. Olloh mening zimmamga shu yumushni yuklagan. Yerdan yuz o'girsam, Olloh mendan yuz o'giradi. Qilich chopish, miltiq otishdan, odam bolasi qonini to'kishdan Parvardigorning o'zi asrasin», deb dangal aytdi. Atrof qishloqlarni tiz cho'ktira olgan Zafarbek Muhammadrizoga tegmadi.

Aksincha, do'ppi tor kelganda yiqqan-terganini unga ishondi. Omonatga xiyonat qilmasin, deb Muhammadrizoning o'ziga ulush sifatida zeb-ziynatlar, tilla tangalar qoldirdi. Muhammadrizo bularni beshga bo'lib to'rt qismini o'g'il-qizlariga atadi, bir ulushini o'zi oldi. Kutilmagan boylikdan esi og'ib qolayozgan Olamgir xorijga o'tish haqida so'z ochganida uning javobi qisqa bo'ldi:

— Bir tovoq yovg'on bilan odamning qorni to'yadi. Xorijga borsang ham bir tovoqqa to'yanan. Ikki tovoq yeyolmaysan, bo'kib o'lasan.

Zafarbek shahid bo'lgach, Muhammadrizo uning omonatini kenjası Jahongirga ishondi. «Hatto sariq chaqasiga ham xiyonat qilma», deb tayinladi.

Jahongir turgan yerda, odam bo'yi chuqurlikda Zafarbekning xazinasi ko'milganini Olamgir bilsami...

Boylıklarning bo'lib berilishi va boshqa-boshqa yerga o'zga guvohlarsiz berkitilishi sabablarini aka-uka endi, bir-biriga miltiq o'qtalib turgan onda anglab yetishdi: otasi oqil ekan! Agar shunday qilmaganida ular balki bargning tushishini kutib o'tirishmasdi. Biron panada payt poylanardiyu tepki bosilardi, vassalom!

Daraxtning shapaloqdek bargi qari tilanchining uzatilgan ochiq kafti kabi titraydi.

Jahongir unga betoqat tikiladi.

Olamgir alamdan yonadi. Go'yo hammasiga shu barg aybdor.

«Ukamning oldida past ketdim-a? O'limni bo'ynimga oldimmi? Qo'rqedimmi? Ukamdanmi? Umrinda bunaqa past ketmagan edim. Birov eshitsa, «yigit bo'lmay o'l», deydi. Hu, padarla'nati!..»

Daraxt shoxlarining uchiga besh-oltita qarg'a qo'ndi. Ular qag'illab go'yo aka-ukaning tentakona qilib'idan kulganday edi. Qarg'alar yaxshiroq o'rnashib olish uchun qanotlarini patillatishdi.

Aka-ukalar sergak tortishdi: qarg'alar qo'nganda shox silkinib barg uzilishi mumkin edi. Ammo barg ham ularni ermak qilayotganday titrab turaverdi.

Olamgirning nazarida barg titrayapti.

Jahongir nazarida esa zir qaqshayapti.

Uzilishdan darak yo'q.

Shom cho'kdi. Barg qorayib ko'rindi. Endi uzilsa ham darhol ilg'ash qiyin...

Birdan o'q ovozi yangradi. Jahongir cho'chib akasiga qaradi. Olamgir bargga qarab yana o'q uzdi.

— Yetar, bas! — dedi u xirildoq ovozda, — yig'ishtir o'yiningni. Gapimga ishonmasang, mana, otaqol meni. Mingdan-ming roziman!

— Aka, shartni buzmang!

— Tupurdim shartingga. Sen mishiqining gapiga kirgan men ahmoq, — Olamgir shunday deb, qirqma miltig'ini qo'yniga tiqdi. — Bir-birimizga o'q uzishimiz Xudoga ham yoqmadidi. Bo'lmasa bitta bargning uzilishi shunchalik og'ir ekanmi?

Akasining gapi Jahongirni o'ylantirib qo'ydi: xuddi shu fikr bundan sal ilgari uning xayolini ham yoritib o'tgan edi! Xudo har ikkisining ko'ngliga yaxshilik urug'i sepgan bo'lsa-chi? Shukr, uni bir gunohdan qutqarib qoldi! Jahongir ham miltig'ini tushirib akasiga yaqin bordi. Olamgir uning uzr so'rashini kutgan edi. Ammo Jahongir akasining ko'ziga tikilib turdi-da, «Xudoga shukr qiling», degancha pastga qarab endi. Olamgir ukasining izidan g'azab bilan qarab qoldi. Keyin uning orqasidan yugurib borib, yelkasidan ushlab to'xtatdi. Jahongir o'girildi. Ko'zlar to'qnashdi.

Bir-biriga o'xshash ikki ko'z, ikkovi ham qora, qisiqroq. Ammo nur o'xshamaydi. Birining ko'zi olazarak: joyida tek turmaydi. Biriniki badanni teshib yuborguday o'tkir boqadi.

— Men akangman, ota o'rnidida otangman endi. Bizni qon qaqqhatgan dushmanlarimizdan o'ch olishimiz kerak!

— Mening dushmanim yo'q... Otam... ham!

Jahongir akasining qo'lini yelkasidan olib, yo'liga ketdi. Olamgir zax yerga o'tirib qoldi. Tishlarini g'ijirlatib, qo'ynidagi qirqma miltiqni oldi. Olamgir chidolmay miltig'ini qattiq qisdi. Barmoqlari zirqiraganini, tirnoqlari orasida qon sirqirab ketganini sezmad — u g'azab otashida yonardi. Tuklari tikka-tikka bo'lib ketgan, g'azabini kimga sochishni bilmasdi. Kimga sochishni bilardi, ammo qanday sochish uning uchun qorong'i edi.

U yana bir kecha kutar, o'n kecha, ming kecha kutar, lekin alamini olmasdan tinchimasdi.

Otasining sho'rolarga topshirmoqchi bo'lган boyliklari qayoqqa ketganini bilolmay garang yurgan Olamgir uchun bu mashmasha ortiqcha edi.

U yana bir necha nafasdan so'ng o'rnidan ohista turadi. Nazarida uni ezayotgan dardlar yelkasidan bosib yerga kiritib yuborguday bo'ladi: oyoqlarini bazo'r ko'tarib bosadi. So'ng dardi yengillashadi, qadamlari ildamlashadi. Ammo azobi susaymaydi. Sandalning issig'ida ko'z ilingan xotini uning g'azab o'qlariga nishon bo'ladi. Choy ham zaharday tuyuladi — ichmaydi. Ko'ziga uyqu kelmaydi. Yarim tunda boqqa chiqadi. Tut tomonga boradi. Otasi qulagan yer, boylik yashiringan yer... Ko'ngliga vahm oralaydi. Chirt etgan tovushdan cho'chib, tizzalariga titroq yuguradi. Shu ahvolda tutning tagini kavlaydi. Bel barobar chuqurlikka ko'milgan xumcha ustidagi tugunchani ko'rib avval hayron bo'ladi. Tugunchani ochadiyu voqeа ravshanlashadi. Demak, otasi fikridan qaytib, o'zining ulushini ikkiga bo'lган, birini shu tut tagiga ko'mgan ekan-da! Nimaga buni o'g'llariga bildirib qo'ymad? Nimaga?! Ko'ngli yomon narsani sezib edimi? Bu savollarga faqat ota javob berishi mumkin, ammo qora yerdan sas chiqqanmi hech mahal?!

Bular keyinroq yuz beradi. Hozircha Olamgir zax yerda, g'azabdan yonib o'tiribdi...

Ota qanchayin oqil bo'lmasin, oltin bor joyda odamnin hushi uchishini hisobga olmagan edi. U o'zi uchun ham bir ulush oltin olib qolgach, tinchini yo'qotdi. Birovning haqqini yeb o'rganmagan bu odam Zafarbekning ehsonini hazm qila olmas edi. Zamon notinch bo'limganida buni bolalariga ham ravo ko'rarmidi? Qarigan chog'ida u oltinni nima qiladi? Sho'roga bersa, sho'ro o'qidan joni chiqqan Zafarbekning ruhi qaqqashmaydimi?

«Bolalarimga bo'lib bera qolay...» — Otaning niyati shu edi.

Hozir zax yerda o'tirgan Olamgir bundan ham bexabar, umuman, umr bo'yi xabar topolmaydi...

Chinor ostidagi voqeadan so'ng ikki kun o'tsa-da, Jahongir o'ziga kelolmay ruhi siniq ahvolda yurardi. Ko'z yumsa o'sha uzilgisi kelmay titrayotgan bargni ko'rardi. Barg qo'qqisdan uziladi. Miltiq otiladi. Akasi qulaydi. Yana aza. Yana kafanlangan murda. Yana dod-faryod... O'zi g'aribgina bo'lib, bel bog'lab turibdi. Ko'ngil so'rashadi: «Ollohnning irodasi...» Otasining qotilini hech kim bilmaydi. Akasining xunini hech kim so'ramaydi. U bir umr dardini ichiga yutadi. To Ollohga omonatini topshirguncha tushiga qonga belangan akasi kiraveradi, yoniga chaqiraveradi...

Shukrki, Olloh Jahongirning g'amin yedi. Uni bunday azoblarga tashlab qo'ymad. Ammo yo'lini yoritib bermadi: u akasining oldiga borib tavba qilishni ham, adovatda qolishni ham bilmasdi.

Uchinchi kuni oqshomda o'rik o'tinning cho'g'ida bozillagan sandalda yonboshlab o'tirardi. Hali moychiroqni yoqishmagan. Uylari nimqorong'i. Tashqarida izg'irin turgan. Jahongir xotiniga qaraydi. Xotini unga. Xadicha kelin bo'lib tushganida bahor edi, o'rik gullagan edi. Ana endi o'sha daraxtning yozda qurigan shoxlarini yoqib, cho'g'ida isinib

o'tirishibdi. Xudo xohlasa, qish chiqmay uylari yangi mehmon bilan to'ladi. Rahmatli otasi «Chaqalojni «yangi mehmon» deyishning xosiyati yo'q. Mehmon — ketadigan odam. Chaqaloq mehmon emas, uyning xo'jası. Birovni qutlasang «Uyning yangi xo'jası muborak», degin», deb nasihat qilardi. Akmal so'fi esa «Dunyoga hammamiz mehmonmiz, hammamiz ketamiz, ketishni o'ylamay, noma'qul ishlarga qo'l urganimiz yomon», der edi. Akasining uch farzandi tezketar mehmon toifasidan bo'ldi. Xudo akasining qismatini unga ravo ko'rmasin, ishqilib...

Xadicha aka-uka adovatidan ham, qaynotasining qotilidan ham bexabar edi. Jahongirning to'nglashib qlganini cholning bexos o'limi bilan bog'lardi. Hozir ham nojo'ya gap aytib qo'yib, alamiga alam qo'shmay, deb indamay o'tiribdi. Xudo eriga insof bersa, yuragidagi dardini olsa, balki bu kech bag'rige kirar...

Qamchi dastasi ayvon ustuniga urildi.

— Jalon!

— Mulla akam... otam, — dedi Xadicha.

— Nimaga «otam» deysan? — dedi Jahongir achchiqlanib.

— Aytishdi.

— Dema! — Jahongir shunday deb o'rnidan turdi. Tashqariga chiqdi.

— Shomni machitda o'qiymiz. Otlan, — dedi Olamgir, — yangang shu yerda o'tira turadi.

Jahongir akasiga ajablanib qaradi. Ko'ngli qandaydir noxushlikni sezdi. Shunday bo'lsa ham akasining amriga qulq tutib, ma'qul ishorasini qildi-da, orqasiga o'girildi.

— Miltig'ingni olvol, — dedi Olamgir. Keyin ukasining hayrat bilan yalt etib qaraganini ko'rib, xotirjamlik bilan izoh berdi: — Zamon notinch, ehtiyyot — shart.

Xadicha hamma gapni eshitib turgan edi. Erining qaytib kirishiga sandalning bir tomoniga qo'yilgan paytava bilan etikni oldi-da, qoziqdagi to'nga qo'l yubordi. Erining namoz o'qish uchun machitga chiqishi yangilik emasdi. Ammo namozga miltiq bilan chiqishi uni hayron qoldirgan edi. Jahongir xotinining hayratini anglab turardi, lekin izoh berishga hojat sezmasdi. Xadicha esa so'rash huquqidan mahrum ekanini bilgani uchun og'iz ochmadi.

Tashqaridan Olamgirning ovozi keldi:

— Bo'laqol imillamay.

— Shomga xiyla vaqt bor shekilli? — dedi Xadicha eriga javdirab.

— Ishing bo'lmasin! — Jahongir xotini tutgan to'nni kiyib, qo'sh belbog' bog'ladi. Ko'rpa orasiga qo'l tiqib, qirqma miltig'ini oldi-da, qo'yniga yashirdi. Peshonasini qulqlari aralash qiyiq bilan tang'igach, tashqariga chiqdi. Akasi ayvondan nari ketibdi.

Shohlari yalang'och bo'lib qolgan shaftoli oldida yangasi turibdi. Jahongir akasiga yaqin bordi. Yangasi uy tomon yurdi.

— Otni egarla, — deb buyurdi Olamgir.

Jahongir itoat bilan otxonaga yo'naldi.

Ko'chada ot pishqirdi. Jahongir akasining maqsadini anglamayotgan edi, ammo shom namozi bugun o'qilmasligiga aqli yetib turardi. Otxonaga yaqinlashdi-yu, ichkari kirishga oyog'i tortmadi.

«Xorijga ketmoqchimi? Unda yangamni biznikiga kiritib yuborgani nimasi? Yoinki adovatimiz sababini oydinlashtirib olmoqchimi? Nima bo'lsa peshonamdan ko'rdim!» Jahongir shu qarorga kelib, otni egarlab chiqdi.

Akasi otini yetaklab, guzarga emas, kunchiqar tomonga yurdi. «Ajdarqoyaga, — deb taxmin qildi Jahongir, — xilvat joy. Maqsadi nima? So'raymi?» Ajdarqoyaga shom chog'i hamma ham boravermaydi. Qishloq qabristonining shunday tepasida uchta qoya bor: xuddi ajdahoning uchta boshiga o'xshaydi. Ko'pchilik uni «murdalarni poylab yotgan uch

boshli ajdaho» deydi. Toshdan hech kim hayiqmaydi. Ammo odamlarning nazarida qorong'u cho'kishi bilan toshlarga jon kirib qoladiganday...

Olamgir qabriston etagida otdan tushib to'xtadi. So'ng: «Begunoh ketganlarni o'zing mag'firat et, yo Ollohim, ishlarimizning xayrli oqibatini ber», deb yuziga fotiha tortdi.

Jahongir unga qo'shildi.

Ular qoya tomon yurdilar.

Qoya ortida to'rt otliq kutib turardi. Ellik-oltmis qadam narida yana odamlar qorasi ko'rindi. Jahongir otliqlarni tanidi: akasining ulfatlari — sho'rodan jabr ko'rgan boyvachchalar.

— Zaifalaringiz qani? — deb so'radi ulardan biri.

— Hisob-kitob qilinguncha tayyor bo'lib turishadi, — dedi Olamgir.

Jahongir shundagina akasining maqsadini angladi. «Xorijga ketmoqchi bular!»

— Jahan, ketmasak bo'lmaydi, — dedi Olamgir yalinganday, — uy-joyimizni tortib olib, o'zimizni begona yurtlarga ko'chirishar ekan. Bu yerdan nasibamiz qirqilibdi, Jahan! Ishonmasang, ana, Murodilla akangdan so'ra.

— Akang haq gapni aytyapti, — Murodilla shunday deb katta-katta qadam tashlab ularga yaqinlashdi. — O'zim eshitdim. Erta-indin sazoyi qilib haydashadi hammamizni. Xotinlarimizni... o'rtaga olishar ekan. Aldasam Xudo ursin.

Jahongir gangib qoldi.

— U holda... u holda...

— Uyda aytsam ishonmas eding. Shayxbuvamning o'zlari bizni boshlab ketadilar. Ammo ungacha hisob-kitobli ishlar bor, — Olamgir shunday deb ukasini chetga tortdi. — Yur, omonatingni ol. Ayollarni boshlab kelaylik.

Jahongir bir qarorga kelmay otni yetaklab akasiga ergashdi.

— Nima qilmoqchisanlar? — deb so'radi Murodilla.

— Sizlar ishni pishitgunlaringcha biz qaytamiz. — dedi Olamgir.

— Ha, tulki, qo'rqyapsanmi? Sho'rochilarda qasding yo'qmi?

— Ha, bor. Ammo ular sendan ortarmikin?

— Tulkisan, Olamgir, tulkisan. Bo'pti, boraver. Lekin xotinlarga qo'shilib imillamalaring. Ha, ukingga tayinla. Qishloqda picha tura tursin. Biz uzoqlashganimizdan keyin o't qo'ysin. Bizgaki buyurmagan qishloq yalangoyoqlarga ham buyurmasin. Uqdingmi?

Olamgir qo'lini ko'ksiga qo'ydi-da, ukasining ortidan yurdi.

Qabriston yonidan o'tayotganda Jahongir to'xtadi. Do'mpayib turgan qabrlardan «Bir tovoqdan oshiq icholmaysan... Tuproq — Ollohning munavvar ne'mati, suv — uning yorug' hayoti, havo — buyukligi. Bular jannat mulklaridir. Inson bolasiga bundan ziyoda boylik zarur emas», degan ovoz kelganday tuyldi.

«Jannat mulkini tashlab ketamizmi? — deb o'yladi Jahongir. — Akam xorijga o'taman, deb buncha oshiqib qoldi? Qo'lidagi boylikka ishonyaptimi? Yo...» Jahongir xayoliga kelgan fikrdan seskanib ketdi: «... Daydidara isini olib, Zafarbekning omonatini topgan bo'lisa-chi?»

— Jahan, nimaga to'xtading?

Jahongir akasining ovozini eshitib xayolini to'plagan bo'lisa-da, darrov javob bermadi.

— Nimaga to'xtading? — dedi Olamgir yana.

— Omonatim... uyda emas, — dedi Jahongir tayin bir to'xtamga kelib. — Siz uyga bora turing, men tezda qaytaman.

— Omonating qaerda?

— O'zim bilaman.

Jahongir shunday deb otni yetakladi. Qabristondan uzoqlashgach, otga mindiyu Daydidara sari yeldirdi.

Olamgir esa uyga shoshildi. Xotini Xadichaga bor gapni aytib, yo'l hozirligini ko'rgandir. Bir-ikki ust-bosbu yo'lga oziq-ovqat olishsa bas. Qolganini xorijda xarid qilaverishadi. Oltin bo'lsa bor. «Xudoning la'nati tekkan» bu yerlardan tezroq uzoqlashsa bo'lgani.

Oltin jilosi esini o'g'irlagan bu inson bolasi kindik qoni to'kilgan tuproqni la'natlash tubanlik ekanini tushunib yetmasdi. U o'ljasidan ayrilgan och bo'ri kepatasida edi.

Jahongir chinorga yaqinlashib eng pastki shoxga beixtiyor qaradi. Ko'r oydinda o'sha barg qaltirab turibdi. «Haliyam uzilmabdi-ya! O'zi-ku joni chiqib bo'lgan, nimaga uzilmayapti ekan?» Jahongir yer kavlashga hech nima olmaganini endi bildi. Orqaga qaytgisi kelmadı. Etik qo'njidan pichoqni chiqarib xum ko'milgan yerni tatalay boshladi. Nam tortgan yerni ochish og'ir emasdi.

U hansiraganicha, panjalari bilan tuproq tortadi. Xayolida titrab turgan barg. «Joni bo'lmasa ham uzilmaydi. Biz jonimiz bo'laturib uzilyapmiz. Qayoqqa uchib borib qo'namiz, qaerda chiriyimiz? Bizni kimlar toptarkin? Ha... biz ham bargmiz. Barg daraxtga mehmon. Biz — yorug' dunyoga... Qaerlarga uchib borarkinmiz? Uzilgan barg qayta shoxga ulanmaydi. Biz-chi? Qaytamizmi yo butunlay ketamizmi? E, Xudo, bu nima ko'rgilik edi-ya!»

Panjalari lattaga tegib, seskandi. Apil-tapil tuproqni tatalay ketdi. Barmoqlari xumga tegdiyu «O'zingga shukr» deb qo'ydi. Xum tepasidagi tugunchani olib ajablandi: Boylikni ko'mganda tuguncha yo'q edi. Tugunchani ochib tilla tangalarni ko'rdi. Loy kafti bilan peshonasiga bir urdi. U otasining nima uchun o'q yeganini endi tushunib yetdi.

Qishloq tomondan o'q ovozlari keldi. U tugunchani qayta bog'ladi. Tuprog'ini qoqdi. Chuqurga oyog'ini osiltirganicha nest bo'lib o'tirib qoldi. Tugunni yuziga bosdi. Dimog'iga otasining hidi urilganday bo'ldi.

«... Ikki tovoq osh icholmaysan, bo'kib o'lasan».

«Ikki tovoq... ikki tovoq... Endi bir tovoq osh ham kerak emas. Bularni bizga qoldirdilar. Bizga... «Bir tovoq oshga zor bo'lismas», deganlar. «Chirog'imni yoqib turishsin», deganlar. Qaerda yoqamiz u chiroqni? Qishloqqa o't qo'yar emishman hali. Arvochlarni chirqiratib qochamanmi. Xudoning xohish-irodasi shumi? Otam... Otaginam... Rozimisiz? Tashlab ketishimga rozimisiz?»

Jahongirning yuragida g'imirlagan bir narsa bo'g'ziga ko'tarildi, keyin avval xo'rsiniq bo'lib, so'ng yig'i bo'lib tashqariga chiqdi. U to'lib-to'lib yig'lardi. Otasini yerga qo'yishayotganida ham bunchalik zorlanib yig'lamagan edi. Erkak zoti shunchalik ezilib yig'laydi, deb birov aytса, balki ishonmas. Ammo hozir bu haqda o'ylamas edi. U bolam deb o'tgan ota ruhiga sodiq bo'la olmaganidan kuyib yig'lari. To'lib-to'lib, toshib-toshib, ho'ngrab-ho'ngrab yig'lardi. Yig'i bag'ridagi dardni ko'z yoshlariqa qo'shib chiqarib tashlash barobarinda fikrini ham tiniqlashtira borardi. Birdaniga ko'z oldida yashin chaqnaganday bo'ldi. Uch kundan beri qora tun bag'ridagi yo'li go'yo biroz yorishdi.

«O'ldirishim kerak edi. Bu dunyoda yakka-yolg'iz qolsam ham, bir umr do'zax azobida o'rtansam ham o'ldirishim lozim edi!»

Jahongir tugunchani joyiga qo'yib, chuqurchadan chiqdi. Engashganicha panjalari bilan tuproq torta boshladi.

«Ulguraman hali... ulguraman... Ulguraman... Padarkush... Padarkush... Peshonasidan otaman. Arvochlarni chirqiratib qochyapti...»

Chuqurcha to'lay deganda, tuproq ustiga chiqib tepkiladi. Yana tuproq tortdi. Keyin zax yerga yopishib yotgan barglarni tatalab olib tuproq ustiga sochdi. So'ng qo'lini etagiga artdi-da, otni tushovdan chiqardi. Pichoqni unutibdi. Iziga qaytdi. Pichoqni ola

turib yana bargga qaradi: qaltirab turibdi — uzilmabdi. Hovliqib otga mindi. Achchiq qamchi bosdi. Ot old oyoqlariga tiraganicha tiyg'ana-tiyg'ana pastga endi.

U uyiga shoshilardi. Otishma ovozidan qishloq uyg'ongandir, besaranjomdan, kimdir o'lqidir, xalq g'azabdadir, degan o'y xayoliga kelmasdi. U Xadichani to'xtatishga, Olamgirning peshonasiga o'q qadashga shoshilardi. Hozir guzardan o'tish o'zi uchun xavfli ekanini bilmas edi. Bilmagani uchun ham yaqin ko'zla, otni guzar tomonga burdi. Burdi-yu...

Odamlarning qorasi elas-elash esida.

Kimdir «Ana, o'shalardan birining ukasi», deb baqirdi chog'i. Keyin gardaniga tayoq tushdi. Yo'q, oldin ot munkib yiqildi. So'ng gardaniga urishdi. «Xadicha!» deb baqirdi. Yo'q, «Ota!» deb baqirdi shekilli. Ko'zoldi qorong'ilashdi. «Arvoh urdi», deb pichirladi.

## 1. «QOTILMAN», DEGAN ODAM

*Bu bobda mayor Sanjar Solihovning qotilga ishonmagani haqida gap boradi.*

Tog'larga oshiqmay kelgan bahor haqini qo'ymadni — kech ketdi. Kech kelgan yoz shoshqaloq kuzning zahar nafasiga dosh berolmay chekina qoldi. Daraxt barglari shoshqich ravishda za'faron tus olib, mayllarini tentak shamolga bera qoldilar. Bo'lar ish bo'ldi: Daydidaraning asl xo'jalari — izg'irin, sovuq hukm o'tkaza boshladni.

Mayor Solihov Daydidaraning qilibidan bexabar, shahardagi yupun kiyimi bilan chiqavergan edi. Murda topilgan joyni sinchiklab ko'zdan kechirib, rayon jinoyatga doir qidiruv bo'limi boshlig'ining ma'lumotini eshitguncha sovqotib, tishlari takillab qoldi.

- Demak, ashyoviy dalil yo'qmi? — dedi Solihov ma'lumotni tinglab bo'lgach.
- Dalil yo'q. Faqat ikkita iz qolgan. Biri eski etik izi. Qirq uchinchi razmer. Ikkinchisi botinka izi. Qirqinchi razmer.
- Etikning egasi Muhammadrizaevmi?
- Ha.
- Aybini darrov bo'yniga olgani sizga ajablanarli tuyulmayaptimi?
- Yo'q. Yoshi bir yerga borib qolgan, bo'yin tov lashning foydasizligini fahmlagan, — dedi Jabborov.
- «Yoshi bir yerga borib qolgan» dedingizmi? — mayor qunishib bosh chayqadi. — Ellik olti yoshda taqdirga tan beradi, deb o'ylaysizmi?

Kapitan Jabborov yelka qisdi. Mayorning shu oddiy haqiqatni bilmasligidan ajablandi.

— Retsidivist<sup>1</sup> uchun bu juda ko'p. Og'ir jinoyat u yoqda tursin, birovga qarab qattiqroq aksirib yuborsa ham qamalishini yaxshi biladi. Tergovchini qiynamasa ishi oson ko'chishi ham unga ma'lum.

— Yaxshi... — Solihov labini qimtib kapitanga tikilib qoldi. — Ishni sudga oshiraveraylikmi?

Kapitan markazdan kelgan bu odamning gapi chinmi yo piching ekanini fahmlay olmay gangidi. Keyin noiloj yelka qisdi:

— O'zingiz bilasiz...

Bu javobdan Solihov g'ijindi. Ko'plarning toshyurakligi oqibatida qancha odam badnom bo'ldi, qanchasi jon berdi. U damda qatag'on edi, o'ylashga, mulohaza

<sup>1</sup> 1 Ўайта-іайта іамалган жиноятчи.

yuritishga fursat yetmasdi. Endi-chi? Bir odamni ushlashibdi, u «Men qotilman», debdi. Bular esa ishonishibdi...

— Siz... urushda bo'lganmisiz? — deb so'radi Solihov dag'al ohangda.

— Yo'q... men urush ortida xizmat qilganman. Bir necha marta jangga boraman, deb...

— Bu gapning keragi yo'q. Men boshqa maqsadda so'radim. Endigina o'n sakkizga to'lib birinchi jangga kirgan yigitlar o'limdan qo'rqiшardi. Bu tushunarli. Lekin «yoshi bir yerga borib qolganlar» ham o'zlarini dushman o'qidan pana qilishardi. Barvaqt o'lim hech kimga yoqmaydi, birodar, hatto uchiga chiqqan jinoyatchi ham jondan to'yaydi. Umid bilan yashaydi. Lekin qanday umid bilan yashaydi — biz shuni bilishimiz kerak. Qani, ketdik bu yerdan. Bu turishda iligim to'g'nab qoladi.

Kapitan uning maqsadiga tushunmay qoldi. Bu deparaga u boshqa viloyatdan kelgan, Solihov bilan shunchaki tanishgan, ish yuzasidan esa birinchi marta yuzma-yuz bo'layotgan edi. Hozir kichikroq lavozimda bo'lsa-da, u o'ziga yuqoriroq baho berardi. Harholda bu sohada ishlayotganiga yigirma yildan oshdi. Jamiyatni necha-necha «xalq dushmani»dan xalos etdi. Lavozimi ham, unvoni ham shu odamnikidan balandroq edi. Qandaydir «mahmadanalar» chiqib «hibsda yotganlar xalq dushmanlari emas», deyishdi, ularning gaplarini boshqa kaltabinlar yoqlashdi. Ishlar qaytadan qo'zg'aldi... oqibatda mana shu ovloqqa kelib qoldi. Kelishi bilan qotillikka ro'baro' bo'ldi. O'ttiz ikki yildan beri bu qishloqda odam o'ldirilmagan edi. Shu kapitan boyaqishni kutib turishganmi, oltmisni qoralagan bir odamni kuppa-kunduz kuni otib qo'yishibdi. Qotil aybini bo'yniga olib o'tiribdi. Markazdan kelgan bu «ulug» nima deydi o'zi? Kapitan bir kun ichida qotilni ushlab, tayyor oshni suzib bersa-yu, bu mayor oliftalik qilsa...

Kapitan shularni o'ylab g'ijindi. U o'zini jabrlangan, xo'rangan, vaqtincha chekingan, deb his qilardi. Hali yana zamoni kelishiga, olg'a intilishiga ishonchi katta edi. Mayorga aytar gaplarini o'sha yaxshi kunlarga asrab, qiyalikdan sirg'ana-sirg'ana uning izidan pastga tusha boshladi.

Sirg'anchiq qiyalikda tez yurganidanmi Solihovning badani qizib, sovuq ta'sir etmayotganday tuyuldi. Ammo tepasiga brizent tortilgan «Gazik» eshiklarining tir-qishidan suqilib kirayotgan sovuq shamol baribir ustun kelib, rayon markaziga yetguncha bo'lari bo'ldi.

Solihov bir piyola choy ichib olgach, mahbusni olib kirishni buyurdi. Dam o'tmay soqchi yigit baland bo'yli, yelkalari keng, sochi ustarada qirilgan, boshyalang kishini boshlab kirdi. Solihov bu odamning oyog'idagi biroz uringan xrom etikka, egnidagi qora shim, ko'k ko'ylakka tezgina razm solib oldi. Uni mahbusning kiyimlari emas, peshonasidagi yozuv hayratga soldi. Qamoq ko'rgan odamlar ko'kragiga, bilagiga igna bilan teshib suratlar soldirar, yozuvlar yozdirar edilar. Ammo peshonasiga yozdirgan odamni Solihov endi ko'rib turishi.

Mahbus Solihovning o'ziga qadalgan nigohini, ajablanayotganini sezdi. Liqillab qolgan o'rindiqqa o'tira turib ming'irlagan ovozda dedi:

— Peshonamga «Alqasosu minal Haq», deb yozilgan. O'qiymen deb o'zingizni qiynamang. Arabcha harflarni bilmaydigan odamga yozdirgan edim. Yaxshi yozolmagan.

— Kimdan qasos olmoqchi edingiz? — deb so'radi Solihov.

— Bu eski gap, nachaynik, eskini kavlamang.

— Harholda qiziqib qo'yishim kerak: qasos olganmisiz?

Mahbus indamadi. Picha o'yga berilib qoldi. «Qasos oldimmi? — deb o'zidan o'zi so'radi. — Yillab kutgan fursatimni qo'ldan chiqarmadimmi? Nima uchun yashovdim, shu fursat uchun emasmi? Endi-chi...»

Mahbusning bu fikrlarga berilishi bejiz emasdi. U Daydidaradagi qotillikni eshitganidan beri shu savollarga bandi. Savol beradi-yu, javob topa olmaydi. Miyasini, yuragini nimadir kemirayotganga o'xshaydi, ba'zan esa alamga chiday olmay ingrab yuboradi.

Solihov uning indamay qolganini boshqa narsaga yo'ysi. «O'tmisht xotiralar qiynayapti shekilli», deb o'ylab, unga biroz tin berishni lozim topdi. Ammo mahbus bu imkoniyatdan foydalanmadni, unga tik qaradi:

— So'raydiganingizni so'rang, nachaynik?

Solihov stol ustidagi qog'ozlarni tartibga solgan bo'ldi. Keyin peroni siyohdonga botirib yoza boshladi.

— Men Sanjar Solihovman. Oblast jinoyat qidiruv bo'limidanman. Daydidaradagi qotillik izini ochish bilan shug'ullanaman. Qarshi emasmisiz?

— Menga baribir, siz shug'ullanasizmi, boshqasimi — farqi yo'q.

— Ismingiz?

— Jahongir Muhammadrizo o'g'li. Qirqbel qishlog'ida o'ruscha hisobda bir ming to'qqiz yuz birinchi yilda tug'ilganman. Volidai mukarroram o'n oltinchi yilda, jannatmakon otam yigirma ikkinchi yilda olamdan o'tganlar. Uylanmaganman. Qarindosh-urug'larmi qolmagan. O'zim shaharda turaman. Maktabda qorovulchilik qilaman.

«Maktab ko'rgan jinoyatchi ekanini yashirmaydi ham, — deb o'yladi Solihov uning aytganlarini yozib olar ekan, — beradigan savollarimga birato'la javob qaytara qoldi».

— 1957 yil beshinchi oktyabrda qaerda edingiz? — dedi Solihov Jahongirga sinovchan tikilib.

Jahongir javobni o'ylab ham o'tirmadi:

— Daydidarada.

— Nima qildingiz u yerda?

— Bolaligim o'tgan yerlarni ko'rgim kelib chiquvdim.

— Marhumni tanirmidingiz?

Bu safar Jahongir o'ylandi.

— Yo'q, — dedi u ezgin bir ohangda.

Solihov undagi o'zgarishni sezdi. Toza qog'ozga «Marhumni rostdan tanimaydimi?» deb yozib qo'ydi.

— Tanimasangiz... nimaga o'ldirdingiz?

— Shayton yo'ldan urdi. O'q xato ketdi. Arxarni mo'ljalga oluvdim.

— Ov miltig'ida otuvdingizmi?

— Ha.

— O'q marhumning qaeriga tegdi?

— Bilmayman... qo'rqib qochib ketdim.

Solihov Jahongirning yolg'on gapira boshlaganini bildi. Shu sababli nafas rostlashga ham qo'ymay savollarni yog'dirib tashladi:

— Taxminan ham bilmaysizmi? U sizga orqa qilib turganmidi yo yuzma-yuzmi?

— Yuzma-yuz edi shekilli...

— Miltig'ingiz qani?

— Daryoga tashlab yubordim...

Solihov yana savol beraman, deganda Jahongir qo'lini ko'tardi:

— Nachaynik, boshqa savol bermang, — dedi u qat'iy ohangda, — aybimga iqrorman. Uni men o'ldirdim. Endi meni otib tashlayvering.

Solihov unga tikilib qaradi-da, miyig'ida kului.

— Sizday ko'pni ko'rgan odamga go'llik yarashmas ekan. Mening otadigan odam emasligimni bilasiz. Dunyoda sud degan narsalar borligi sizga ma'lum. Hatto... yolg'on gapirayotganingizni ham bilasiz. Joningizdan to'yan bo'lsangiz umringizga bizning

qo'limiz bilan nuqta qo'y mang. Tergovni chalg'itaman, deb ham o'ylamang. Bizga sizning joningiz kerak emas. Siz qotilni yashiryapsiz. Yoningizdagi kim edi, ayting.

Jahongir uning o'tkir nigohiga bas kela olmadi. Boshini egdi.

— Yonimda hech kim yo'q edi. O'zim o'lídirdim, — dedi past ovozda.

Solihov «ana, ko'rdingizmi», deganday kapitanga qarab oldi. Kapitan bu nigohga yashiringan ma'noni uqmaganday hissiz turaverdi. Solihov asabiylashib stolni bir-ikki chertdi. Boshi egik mahbusga tikilib, undan yana sas chiqishini kutdi.

— Men o'limga shoshayotganim yo'q. Umrning vaqtı-soati Ollohnинг qo'lida. Kerak bo'lsa jonimni sizning qo'lingiz bilan oladi, xohlasa boshqaning qo'li bilan. Men Ollohim yuborgan barcha jabru-jafolarni ko'rib bo'ldim. Dilimdan chiqarib bir oh ursam olam-jahon barbod bo'ladi. Olloh iyomonimni bersa, bir mo'minning qo'li bilan jonimni olsa, bir mo'min pokiza tanamni manzilimga qo'ysa, bas. Orqamdan birov faryod urmaydi, birov chiroq yoqib yod etmaydi. Shunaqa... nachaynik... — Jahongir boshini ko'tardi. Solihov uning ko'zlarida nam ko'rdi. — Meni ham qiynamang, o'zingizni ham. Suddan qo'rwmang, gapimdan tonmayman.

Solihov unga boshqa savol bermadi. Jahongirning gaplari yozilgan qog'ozni stol chetiga surib, ruchkani uzatdi:

— O'qib chiqing. Gaplaringiz to'g'ri bo'lsa, imzo cheking.

Jahongir o'qib ham o'tirmay imzo chekib berdi-da, o'rnidan turib qo'lini orqasiga qildi. «Bunchalar mo'min bu odam», deb o'yladi Solihov uning qilig'idan ajablanib.

Jahongirni rayon militsiyasining yarim yerto'la avaxtasiga qaytarishdi. U o'n kishiga mo'ljallangan, ikki qavatli taxta so'rilar qo'yilgan bu nimqorong'i zax avaxtada tunni yolg'iz o'tkazgan edi. Bu avaxtada yigirma ikkinchi yilda ham yotgan. U paytda yerga somon to'shalgan ekan, tuni bilan burgaga yem bo'lib chiqqan edi. Dastlab kelganida avaxta gavjum edi. Kecha kirib, ko'zlariga ishonmadi. Keyin «Bu yurtda jinoyatchi degani qolmabdi-da, mendan keyin avaxtani buzib tashlashsa kerak», degan to'xtamga kelib, derazani eslatuvchi tuyruk yonidan joy oldi.

Aniq yodida: so'roqqa chiqayotganida soqchi eshikni qulflamay ochiq qoldirgan edi. Qaytgach, eshikka osig'liq qulfni ko'rib ajablandi. Ichkari kirib oriq bir yigitga ko'zi tushgach, «Avaxtaning ishi hali bor ekan», deb qo'ydi o'zicha. Yigit yoshi ulug' bu odamni ko'rib, salom berdi.

— Ha, inim, u yerlarga qaysi shamol uchirdi? — deb so'radi Jahongir uning salomiga alik olib.

— He, bunaqa shamolning enasini... — yigit beixtiyor so'kib yubordi-yu, bu qiligidan o'zi izza chekib, gap ohangini sal yumshatdi. — Xotinimni urgan edim, bu yerga tiqib qo'yishdi padarla'natilar.

— Chakki bo'libdi, — dedi Jahongir joyiga borib o'tirib.

Yigit bu gapni «Qamashgani chakki bo'libdi», degan ma'noda uqib dadillandi.

— Er bo'lgandan keyin erlikda turish kerak. Xotin xotinligini qilsin. Erga gap qaytarmasin, chizgan chizig'idan chiqmasin. Xotin degan erga chaqchayib tursa...

— Xotin kishi arning hurmatini joyiga qo'yishi kerak, gapingiz to'g'ri.

— Chaqchayib turgandan keyin kaltak yeydi-da.

— Yo'q, inim, nomard odam xotinini uradi.

— Ie, qiziq ekansiz-ku?..

— Rasululloh ayollarni xo'rashni man etganlar. Har bir mo'min rasulullohning hadislariga amal qilishi shart.

Yigit qarasaki, bu taqirbosh odam unga el bo'ladigan emas, shu bois gapni davom ettirmadi. Ammo uzoq jim ham o'tira olmadi.

— Patinkamning ipini ham yechib olishdi. Ipni nima qilishadi?

- O'zini osib qo'ymasin, deb olishadi.
- Kim o'zini osadi, menmi? Jinni bo'pmanmi?
- Ha, endi bularning taomili shunaqa-da.
- Siznikini ham olishdimi? Ha... siz etikda ekansiz. O'zi... sizni nimaga qamashdi?
- E, inim, mening ishim chatoq. Men odam o'liddim.
- Odam o'liddim? Kimni? Haligi... Daydidaradagi odamnimi? Nimaga o'liddingiz?
- Jahongir bu yigitning fe'li torroq ekanini bilib, hazil bilan javob berdi:
- Xotinini urgan ekan.

Hazil gap bilan yigitdagi hadikni quvmoqchi bo'lgan Jahongir uni battar sarosimaga solib qo'ydi. Yigit unga baqrayib qarab qoldi. Jahongirning peshonasidagi yozuvni ko'rdiriyu badbashara odamxo'rga duch kelganday hushini yo'qotdi. Sapchib o'rnidan turib orqasiga tisarildi. Uni tinchlantirish uchun Jahongir ham o'rnidan qo'zg'oldi. Yigit buni boshqacha tushunib, orqasi bilan devorga urilguncha tisarilaverdi. So'ng keskin o'girilib, eshikni do'mbira qila ketdi.

- Nachaynikni chaqir, chaqir deyman! — deb jon holatda baqirdi.

Jahongirning «Hoy, inim, hazillashdim», degani qulog'iga ham kirmadi. Yigitning jazavasi avjga chiqqanda eshik ochildi.

- Nimaga g'alva qilyapsan? — dedi soqchi o'dag'aylab.

- Meni boshqa xonaga olib chiqinglar. Talab qilaman!

— Bu enangni uyimi, ko'nglingga qaraydigan. G'ingshimay o'tir, bo'lmasa adabingni yeysan.

- Men...

— O'chir ovozingni! Bor joyingga, — soqchi uni ko'kragidan itardi-da, Jahongirga qaradi: — Sen esa men bilan yur.

Jahongir «Yana so'roqqadir», deb o'yladi. Har yarim soatda chaqirib gangitadigan tergovchilarni ham ko'rgan. Tuni bilan tik turgan holda savollarga javob berardi. So'roqdan qaytib endi yotganida «Rizaev, tur o'rningdan», deb kirib kelishardi. Kunduzi uqlashga ruxsat yo'q, soqchi dam-badam eshik tirkishidan qaraydi. Yotish u yoqda tursin karavotga o'tirguday bo'lsa, «Tur o'rningdan!» deb baqiradi. Jahongir aybi nimaligini bilmaydi. Tergovchiga ma'qul javoblarni beraveradi.

Hozirgi chaqiruv qirq yettinchi yildagi o'sha so'roqlarni yodiga soldi. Mayor bilan bo'ladicidan savol-javobga shaylanib xotirjamlik bilan yurdi. Biroq soqchi idoraga emas, hovlida turgan usti yopiq, burni pachoq mashina sari boshladi. «Shaharga olib ketisharkan, — deb o'yladi Jahongir, — demak ish cho'ziladi. Rayonda qolganda tezroq bitardi. Bu Sanjar deganlari xanjar bo'lib dilimni tilim-tilim qilib poralaydi shekilli...»

Jahongir «Bu yurtimga endi qaytib kelmasam kerak», deb o'ylab bir zum to'xtadi. Atrofga suqlanib boqdi. Tog' bag'ridagi uning jannat qishlog'i bu yerdan ko'rinxaydi. Lekin u hozir atrofga boqib, qishlog'ini ko'rganday bo'ldi. Dimog'iga jiyda guli hidi urilganday tuyuldi. Bu atrofda jiyda yo'q, qolaversa, hozir kuz. Bu hid qaydan keldi, o'zining ham aqli lol.

— Qochishni o'ylama, qochsang — otilasan, — soqchining keskin gapi xayolini to'zitdi. Asta-sekin bosib, mashina tomon yurdi. «He, esi yo'q bola, qayoqqa qochaman? O'limdan qochib bo'larkanmi? O'zim o'lim istab yuribman-ku... Yo rostdanam qochish qilib bersammi? Shartta otadi, tinchiyman, qo'yaman?...» Shu fikr miyasiga ravshanlik berib, yana to'xtadi. Bir qarorga kelmasidan soqchi miltig'inining qo'ndog'i bilan turtdi. «Qayoqqa qochaman? Otaman, deb po'pisa qilyapti. Oyoq-qo'lim yengil, chaqqon bo'lsam ekan, qochsam. Endi Ollohim tayin qilgan kunni kutishdan o'zga choram yo'q».

Quyosh nurlari o'limtik tuyulsa ham qamoqxona mashinasining temir badaniga ta'sir o'tkazgan edi. Panjarali darchasi ham bo'limgan bu mashina ichi qorong'i hamda juda

dim edi. Birpasda Jahongirning nafasi qaytdi. Xayriyatki, mashina uzoq turmay, yurdi. Sovuq shamol temir badanning yoriqlaridan o'ziga yo'l topib ichkari kirdi. Jahongirning nazarida bu toza havo, yurt havosi u bilan xayrlashish uchun biqinib kirganday edi. U chuqur-chuqur nafas oldi. Tomog'iga nimadir tiqildi. Yig'lagisi keldi. Avval olib ketishgandan bu holga tushmagan edi. Qaytib kelishiga, ota yurt tuprog'ini ko'ziga surtishiga, suvidan to'yib-to'yib ichishiga, havosidan to'yib-to'yib nafas olishiga ishonardi. Endi... bunday ishonch yo'q unda. Endi... qaytmas bo'lib ketyapti. Endi... onasi, otasi ham yolg'iz qoldi. Endi... ularning arvochlari qishloq ko'chalarida panoh izlab chirqirab yuradi. Kecha qabristonga borib ziyorat qilgani durust bo'ldi. Bu dunyoda so'nggi marta bordi. Endi u dunyoda diydor nasib etadi. Hammalari jamuljam bo'lishadi. Onasi, otasi... nihoyat, akasi... Aybdorni Ollohning o'zi jazolaydi...

Mashina notejis yo'lida chayqalib boradi. Omonat o'tirgan Jahongirni ba'zan itqitib yuboradi. Jahongirga yo'l azobi ta'sir etmaydi. U ruhi hukmiga bandi bo'lib o'tiribdi. «Yo Olloh, bilib-bilmay, tushunib-tushunmay, shayton yo'liga kirib, to'g'ri yo'ldan ozib, iymondan, insofdan, vijdondan chekinib qilgan gunohlarimni o'zing kechir. U dunyoda ona-otam bilan, akam bilan uchrashadigan onlarim yaqin qoldi. Yo Olloh, ularga yorug' yuz bilan ro'baro' qil. Akam to'g'ri yo'ldan ozgan edi, o'zing mag'firat qil uni. Bu dunyoda gunohlariga tavba qilmagan bo'lsa, endi tavba qiladi, tavbalarini dargohingda qabul et. U ko'rмаган azoblarni men ko'rdim. Uning gunohlarini ham men so'rab olaman. Shu kunga qadar akamga aytadigan gaplarimni dilimda saqladim. O'zingga shukr, gapim ichimda qolib ketmadi. Akamni men otishim kerak edi. Umr bo'yi shundan qo'rqib yashadim. Akamni o'ldirish azobini qanday ko'taraman, deb edim, shukr, bu azobdan ham qutqarding. Akamning jonini birovning qo'li bilan olding. Ammo uning gunohini men bo'ynimga olaman. U dunyoga shu gunoh bilan boraman. Yo Olloh, gunohimni o'zing kechir. Ammo men jannatdan joy so'ramayman. Shu ta'mada senga sig'inib yurgan bo'lsam, albatta do'zaxdan joy ber menga. Bu dunyoda ko'rgan rohatlarim evaziga do'zax azobini tortay. Men rasuling Muhammad sallallohu alayhi va sallamga aytgan so'zlaringga amal qilib keldim. Endi iymonimni bersang bas...»

Temir badanli mashina «hey, esingni yig'» deganday Jahongirni silkib-silkib qo'yadi. Jahongirning ruhga batamom bandi bo'lishiga yo'l bermaydi.

## 2. KALAVANING BIR UCHI

*Bu bobda pard-a-devor ortidagi ayolning o'ylari bilan ham tanishasiz.*

Mayor Sanjar Solihov mahbusni shahar turmasiga ko'chirish haqida buyruq bergach, Jabborov bilan xayrlashdi. Kapitanning ko'nglida noxush his uyg'ondi. Daydidaradagi qotillikka oid ishning murakkabligini endi tushundi. Solihov ishni yengil ko'rib chiqadiganga o'xshamaydi. Demak, ish nihoyasiga yetguncha rayon jinoyat qidiruv bo'limida ham tinchlik bo'lmaydi.

Kapitan Jabborov Solihovga uncha yoqmadi. Solihov uning o'tmishini eshitgan edi. Ammo o'sha davr uni shu ishlarga majbur qilgandir, davr talabiga qarayman, deb begunoh odamlar umriga zomin bo'lgandir, deb o'ylagan edi. Bugungi qisqa uchrashuvdan bildiki, kapitan o'tmishdan xulosa chiqarmagan yoki uning tabiat, bo'lgan-turgani shu: ishni yengil-elpi ko'rish. Solihov u bilan xayrlashgach «ishni olib boruvchi guruhga qo'shib bo'lmaydi uni», degan qarorga keldi.

«Gazik»ning g'ildiraklari go'yo har bir tosh, har bir chuqurlikni paypaslab topayotganday edi — mashina tinmay chayqalardi. Solihov peshonasiga «alqasosu minal

haq», deb yozilgan odamni ko'z oldiga keltirib o'yldardi. «Uch marta qamalgan. Yana eng qaltis davrlar — 1922, 1938, 1947-yillarda. Ko'p azob chekkan. Qarashlarida ma'no bor. Ahmoq odamga o'xshamaydi. Qotillikni nima uchun bo'yniga olyapti? Marhum orqa tomondan, ov miltig'ida emas, to'pponchada otilgan, o'q miyasini o'pirib ketgan. Muhammadrizaev uni otilgandan so'ng ko'rman, ko'rgan bo'lsa avval ko'rgandir. U bilan gaplashgan. Nimani gaplashgan? Keyin ketgan. Qaerga ketgan? U ketgach, qotil kelgan. Kim u qotil, nimaga kelgan? Keksa odamdan nima talab qilgan? Sharipov Daydidarada nima qilib yurgan edi? Yigirma ikkinchi yilda xorija o'tib ketgan bu odam ikki yil avval Qashqardan qaytgan. Bu ovloq joyda nima bor ekan unga?»

Mashina tinmay chayqaladi. Go'yo Solihovni chulg'ab borayotgan savollar bulutini to'zitmoqchi bo'ladi. Solihov bunday yo'l, bunday chayqalishlarga ko'nikib ketgan. Urushdan avval qaysi bir hamrohi noliganda yarim hazil, yarim chin bilan «Zamon chayqalib turibdi, mashinaning chayqatishi nima ekan», degan edi. Solihov zamonlarning eng qaltis chayqalishlaridan o'tib keldi. Gunohi nima ekanini bilmay bosh egib sukut saqlab o'tirgan donolarni, mung to'la ko'zlarni ko'rdi. Ba'zan shu ko'zlar uni ta'qib qiladi. Ana shunda ko'rinas panjalar yuragini siquvga oladi. U ko'ngliga faqat bir narsadan panoh topadi: begunohlarni ko'rdi, ammo ularni qirib tashlashda ishtirok etmadi. Baxtiga (ha, buning beba ho baxt ekanini endi bilyapti) siyosiy mahbuslar bilan shug'ullanmadni. U qotillar, o'g'rilarini tutish bilan mashg'ul edi. Hozir ko'ngliga biroz bo'lsa-da taskin beradigan ham shu jamiyatga zarur ish bilan shug'ullangani.

Solihov idoraga qaytguncha birinchi galda qiladigan ishlarini belgilab olgan edi. Xonasiga bora turib Ramazonovni chaqirdi. Kapitan Ramziddin Ramazonov urush ko'rgan, oq-qorani yaxshi ajrata oladigan inspektor bo'lgani uchun ham Solihov uni qadrlardi. Ko'p ishlarda uning yordamiga suyanardi.

Mayor Daydidaradagi qotillik, rayon jinoyat qidiruv bo'limidagi o'rtoqlarning xulosasi bilan tanishtirib, Ramazonovdan javob kutdi. Ammo Ramazonov javobga shoshilmay «Kazbek»ni tutatib o'tirardi. Tashqaridan qaragan kishi bu odam muhim gaplarni eshitdi, endi jiddiy bir fikr aytishi kerak, deb o'ylamas, oyog'ini chalishtirib o'tirgan kapitan shunchaki bekorchilikdan papiro tutatyapti, degan xayolga borishi mumkin edi. Solihov u bilan dastlab uchrashganida bu qilig'idan ranjigan ham. «Bu bemalolxo'ja o'ylab o'yiga yetguncha jinoyatchi ishini bitirib bo'ladi». Keyin-keyin ko'nikib ketdi. Hatto chuqur mulohaza yuritadigan bu odamni yaxshi ko'rib qoldi.

Ramazonov papirotni oxirigacha chekib, qoldig'ini kuldonga ezib qo'ydi.

— Tushunarli, — dedi boshlig'iga qarab, — arxivni titib ko'raman.

Ramazonov o'zi sezmagan holda yana cho'ntagidan «Kazbek» qutisini chiqarib bir dona oldi-da, papirotning tamakili tomonini asta ezib, ikkinchi uchi bilan qutiga uring-uring qo'ydi. Bir nafas o'ylandi. Papirotni labiga qistirdi. Biroq tutatmadni. So'ng tayin bir qarorga kelib o'rnidan turdi.

Solihov idorada uzoq ushlanmadni. Tashqariga chiqib eski shahar tomon yo'l oldi. Oqshom qo'na boshlagan palla, ko'cha tirband. Odamlar uch vagonli tramvayning zinalarigacha osilib olishgan. Do'mboq pattachi tramvayning silkinishiga e'tibor bermay odamlar orasida suqilib, turtilib o'z ishini qiladi. Yigitlar atayin xiralik qilib uni o'tkazgani qo'yishmaydi. Pattachi buni biladi, biroq o'zini bilmaganga solib yigitlarning biqiniga tirsagini tirab o'tadi. Vagon o'rtasida turgan Solihov Xadraga yetganda pattachining orqasidan ergashib eshik tomon siljidi. Chorsuda bir amallab tushib qolib, poyabzallar obdan surtilgan shiminining pochasini qoqdi. Bozor tomon yurdi. Uzun ko'chaning ikki tomonidagi do'konlar yopilgan. Ko'chada odam siyrak. Faqat restoranlar oldi gavjumroq. Ichkarida jazaval kuy eshitiladi. Bahoru yoz mehnat qilib yetishtirganini sotib tugatgan, cho'ntagi pul ko'rgan dehqon yigitlar bolalari rizqining bir ulushini shu yerga sochib

ketishadi. Go'Iroqlari ba'zan ship-shiydam bo'lib ham chiqishadi. Ko'kraklari tirsillab turgan xonimlar, furajkasini bostirib kiyib olgan yigitlar bu atrofda bekor izg'ib yurishibdimi? Ular hozir hech narsa bilan ishi yo'qday, befarq turishibdi. Atrofga qorong'ulik cho'kib, ichkarida orkestr avjga chiqqanda ularning «ovi» boshlanadi.

Semizligidan yorilib ketay deyayotgan militsioner Solihovni ko'rib salom berdi. Solihov alik oldi-yu, boshqa gap aytmay o'tib ketdi. Bozorga aylanishadigan kissavuru chayqovchidan «soliq» undirib turadigan bu odamning poydevori mustahkam ekanini biladi. Buni yo'qotib o'rniga halolroq militsioner qo'yishni talab qilganida boshqarmadagilar «Unga tegmang», deb gapni kalta qilishgan edi. Solihov bozorga borib taqaladigan jinoyatlarni ochishda bu odam bilan ikki-uch suhbat qurban, biroq tayinli bir gap ololmagan. Hozir uni ko'rib g'ijinib qo'ydi-yu, to'xtamay o'tib ketaverdi. Militsioner esa, bundan o'zicha xulosa chiqarib, «Atrofda odamlari bormikin», deb alangladi. Keyin shoshilib restoranga kirdi.

Solihov bozorni kesib o'tib, qadimda masjid, bo'lган, madaniy inqilobdan so'ng maktab ixtiyoriga berilgan g'ishtin imoratni, so'ng gavjum choyxonani ortda qoldirib, boloxonali uy qarshisida to'xtadi. Bu yerlarni besh qo'liday yaxshi bilganidan marhum Siddiq Sharipov yashagan uyni qiyalmay topdi.

Darvozaning bir qavati ochiq, yo'lak kimsasiz, hovlida esa odamlar ko'rindari. Shom tushib hassakashlar endigina ichkari kirganlar. Solihov darvozani taqillatishi hamon to'n kiyib, belbog'ini qo'lida ushlab olgan o'ttiz yoshlari chamasidagi yigit ko'rindi. Hozirgina yechgan belbog'ini qayta o'rabi, mehmonga peshvoz chiqdi. Yaqin kelgach, salom berib, qo'shqo'llab so'rashdi-da, ichkari taklif qildi.

Hovlidagi supada uch erkak bor edi. Yuzini ro'mol uchi bilan to'sib supa chetida o'tirib gaplashayotgan ayol Solihovga ko'zi tushishi bilan shoshilib o'rnidan turdi-da, pardadevor ortiga o'tdi.

Solihov supadagilar bilan salomlashib, qariyalardan biri tilovat qilgach, ikkinchisi unga guldor, yupqa xitoyi piyolada choy uzatdi.

Mezbonlar Solihovni ko'ngil so'rabi, ta'ziya bildirgani kelgan odam deb o'ylashgan, lekin, tanimay turishgan edi. Solihov ma'noli qarashlardan buni darrov sezdi. Oradagi noqulay vaziyatni ko'tarish uchun o'zini tanitdi.

— Marhumning yaqinlaridan so'raydigan gaplarim bor edi. Ishimiz shunaqa, ko'ngilga olmaysizlar. Vaqt o'tishini kutib tura olmaymiz.

— Qani, inim, dasturxonga marhamat qiling. Avval taom, so'ngra kalom, deganlar. So'ng, mana, Yo'lchivoy bilan bafurja suhbat quraverasiz. Yo'lchivoy — rahmatli Siddiqbekning pushti kamari, — dedi choy uzatgan qariya.

— Inna lillahi va innaa ilayhi roji'un.<sup>2</sup> Ollohnning marhamati shu-da, musofirlikda olmay, o'z yurtida oldi jonini. Shunisiga ham shukr qilish kerak. «Yurtimga kelvoldim, bu yoqdagi hayotim endi foydaga qoldi», derdi rahmatli.

— Sizlar qarindoshmisizlar? — deb so'radi Solihov, choydan ho'plab.

— Aslida-ku... begonamiz, ammo musofirlikda qarindoshdan afzal bo'lib ketganmiz. Qashqarda nasibamizni terib yeganmiz.

— Sharipov... Siddiqbek aka qachon ketganlar bu yerlardan?

— Lenin o'lmasidan ancha avval, derdi rahmatli.

— Sababini bilmassizlar?

— E, inim, sababini o'zingiz bilasiz-ku? Otamizda bitta sigir bo'lsa ham «boy» deb, «unsur» deb dag'dag'a qilishgan. Rahmatli Siddiqbek ham boshqalarga qo'shilib ketvorganlar. Mana, Yo'lchivoy o'shanda yo'lda tug'ilgan ekan.

<sup>2</sup> Albatta, biz Xudoning bandasimiz va unga qaytuvchimiz.

Devor-parda ortida sharpa sezilib, Yo'Ichivoy o'rnidan turdi-da, uzatilgan kosalarni olib iziga qaytdi.

Solihovning qorni och edi, tortinib o'tirmadi. Qariyalar ham guldor qizil cho'plarni barmoqlariga qistirib olgancha lag'monni ishtaha bilan yeya boshlashdi.

— Kimnikidan kelibdi, juda boplapti-da, a? — dedi qariyalardan biri.

— Murodillanikidandir? — dedi ikkinchisi.

— Shunaqa bo'lsa kerak, — dedi Yo'Ichivoy.

Ovqat yeyilib fotiha o'qilgach, qariyalar qo'zg'olishdi.

— Yo'Ichivoy, o'g'lim, endi biz boraylik. Xudo sabr bersin. Olloh nasib etsa, payshanba kuni diydor ko'rishamiz.

Ular shunday deb chiqib ketishdi.

Supada ikkovlon qolishdi. Solihov Yo'Ichivoymga qaradi. Peshonasi keng, kipriklari uzun, qora qosh, qirraburun bu odamni qaerdadir ko'rganday edi.

— Qotilni topgan mishsizlar? — deb so'radi Yo'Ichivoy.

— Hali topganimizcha yo'q. Bir odamda gumonimiz bor. Shuning uchun ham siz bilan gaplashib olishim kerak. Siz o'zingiz yoki onangiz biron kishidan gumon qilayotganlaring yo'qmi?

Yo'Ichivoy o'ylanib turib yelka qisdi.

— Hayronman... kimga kerak ekan bu...

— Dadangiz biron kishining ta'qib etayotganini aytmabmidilar?

Yo'Ichivoy yana o'ylandi.

— Yo'q, tinchgina yashardik. Bu shaharga kelib, joy qilib, hali do'st-dushman orttirishga ham ulgurolmovdik.

— Dadangiz Daydidaraga nima uchun borganlar? Aytib ketgan edilarmi?

— Bir birodarimni yo'qlab kelaman, devdilar. Kimligini so'ramabman. Dadam... rahmatli ham aytmovdilar.

Avvaliga «rahmatli» deyishga Yo'Ichivoyning tili bormadi. «Rahmatli» deyish o'zing uchun aziz bo'lgan odamning o'llimini tan olish-da. O'g'il hali bu dahshatli fojiani tan olgisi yo'q. Nazarida dadasi halizamon Daydidaradan qaytadigandek. O'q o'pirib yuborgan bosh, ochiq ko'zlar esa... bular qo'rqinchli tush edi.

Yo'Ichivoy o'zi istamagani holda buni tasdiqladi. Otasi yerga qo'yilgach, uch kun o'tib, uning o'llimini tan oldi. Ammo shu so'zni aytishi bilan badani titrab, peshonasiga sovuq ter chiqdi. Solihov undagi o'zgarishni sezdi. Shu sabli qayta savolga tutmay, sabr qildi.

Bu qisqa jimlikda Yo'Ichivoy yo'lga otlangan otasini ko'z oldiga keltirdi. «Daydidara degan qishloqda birodarim bor. O'ttiz yil ko'rishmadim xabar olishim farz», deb jilmaygan edi. Jilmayishida sarosima zohir edi. Yo'Ichivoyning sezgir nigohi ilg'agan edi bu sarosimani. Demak... sarosimali jilmayish... o'llim sharpasi ekan-da?!

Yo'Ichivoy ko'zlarini yumib oldi. «Nimaga to'xtatmadim. «Tobingiz yo'qqa o'xshaydi, bormang», desam bo'lardi-ku! Nimaga indamadim? Nimaga birga bormadim? Xudo menga xabar bergen ekan-ku, nimaga ilg'amadim bu xabarni?...» Har bir savol miyasida yashin singari chaqnab, yuragiga nayza kabi sanchilardi. Uch kun davomida keldiketdilar bilan ovunib bunday xayollarga bandi bo'lmagan edi. Xayollari eshigining lang ochilishiga ro'parasidagi odam aybdormi? Bu odam kelmaganda xayollari zanjirbandligicha qolarmidi? Yo'q, ertami-kechmi bu xayollar, bu savollar zanjirlarni uzar edilar, Yo'Ichivoyning yuragini burovga olar edilar. Bu odam bahonasida barvaqt boshladilar qiynovni.

— Bu tomonda dushman orttirishga ulgurmabsizlar, u tomonda-chi? Dushmanlaring bormidi?

Solihovning ovozi uzoqdan kelganday to'lib, Yo'Ichivoy ajablandi. Shu bois darrov javob bermadi. O'yashga, fikrini jamlashga biroz fursat talab etildi. Solihov buni boshqacha tushundi. «Eslamoqchi», deb o'ylab, javobni kutdi.

— U tomonda bizlar musofir edik. Musofirlik tuzini totganlar bir-biriga yov bo'lmaydi. Mening bilganim — shu.

— Dadangiz asli qaerliklar?

— Yusufxona degan qishloq bor, eshitganmisiz?

— Ha, bilaman. Siz bobongizni eslaysizmi? U kishi nima ish qilardilar?

— Bobomni eslay olmayman, chunki... ko'rmanman. O'rtahol dehqon bo'lgan ekanlar.

— Sizdan bir iltimosim bor. Dadangizning do'stlaridan so'rashning mavridi emasdi. So'raganimda ham menga aytmasliklari mumkin. Siz ular bilan alohida-alohida gaplashganingizda «Kimning qasdi bo'lishi mumkin?» deb so'rab ko'ring. Aytishsa, menga ma'lum qilasiz. Endi mana bu suratga qarang, — Solihov ko'krak cho'ntagidan Jahongirning rasmini olib unga uzatdi. — Taniysizmi?

— Ha, — dedi Yo'Ichivoy suratni qo'liga olib. — Bir-ikki kelgan bu odam. Guman qilayotganingiz shumi?

— Siz gaplashganmisiz bu odam bilan?

— Yo'q. Dadam... rahmatli gaplashganlar. Keyin... «Men yo'g'imda kiritmanglar», deb aytgan ekanlar.

— Kimga?

— Onamga.

— Onangiz taniydarimi bu odamni?

— Bilmayman.

— Chaqirsangiz, shuni so'rab olsam?

— Mumkin emas. — Yo'Ichivoyning ovozida qat'iylik sezildi. — Ayol kishi nomahramning oldiga chiqmaydi.

— Pardaning u betida turib gaplashishlari mumkinmi?

Yo'Ichivoy rasmni olib parda orqasiga o'tdi. Undan bir necha daqiqa darak bo'lindi. Solihov chinni piyolani chertib qo'ydi. Jarangiga hushi ketib, yana chertdi.

Yo'Ichivoy qaytib, suratni uzatdi:

— Tanimas ekanlar, — dedi quruqqina qilib.

Solihov muomaladagi bu o'zgarishni sezib, ajablandi.

— Choydan iching, aka.

Solihovga bu «gapingiz tugagandir, sizga ruxsat», degan ma'noda eshitildi. O'zicha «kalavaning bir uchi shu yerda», deb qo'ydi-da, yigitga rahmat aytib, o'rnidan turdi. U parda-devorning bir tomoni sal surilganini, bir juft qora ko'zning ta'qib etganini sezmadni.

Parda-devor ortidan Yo'Ichivoyning onasi, Siddiqbek Sharipovning bevasi Xadicha o'g'rincha qarab qolgan edi. Nima uchun qaraganini o'zi ham bilmaydi. O'g'li suratni ko'rsatganida vujudidan jon chiqib ketganda bo'ldi. A'zoyi badani muzladi. Tili kalimaga kelmay g'udrandi. G'oyibdanmi bir kuch topib, «Taniysizmi?» degan savolga «Yo'q», deya oldi. O'g'li yana bir nimalarni so'ranganida yo hushidan ketardi yo aqldan ozaordi. Xadicha — ruhi hayotning tegirmon toshlari orasida ezilib ado bo'lgan muslima ana shu chegaraga kelib qolgan edi. Sitamlar uni har siquvga olganida «Bas, boshqa chiday olmayman», deb o'ylardi. Ammo sitamlar kelaverardi, u mushtipar esa chidayverardi...

«Vatan darvozalari ochildi, Olloh yurtimiz yo'lini yoritdi», degan xabarni eshitganida quvonish o'rniga bir cho'chib tushdi. Bshqalarga ota yurt quchoq ochardi. Nazarida uni o'lim betoqat kutardi. Vatan sari bosilgan har bir qadam o'lim chohi sari qo'yilganday tuyulardi. O'lim shunday kelib jonini sug'ura qolsa mayli edi. Dunyoda ko'radiganini

ko'rди. Xudoga mingdan-ming nolalar qildi. Munojoti ijobat bo'ldi — och qolmadi, xorlanmadi, xo'rланмади... Biroq... yashashning lazzati qорин emas ekan. Ko'ngli hamisha huvillab turdi. Shu Siddiqbekka nikohlangan kuni o'zini osmoqchi ham bo'ldi. Faqat shu Yo'Ichivoyi... shu o'g'li ko'ziga ko'rinnmaganida bu alamlar yo'q edi... Xadicha hayotdan to'yan, deyish noo'rin. Esi butun odam hayotdan to'yarmidi? Eng og'ir sharoitda ham «balki ertaga xayrli tong otar», deb umid qiladi. Xadicha bunday tonglarni ko'p kutdi. Hozir ham kutadi. Buning befoydaligini bilsa ham kutadi. Ha, u hayotdan to'yan emas. Faqat ko'z ochib ko'rgani bilan uchrashishdan qo'rqardi. O'lim emas, ana shu diyord ko'rishuvi uning uchun dahshatli edi. Musofirlikda yurganda Xudodan unga umr tilardi, baxt tilardi. Yurtig yo'l olganida shayton «Ilohim, omonatini topshirgan bo'lsin!» degan mash'um fikrni miyasiga urdi. Bu fikrdan sachrab ketdi. «Astagfirulloh!» deb ko'kragiga tufladi. Shayton — shayton-da, bu fikrni, u qo'lidan-bu qo'liga olib, otib o'ynayverdi. Dam-badam o'yinga Xadichani ham tortdi. Ayol «Astagfirulloh!» deb kalima qaytarganida shaytonning badani zirillab, qorong'i uyasiga daf bo'ldi. Keyin yana chiqdi... Bu o'zin mana shu hovlida Jahongirni ko'rganiga qadar davom etdi.

Uni ko'rди-yu, ko'zlariga ishonmadi: ko'zlar o'sha, qarashlar o'sha, ovoz o'sha. O'sha orasta kiyinish... Faqat peshonasiga birnima yozilgan. Bu nimasi?..

Xadichanining o'sha damdag'i holatini bayon etish mushkul. O'limlariga rozi bo'lib ketdi. «Mening tirikligimni bilmisin, ko'rgan kunimni bilmisin, jonimni olaqol, Xudo!» deb boshini devorga urdi. «Jon enam, jon otam, yoninglarga chaqirsangiz-chi!» deb nola qildi. Do'zax u dunyoda deydilar. Xadicha do'zax o'tiga shu dunyoning o'zidayoq ro'baro' bo'lgan edi.

O'g'li hozir suratni ko'rsatgach, do'zax olovi yana zabitiga oldi.

Solihovni ta'qib etgan bir juft ko'z egasi mana shu o'tda yonayotgan Xadicha edi.

### 3. TO'LG'OQLI KECHA

*Birinchi bobda Jahongirni shahar turmasiga kuzatgan edik. Alhol uning ahvoli-ruhiyasidan xabar topish vaqt yetdi.*

«— Musulmonlar, axir bu Muhammadrizoning pushti kamari-ku?! Noshukr bo'lmang, rahmatlining yaxshiliklarini unutsak ko'r bo'lamiz-ku! Boy, boy, deysiz, boy bo'lib bizning bo'ynimizga minib olmagan edi-ku?! O'zi ishlab topardi-ku?!

— Otasi rahmatli yaxshi odam edi, bolalarining qilig'ini ko'rding-ku! Bittasi qochib qoldi. Bu ham bo'riday olayib turibdi...»

«— Jahongir Muhammadrizo o'g'li, qishloq faollarini otishda ishtirok etganingizni tan olasizmi?

— Yo'q, men otmadim.

— Hoy, qizil qozi birodar, gapiga ishonmang, otgan.

— Bekor aptyapsan, zang'ar, Jahon yo'q edi ularning ichida... Bu ham o'zimizga o'xshagan dehqon bo'lsa...»

«— Ishchi-dehqon jumhuriyati nomidan...»

Ikki qo'lini bolish qilib chalqancha yotgan Jahongir ko'zini ochdi. Uxladimi yo tush ko'rdimi yoki yillarning chig'irig'idan o'tib kelayotgan xotiralari uyg'ondimi?

Jahongir shahar qamoqxonasi hovlisida mashinadan tushdiyu tanish manzarani ko'rdi. Odam ruhini ezib chilparchin qilib yuboruvchi o'sha toshbino, o'sha temir panjarali tuyrukler. O'sha sovuq nigohli soqchilar. «Bu yerga yana qaytish peshonamda bor ekan-

da. So'nggi manzilim shu yer ekan-da. Bundan ko'ra ozodlikda, o'risning o'sha o'rmonlarida o'lib ketganim durust emasmidi?.. Astagfirulloh Noshukr bandangni o'zing kechir. O'sha o'rmonlarda sendan umr tilagan edim, berding. Niyatimga yetay degandim, yetkazding. O'zingga shukr. Jonimni ozodlikda olding nima-yu,bu toshbinoda olding nima, bandangga baribir emasmi? Bu dunyo azoblaridan qutqarsang bas. Bandangga o'zing rahm qil.»

Shu xayollar bilan qamoqxona ichkarisiga kirdi. O'sha tanish manzara: ikki qavatli taxta karavotlar, kirtaygan ko'zlar, rangpar chehralar, o'sha tanish hid — toshdevorning zax nafasiga qorishib ketgan badbo'yalar.

Bu yerning taomili ham ma'lum unga: beayblar, birinchi marta tushganlar, bexos jinoyat qilib qo'yganlar yangi tushgan mahbusga darrov e'tibor qilishmaydi. Ular o'z dardlariga qovrilib yotgan bo'lishadi. Yangi kelgan odam dastlab qamoqxona havosini olganlar diqqatiga ro'baro' bo'ladi. Taomil o'zgarmabdi: sochi qoshigacha tushgan yigit qo'llarini cho'ntakka solgancha, o'rdakday lapanglab kelib uning qarshisida to'xtadi. Bezbetlarcha tikildi. So'ng Jahongirning peshonasidagi yozuvga sovuq barmoqlarini tekkizdi. Yigit «qarshimdagi tirik jon emas, shunchaki bir matoh, uni ushlab ko'rishim ham mumkin, ezg'ilab ko'rishim ham mumkin», degan manmanlik fikrida edi. Jahongir bu toifaning fe'lini ham, bunaqa odamning nima qilishini ham biladi.

— Bu yeringga nima yozilgan? — dedi yigit uning peshonasiga chertib.

— Tishing o'tmaydi bunaqa gaplarga, — dedi Jahongir qo'rslik bilan.

— Zo'rsan-ku! — yigit shunday deb uning yuziga yengil shapatiladi.

U yangi kelgan odamni shu zaylda biroz mazax qilmoqchi edi. Ammo ulgurmadi. Jahongir yirik, baquvvat panjalari bilan yoqasiga chang soldi-da, uni xuddi bir bog' pichanday nariga uloqtirib yubordi. Yordamga shoshilgan ikki yigit ham sherigi yoniga uchib tushdi. Uch yigitdan iborat «g'aram»ni joylab bo'lgach, Jahongir bo'sh karavotga borib yotdi. Uzoq vaqt tosh qotganday qimirlamadi. Birov unga gapirmadi ham. Bundan foydalangan Jahongir maylini xayollar izmiga bergach, ko'zi ilinibdi...

Axir «Hoy, musulmonlar!» degan ovozni aniq eshitdi-ku? Iltijo bilan, dard bilan aytilgan so'zlar... Inobatga olinmagan iltijo, befarq qoldirilgan dard. O'shandagi befarq nigohlar uni uqubatli ayriliqqa kuzatgan edi. Har qalay o'sha damda shunday deb o'ylabdi. Keyin bilsa, bu nigohlar uni bir umrlik azobga kuzatgan ekan. Bu befarq nigohlar uni o'tiz besh yil muqaddam o'limga yuborgan ekan. O'ttiz besh yil yer yuzida emas, o'lim darasida sarsari kezdi. Qorni to'q mushuk sichqonni panjalari orasida ezg'ilab o'ynaganiday Azroil ham uni shu ko'yga soldi. «Joningni ana olaman, mana olaman», deb o'ttiz besh yil u burchakdan-bu burchakka haydadi. Mana, nihoyat, shu manzilga boshlab keldi. Kunda shu toshimoratda. Bosh qo'ysa bas. Shu toshimorat ichida joni ketadi. Kindik qoni tuproqqa to'kilgan edi. Yurak qoni toshga sachraydi, keyin... toshdan kafan topadi. Uning murdasini so'rab oladigan yaqini yo'q. Bo'lganda ham berishmasa kerak. O'zlari ko'mishadi. Ko'mishsa — xo'p-xo'p. Yoqib yuborishsachi? Murda o'tga kirganda tirik odamday sakraydi, deyishadi. Shuni eslasa, Jahongirning badani muzlaydi. Hozir ham shu gap xayoliga keldiyu qamoqxonada emas, muz o'likxonada yotganday seskandi. Qaddini ko'tarib, kaftlarini ikki yuziga bosdi.

Mahbuslar, beso'naqay gavdali bu odamdan hayiqib qolishganmidi, unga e'tibor berishmadni. Hol-ahvol so'raydigan yo tanishib olish istagida bo'lgan, yo «yorug' olamda nima gaplar», deb qiziqadigan kimsa topilmadi. Bu Jahongir uchun muddaoning o'zi edi. Birov bilan gaplashish u yodda tursin, Jahongir odam zotini ko'rmasam, degan kayfiyatda edi. Ammo chora qani, bir to'da mahbusning ichiga tashlab qo'yishgandan keyin u nima qila olardi.

U hamxonalariga zimdan nazar tashladi: yoshda ham, shakl-shamoyilda ham o'xshaysiz bu odamlar toshimorat ichida shunday kunlar boshiga tushishini bilganmi? Bu imoratdan qachon chiqib ketishadi — bilishadimi? Tashqarida bir kosa ovqatni kirita olmay sarg'ayib turgan jigarları bilan qayta ko'rishish nasib etadimi ularga? Buni hech biri bilmaydi. Ammo quyoshti olamga qaytish umidi bilan yashaydi. Bunday umid faqat Jahongirda yo'q. Bunaqa umidning paydo bo'lismeni istamaydi ham. Uning umid-maqsadi bir — Parvardigori bergen omonatni topshirib, ota-onasi yoniga borish. Depara avaxtasida yotganida qaytish onlari yaqinligiga imon keltirgan edi. Biroq shaharlik bu mayor paydo bo'ldiyu rejali chigallashib ketdi.

Chiroq xiralashib, mahbuslar birin-sirin karavotlariga cho'zilishdi. Xonada pishillash, xurrak ovozlari qorishib ketdi. Jahongir bir o'tirdi, bir yotdi, bir turib yurdi. Behalovat kecha uning nazarida ancha cho'zildi. Nazarida endi mutlaqo tong otmaydiganday edi. Bu pishillayotgan, xurrak otayotganlar ham tirik odamlar emas, murdalar edi. Yotgan yeri ham qamoqxona emas, erinmay qazilgan, g'oyat keng bir go'r edi. Aftidan, Olloh uning jonidan avval es-hushini olganu to'ppa-to'g'ri shu go'rga tiqqan edi.

Tongda iliq suv bo'lib suvgaga, sho'rva bo'lib sho'rvaga o'xshamagan bir narsani ichib bo'lgach, uni so'roqqa chaqirishdi. O'sha tanish mayor torgina xonada erinmay so'roq boshladi. Jahongir so'roqqa kirishda «Nachaynik, aybimga iqrorman, ishni sudga oshiraver», demoqchi edi, mayorning savollaridan gangib gaplarini aytolmay qoldi. Tergov Jahongirning nazarida bir-bir yarim soat chamasi davom etdi. Mayor xuddi «ish vaqtim sakkiz soat, shu so'roqdan boshqa yumushim yo'q, kechga qadar gaplashaman sen bilan», deganday erinmasdan so'roq qilardi. Bu mayor Jahongirni o'ttiz besh yil badalida kalaka qilib kelayotgan Azroildan ham battar ekan. U ham Jahongirni berkinmoqchi bo'lgan hali u burchakdan, hali bu pastqamlikdan tortib chiqarib, haqiqat oftobiga ro'baro' qilaverdi. Jahongir bu oftobdan qo'rqrar edi. Shu sbabli so'roqlarga uzoq dosh berolmadi. Mayor Solihov so'roq oxirlab qolganini his etgach, soqchini chaqirdi.

Jahongir mahbusxonaga kirib, joyiga yonboshladi. Ro'baro'da o'tirgan yigit esa gapiraymi-gapirmaymi, deb ikkilanib turdi-da, oxiri ko'ngil so'rigan bo'ldi:

— Tinchlikmi, aka?

Jahongir ajablanib unga bir qarab qo'ydi-da, «Tinchlik», deya po'ng'illadi. Yigit «kelib-kelib shu to'nkadan ko'ngil so'raymanmi», deganday o'rnidan turib, nari ketdi. Jahongir o'zining bu qilmishidan pushaymon bo'ldi. Bir odam yaxshi niyat bilan ko'ngil so'rabi, dalda bergisi kelibdi. Po'ng'illashi nimasi edi! Biroq bu holda Jahongirni ayblash ham o'rinsiz. Tegirmon toshlari orasidan o'tib, bir mo'jiza bilan tirik qolgan odamni tasavvur eting-a? Jahongir hozir so'roqdan emas, aynan tegirmon toshlari orasidan chiqib kelib «Tirik qolanim chinmi?» deb turgani edi. Unga bir og'iz gap ham ortiqcha edi. Shu bir og'iz gapni qo'shni karavotdagi yigit aytib qo'ydi. Boshqa payt bo'lganida Jahongir gapni maromiga burib uning ko'nglidagi xijilni yozib yuborishi ham mumkin edi. Harholda Jahongir yigit o'ylaganchalik to'ng emas, vaqtida ulfat ko'rgan odamlardan edi. Lekin hozir yigit ko'nglini yumshatishga holi yetmadi.

U ikki qavatli taxta karavotlarni, sharpaday rghan, o'tirgan, yotgan odamlarni ko'rgisi kelmay ko'zini yumdi. Yumdiyu taxta karavotlar oralab sharpaday yurgan, o'tirgan, yotgan odamlar o'rnida qattiq tikilib turgan mayor paydo bo'lib, tergovni boshlab yubordi:

«— Muhammadrizaev, to'g'risini aytинг, nima uchun tergovni chalg'itmoqchi bo'lyapsiz. Sizni qo'rqtishdimi?»

— Kim qo'rqtadi? Odam o'limdan ko'rqaadi. Men esa o'limdan qo'rqlmayman.

— Shuning uchun aybni bo'yningizga olyapsizmi?

— Xudodan yashirmagan sirni sizdan yashiramanmi?

— Siz ko'p jabr tortgan ekansiz. Bu haqdanmi yo nohaqdanmi hozircha bilmayman. Lekin...»

Jahongir ko'zini ochdi. «Hozircha bilmayman...» Ha, shunday dedi mayor. Lekin Jahongir o'sha tobda bu gappa ko'p ham ahamiyat bermagandi. «Hozircha...» Nima demoqchi? Hali o'ttiz besh yillik gapni, o'ttiz besh yillik eski paxtani titib ko'rmoqchimi? Nimaga? Kimga kerak ekan bu haqiqat? Biz sizni o'ttiz besh yil nohaq azoblagan ekanmiz, degani bilan umri qaytib berilarmidi? Suygan xotini, xorij yo'lida kindik qoni to'kilgan o'g'li bag'riga qaytadimi?.. «Ishchi-dehqon jumhuriyati nomi bilan...» Bexos miyasini zirillatgan bu gap toshimoratni ham larzaga solganday bo'ldi. Tosh devorlarga tegib jaranglagan bu gap miyasiga qaytib urilib, tovonigacha zirqiratib yubordi.

«Hali Xudo oldida gunohim ko'p ekan. Olloh suygan bandalarini bu dunyoda obdan qiy nab, gunohini to'kib, so'ng u dunyo bag'riga oladi, deyishardi. Otamning xunini olmaganim uchun Xudo gunohimdan kechmayapti. Gunohlarim to'kilib bitganda o'sha qishloq avaxtasidayoq omonatimni topshirardim. Gunohim ko'p ekan hali... Yo Tangrim! Hech bir bandangni bunchalik qiynama. Omonatingni olging kelmayotgan bo'lsa nima qilay, ayt. o'z jonimni o'zim sug'urib olayinmi?! Nauzubilloh! O'zing asra bundan, Tangrim, shayton yo'lidan o'zing qaytar. O'zing bergen omonatni o'zing qaytarib ol. Sen bergen ne'matga men xoinlik qilolmayman...» Jahongir shunday deb kalima qaytardi.

Dastlab turmaga tushganidan beri necha marta joniga qasd qilishni o'yaldi. O'rusiyaning sovuq o'rmonlarda, Germaniyaning hashamatli shaharlarida yurganida ham bu fikr ko'ngliga g'ulg'ula solgan, ammo shayton yo'liga kirmagan, Yaratgan bergen omonat joniga xiyonat qilmagan edi. Shuncha azobga chidab kelib, endi, so'nggi qadam qolganda xiyonat qiladimi? Yo'q!

Jahongir o'ng yonboshiga ag'darildi. Jangohni zulmat qanotlari bilan bosib turgan qorong'ulik bag'rini tilgancha yorug' izlar qoldirib uchayotgan o'qlar kabi xayollari uning qorong'u miyasini nishonga olgan edi. Mayorning har bir savoli o'sha o'q misol zulmat qa'ridan otolib chiqar edi.

«— Siddiq Sharipov bilan qaerda tanishgansiz?

— Men bunaqa odamni tanimayman.

— Aniq eslang: Daydidaradagi hodisa ertalab yuz bergenmi yo oqshomda?

— Ertalab ham, oqshomda ham emas, kunduzi.

— Miltig'ingizning nomi nima edi?

— Ov miltig'i...

— Miltiq turlarining o'ziga yarasha nomi bo'ladi.

— Nomini bilmayman.

— Miltiqni qaerdan olgansiz?

— Otamdan qolgan. Eski miltiq edi.

— O'q marhumning qaeriga tekkan?

— Bilmayman.

— Muhammadrizaev, o'zingizni go'llikka solsangiz solavering, biroq bizni befahm deb o'yalmang. Harholda biz miltiq o'qi bilan to'pponcha o'qining farqiga boramiz. O'q orqadan otilganmi, yuzma-yuzmi, buni ham ajrata bilamiz.

— Nachaynik, o'zingizni qiy nab nima qilasiz, qo'rwmang, sudda tonmayman gapimdan. Menga achinmay qo'ya qoling.

— Achinmay qo'ya qoling? Men sizga emas, marhumga achinyapman.

— Unga ham achinmang, arzimaydi.

— Arzimasligini siz qaerdan bilasiz, uni tanirmidingiz?»

Shu savol berilganda Jahongir ilinganini sezdi. Mayor «marhumga achinyapman», deganida indamay qo'yaqolmasdan «unga ham achinmang», deyishi nima edi?!

«Marhumlarga achinish kerakmas, duo iotiha zarur ularning ruhiga», deb qo'ya qolmaydimi? Shunday deyishga dedi, ammo fursatni o'tkazib, «uni tanirmidingiz?» degan svoldan so'ng aytdi. Qirg'iyko'z mayor anoyi emas, ilintirib oldi. Hali «achinishga arzimaydi», degan gap atrofida ko'p aylantiradi. Jahongirga bularning fe'li ma'lum.

Jahongir avvallari inson taqdiriga befarq qaraganlvri uchun bu tergovchilardan nafratlanar edi. Endi esa aksincha bo'lyapti haqiqatni ochishga intilayotgan mayorni ko'rarga ko'zi yo'q. «Endi bu haqiqatlarning menga nima keragi bor, — deb o'ylardi u, — hayotimni barbod qilishgan bo'lsa, bu dunyodan ilinjim qolmagan bo'lsa...»

Jahongir ming bir xayol qurshovida uyquga ketdi. Uyqu boshqalarga orom ulationsa, unga azob beradi. Ko'zi uyquga ketishi bilan miyasiga uya qurib olgan ko'rgan-kechirganlari ko'rshapalakdek uyg'onib, uni har ko'yga soladi. Arvoqlar bilan gaplashadi, iblislar qanot chiqarib uni uchiradilar, osmonga olib chiqib chumchuq patiday o'ynaydilar.

Ayniqsa, qamoqdagi tunlar beorom kechadi.

Bu safar iblislar uni xoli qo'yishdi. Ko'ziga Daydidaradagi o'sha chinor ko'rindi. Chinor... barglari bitta qolmay to'kilgan. Shamol bu barglarni qaygadir uchirib ketgan. Atrofda shisha siniqlari. Daraxt ostida kimdir o't yoqib uning tanasini odam sig'adigan darajada o'yib yuborgan.

— Sizga ozor yetibdi, Chinor bobo, — deydi Jahongir, — mening bag'rim ham sizning kuygan tanangizdek o'yilib ketgan. O'shanda bargingizni to'ka qolganingizda bu ko'rguliklar yo'q edi menga. Ayting endi, bu boshga yana qanday savdolar tushadi?

Chinor javob bermaydi, qayg'u bilan tebranadi. Tanasidagi o'yiq — go'yo uning og'zi. Tili esa sug'urib olingan...

Tepadan ovoz keldi. Jahongir shoshib qaraydi: yo'g'on shox ustida Zokirxo'ja o'tiribdi. Qo'lida tasbeh.

— Ehtiyyot bo'ling, yiqilib tushasiz, — deydi Jahongir unga.

Shunday deyishi bilan shox qarsillab sinib, Zokirxo'ja to'g'ri Jahongirning ustiga qulaydi...

Nafasi qaytib, terga pishgan Jahongir cho'chib ko'zini ochdi: qamoqxona hali ham tun hukmida. Bir necha mahbus kim o'zarga baralla xurrak otadi. Tashqaridagi qadam ovozlari soqchilarning bedorligidan darak.

Jahongir ko'p yillardan beri Zokirxo'jani eslamas edi. Birinchi marta qamoq jafosiga uchraganida hamdard bo'lgan bu odamning jasadi uzoqlarda qolib ketgan. Bir umr Olloh yo'lida xizmat qilgan bu muslimga kafan, janoza nasib etmadni. Jahongir Zokirxo'jani har eslaganida «Musofirlikda oltin topish oson, jon taslim qilish qiyin», deb qo'yardi. Aslida bu — Zokirxo'janing gapi. Tanasi kafan ko'rmagan, lahad ko'rmagan muslimning gapi. Qulog'iga Olloh nomi bilan azon aytildi, «Olloh», deb tili chiqqan, umr bo'yi toatibodatda bo'lgan muslim janozasiz ketdi. Inson bolasi boshiga turli kulfatlar tushishi mumkin. Bu dunyo azoblarini behad ko'p totishi mumkin. Lekin, Jahongirning nazarida kulfatlarning eng beshaftiqi o'sha Zokirxo'jaga nasib etdi. «Bir hovuch ona tuproqqa zor bo'lib, ko'z yumishni hech bir bandaga nasib etmasin». Bu ham Zokirxo'janing gapi.

Odamning bir yelkasida shayton, ikkinchisida farishta o'tiradi, deydilar. Shayton Jahongirga:

— Akang bir hovuch tuproqqa zor bo'lib o'ladi, — deydi.

Farishta esa:

— Akangni tuz-nasib tortib keladi. Xudo uning jonini sening qo'ling bilan oladi, — derdi.

Shayton ham, farishta ham aldadi.

Shu aldovga uchratguncha o'shanda Zokirxo'ja o'rniga uning jonini olmaydimi... «Astag'firulloh!» Jahongir yana kalima qaytardi. Xayolini chalg'itmoqchi bo'ldi. Biroq Zokirxo'jadan uzoqlasha olmadi...

...Jahongir temir panjarali darchasi bor vagonga chiqayotganida qayoqqa ketayotganini bilmagandi. Poxol to'shalgan vagon ichi sassiq edi, kishining nafasi qaytib ketardi. Eshik qarsillab yopilgach, ichkari dimiqqandan dimiqdi. Jahongir bitga talanib yotib, tongga yaqin ko'zi ilinibdi. Uyg'onsa — poezd to'xtab turibdi. Mahbuslar uyquda. Vagon ichi nimqorong'u. Jahongirning nazarida tong otgan-u, biroq, temir panjarali darcha tashqaridagi yorug'likni to'sib turganga o'xshadi.

Jahongirning yonginasida bir odam chordana qurib o'tirib olibdi. Uning kimligini farqlash mumkin bo'lindi. Uning pichirlashidan ajablangan Jahongir diqqatini jamlab, quloq tuttdi. Notanish odam uning quloq tutganini fahmlaganday ovozini picha ko'tardi:

— Yo Olloh, bilib-bilmay, tushunib-tushunmay, shayton yo'lliga kirib, to'g'ri yo'ldan ozib, iymondan, vijdondan, insofdan chekinib qilgan gunohlarimni o'zing kechir. Akam bilan diydorlashish qiyomatga qoldi endi. Yo Olloh, akamga yorug' yuz bilan ro'baro' qil. Akam to'g'ri yo'ldan ozgan edi, o'zing kechir uning gunohlarini. Hali tavba qilmagan bo'lsa oxir-oqibat baribir tavba qiladi. U ko'rмаганларни мен ко'рдим. Shu paytgacha akam oldida gunohkorman, deb yurardim. Inshoollo, haq ekanimni ko'zim tirikligida ko'rsatding. Endi o'lsam armonim yo'q. Yo Olloh, men sendan jannatdan joy so'ramayman. Shu ta'mada senga sig'inib yurgan bo'lsam, albatta do'zaxdan joy ber menga. Bu dunyoda ko'rgan rohatlarim evaziga do'zax azoblarini tortay. Men Rasululloh sallallohu alayhi va sallamga aytgan so'zlaringga amal qilib keldim. Gunohlarim bo'lsa o'zing jazo bergaysan. Bu dunyoda qolayotganlarning iymonini ber, go'daklarning rahmini ye. Bu qiyomat azoblariga go'daklarni duchor qilma...

Jahongirning uyg'onib, o'g'rinch quloq tutib yotganini sezib, norozi bo'lganday endi pichirlashga o'tdi. So'ng yuziga fotiha tortdi. Lekin shundan keyin ham o'rnidan jilmadi. U ko'zini bir nuqtaga tikkancha qotib o'tirardi. Jahongir ovoz chiqarib uni chaqirishni ham, indamay yotaverishni ham bilmay garang edi.

Notanish odam — Zokirxo'ja edi. Jahongir o'sha kuni tong otib, poezd jilgach, u bilan tanishdi. Biroq erta sahardagi ibodatdan so'z ochmadi. Tonggi munojotning sababini Zokirxo'ja ancha keyin, o'limi haq ekanini fahmlaganda aytib berdi.

O'sha tongda u uzlatga chekingan edi. Zokirxo'ja tun qorong'usida bir chimdimgina uxladi. Ana shu bir chimdim uyqusida akasi bilan uchrashdi. Hibsga olinganidan beri tushlarida ko'p ko'rdi akasini. Tushida ko'rganida ham, xayolida tiriltirganida ham akasi bilan ko'p bahslashar edi. Bugun... akasi indamadi. Og'zini ochib gapirmoqchi bo'ldi-yu, gapirolmadi. Zokirxo'ja akasiga qarab qo'rqib ketdi — uning tili kesib tashlangan edi... Shu qo'rquv bilan uyg'onib, Ollohga sig'inganicha moziyga chekindi. Qotib o'tirib o'sha so'nggi uchrashuvni esladi...

Ko'ngil yaralariga malham baxsh etishga qasd qilgan ko'klam dalalar, qirlarni uyg'otib tog'ning gadoy topmas so'qmoqlarigacha yetib keldi. Yigirmanchi yilning bahori yigirma besh oydan beri issiq go'shasidan yiroqlarda yashayotgan odamlarga tashvishli xabar yetkazdi. Bahorga chiqib, birlashib, g'animgarga so'nggi zarba berilishini kutayotgan islam lashkarlari amiralmuslimin Madaminbekning qizillar bilan sulh tuzganini eshitib, hayratdan dong qotdilar. O'tgan bahor mo'minlarga va'z ayta turib, «Ahli muslim, yer yuzin lolazor tuttdi demanglar, bu shahidlar yuragidan oqqa qondir. Muqaddas lolazorni kofirlar qadami toptar ekan, yorug' dunyo bizga haromdir», degan Zokirxo'ja bu xabarni eshitganidan beri o'ziga kelolmaydi. Nazarida o'sha ondan boshlab quyosh harorat emas, sovuq nafas ufurayotgandek vujudi muzlaydi. O'n kun ilgari yechib tashlagan po'stiniga

o'ralib titraydi. Bugun ham shu holda o'tirganida navkar kirib, qo'rboshi chorlayotganini aytdi.

Qo'rboshi yolg'iz edi. Zokirxo'ja chorloving sababini bilmay ajablandi.

— Biz yoqlarga Madaminbek qadam ranjida qilyapti emish, — dedi qo'rboshi.

— Kelsalar bosh ustiga, — dedi Zokirxo'ja. — Maqsadlari nima ekan?

— Anglamadingizmi? Uning maqsadi bitta — barchamizni qul qilish.

— Alqissa... sulhga da'vat etib kelyaptilarmi?

Qo'rboshi javob bermadi. Tizzalarini uqalab uzoq o'tirdi.

— Nima qilamiz? — dedi u nihoyat. — Sulh tuzamizmi biz ham?

Zokirxo'ja daf'atan javob bera olmadi. U bu haqda ko'p o'ylagan edi. Sulh — begunoh qonlar to'kilmagining oldini oladi. Elga osoyishtalik beriladi. Ammo keyin-chi? Ana shu «keyin-chi?» degan savolga javob topolmay boshi qotar edi.

— Sulh tuzsak, yigitlar issiq o'rinaliga qaytishadi, o'lim bo'lmaydi. Bu Xudoga ham ma'qul ish, — dedi qo'rboshi o'z savoliga o'zi javob berib. — Lekin bu dayuslar o'z holimizga qo'yisharmikin? Islomni oyoqosti qilishmasmikin? «Alhamdulillah, musulmonman», deguvchi tillar kesilmasmikin? G'ayridinlarga nima kerak? Bizning osoyishtaligimizmi? U holda ne sababdan bizga qilich tortdilar? Nekolayni o'ldirdilar. Unda ham talato'p. Unda ham osoyishtalik zarur. Bizga jon kuydirmaklarining boisi nima? Madaminbek bularni o'ylamadimi ekan? Gapiring?

Qo'rboshining so'nggi amri tahdidli edi. Shu bois Zokirxo'ja biroz sarosimalandi.

— Savollaringizga javob bermakka aqlim qosir, — dedi past ovozda.

— Bekning aqli qosir emas, nima qilishini biladi. Uning maqsadi mengagina ayon emas. U bir qanotimizni uzib tashladi. Endi bir qanot bilan uchib bo'lmaydi. Xo'sh, yigitlarga izn berib yuboraymi yo Qashqarga ketib payt poylayinmi?

— Qashqarga ketmoq... sharmandalik yuki bilan ketmoq... Yurtni tashlab-a? Payt poylasangiz yangi qanot o'sib chiqarmikin?

Bu gap qo'rboshiga malol keldi. Zokirxo'jaga o'grayib qaradi;

— Boring, hozirligizingizni ko'ring. Madaminbekni pastdagi qishloqda qarshi olamiz. Qarorgohimizga kelib bu yerdani bulg'ab yurmasin.

Zokirxo'ja qo'rboshining bu qaroridan bildiki, uning niyati buzuq. Bir shumlikni diliga tukkan. Pastga tushib qishloq atrofiga qo'yilgan pistirmalarni ko'rgach, Xudodan qo'rboshiga insof tiladi. Madaminbek bilan kelgan odamlar orasida akasini ko'rib, adashganlarga rahm etishni so'rab Ollohga nolalar qildi.

Qo'rboshi g'azabini ham nafratini ham yashirmadi. Madaminbek shunday bo'lismeni oldindan bilganmi, bu g'azab, bu nafratni mayin jilmayish bilan yengmoqchi bo'lib qo'rboshining izidan uyga kirdi. Zokirxo'ja ularga ergashmay, bir nafas hayalladi. Akasini chetga tortib shivirladi:

— Odamlaringiz shuginami?

— Ha. Biz sulhga keldik, hammamiz quolsizmiz.

— Tezda keting bu yerdan. Hech kim omon qolmaydi. Sulhga umid qilmang.

Zokirxo'ja shunday deb ichkari kirganida qo'rboshi Madaminbekka dag'dag'a qilmoqda edi:

— Erkimizni o'zimizga beradigan bo'lsa, ikki yil qilich choparmidi? Yo'q, bek, agar shu va'dalarga inongan bo'lsangiz lodonsiz. Agar shu gapga ishonsak, nevara-chevaralarimiz bizni qarg'ab o'tadilar. Bu gapga ishongandan ko'ra, bitta qolmay qirilib ketsalarling bo'lasmidi, deydilar. Sen lodon emassan, bek, sen — xoinsan!! Sening boshingni o'z qo'lim bilan uzaman. Bu dunyoda ko'p gunohlar qildim. Endi Xudo yo'liga bir savob qilay...

«Muzokara» deb atalmish bu uchrashuv kutilmaganda tez tugadi. Madaminbekning aytar gaplari o'zi bilan ketdi. Kim haq, kim nohaqligi sir bo'lib qoldi. Zokirxo'ja tashqariga chiqib Madaminbekning chopib tashlangan odamlarini ko'rди. Shahidlar orasida akasini topmay, ko'ngli bir qadar tinchidi. Akasining pistirmalarni dog'da qoldirib, qishloqdan qanday chiqib ketganini bilmaydi. Qo'rboshi Qashqardan panoh topib, o'zi esa uyiga qaytgach, akasini bir martagina ko'rди. «Minnat bo'lmasin», deb o'sha mash'um kechani eslamadi.

Zokirxo'jani hibsga olganlarini akasi ko'rди. Biroq oraga tushmadi. Bir og'iz gapirmadi ham. Aytiladigan so'zlar qiyomatga qoldi. U shundan alamda.

Sovuq o'lkada terlamadan holdan ketib jon taslim qilayotgan Zokirxo'ja umrining bir chimdimi haqidagi hikoyani Jahongirga aytib bergan edi. Boshga tushib ko'z ko'rgan o'zga voqealarni esa xotirasining zimiston chodiriga o'rav yer bag'riga o'zi bilan olib ketdi.

Zokirxo'janing sovuq o'lkadagi bir necha kunlik umri, bir chimdim hikoyasi necha yillardan beri Jahongir bilan tirik yuribdi. Jahongir Zokirxo'janing omonat gaplarini topshiray deb uning akasini ikki marta qidirdi. Birinchi gal uchrata olmadi — uzoq safarda ekan. Ikkinci marta xunuk xabar eshitdi — Mirsharov bilan birga qamoqqa olinib, otib tashlanibdi — u xalq dushmani ekan...

Jahongir hozir ana shularni esladi. «Zokirxo'ja akasiga so'nggi so'zini ayta olmadi. U ham shunday bo'lgandir. Qiziq, akasi qo'liga kishan urilganda Zokirxo'jani yodga oldimi? Oraga tushib ukasini qutqarib qololmaganidan o'kindimi? U dunyoda aka-uka uchrashib nimalarni gaplashdilar ekan?...» Shu savoldan Jahongirning yuragi hapqirdi. O'zlari-chi? Hademay u dunyoda diydor ko'rishganlarida nimalarni gaplashadilar?

Sasib ketgan qamoqxonada bedor yotgan Jahongirning miyasini shu savollar kemirar edi.

#### 4. SIRTMOQNI KIM TASHLAGAN?

*Parda-devor ortidagi ayol ko'nglidan kechgan gaplardan bexabar mayor Solihovni Qirqbel qishlog'ida nimalar kutyapti ekan?*

Kechasi bilan ezib yoqqan qor aralash yomg'irdan so'ng iyig'i chiqqan yo'ldan mashina yura olmadi. Yo'l tikkalagani sayin g'ildiraklari chirpirak bo'lib aylanib, loyga botib qolaverdi. Bu ahvolda Qirqbel qishlog'iga yetolmasligini sezgan mayor Sanjar Solihov mashinadan tushdi. Kapitan Jabborov ham noiloj unga ergashdi. Kapitan ehtiyyot bo'lib qadam bosishga qanchalik harakat qilmasin, birpasda oyog'idagi botinka loyga botdi. Etik kiyib olmaganidan afsuslandi. «Yo'Ining bunaqaligi tushimga kiribdimi», deb o'zini o'zi oqladi. Harbiychasiga katta-katta qadam tashlayotgan mayorga yetib yurish qiyin edi. Mayorning yurishi aslida shundaymi yo atay tezlab ketyaptimi, Jabborov bilolmadni. Mayor orqada kelayotgan hamrohiga qaramasdi. Uning xayoli turmada o'tirgan Jahongirda edi. Fe'li, xatti-harakati bir-biriga o'xshagan jinoyatchini topish qiyin. U Jahongirga o'xshagan nusxani shu paytgacha uchratmagandi. Peshonasida yozuvi bor bu odam uni aldab qorong'i g'orga kiritib yuborganday edi. Solihov Jahongir bilan bo'lgan so'nggi suhabatni o'ylab borardi. Jabborov esa buni boshqacha tushunib «Men bilan gaplashgisi yo'q ekan, nima qilardi tinchimni buzib», deb o'yladi. Besh qadamcha orqada qolib kelayotgan Jabborov bir oz nafas rostlab olish maqsadida mayorni gapga tutdi:

— O'rtoq mayor, bu qishloqqa avval ham kelganmisiz?

Solihov to'xtab orqasiga o'girildi.

— Yo'q, birinchi kelishim, — dedi u, Jabborovning maqsadiga tushunmay. — Nimaga so'rayapsiz?

— Yurishingizga qarab, yo'lni bilarkansiz, deb o'ylabman.

— Bu atrofda boshqa yo'l ko'rmanim uchun tikka boryapman.

Ikki chaqirim yo'lni it azobida bosib o'tishdi. Yaxshiki, qishloq soveti raisining xonasi issiqliqning ekan. Hali qaynog'i o'limgan choydan bir piyola ichib, onadan qayta tug'ilganday bo'lishdi.

Rais Solihovning gaplarini eshitgach, u ko'rsatgan suratlarga diqqat bilan tikildi.

— Mana bu odamni ko'rganman. Asli shu qishloqlik deb eshituvdim. Lekin o'zi bilan hamsuhbat bo'limganman. Bu odamni esa... — rais marhum Sharipovning suratiga ajablanib tikildi, — kimgadir o'xshaydi, yo'q, tanimadim bunisini.

— Bu odamning ismi Jahongir. Yoshi ellik oltida. Tug'ilgan yeri shu Qirqbel qishlog'i. Uni kim tanishi mumkin?

— Unimi?.. Damin aka. Qishloqqa kelsa, Damin akanikiga qo'nar ekan. ammo-lekin... Damin aka ham o'tirib chiqqan. Bir balosi bormi, deyman bularning. Chaqirtiraymi?

— Ha, tezlik bilan odam yuboring, — dedi Jabborov. — Bitta odam qo'shib bersangiz o'zim olib kelaman.

— Yo'q, to'xtang, — dedi Solihov Jabborovga qarab. — Bu yerga olib kelsangiz undan gap ololmaysiz. O'zim boraman. — Mayor shunday deb raisga o'girildi. — Damin aka deganingiz kim, nimaga qamalgan.

— Qishloqda muallimlik qilgan, deyishadi. Urush arafasida qamashgan. Man etilgan kitoblarni targ'ib qilar ekanmi-ey. Xullas, aksilinqilobiy ishlar bilan shug'ullangan.

— Aybini o'zingiz ham aniq bilmas ekansiz.

— To'g'ri, bilmayman. Men bu qishloqda yangi odamman.

— Unda yo'l ko'rsating. Damin akanikiga o'zim kirib chiqaman.

— Malol kelmasa, men ham borsam? — dedi Jabborov piching ohangida. Mayor uning «Ho've, akaxon, biz ham yuribmiz orqangizdan ergashi-ib», demoqchi ekanini tushundi.

— Siz... — Solihov unga javoban «botinkangizni quriti-ib o'tiraturing», demoqchi edi, biroq begona odam oldida mulzam qilishni istamadi. Quruqqina qilib: — Yuring bo'lmasa, — deb qo'ydi.

Damin aka deganlari qishloqning adog'ida yashar ekan. Qishloqdagi uylar yelkama-elka turgan odamlarday yonma-yon qurilgan, tomlari tomlariga ulanib ketgan. Do'nglikka qurilgan bu uy esa xuddi moxovlarning boshpanasiday ajralib turardi.

Tomiga qalin loy bostirilgan, devorlari ancha nurab qolgan o'yning eshigini Solihov asta taqillatdi. Dam o'tmay eshik g'ijirlab ochilib, ostonada jikkakdan kelgan, ko'zlar chaqchayib turgan odam ko'rindi. U notanish, kutilmagan mehmonlarga bir nafas ajablanib qaradi-da, taraddudini oshkor etib qo'ymaslik uchun ularni darrov ichkariga taklif etdi. Daminning jussasi kichik bo'lqani bilan ovozi guldirakday edi. Bu ovozni eshitib, bu jussani ko'rgan odamning ajablanmasdan iloji yo'q edi. Solihov ham ana shu ajablanish bilan uning izidan ichkari kirdi.

Imorat tashqaridan mung'ayib ko'ringani bilan, ichkarisi orasta edi. Tokchalarga kitoblar tartib bilan terilgan. Taxmonning yarmiga yetib-etmay ko'rpa taxlangan. Uy to'ridagi sandalga yopilgan biroz uringan ko'rpa ustiga ozoda dasturxon yozilib, guldor patnis qo'yilgan. Xonada bulardan bo'lak ko'zga tashlanuvchi jihoz yo'q. Xonaning orastaligi uy egasining nozik ta'bidan darak berib turardi.

Poyabzallar yechilgach, mezbon ularni tanchaga taklif etdi. Mehmonlar joylashib o'tirib olishgach, u daf'atan:

— Sizlar enkevede<sup>3</sup>danmi? — deb so'radi.  
— Men oblast jinoyat qidiruv bo'limidanman. Bu kishi — kapitan Jabborov, rayondan. Qiziq... bizni qaerden bilingiz?  
— Ko'zlareringiz aytib turibdi. Ayniqsa, bu kishiniki. Tabib tabibmas, boshidan o'tgan tabib deyishadi-ku? Sizlarga o'xshaganlarni xo'b ko'rdim. Olam tinchidi, deb shukr qilib o'tirsam, hali meni unutmabsizlar-da, a? Bu deyman, qolgan-qutgan gunohlarimni titkilib topganga o'xshaysizlar.

— Damin aka, sizning gunohingizni izlab kelmadik. Bir yumush yuzasidan bezovta qilib o'tiribmiz. Daydidaradagi qotillikni eshitgandirsiz?

— Ha... — Damin shunday deb uf tortdi. — Jahongirni qamabsizlar, eshitdim. Jahongir menikiga kelib turardi. Buni ayg'oqchilaringiz yetkazishgan, albatta. Hammayoqda ayg'oqchilaringiz urchib yotibdi. Lekin aytib qo'yay, Daydidaradagi ishdan bexabarman.

— Biz sizdan gumonsirayyotganimiz yo'q. Ayrim narsalarni aniqlashda yordamingiz kerak, — dedi Solihov.

— Yordam bermasam-chi? — dedi Damin unga tik qarab.

— Bu endi vijdoningizga havola.

— Shunaqami? — Damin tiz cho'kib, qo'llarini patnisga tirab, Solihov tomon sal engashdi. Bo'yin tomirlari o'ynab ketdi. Shu turishida o'ljasiga tashlanishga shay turgan qoplon vajohatiga kirdi. — Vijdonimg havolami? — uning ovozi titrab chiqdi. — Meni oborib tiqib qo'yanlariningda vijdondan gapirmagan edilaring. Men nima uchun sakkiz yil o'tirdim? Julqunboyni odamlarga o'qib bergenim uchunmi? Xo'sh, Qodiriylar emas ekan-ku? Oqlandi-ku? Yoqib yuborgan kitoblaring zararli emas ekan-ku? Bular kimning vijdoniga havola? Daydidarada bir cholni otishibdi. Qotilni izlab yuribsalar. Qodiriylarni otganlarni kim qidiradi, kim jazolaydi? Mening ko'z oldimda jarga olib chiqib otishardi odamlarni. Gunohlarini bilmay ketishdi u bechoralar. Bu qabohat kimning vijdoniga havola?! Suvdan quruq chiqasanlar hammalar. Bor gunohni mo'ylovga to'nkab o'zlarine farishtaday yuribsalar.

Ovozda paydo bo'lgan titroq butun badanga ko'chdi. Solihov «Mayli, dardini to'kib olsin, keyin gaplashish oson bo'ladi», deb indamay o'tirdi. Jabborovning ko'ngliga esa g'ulg'ula tushdi. Nazarida Damin aynan uni ayblayotganday, hozir uning yoqasidan olib «Barcha begunohlarning qotili shu», deya ayyuhannos soladiganday edi. Jabborov Daminga ham biroz hadik, ham biroz nafrat bilan qarab qo'yar edi. «Mening qo'limga tushganiningda omon chiqmasding, g'alamis, — deb o'ylardi u. — Gapirib ol, kuning tug'di. Hali biz gapiradigan zamonlar ham yana kelib qolar. Sendaqalarning tuxumini quritib yuborish kerak edi. Hechqisi yo'q, shunday kun ham keladi...»

Damin hayajonga berilib so'zini yo'qotdi. Solihovning xotirjam o'tirishi ta'sir etib, joyiga cho'kdi. Chuqur xo'rsindi.

— Damin aka, ho'lu quruq baravar yondi, bilaman. Sizga tasalli bermoqchimasman. U kunlarni unuting, deyolmayman. Vaqt kelib aybdorlar yuzaga chiqishadi. Lekin biz hozir Daydidaradagi qotilni topishimiz kerak. Vazifamiz shu.

Bu gapdan keyin oraga sukut cho'kdi. Damin ko'rpaning bir chetini ko'tarib otashxonadan choynakni oldi-da, chegalangan piyolaga choy quyib Solihovga uzatdi.

— Aybga buyurmang, inim, jahl kelsa, aql ketadi. Shunaqada odamgarchilikni unutib qo'yarkansan. Bir tomoni qarichilik, bir tomoni o'tmish... Shu uyda qishloqning kattayu kichiga to'planardi. Men ularga Otobek bilan Kumushning qismatini o'qib berardim. Qayta-qayta o'qirdim, biroq baribir kelaverishardi. Bir kuni oqshomda ikki kishi bostirib kirdi. Qo'limdagagi kitobni tortib olishdi. Tokchadan ham bir-ikki kitobni saralab olib

<sup>3</sup> NKVD — demoqchi (Ichki ishlar xalq nozirligi).

odamlarning ko'z o'ngida yoqishdi. Otabek ham, Kumush ham oh urib ko'z o'ngimizda yondi-ya! Voy, kitob ko'r qilgurlar-ey, deyman, men-ku unsur ekanman, kitobda nima ayb? Uning ichida ertak, doston bor, alifbe bor-a!? Mana, Julqunboyni qayta chiqarishibdi. O'qimasam ham bo'lardi, chunki har bir harfi yod bo'lib ketgan manga. Lekin qiziqib o'qidim. Ko'p joylarini tushirib qoldirishibdi. Bu qanaqasi bo'ldi? Yozuvchini oqlaganing nima-yu, yozganini qaychilaganing nimasi? Shundan bo'g'ilib o'tirgan edim, sizlar kirib keldingiz... Aybga buyurmanglar. Ana endi so'raydiganingizni so'rang, hovurim biroz bosildi.

Solihov yon cho'ntagidan ikkita surat chiqarib Daminga uzatdi. Damin marhum Sharipovning suratiga uzoq tikildi.

— Kimgadir o'xshatyapman.

— Uni ko'rganmisiz? Balki Muhammadrizaev bilan birga kelgandir?

— Yo'q, Jahongir yolg'iz kelardi. Bu odam... oqsamaydimi? Chap oyog'i sal kaltamasmi?

Solihov yelka qisdi: buni surishtirib ko'rmagan edi. Damin jag'ini silab yana suratga tikildi.

— Olamgirga o'xshab ketadi.

— Kimga?

— Jahongirning akasi bo'lardi. Ota bir, ona boshqa. U Jahon qamalgan yili chetga qo'chib ketgan. O'likmi, tirikmi, daraksiz edi. Qosh-ko'zi o'xshab turibdi. Agar oqsoq bo'lsa, shu — Olamgir. Bu odam ham kerakmi sizlarga?

— Daydidarada o'ldirilgan shu kishi. Lekin uning ismi Olamgir emas — Siddiq Sharipov. Tug'ilgan yeri — Yusufxona. Shunaqa qishloqni eshitganmisiz?

— Yo'q, eshitmaganman, — dedi Damin bosh chayqab. — Daydidarada nima bor ekan unga?

— Shuni aniqlashimiz kerak-da. Damin, aka, to'rtinchi yo beshinchি oktyabrdan Muhammadrizaev uyingizga kelmaganmidi?

— Jahongirmi? Kelgan edi. Nima, rostdan ham uni qotil demoqchimisiz?

Solihov Jahongirning qotillikni bo'yniga olayotganini aytib o'tirmay «Shunaqa gumon bor», deb qo'ya qodi. Damin peshonasiga shapatilib, bosh chayqadi.

— Voy sho'rpeshona, peshonang buncha sho'r bo'lmasa, oshnam, endi bu ko'rgulik bormidi senga?! Uni uch marta quruq gumon bilan qamadilaring. Bitta tirik jonga shuning o'zi yetmaydimi?

— Damin aka, gumonga ishonib beayb odamni jazolamaslik uchun bu tomonlarga kelib yuribmiz.

Damin «bu odamlarga ishonsa bo'larmakin», deganday kutilmagan mehmonlarga bir-bir qarab oldi.

— Jahon bilan bolalikdan oshnamiz. Mening savodimni shu oshnam chiqargan. Madrasa ko'rgan alloma yigit edi. Jamiyatlaringga ko'p foydasi tekkan bo'lardi. Otasini kimdir kechasi otib qo'ygan. Bir kuni, shunaqa kech kuz edi, oqshomda talato'p boshlandi. Besh-o'n kishi otildi. Shuning ustiga Jahongir kelib qoldiyu baloga uchradi. Talato'pni boshlaganlar qochdi, jazoni Jahongir tortdi. Shundan beri u bechoraga kun yo'q... Ha... gumonisirayotgan ekansiz, Jahongirning taqdir daftarini o'qib chiqarsiz. Siz Jahon keldimi, yo'qmi, deb so'radingiz, a? Ha, keldi. Beshinchida ertalab keldi. Ustida yangi to'n, boshida yangi do'ppi. Oyog'ida etik...

... Damin barvaqtroq ish boshlab tanchani ochmoqchi edi. Erta kelgan kuzning sovuq nafasini oyoqlari sezib sirqiray boshlagandi. Kech kuz, qish, erta bahorda uni bu azoblardan qutqaruvchi yolg'iz panohi shu tancha. Sibirdan orttirib kelgan bu dardni

faqat shu tancha oladi. Eshik-derazani lang ochib, namatni bir chetga surib endi bo'yraniko'taraman, deganda Jahongirning ovozi eshitildi.

— Ha, ko'chyapsanmi? — dedi u eshik og'zini bulutday to'sib.

— Endi ko'chib qayga ham sig'ardim, qishning g'ami bu, oshnam, — dedi Damin bo'yranijo'yigaga qo'yib. Namatni qayta solaman deganda Jahongir unamadi.

— Meni senga Xudoning o'zi yetkazdi. Kel, qarashvoray, — deb qo'liga ketmon oldi.

Jahongir tanchani ochdi. Damin o'choqqa o't qalab, qumg'onnei qo'ydi.

Tanchaga cho'g' tushib, bir piyoladan choy ichilgach, Daminning joni orom oldi. Jahongir tanchada uzoq o'tira olmadi — oyog'ini tortdi.

— Qanday o'tiribsan, odamni yondiraman deyapti-ku?

— Ilohim oyoq og'rig'ini tortma, oshnam. Yildan yil yomon bo'lyapti. Yolg'iz yashashga qo'rqaqidan bo'lib qoldim, — dedi Damin. — Bexos omonatimni topshirsam, shu tanchada sasib yotaveraman. Yolg'izlik Xudoga xos, deb to'g'ri aytishar ekan. Odamzod kimlar bilandir birga yashashi lozim ekan. Endi ming oh uray, foydasi yo'q. Xotinim birovga tegib ketgan ekan, men ham uylanavermaymanmi, etak-etak bolalarni tug'dirib tashlamaymanmi?.. — Damin, ming la'nat, deganday qo'l siltab qo'ydi.

— Qarib bir qop o'tin bo'lib qolibsandi, hozir ham uylanib olaver.

— Qishloqda erga tegishi mumkin bo'lgan bittagina beva bor. Madad qallobning bevasi. O'shangan uylanaymi? Qancha odamni quritdi u ablak. Meni qamashganda ham guvohlik bergen. Endi kelib-kelib shuning sarqitiga uylanamanmi?

— Men «o'sha bevaga uylan» dedimmi, buncha chirillaysan?

— O'shani eslasam qonim qaynab ketadi. U ablak sal barvaqtroq o'lib ketdi-da, hozir tirik bo'lgandami?..

— Qo'lingdan nima kelardi? Sotganlar, qamaganlar, otganlar — hammasi yuribdi davrini surib. Nohaqlik bir dumalab haqiqatga aylanti deysanmi? Aylangan bo'lsa ham po'stinini almashtirdi. Ichi o'sha-o'sha. Iblis o'Igani bilan uning qabri atrofida faryod urayotganlardan qo'rqqulik. Ke, qo'y shu siyosatingni, gapirgan bilan foydasi yo'q.

— Sen bir umr siyosatdan qochib yurding. Shuning uchun ham kosang oqarmadi.

— Seniki oqardimi?

— Men boshqa toifaman. Sen alloma toifasan. O'zingni chetga olgанин uchun Xudo seni jazoladi.

— Chetga olmaganlarni-chi?

— Gapni aylantirma.

— Sen ham chaynalaverma. Har bir odamning o'z siyosati, o'z maqsadi bo'ladi. Men Xudodan «maqsadimga yetkar», deb so'rab yashadim. Maqsadimga qaysi yo'llar bilan yetkarish yolg'iz Ollohnning ishi. Shu azobli yo'llarni ma'qul ko'ribdimi, hazor-hazor shukr. Meni turmalarga qamadilar. Ammo ruhim ozodlikda yurdi. O'risning sovuq yerlarida jismim azob cheqdi. Biroq ruhim erkinlikda qoldi. Chunki ruhimni Ollohnning panohiga berib edim. Yomonlik jabrini faqat menu sen ko'ribmizmi? Sen qahringni sochaverma, yuragingni keng qil.

— Yuragim keng, oshna. Menda bitta emas, ikkita yurak bor. Biri yomonlar uchun zulmat bo'lib qorong'ulikka o'raydi, ikkinchisi quyosh bo'lib yaxshilarga nur beradi, — dedi Damin. Xayoliga kelgan bu dono fikrdan o'zi ham mammun bo'lib, tomoq qirib qo'ydi. Jahongir uning mammunligini sezdi. U bunday holda Daminning fikrini ma'qullamagan odam baloga qolishini bilardi. Biroq, oshnasining fikrini to'g'ri deya olmas ham edi. Shu sababli Daminga tikilib, picha kutdi.

— Xudo bitta, — dedi u bosiqlik bilan, — odamning tili ham, dili ham bitta. Ikki dilli, ikki tilli, ikki Xudoli odam riyokor bo'ladi. Sen musulmon farzandisan. O'sha bittagina yuragingni barchaga teng ulash. Shunda Ollohga yorug' yuz bilan ro'baro' bo'lasan.

Damin bu gaplarni eshitib, boshini egib oldi. U vujudida uyg'ongan g'azabni bosib o'tirardi. Uzoq yo'l bosib kelgan oshnasiga qattiq gap aytib, ko'nglini xira qilishni istamadi. Tizgin bo'shab ketsa «Olloh, Olloh, deb yurib ko'rgan kunlaring shu bo'ldimi», deb ko'p gaplarni aytib yuborishi, oshnasining yuragidagi yaralarni tirnab qo'yishi mumkin.

— Endi menga ijozat ber, — dedi Jahongir. — Safsata sotib jig'ingga tegmay. Dunyo sening ko'zingga boshqacha ko'rindi, menikiga boshqa. Aytishganimizning foydasi yo'q. Men senga bir gapni aytgani atayin keldim: qolgan umringni toat-ibodatda o'tkaz. Shuncha kitob o'qiganing yetar.

— Menga xat o'rgatgan odamning gapimi bu! — Damin endi jahlini yashira olmadi. — Men kecha-kunduz uqlamay kitob o'qishim mumkin, lekin sen yozib bergen oyatlarni yodlayman, desam uqlab qolaman.

— Yosh bola emassan, esingni yig'. O'ligim tanchada qarovsiz yotmasin, desang, toat-ibodat qil.

Jahongir yuziga fotiha tortib, o'rnidan turdi.

— Shu ketishda shaharga jo'naysanmi?

— Yo'q, hozir Daydidaraga borama. Oqshomda yoningga qaytaman. Bir dardlashib yotamiz. Balki qishloqda butunlay qolarman.

— E, bormisan, oshnam. Qo'y, o'sha shaharingni. Qariganda bir-birimizga suyanib yashaylik.

Jahongir qaytgach, Damin guzarga tushib go'sht olib chiqdi. Qozon osdi. Sabzi-piyozni qovurib, do'stini kutdi.

Jahongir quyosh botmay turib qaytdi. Yo'lda yiqilganmi, o'ng yengi loy. Rangi oqargan. Ertalabki bosiqligi, xotirjamligi yo'qolgan. Lablari uchadi.

— Nima balo, bezgak tutdimi? — dedi Damin, uni qarshi olib.

— Shunaqaga o'xshaydi, etim uvishyapti, — dedi Jahongir.

Damin uni tanchaga o'tqazib choy uzatdi. Jahongir bir qultum ichib piyolani patnis ustiga qo'ydi. Boshini egib ancha vaqt jim o'tirdi. So'ng «Olloh, gunohimni o'zing kechir», deb pichirlab do'stiga qaradi. Endi lablari uchmadi. Biroq ko'zlaridan nur qochgan, qarashlarida ma'no yo'q edi.

— Olloh yuz o'girdi yana mendan, — dedi bo'g'iq ovozda. U bor dardini ana shu so'zlard ifoda etdi.

— Dardingni menga ayt, malham bo'larman, balki, — dedi Damin.

— Dardim... bu mening dardim... hech kimni sherik qilmayman. O'zim bilan birga ketadi.

Jahongir shunday deb yana boshini egdi. Damin uning xatti-harakatida bir sir yashiringanini sezsa ham so'rashga jur'at etmadi. Bu sir birovga aytildigan bo'lsa, Jahongir aytardi. Indamayaptimi, demak, so'rashning foydasi yo'q.

— Men guruch solay, — dedi Damin vazmin ohangda.

— To'xta, o'tir... men ketaman.

— Nasibangni tashlab ketma.

— Nasibam... nasibam qirqilganga o'xshaydi. Endi, oshnam, boshqa ko'rishmasak kerak. Yaxshi-yomon gaplarim uchun, bergen osh-tuzing uchun rozi bo'l. Men sendan roziman.

— Bu nim deganing? O'limni bo'yningga olmoqchimisan?

— Bilmayman... men o'lmayman o'lmasligim kerak, deb yashadim. Xudoym dilimga bir niyat solgan edi. Shu niyat ushalmaguncha Olloh jonimni olmaydi, derdim. Niyatim ushalmadi. Umr bo'yi Ollohim bergen barcha azoblarga shukr qilib don yetishtirdim.

Yetishtirdimu chumchuqqa oldirdim. Endi... bilmayman... Menden gap so'rama... Agar o'tganimni eshitib qolsang, ruhimga duo bag'ishlasang bas.

— Yozib berganlaringdan birini yodlab o'qisam o'qirman, lekin Xudoga ishonmayman-ku, bu yog'i qandoq bo'ladi?

— Ertami-kechmi, baribir ishonasan. Bandaning boshqa yo'li yo'q.

U shunday deb fotiha o'qidiyu turdi. Damin unga qarshilik qilmadi.

Jahongir qabriston tomon yurdi. U shirin uyquday bir o'limni orzu qilgan edi. Bu orzuga yetishishi ham gumon bo'lib qoldi.

Damin so'nggi diydor kunini, do'stining so'nggi gaplarini aytib sukutga toldi. Mayor Solihov uning singan ruhiga yana azob bermaslik uchun darrov savolga tutmadi. Jabborov bezovtalanib soatiga qarab qo'ydi. Uni hozir bu jikkak odamning gaplari qiziqtirmas, aksincha loy yo'ldan iziga qaytish tashvishga solayotgan edi. Solihov hamrohining bezovtaligini sezib, unga norozi qiyofada boqdi.

Solihov Daminning ahvol-ruhiyasiga tushunib turardi, biroq u aytgan gaplar bilan kifoyalanib chiqib keta olmas, shu uchun sukutga ko'p erkinlik berolmas ham edi.

— Muhammadrizaev nima uchun qabriston tomonga ketdi?

— Ena-otasi o'sha yerda.

— Qishloqda boshqa hech kimi yo'qmi?

— Yo'q. Akasi qochib ketgan. Opalarini quloq qilgansizlar. Jahon ularni ko'p qidirdi, topolmadi.

— «Don yetishtirdimu chumchuqqa oldirdim», deb nimani nazarda tutgan ekan?

— Kim biladi, bu bir mataldir-da.

— «Sharipovni men o'ldirmoqchi edim, boshqa odam o'ldirib ketibdi», degan gap emasmi?

— Bilmadim. Sharipovingizni men tanimasam, Jahon uni menga gapirmagan bo'lsa.

— Muhammadrizaevning miltig'i bormidi?

— Miltiq nima qiladi unda? U xudojo'y odam edi. Odam o'ldirganiga men ishonmayman.

— O'zi bo'yniga olyapti-ku?

— Sizlarning qo'llaringizga tushgan odam qotillikni bo'yniga olish u yoqda tursin, onasiga uylanishga ham rozi bo'lib ketadi.

— Damin aka, besh qo'l barobar emas. Bu gaplaringiz o'rinsiz. Biz «bo'yningga ol», deb zo'rلамадик. Uni izlaganimiz ham yo'q. O'zi kelib bo'yniga oldi. Qotillik yuz bergen joyda etigining izi bor. Bizga bir narsa qorong'i: u Daydidaraga nima maqsadda borgan? Agar o'sha yerda ishi bo'lsa, nima uchun to'g'ri boravermasdan siznikiga keldi? U yerdan nima uchun yana siznikiga qaytdi?

— Tushunmadingizmi? — dedi Damin zarda bilan. — U meni xudojo'ylikka burmoqchi edi. O'lsa orqasida menden bo'lak yaqini yo'q. Shu gapni aytib qo'ymoqchi bo'lgan.

— Marhumni uning akasiga o'xshatdingiz. Agar shu odam rostdan ham akasi bo'lsa buni sizga aytarmidi, «Akamni o'ldirib ketishibdi», demasmidi?

— Aytish lozim bo'lganini aytardi, lozimmasini aytmasdi.

Daminning keyingi gapida keskinlik sezildi. Solihov ortiqcha savol-javobga o'rin qolmaganini anglab, o'rnidan turdi.

Ular qishloq soveti idorasiga kirmay izlariga qaytishdi.

— Bu Damin deganlari balki Rizaev bilan birga borgandir Daydidaraga? — dedi Jabborov.

— Balki borgandir, — dedi Solihov e'tiborsiz ohangda.

— Uslubingizga tushunmayapman, o'rtoq mayor. Rizaev bo'yniga oldi, etigining izi tasdiqlab turibdi. Bu tasdiq ham yetmasa, ana, oshnasi ham aytyapti. Borgan. Sarosimada qaytgan. Nima uchun sarosimada qaytgan? O'likni ko'rib qo'rqb ketganmi? Be, bunaqalar o'likdan qo'rqlamaydi. Otishga otib qo'yib esxonasi chiqib ketgan. Balki Xudo oldida gunoh qilib qo'yganidan qo'rqqandir?

— Bu sizning uslubingiz, o'rtoq kapitan. Siz arqonni kalta tashlar ekansiz. Men uzun tashlayman. Sizning taxminlaringizni ham hisobga olaman, rahmat.

— Harholda Daminni nazardan qochirmang. Gaplariga e'tibor berdingizmi? U bizni haqorat qildi. Lekin siz indamadingiz?

— O'zingizni uning o'rniga qo'yib ko'ring. Bizning hamkasblarimiz uning umriga zomin bo'lishgan. Endi bizdan nafratlanishga haqqi bor.

Bu gap tutab turgan o't ustiga moy sepdi — Jabborov yonib ketdi.

— Haqqi yo'q, bildingizmi, haqqi yo'q davlat organi odamlarini haqoratlashga, — dedi u ovozini balandlatib. — Uni bizning hamkasblarimiz qamagani yo'q. Biz uning kimligini qaydan bilib o'tiribmiz? O'z odamlari, o'zining yaqinlari bo'yniga sirtmoq tashlab bizga ro'para qilishdi. Biz ularning gaplariga ishonib turmaning eshigini ochib berdik. Mening o'rnimda siz bo'lganingizda siz ham ochib berar edingiz. Siz hozir bizni ayblayapsiz. Hozir xo'p deyishdan o'zga choram yo'q. Lekin vaqt kelib biz qaddimizni ko'taramiz. Avlodlar vaziyatni to'g'ri tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqaradilar. Jamiyatning taqdiri o'sha yillari qil ustida ekanini tushunib yetadilar. Haqiqiy unsurlar bilan birga tuhmatga uchraganlar ham ketdi. Xo'sh, nima bo'pti? Jamiyat unsurlardan tozalandi-ku?!

— Faqat unsurlardan emas, oqillardan ham.

— Ha, oqillardan ham. Lekin jamiyat tirik! Sizning fikrlaringiz meni ajablantiryapti, o'rtoq mayor. Siz kommunistsiz-ku axir?

— Ha, kommunistman, shuning uchun ham partiyaga dog' tushirgan ishlarga befarg qaray olmayman.

— Siz Daminga o'xshaganlarni butunlay oqlab yanglishasiz. Gapiga tushunmadingizmi? Jamiyatimiz emas, «jamiyattingiz» dedi. U o'zini bizning jamiyatga mansub deb bilmaydi.

— Faqat ugina emas, ko'pchilik shunday fikrlaydi. Chunki jamiyat tizgini uzoq vaqt bizga o'xshaganlar qo'lida edi. Bu, birinchidan. Ikkinchidan, jamiyatni o'zgartirishdan avval odamlar ichki dunyosini, ruhiyatini o'zgartirish, ong darajasini ko'tarish lozim edi. Avval jamiyatni o'zgartirib olib, so'ng odamlarni shunga mos ravishda o'zgartirish mumkin emas. Biz ana shu mumkin bo'limgan ishni amalga oshirish uchun tish-tirnog'imiz bilan kurashdik. Damin akaga o'xshaganlar xavfli emas. Aksincha «jamiyatimiz!» deb ko'krakka urib, jar soladiganlar xavfli.

— Men bu masalada siz bilan murosa qila olmayman.

— Shuning uchun bahslashib yurmasdan, qotilni topishni o'ylaylik. Haq-nohaqni ajratadigan eng odil hakam — vaqt.

Loy yo'ldan borayotgan bu ikki odamning fikri, dunyoqarashi oyoqlaridagi poyabzallari kabi xilma-xil edi.

## 5. FARZAND

*Turmada ruhi azob chekib, Xudodan o'lim tilayotgan Jahongirning dardiga yana sherik bo'lishga to'g'ri keladi.*

- «Muhammadrizaev, beshinchi oktyabr kuni Qirqbel qishlog'iga nima uchun bordingiz?
- Do'stimni ko'rgani.
- U bilan nimalarni gaplashdingiz?
- O'zi aytgandir.
- Men sizdan eshitmoqchiman.
- Olloh yo'liga qayt, bedinlardan yuz o'gir, dedim.
- Yana?
- O'lib qolganimni eshitsang, ruhimga duo bag'ishla, dedim.
- Daydidaraga nima uchun bordingiz?
- Ov qilgani.
- Miltiqsiz-a?
- Kim aytdi?
- Do'stingiz.
- Bekor aytibdi, miltig'im bor edi. U meni asrab qolmoqchi bo'lgan.
- Marhum oqsab yurarmidi?
- Yo'q.
- Qaerdan bilasiz, yurganini ko'rdingizmi?
- Ko'rmadim. Nachaynik, chalg'itmang meni.
- Daydidarada do'stingiz Damin ham bormidi?
- Yo'q edi.
- Murda atrofidagi uchinchi iz kimniki?
- Bilmayman.
- Boring, dampingizni oling...»

Tepasi temir to'r bilan yopilgan uzun dahlizdan yurib kelayotgan Jahongirning xayolida shu savol-javob charx urardi. Har bir qadam tashlashi — bir savol. Har bir qadami uni mavhum olamga tortadi. Eshik sharaqlab ochiladi. Bu hibsxona eshigi emas — o'sha mavhum olam eshigi. Undagi temir karavot ham, qattiq yostiq ham — barchasi mavhum. «Bu dunyochi? Bormi o'zi bu dunyo? Xudo bu dunyoni nima uchun yaratdi? Odamlarni sinash uchun... Men o'tolmayapmanmi bu sinovdan?..»

Jahongir shu o'y bilan band bo'lib ichkari kirdi. Karavotiga o'tirdi. Hech kim undan «holing nadir», deb so'ramadi. Jahongir atrofiga qaradi: unga e'tibor beradigan zot ko'rinnadi. Avvalgi kuni shunday bo'lishidan rizo edi. Bugun o'kindi. Daminning yolg'izlik haqidagi aytgan gapini eslab o'tirganida shundaygina yuvingich yaqiniga qo'yilgan karavot temiriga peshonasini bosib turgan odam o'krab yubordi. Qamoqxona uchun bunaqangi yig'i, dodlash, faryod urish yangilik emas. Erkdan mahrum bo'lishni har kim har xil hazm qiladi. Birov tinmay xo'rsinadi, birov oh uradi. Jahongirga o'xshab avval ham qamoq jabrini tortganlar bunday manzaraga aytarli e'tibor bermaydilar. Chunki faryod urgan odam biroz fursat o'tmay o'zini bosib oladi, qilgan ishidan xijolat ham tortadi. Shu sababli g'amga bandi bo'lib to'lg'onayotgan odamni xoli qo'yish kerak. Qamoqxonaning taomili shu. Biroq taomil deganlari har qadamda buzilgani kabi bu yerda ham chetlab o'tilishi tabiiy. Faryod urayotgan kimsaga dalda beruvchi, yupatishga urinuvchi mehribonlar topildi. «Qo'ying endi, o'zingizni bosing», degan gaplardan keyin u battar avjiga chiqdi. Eshikka otolib, mushtlari bilan do'mbira qila ketdi.

— Berahmlar, zolimlar! — deb qichqirardi u bor ovozi bilan. Qo'yvorlaring meni, hech bo'lmasa bolalarimni o'z qo'lim bilan qo'yay yerga. Oxirgi marta bir ko'ray bolalarimni!..

Odam temir eshikni ura-ura toliqdi. Uni karavotiga qaytardilar.

— Bu qanday ko'rgulik, bu qanday ko'rgulik-a! — U odam shu gaplarni takrorlar, dam-badam peshonasiga urib qo'yardi. Bir mahal u o'rnidan turib atrofga alangladi:

— Odamlar, ichlaringda biron musulmon bandasi bormi, o'zi? Hech bo'lmasa shu yerda janzoza o'qib qo'yaylik.

Hech kimdan sado chiqmagach, Jahongir unga yaqinlashdi:

— Birodar, janozani murdaning tepasida o'qishgandir. Gaplariningizdan ma'lum bo'ldiki, boshingizga kulfat tushgan. Endi siz bilan bizdan lozimi — tilovat qilib, marhumlar ruhiga bag'ishlash.

U odam gapi bama'ni, ko'rinishi esa qo'rqqulik Jahongirga picha qarab turdi-da, xuddi jigarini ko'rganday quchoqlab olib, ho'ngrab yubordi.

— Ikki bolam bilan beva qoluvdim. Shularning issiq-sovug'idan xabar olsin, deb uylanuvdim. Ming la'nat menday otaga. Peshonamdan otishsin, mingdan-ming roziman. O'sha yalmog'izni o'ldirganim uchun emas, o'shang aylanganim uchun, bolalarimni o'gay onaga topshirganim uchun otishsin. Bolalarimning ko'z yoshlarni to'ktirganim uchun otishsin. Menday otani Xudo do'zaxda kuydirlsin. Do'zaxga tushmasam rozimasman. Bolalarim norasida ketdi, hur ketdi. Ular jannatga boradilar. Men borolmayman ularning yoniga, ularning ko'zlariga qarolmayman, jannatga borishni istamayman, do'zaxda kuyay men, do'zaxda!!! U yalmog'iz ikkovini ham bo'g'ibdi-ya! Shunaqa yalmog'iz borligini hech eshitganmisiz? Men uni bolta bilan chopib tashladim. Qiyma-qiyima qildim uni. Endi meni otishsin, peshonamdan otishsin. Aql kirmagan bu kallani majaqlashsin!

Jahongir uning yelkasini silab, indamay turdi. U odam gapdan tingach «Farzandlaringizga duoi fotiha lozim», deb qo'ydi. So'ng yengini shimarib yuvingichka yaqinlashdi. Na tahoratga, na tayammumga imkon bor bu joyda, nomiga poklanib olishgina mumkin edi. Jahongir karavotga o'tirib tilovat qildi. Savobini marhumlarga baxshida etgach, qamoqxonaga o'lik sukunat cho'kdi. Taqdir shu toshdevor, tosh boshipana ostiga to'plagan nasroniyalar, ibriylar ham sukutda edilar. Bunday g'am, bunday dard ayniqsa bu sharoitda din, millat ajratmaydi. Odamga pichoq urayotganda qo'li qaltiramagan qotillar ham bunaqa paytda, ozgina bo'lsa-da, ruhiy kechinmalarga bandi bo'ladi.

Hozir bu qamoqxonada shunday vaziyat hukmron edi. Ertaga o'z taqdirlari nima bo'lishini, jigargo'shalaridan necha ming chaqirim nariga, necha yilga ketishlarini bilmay ezilib o'tirgan odamlar ruhi qiymalandi. Odatiy gurunglar barham topdi. Jahongir darrov joyiga qayta olmadi. U odam Jahongirni panohkoraday bilib qolgan edi. Uning nazarida Jahongirning duoi fotihasi hur bolalarini to'g'ri jannatga, rohat-farog'atga boshlab bordi. Jannatda ular onalari bag'riga kirdilar. Bu yorug' olamda ro'shnolik ko'rmaganlarini, uylariga o'gay ona kelgani va bir kechada o'lim topganlarini aytib berdilar. Shunda ona nima qildi? Uni — otani qarg'adimi?..

U odamning ko'nglidan shunday gaplar o'tib, ko'zlar yoshlanar edi. Jahongir uning yuragini kemirayotgan gaplardan bexabar, o'zining dardi o'ziga yetsa-da, bu dilxastani yolg'iz qoldirib nari ketolmas edi. Jahongir garchi o'z bolasini ko'rmagan, qo'liga olib suymagan bo'lsa-da, taqdiri noma'lum farzand dog'ida kuygan, o'rtangan, alalxusus bu odamning alamlarini his qila olardi. Xotini Xadichanining ko'zi yoridimi, bolasi kimlarning qo'lida qoldi: xo'rlandimi, zorlandimi? Daydidaradagi chinor ostida otasining bir dunyo boyligi bo'laturib musofirlikda bir burda non deb qaqshadimi?.. U tirikmi, u bilan diydor ko'rishish nasib etadimi? Bu savollarga yillar javob kutib yashash uchun odam metindan bo'lishi kerak. Yo'q, metinga hadeb bolg'a uraversangiz, u ham darz ketadi, yoriladi, parchalanadi. Jahongir esa hayotining sitam bolg'alari zarbalariga dosh berdi — darz ketmadni, yorilmadi, parchalanmadni. Yorilay deganda, parchalanay deganda umid degan tiriklik suvi uni hayotga qaytardi, yuragiga darmon berdi.

Nihoyat... umid bulog'ining tiriklik suvi quridi. Yurakdan darmon ketdi. Parchalanish ayon bo'lib qoldi.

Jahongir bu odamni so'roqqa chaqirganlaridan so'nggina joyiga qaytdi. Karavotiga yonboshlab, ko'zlarini yumdi. Kechadan beri Zokirxo'jani eslayotgani uchun yana o'sha dimiqqan, badbo'y, nimqorong'i vagon ko'z oldiga keldi.

Zokirxo'ja bilan tanishgan kunning ertasi edi. Yoshi ellikdan oshmagan Zokirxo'janing gaplarini eshitgan Jahongir madrasada olgan bilimlarim hech qancha emas ekan-da, deb o'tirardi. Poezd to'xtab qolgan, odamlarning gaplashishga ham xushlari yo'q edi. Tepadagi darcha sari bo'ynini cho'zib tashqariga qarayotgan uzun bo'yli qotma kishi ruschalab bir nimalar deb yubordi. Keyin boshini changallab o'tirdi. Jahongirning nazarida kimdir tashqaridan turib uning yuziga tosh-posh otgandek edi. Shu sababli unga yaqinlashib: «Nima bo'ldi, birodar», deb so'radi. Uzun odam darrov javob bermadi, bosh chayqagan holda o'zbekchani sal buzibroq:

— Uzing kara, — dedi.

Jahongir oyoq uchida turib temir panjarali darchadan tashqariga qaradi. Bekatda katta odamlarga nisbatan juldur kiyimli bolalar ko'p edi. Ularning ayrimlari to'p bo'lib o'tirar, ayrimlari panaroq joylarda qo'nishib yotar, ayrimlari o'lja ilinjida pisib yurar edi.

— Yetimchalarmi bular? — deb so'radi Jahongir.

— Ha, yetimchalar, — dedi uzun odam. — Parvadigor bizni urgan mayli, bolalarda gunoh nima? Revolyutsiya degan ajdarni bizga yuborgan, mayli. Bolalarga nima uchun yuborgan? Bolalarni kiynash urniga bizni uldirmaydimi? Parvardigor bolalarni bizni kulimiz bilan kiynagan. Bolalarni bizni kulimiz bilan uldirgan. Bola — kelajak. Sin kelajakni kurding? Kelajak yuk indi. Ular Turkestan kitishyapti. Nonga kitishyapti. Turkestan non beradi, uy beradi. Lekin baxtni kim beradi? Ota-onasini kim beradi?

— Ha, qiyin bechoralarga. Xor bo'lib ketishibdi, — dedi Jahongir.

— Bolaga baxt bermagan hukumat xalkiga kelajak bermagan. Bu yamon, judda yamon. Bu bolalarda indi raxm-shafkat bulmaydi, dust bo'lmaydi. Bularda nafrat ko'p buladi. Kiyin, juda kiyin. Buyuk Rossiya xarob bo'ldi.

— Kim xarob qildi? — dedi Jahongir. Uzun odam yana afsus bilan bosh chayqadi.

— Biz... biz...

— Siz bizning ham tinchimizni oldingiz.

— Yuk, siz tugri gapirgan emas. Turkestan hali tayyor emas bunaka uzgarishlarga. Uzbek partiya yo'k, nima kilishini bilmagan uzbek. Yarmi bolshevik kushuladi, yarmi turk kushuladi. Mujik bilmaydi. Rus mujik ham bilmaydi.

Poezd vagonlari bir-biriga sharaqa-shuruq urilib, sultanib-sultanib o'rnidan jildiyu ularning suhbati uzildi. Vagonda Jahongir bilan Zokirxo'jadan bo'lak o'zbek yo'q edi. Shu sababli ular bir necha kun ichida og'a-inidan ziyoda bo'lib ketishdi. O'sha bekatdagi voqeadan so'ng o'zbek tilini biladigan Sergey ham ularga yaqinlashdi.

— Uzbekchani qaerdan o'rgandingiz? — dedi bir safar Jahongir. U aslida «nimaga o'rgandingiz?» deb so'ramoqchi edi, savolim qaltis chiqmasin, deb lutfga o'rab shunday dedi. Sergeyga bunday savollar ko'p berilardi. U savolning mohiyatini ham bilib turardi.

— O'zbekning suvi shirin, noni shirin, a? — dedi u Jahongirga. — Tili-chi? Tili bemaza bulish niga kerak? Tili-da shirin. Organmagan — bu gunah. Man dvoryanin, potomstvennyi dvoryanin. Kup til bilgan — madaniyat. Bilmagan — mujik. Angalading? Zokirxo'ja oka arab til bilgan. Bu — madaniyat. Men rus ofitseri, otishga kelmagan. Menga maqsad timuridlar tarixini organish bulgan. Revolyutsiya hammasiga yul berkitgan. Angladning?

— Gapingizni-ku, angladim. Biroq olam ishlarini — anglamay garangman. O'ris o'risni qamasa, o'zbek o'zbekni qamasa. Bu ne hol bo'ldi? Musulmon bilan nasroniy bir sassiq vagonda yotsa?

— Musulmon-xristianin — bitta odam, — dedi Sergey unga e'tiroz bildirib. — Xudo bitta. Musa paygambar, Isa paygambar, Muxammad paygambar — Xudo elchilari. Xudo bitta. Faqat siniamiz har xil. Ibodatxona-da har xil. No, xudo bitta. Muhimi shu. Barcha odam teppa-teng. Ajratish gunax. Tugrimi, mulla Zakirxodja oka?

— Olloh barchani baravar yaratgan, — dedi jimgina o'tirgan Zokirxo'ja ularning suhbatiga qo'shilib. — Muso alayhissalom bilana Iso alayhissalomga aziyat yetkurgan odamlardan Tangri-taolo g'azabda bo'lgan. Bu yorug' dunyoda odamlar bir-birlariga mehr-muhabbatda bo'lib, yovuzlik urug'ini yanchishlari lozim. Bu — Ollohnning irodasi.

— Sizga barakalla, Zakirxodja oka. Ular bizni notugri kamadilar. Men Rossiyani sevgan. Siz-da, Turkestanni. Bu gunax emas, buyuk ish! Ular ham sevgan. Bu ham buyuk ish! Ular boshkacha sevgan, biz boshkacha. Bir-birimizni otgan, kamagan — buyuk ish emas. Odam bir-biriga tushungan zarur. Shunda Rossiya ham, Turkestan ham gullagan. Tugrimi, mulla Zakirxodja oka?

Zokirxo'janing xayoli boshqa yerdamidi yo suhbatga aralashgisi yo'qmidi, harholda noxushgina bosh silkib qo'yaqoldi.

Manzilga yetib kelib, muz o'yib, ma'dan qazisha boshlaganda ham ular yonma-yon edilar. Mehnat azobini birga baham ko'rdilar. Lozim bo'lгanda Sergey tilmochlik qildi. Zokirxo'ja og'rib qolganida Jahongir bilan navbatma-navbat xabar oldi. Zokirxo'ja omonatini topshirganda «Ma'murlardan tobut undiraman», deb harakat qildi. Jahongir «Odam tuproqdan yaralgan, tuproqqa qo'shilib ketishi kerak», deb to'sqinlik qilmaganida balki undirardi ham. Jahongir: «Odam bolasi tug'ilishi bilan yuvintirilib, oqqa o'raladi, u dunyoga ketishida ham shunday bo'lishi kerak. Xo'jayinlarga ayt, oq surp topib berishsin», dedi. Odamgarchilik nimaligini bilmaydigan odamlar bir mahbusining o'ligiga surp topib berar ekanmi? Jahongir shuning fahmiga yetmay, bir musofirni odam qatorida yerga qo'ymoqchi edi, umidi ushalmadi. Musofirlikda, yana erksizlikda o'lish hech bir kimsaning boshiga tushmasin ekan. Jahongir Zokirxo'jadan ajrab qolganiga emas, uning xor bo'lganiga yig'ladi. Otasini yerga qo'yganda ham bunchalik ezilmagan edi. Xorlik yomon ekan, erksizlik yomon ekan. Buni Jahongir o'shanda aniq his etdi.

Muz o'yib, ma'dan qazib qabargan qo'llar g'aribona qabr qazdilar. Sovuqda muzlab saksovuldek bo'lib qolgan tanani yerga ohista qo'ydilar. Jahongir muz qabr oldida ancha turdi. O'shanda uning yonida Sergey bor edi. Murdani ko'mish uchun faqat ikki kishiga ruxsat berilgan edi. Jahongir na shirin noni, na shirin so'zi bo'lgan soqchilaru xo'jayinlarning fe'lini keyinroq tushundi. Ilgari bu yerlarga ozodlik, yangi turmush istaganlar haydab kelingan. Endi esa o'sha ozodlikni, yangi turmushni berishni istamaganlar mahbuslar kiyimida. Avvalgi mahbuslar esa ular ustidan hukmron. Shunday ekan, rahm-shafqat, odamgarchilik haqida so'z bo'lishi mumkinmi?

Qor uchqunlarini chirpirak qilib o'ynab yuzlariga urilayotgan shamol ham, badanbadanlardan o'tib ketgan sovuq ham ularni qabr yonidan tezgina quvishga ojiz edi. Ular bu damda faqat Zokirxo'jani o'ylamasdilar. Har biri o'z taqdirini ham o'ylar edi. Cho'kichlarni sudrab izlariga qaytar mahallarida bu o'ylarning bir chimdimi tilga ko'chdi:

— Mulla Zakirxodja azoblardan kutulgan, — dedi Sergey, — indi kiynalmagan. Xudo bilan gaplashgan. Xudo uni jannatga yuborgan. Mulla Zakirxodja e'tikodiga sotkinlik kilmagan. Bu yakshi! Juda yakshi! No, juda ogir. Mulla Zakirxudja chidagan. Fakat Vatandan uzokda uldi. Bu chatok. Biz ulmasligimiz kirak. Bizga yashash kirak.

— Mening o'lishim mumkin emas, — dedi Jahongir, — Xudo menga o'lim bermaydi, yelkamda yumush bor. Olloh ko'nglimga solgan. Xudo xohlasa bu yumushni ado

etganimdan so'ng otamning yonidan joy beradi. Yuragimda bundan bo'lak armon yo'q. Men uyimdan uzoqdaman. Siz yaqinsiz. Siz Rusiyadasiz. Bu yerlar sizning yurtingiz. Mendan ko'ra sizga osonrq...

Jahongir «otamning yoniga qaytaman», deganda ko'z oldidagi oppoq muzlar, muzlar ustida uchib yurgan oppoq qor uchqunlari avval qip-qizarib ketdi. So'ng asta qoraydi. So'ng muzlar yashil tus oldi. qor uchqunlari to'zigan shaftoli guliday ucha ketdilar. Jahongir entikib to'xtadi. Ana — Qirqbel! Ana — bog'lari! Ana... do'nglik — qabriston... Teparoqda ajdarqoya...

— Singa nima bulgan?

To'zigan shaftoli barglari yana qor uchqunlariga, yashil bog'lar muzliklarga aylandi.

— Singa nima bulgan?

— Ko'zim tindi.

— Tizrok yurganimiz kirak. Poshli.

Tez yurishga majol yo'q edi.

— Sen uzingni maxkam tut. Uzing aytgan-ku «ulishim mumkin emas». Znachit, maxkam tut. Maxkam tutmagan — ulgan.

Qorayib turgan yog'och uyga yetib borib ichkari kirishgach, jonlari biroz orom oldi, ammo badanlariga issiq o'tmadi. Mahbuslar ishda, xona bo'sh edi. Bunday paytlarda pech yoqilmasdi. Pech tunda, mahbuslar muzlab o'lib qolmasliklari uchungina yoqildardi.

— Men mulla Zakirxodjaga achingan, — dedi Sergey. — U yalgiz. Bolasi yuk. Juda achingan. Kim eslaydi uni? Senda bola bor?

— Bor...

Jahongir shunday deyishga deb, seskanib ketdi.

— Nechta ugil-kiz?

— Bilmayman... hali tug'ilmagan edi.

— Kechir meni... Singa ogir. Juda ogir. Minga ham ogir. Minda bitta ugil, bitta kiz. Ular Samarkand kolgan. Men bilmagan, ularga nima bulgan. Sen eslaysan, vokzalda yamon yurgan bolalar eslaysan? Men ularni kurgan, bolalarimni eslagan. Men chet mamlakat ulgurmagan. Karindoshlar ketgan.

— Chet mamlakatga? — Jahongirning ko'z oldiga otasi keldi. — Nima bor chet elda?

— Chet mamlakat yakshi. Uzbeklar ham ketgan.

— Ketgan, bilaman. Vatanni tashlab ketish — xoinlik. Ular xoin! Ular qorin qullari. Bu yerda ham bir kosa ovqatga qorin to'yadi, chet elda ham. Xorijda ikki kosa icholmaysan baribir. Dadam rahmatli shunday derdilar. Hovlingizdag'i itga suyak tashlamasangiz ketib qolmaydi-ku? Ular esa ketishdi... Ko'rarga ko'zim yo'q ularni... — Jahongir shunday deb tishlarini g'ijirlatdi. Ko'ziga Ajdarqoya, undagi odamlar ko'rindi. Agar ular hozir shu yerda paydo bo'lib qolishsa, yoinki aksincha, Jahongir umri bir necha oy iziga qaytib o'sha yerda bo'lib qolsa, ularni g'ajib tashlashga tayyor edi. Vatandan uzoqlarga olib ketayotgan oyoqlarni chopib tashlar edi. Vatanga ola qaragan ko'zlarni o'yar edi, noshukr so'zlarni aytgan tillarni sug'urib olar edi, o't qo'ygan qo'llarni sindirar edi...

— Sen notugri gapirgan... Mujiklar bizni kiynagan. Biz kitgan, ular xarob bulgan. Sung biz kaytgan. Rossiyaga biz kerak. Judda kirak. Ayt, sen, pul, uy bizniki yo mujikniki?

— Hammasi Ollohniki. Olloh bizni sinash uchun birimizga oz, birimizga ko'p bergen. Yo'ldan ozganlar boriga shukr qilishmadi. Bu qiliqlari bilan qiyomatni chaqirishdi. Subhi mahsharda gunohlariga yarasha mukofotlarini olarlar, inshoollo. Mening rahmatli otam topganlarini berdilar faqirlarga. Olloh shuni istagan ekan, berdilar. U dunyoga imonlari pok ketdilar. Olloh istasa bizga yana beradi. Mol-dunyoga hirs qo'ygan inson boylikka ega bo'ladi, ammo ruhidan ajraladi. Mol achchig'ida yurtdan yuz o'girish shaytanatduri.

Shaytonvashlik inson bolasiga yot. Olloh har bir bandasini shayton domgohidan salomat saqlasin.

— Sin tushunmagan, sin bilmagan. Mujikda gunoh kup. Ularga Xudo yuk. Sin Nuh paygambarni esla. Mujik unga kulok solmagan. Xudo tufon yubargan.

O'sha kuni ular uzoq gaplashdilar. Bahslashdilar. Bir necha kundan so'ng Sergey kutilmaganda yana shu mavzuga qaytdi.

— Sin tugri gapirgan, — dedi u Jahongirga, — Vatandan ketgan notugri. Vatan bitta, uni sotgan vakshiy. Sen tugri aytgan. Senga Vatan — Turkestan. Senga kiyin. Turkestan madaniyatga kutarish kerak. Madaniyat yuk, savod yuk.

Jahongir bu gapni eshitib, unga norozi qiyofada boqdi.

— Singa yokmagan bu gap, lekin tugri. Besh yuz yil aldin yukari bulgan savod, madaniyat. Keyin uqlab kolgan Turkestan. Turkestan hozir ham uqlagan.

— Uxlagani rostdir. Lekin madaniyatsiz, savodsiz deyishga haqqingiz yo'q. Men qishloqda o'sganman, katta shaharda madrasa ko'rdim. Shuncha yil yurtimizda yashab har mahallada maktab borligini bilmadingizmi?

— Nu, maktablar yakshi emas.

— Al Xorazmiy, al Beruniy, ibn Sino, hazrat Navoiylar ham shunday maktablarda bilim olganlar.

— Kani ular, yangi Navoi kani?

— Ulug'lar kunda dunyoga kelavermaydi. Bu Ollohnning irodasi bilan bo'ladi. Madaniyat deganingiz nima? Ovrupocha kiyinib yurishmi? Libosni o'zgartirishdan osoni yo'q. Ammo madaniyat libos emas. U inson vujudidagi fazilatlar. Madaniyat — tan pokligi, iymon pokligi. Siz mening xalqimga tuhmat qila ko'r mang. Yuzko'rmas bo'lib ketamiz. Bu g'ayri xayollar bilan Samarcandga qaytib borsangiz men rizomasman. Xalqimning zaif tomonlari, illatlari ham bordir. Lekin bu illat mening xalqimniki. Men uni shu illatlari bilan ham sevaman. Olloh iymonimni basalomat asrar ekan, bu fikrdan qaytmayman. Siz yana shunday tuhmat gap aytsangiz, so'ng meni Parvardigor deb sig'insangiz ham gunohingizdan kechmayman.

— Kechir, sin minga tushunmagan. Min aytmakchi bulgan: sen Turkestanni uygat, unga yardam ber. Jadidlar buni tugri tushungan. Sin jadid emas.

Ular keyin ham bu mavzuga qaytdilar. Sergey Turkiston tarixini Jahongirdan ko'ra durustroq bilar ekan. Ba'zan shunday voqealarni gapirib berardiki, Jahongir «rostmi, yolg'onmi gaplari», deb ajablanardi. Sergeyning Jahongirga o'zini yaqin olishi besabab emasdi. Bir kuni buni o'zi aytdi.

— Men Turkestan tarixin Yevropadan bilgan. Nemis kitoblari ukigan. Endi menga arabcha urganish kirak. Sin minga urgat. Min singa ruscha urgatgan, nemischa urgatgan. Kelishdik?

Kelishdilar. Qor usti, muz usti, qisqa yoz kunlari tuproq ularga daftar bo'ldi. Sergey astoydilroq edi. U arab tilini nima uchun o'rganayotganini bilardi. Jahongirda esa maqsad yo'q edi. Bu rus tili, nemis tili qaerda asqotishini bilmas edi. U Sergeyning bir gapiga qo'shilardi: ko'p til bilish — madaniyat belgisi, inson bolasiga xos fazilat. Lekin bu bilim asqotsa durust, kallada qolib ketganining nima nafi bor? Sergey ba'zan Jahongirdagi bu loqaydlikdan bezib uni urishardi. «Bilimni sen olmasang, xalqingni sen ko'tarmasang kim ko'taradi. Tarixing bilan men shug'ullanayotganidan uyalmaysamni, g'ururingga tegmaydimi», deb qattiq ham gapirardi. «Xalqimni sevaman», deb yuruvchi Jahongirga bu malomat toshlari aytarli ta'sir qilmas edi. Chunki unda ilm bilan shug'ullanishga ixlos yo'q edi. Ayniqsa, boshiga bu ishlar tushgach, maqsadini butunlay o'zgacha belgilab qo'ygandi. O'zini ilmga baxsh etish fikri miyasiga o'rnasha olmas edi.

Sergeyning aybi kamroq ekan, Jahongirdan bir yil oldin qutulib ketdi. Samarqandda kutajagini qayta-qayta tayinladi. Jahongirning alamlaridan, dardlaridan bexabar bu odam uni ilmga tortishga ishonar edi.

Mana, yillarning allaqancha suronli, to'zonli yo'llarini bosib o'tib shu manzilga yetgach, shu tosh-devorlar orasida uni yana esladi. O'ldirilgan ikki farzandi firoqida kuyib-yongan bu bebaxt ota bo'limganda balki Sergeyni eslamas edi. O'sha bekatdagi juldur kiyimli bolalar, Turkistonga non ilinjida otlangan bechoralar Sergeyning ko'z oldidan ketmas edi. Tushlarida bolalarini juldur kiyimda ko'rib cho'chib uyg'onardi. Ba'zan tongga qadar miq etmay o'tirardi. Ba'zan Jahongirni turtib uyg'otib tushining ta'birini so'rardi. U bolalari hajrida yongani sayin, Jahongir dardini ichiga yutib ezilardi. Homilador xotini ko'z oldiga kelganda yuragini nimadir kemira boshlardi. O'shanda «go'daklarning rahmini o'zing ye», deb Xudoga nolalar qilar, jumla go'daklar qatorida o'z farzandiga ham Ollohdan rahm tilardi. Taxmini bo'yicha musofirlikda tug'ilgan bolasi dam do'mboq o'g'il bo'lib, dam shirin qizaloq bo'lib tushlariga kirar, «dadajon!» deb bo'ynidan mahkam quchoqlaganda nafasi qaytib, uyg'onib ketardi. Hatto tushlarida ham o'zi ko'rmagan bolasini diydoriga to'ya olmas edi.

Akasi bilan uchrashganda ham birinchi so'ragan savoli shu bo'ldi:

— Xadicha qani, bolam qani?

Akasi bir cho'chib tushdi. Ha, Jahongir sezdi, cho'chib tushdi, hatto yuzi uchdi. Lekin sir boy bermaslikka harakat qildi.

— Qanaqa bolang? Bolang yo'q edi-ku?

— Xadichaning ko'zi yorishi kerak edi, esingizdan chiqdimi?

— Olloh ko'p ko'rdi uni senga...

Bu gapdan keyin nima uchun yer yorilmadi — Jahongirni yutmadi. Nima uchun osmon uzilib tushmadi - uni yelparchin qilmadi. Nima uchun yuragi yorilib keta qolmadi. Nima uchun sovuq yurtlarda quloqlarini sovuq oldirganda birato'la kar bo'la qolmagan ekan. Xorijda nima uchun akasining bu tillarini biron-bir insof egasi kesib tashlamagan ekan!

Jahongir o'ttiz yildan ortiq qalbida avaylab yo'rgaklagani farzandini endi dafn etishi kerak edi. Yerga emas, yana yuragiga dafn etishi kerak edi. O'sha do'mboq o'g'ilchani, o'sha shirin qizaloqning kulgichlari o'rnini yumuq ko'zlar egallashi kerak edi. Ne ajabki, akasining o'sha sovuq gapidan keyin ham bu do'mboq o'g'ilcha, bu shirin qizaloq yana tushlariga kirdi. Yana bo'ynidan quchoqlashdi. Bunday tush avvallari unga bir umid berardi, endi esa u dunyoga chorlash bo'lib tuyuldi va bu kun yaqin kelganidan suyundi.

Bebaxt ota so'roqdan qaytib joyiga o'tirdi. Boshini egib olib birovga qaramadi ham. Tergovchi xuddi uni tilsimlab yuborganday edi. Shu o'tirishda u ikki soat avvalgi alamli odamga o'xshamas edi. Uning bu o'tirishi taqdirga tan bergen mo'minni eslatardi.

«Bechoraning umri azobga qoldi. Uni otmaydilar. Otishga hukm qilishsa durust edi, — deb o'yladi Jahongir unga achinib qarab. — Bir necha yil o'tirib chiqadi. Bolalarining ruhi endi uni izma-iz ta'qib qilib yuradi. Qochgani joy topolmaydi. Ruhlari parcha-parcha bo'lib ketadi. Agar otilmasa jinni bo'lib o'lishi tayin. Olloh yomon qahr qilgan ekan unga...»

## 6. «OQSOQ ODAM»

*Mayor Sanjar Solihov Qirqbeldan qaytgach marhum Siddiq Sharipov uyiga yana borishni niyat qilgan edi. Biz ham boraylik.*

Mayor Solihov Qirqbelta ko'rgan-eshitganlarini eslab, o'zicha mulohaza qilib o'tirganida Ramziddin Ramazonov bir dasta qog'oz ko'tarib kirib keldi.

— Rizaevning boshidan o'tganlarni o'rgangandan ko'ra qadimgi dunyo tarixini o'rganib chiqish osonroq bo'lib qoldi. Rahmingiz kelganicha bor ekan.

— Rahmim kelgani yo'q, kim aytdi bu gapni sizga?

— Menga shunday tuyuldi.

— Men rahm-shafqatga emas...

Mayorning gapi og'zida qoldi.

— Odillikka suyanib ish ko'rasiz, eshitganman bu gaplarni, — dedi kapitan kulimsirab.

— Xullas, ko'rman dardu jafosi yo'q ekana. Uch marta qamalgan. 1922 yilda aksilinqilobiy harakati uchun. Faollarni o'ldirib, qishloqqa o't qo'yishda ayblangan.

— Guvohlar bormi?

— Guvohlarni gapirasiz, umuman hujjatlar yo'q darajada. Yigirma ikkinchi yillarning ahvoli ma'lum-ku?

— Men bir odam bilan suhbatlashdim. Muhammadrizaev tuhmat bilan ketgan edi, deyapti.

— Bu gapni o'shanda aytishi kerak edi. Endi nima foyda? O'n ikki yil o'tirgan.

Qo'ng'iroqdan qo'ng'iroqqacha. Keyin 1938 yilda yana qamalgan.

— Aybi nima ekan?

— Aksilinqilobiy harakat, xalq dushmanlari bilan til biriktirish.

— Xalq dushmanlari kim ekan, aytiganmi?

— Aytigan: Sergey Komlev. Sharqshunos olim.

— Komlev haqida yana qanday ma'lumot bor?

— Chor armiyasining ofitseri. Dvoryanlardan. Aksilinqilobiy harakati uchun 1922 yilda Samarqandda qamoqqa olingan. Qamoqda Rizaev bilan birga bo'lgan.

— Ilmiy ishining mavzusi aniqmi?

— Aniqladim: «Amir Temur zamoni madaniyati» degan mavzuda dissertatsiya yoqlagan ekan.

— Masala ravshan. Muhammadrizaev uchlik qarori bilan qamalganmi?

— Ha. Komlev ham. Rizaev uchinchi marta qirq sakkizinch yilda qamalgan. Asirga tushganligi va xoinligi uchun.

— Asirga tushgani va xoinligi uchun, dedingizmi? Urushda bo'lган ekanmi?

— Ha, partizanlar otryadida. Lekin bu haqda batafsil ma'lumot yo'q. 1955 yil aprel oyida avfi umumiy tufayli ozodlikka chiqqan.

— Xo'sh, qanda xulosaga kelamiz?

— O'tmishning hozirgi jinoyatiga aloqasi bor, deb o'ylaysizmi? Avvalgi ishlarida odam o'ldirGANI haqida aniq bir gap yo'q. Keyingi ikki ishi o'rmonga o't ketgan paytda bo'lgan, ho'lu quruqqa aralashib yongan. Birinchisini aniqlash kerak. O'shanda faollarni rostdanam otgan bo'lsa...

— Shunday deb faraz qilaylik. Agar u sovet hokimiyatiga qarshi ekan, nima uchun partizanlar otryadida jang qildi, nima uchun asir tushdi, nima uchun o'sha yoqda qolib ketmay, qaytdi?

— Biron maqsadi bordir?

— Ana endi o'zingizga keldingiz. O'sha «biron maqsad nima?» — Solihov shunday deb kapitanga savol nazari bilan tikildi. — Ana shular bilan qiziqib ko'ring, azizim. Yana Komlevning taqdirini ham aniqlang. O'zi tirikmi, oilasi omonmi? Muhammadrizaev qotil bo'lganda ham uni bu yo'lga nima boshlaganini bilishimiz kerak. Peshonasiga bejiz yozib olmagandir, axir?

— Ishni cho'zadigan bo'lsak rahmat eshitarmikinmiz?

— Bunaqa rahmatlarni ko'p eshitganmiz. Shoshilib, begunoh bir odamning qarg'ishiga qolib ketmaylik. Aytmoqchi, o'ttiz sakkizinchi yilda kim tergov qilgan ekan?

— Muhammedshin, nima edi?

— Nazarimda, xuddi kapitan Jabborov tergov qilganga o'xshaydi. Qirqbeldan qaytayotib u bilan aytishib oldik, — Solihov shunday deb bo'lgan gaplarni qisqacha bayon qildi. — U yana davri kelishiga ishonyapti.

— Ishonishiga asos bor, — dedi Amazonov vazminlik bilan. — Ular ko'pchilik. Hozir pana-pana joylarda jon saqlashyapti. Ob-havo ularga sal moslansa, yashnab ketishadi. Ob-havo o'zgaruvchan, har narsani kutish mumkin. Bu toifa Stalinga qanday sadoqat bilan xizmat qilgan bo'lsa, Gitlerga ham shunday xizmat qilishi mumkin edi. Siz shunaqa odamlardan nafratlanasiz, to'g'rimi?

— Nima qilish kerak bo'lmasa? Birovni pichoqlagan yoki otgan odamni kechirsa bo'ladi. Bularni-chi?

— Men nafratlanmayman, achinaman bularga. Bu sohada bir umr ishlashmaydi-ku, to'g'rimi? Erta-indin qarigan chog'ida o'zi qamab yuborgan bir odamni ko'chada tasodifan uchratib qolsa nima qiladi? Men dekabrvchilar haqida o'qigan edim. So'zidan qaytmaganlar surgun qilingani holda tonganlar, sotganlar, xoinlar bazmu jamshidda yuraverganlar. Oxir-oqibat surgundagilar afv etilib Peterburgga qaytishganida xalq ularni olqishlab qarshi olgan. Tonganlar, sotganlar esa ko'chaga ham chiqolmay qolgan. Ana endi o'ylang: jazoga tortilganlar kimlar edi? Surgun azobini tortganlarmi yo issiq o'rinda qolganlarmi? Jabborovlarning taqdiri shularga o'xshamaydimi? Borib-borib ko'rshapalakka o'xshab yashab, o'lib ketmaydilarmi?

— Sizning o'xshatishingiz menga ma'qul kelmadi, — dedi Solihov, — Dekabrvchilarning o'sha xoinlarida ham avval maslak bo'lgan. Faqat so'nggi daqiqada qo'rroqlik qilib do'stalarini sotishgan. Agar ko'chaga chiqolmay qolishgan bo'lsa, demak, ozgina insoflari bor ekan. Jabborovlarda insof, uyat borligiga ishonmayman. Mana, kecha o'zim ko'rdim shunday uchrashuvni. To'g'ri, Daminni u qamamagan. Lekin baribir hamkasblarining qilmishi uchun ham uyalishi kerak-ku? Minglab xonadonlarda onalarning, xotinlarning, farzandlarning qarg'ishlarini eshitib ham yuragi titramas bularning. Shularni eslasam, iste'foga chiqib ketgim keladi. Men o'g'rilaru qotillar bilan olishib keldim. Lekin qaerdadir, qaysi ishdadir chalg'igan bo'lismumkin. Kimningdir taqdiriga dog' tekkizgandirman. Xo'sh, bu gunohlarimga nima deyman?

Sanjar bu savolni o'ziga-o'zi bergandi. Ramziddindan javob olish niyati yo'q edi. Shuning uchun unga tikilib qaramadi. Nigohini notayin bir nuqtaga qadadi. Ish yuzasidan boshlangan savol-javobning ruhiyatga ta'sir etuvchi ohangga burilishi Ramziddin Amazonovga ham ta'sir etdi. U javob berishga majbur emasligini bilsa-da, biroz o'yga cho'mib, so'ng so'z boshladi:

— Gunohdan hech kim forig' emas. Gap qanday sharoitda gunoh qilinganida. Agar bilib turib qilingan bo'lsa «Ular — jabborovlar, biz — bu bizmiz!» deb ko'krakka mushtlashga hojat yo'q. Jabborovlarni muhokama qilib ayplashga ham haqqimiz yo'q.

Solihov savolni o'ziga-o'zi bergani kabi, Amazonov ham javobini xuddi o'ziga-o'zi aytayotganday og'ir-bosiqlik bilan gapirdi. Gap ohangida kesatiq ham, o'pka-gina ham, ayplash ham yo'q edi. U ana shu vazminligi bilan nogahoni bu suhabatga nuqta qo'ydi.

Kapitan qog'ozlarini olib chiqib ketgach, biroz urinib, charm qoplamasini tililib qolgan o'rindiqqa o'tib o'tirdi. «Bu ishlarga yaramay qolyapman shekilli. Amazonov bopladi meni. Jizzaki bo'lib boryapsiz, demasdan turib jizzakiligmni aytdi, — deb o'yladi u. — Qoyil qolish kerak unga. O'zi turgan-bitgani shumi yo urushda o'lim ko'raverib, qon ko'raverib, dahshat ko'raverib, sovuqqon bo'lib qolganmi? Yo'q, palagi toza buning. Urush ko'rganlarning aksari asabiy, mendan battar jizzaki. Balki Ramazanovning shu aqli

uni urushdan omon olib chiqqandir. Unga qarab minglab o'qlar otilgan, u esa tirik qaytgan. Omaddanmi yo aqldanmi bu? Ko'proq aqldandir. Aslida u menga emas, men unga yordamchi bo'lishim kerak ekan. Bunaqa nozik ishlarda tajriba emas, aql asqotadi. Ammo bunaqa aql bilan ishlash qiyin bo'ladi. Yon-atrofimizda aqldan ko'ra hissiyotga suyanadiganlar ko'p. Qo'limizda esa aqlni tan olmaydigan idoralarning ko'rsatmalarini, chizgan chiziqlari bor. Kapitanga shuni aytib qo'yishim zarur...»

Solihov biroz shu zaylda o'tirgach, Sharipovnikiga borishni mo'ljallab o'rnidan turdi.

Kechagina Daydidara, Qirqbelta beboshlik qilgan izg'irin bugun dovonlarni pisand qilmay oshib kelib, shahar ko'chalarida sarsari kezardi. Ayrim daraxtlar izg'irin shamolning yolg'on gaplariga ishonib, yechinmoqqa kirishganlar. Shamol ularning barglarini yulqib olib ko'chalarda o'ynaydi. O'ynay-o'ynay zerikadi-da, chang-to'zonga aralashtirib burchak-burchaklarga tiqib, jimb qoladi. So'ng yana qo'zg'alib, yana shumliklarini boshlaydi.

Sanjar Solihov ko'chaga chiqqach, daydi shamolga ro'baro' kelib plashining yoqasini ko'tardi. Furajkasini bostiribroq qo'ydi-da, tramvay yo'li tomon tez-tez yurdi. Shaharni ikkiga ajratib turgan anhor ko'prigidan o'tgach, yurib ketayotgan tramvayga chaqqonlik bilan chiqib oldi.

Eski shaharga yetgach, tramvaydan tushib, bozor ko'chalaridan yurib o'tdi. Restoranlar oldida odam siyrak, shamol tufaylimi bozor ichi ham gavjum emasdi.

Siddiq Sharipovning darvozasi berk ekan. Mayor darvozani bir necha marta taqillatdi. Endi ketaman, deganda ichkarida sharpa sezildi. Keyin ayol kishining «kim?» degan xasta ovozi eshitildi.

— Men mayor Solihovman, militsiyadanman. Tunov kuni kelgan edim. Sizlar bilan yana gaplashishim kerak.

Ichkaridan sado chiqmadi.

- Eshityapsizmi gapimni?
- Eshityapman... uyda o'g'lim yo'qlar.
- Siz... Sharipovning oilalarimisiz?
- Ha.
- Sizdan so'raydigan gapim bor.
- O'g'lim yo'qlar.

Solihov «men o'g'lingizdan emas, sizdan so'ramoqchiman», demoqchi edi, ayolning maqsadini tushunib qoldi. Erkagi yo'q uyga kirish odobdan emasligini unutayozgan, ish yuzasidan deb bostirib kiraverishga o'rganib ketgan ekan. Ichkaridagi xasta ovoz unga bunday qilish yaxshi emasligini anglatib qo'ydi. Chontagidan chaqiruv qog'ozi olib yozdi-da, darvoza tirqishiga qistirdi.

— Bu qog'ozni o'g'lingizga berib qo'ying, ertaga idoraga borsin.  
— Bilmasam, vaqtvari bo'larmikin, ishdalar.  
— Bu qog'ozni ko'rsatsa, ishdan ruxsat berishadi. Kechikmay borsin. Aytmoqchi, qaerda ishlaydi o'g'lingiz?

— O'zlaridana so'raysiz.

Solihov ajablanib bosh chayqadi-da, iziga qaytdi. Muyulishda bir fikr xayoliga kelib choyxonaga qarab yurdi. U yerda ikki yigit shaxmat surib o'tirardi. Choyxonachi derazadan Solihovni kuzatib turganmidi, kirishi bilan darrov peshvoz chiqdi. Shaxmat o'ynab o'tirgan ikki yigit unga bir nazar solishdiyu salom berib, yana donalariga tikilishdi. Choyxonachi likopchaga besh-olti parvarda solib, bir choynak choy bilan keltirib qo'ydi.

— Rahmatli Siddiq oxunnikiga fotihaga kelganga o'xshaysiz. Kecha bosh hadmni berishdi. Yo'lchivoy bugun ishdadir. Bechoralarga javr bo'ldi. Binoyi yurgan edi. Qo'li ochiq odam edi rahmatli. Shu hovlini sotib olganidan keyin, ko'chib kelmay turib bir qo'y

so'yib xudoyi qildi. Ko'chib kelganidan so'ng mahallaga osh berdi. Kimningdir qasdi bor ekan-da, a? Sizam oxunlardanmisiz deyman-a?

Solihov kulumsirab iyagini silab qo'ydi.

— Oxunga o'xsharkanmanmi?

— Odam odamga o'xshaydi-da.

— Siddiqjon akaning sihatlari yaxshimidi?

— Ha, hali baquvvat edi rahmatli. Oqsab yurishi demasangiz to'rt muchasi soppa-sog' edi. Haftada ikki marta ulfatlari bilan shu choxonada oshxo'rlik qilishardi. «Xitoyda lag'mon yeyaverib sovug'im oshib ketdi», deb hazil qilardi rahmatali.

— Ulfatlari shu mahallali kishilarmi?

— Murodilla aka, Ro'zijon shu mahallada turishadi. Qolganlari har yerdan... — choxonachi shunday deyishga deb qo'yib Solihovga savol nazari bilan tikildi. — O'zları kim bo'ladilar, juda surishtirib qoldilar?

— Men... militsiyadanman, qotilni izlab yuribman.

— Ha... shunday demaysizmi, sizni fotihachi deb o'ylabman.

— Siddiq Sharipov ulfatlaridan birontasi bilan gap talashib qolmaganmidi?

— Be, yosh bolami ular. Aroq ichishmasa. Bari namozxon. Oshni yeb, choyni ichib, chaqchaqlashib o'tirishardi. Oshni o'zim quling o'rgilsin qilib damlab berardim. «Qashqarda Islom oxunning lag'monini, bu yerda Jo'ravoyning palovini yemagan odam dunyoga kelmadim desa ham bo'ladi», deb maqtashardi meni. Agar ulfatlar bilan o'tirish niyattingiz bo'lsa, choxonani begona qilmang, xizmatingizga shaymiz. Sizdek odamlarga xizmatni qilsak, boshimiz osmonda-da.

— Gap-so'zlarida Qashqardagi turmushlarini ham eslasharmidi?

— Ha, eslashardi. Lekin men tayin o'tirib eshitmaganman gaplarini.

— Biron bir odamdan nolishganmi yo falonchi bekor keldi bu yurtga, deyishganmi?

Choxonachi o'ylandi. So'ng «Yo'q», deb bosh chayqadi.

— Siddiq Sharipovning o'limidan oldin bu uyga notanish yoki yurish-turishi shubhali odamlar kelmaganmidi?

— Ochig'ini aytsam, uylarini kuzatmaganman. O'sha voqeadan keyin dam-badam qarab-qarab qo'yadigan bo'libman, o'zim ham hayronman.

— Bir marta savdoiroq odam bilan yoha bo'g'ib turishganini ko'rganman men, — dedi shaxmatchi yigitlardana biri. Aftidan, ularning ko'zları shaxmatda bo'lsa ham quloqlari bu yoqda edi.

— Qaysi savdoi? — dedi choxonachi unga qarab.

— Peshonasiga yozib olgan-chi?

— He, esi yo'q, qanaqasiga savdoi bo'lsin u, taqvodor odam, — choxonachi shunday degach, Solihovga qarab izoh berdi: — Narigi mahallada Jahonqori degan odam borlar. Qiroatlari juda yaxshi-da. Odamlarga qo'shilmayroq yurganlari uchun bular savdoi deyishadi.

Solihov o'rnidan turib, yigitlarga yaqinlashdi.

— O'yinlaringizga xalal beraman endi, yigitlar, — u shunday deb cho'ntagidan Jahongirning suratini olib ko'rsatdi, — shu odammi?

— Ha, shu, — dedi yigit.

— Qachon ko'rgan edingiz?

— Oxun aka o'lmaslaridan o'n kuncha oldin.

— Qay vaqtda?

— Ertalab azonda.

— Nima qilishayotgan edi?

— Savdoyi Oxun akani yoqasidan ushlab olgan ekan. Bir nimalar deyayotgan ekan, eshitmadim. Urushyapti, desam, sekin gapiryapti, tinchlik bilan turibdi, desam, yoqasini bo'g'ib olgan.

— Aniqroq ayting: bo'g'ib olganmi yo ushlab olganmi?

Yigit o'ylandi.

— Aniqroq aytsam: Oxun akam choponda edilar. Oyoqlarida maxsi edi shekilli. Yo ishga ketayotgan mahallari bo'lgan yo bomdoddan qaytgan mahallari. Savdoyi shu to'nning kalta yoqasini changallab turgan bo'ladi-da.

Solihov bulardan boshqa tayinli gap ololmadi. Yo'Ichivoyning qachon qaytishi noma'lum edi. Shu bois idoraga yo'l oldi.

«Siddiq Sharipov oqsaydi... Siddiq Sharipov oqsaydi... Muhammadrizaevning akasi ham oqsagan, — deb o'yladi mayor Solihov, — Jahongir tongda Sharipovning yoqasidan olgan... Ular Daydidaraga nima uchun borishgan? Muhammadrizaevning bosgan izlari bizga ma'lum. Sharipov-chi? Ota makonini tashlab ketgan. O'ttiz yildan ko'proq musofirlikda yashadi. Nima uchun ketgan edi? Nima uchun qaytib keldi? Ko'ngliga g'azab toshlarini yig'ib ketgani aniq, bu toshlar erib, mehr suviga aylangani rostmi? Balki uni zo'rlab olib ketishgandir? Yo'Ichivoy... Yo'lda tug'ilgani uchun shunday nom qo'yilganmi? Qaysi yo'lda tug'ilgan? U ota yurtiga qanday ko'ngilda keldi? Ishlarimiz xo'b ajoyib. Dam otamizni ham tanimaymiz, dam ko'nglimiz darvozalarini lang ohib yuboramiz. Bular og'ir kunlarda yurtlarini tashlab ketishdi. Xalq bu yerda, o'ttiz yil badalida ocharchilikni ko'rdi — odamlar ochlikdan shishib o'ldilar. Mozorlarga o'liklar sig'may ketdi. Xalq urushni ko'rdi — dev yigitlar qirildi. Bir burda qora non uchun tongni tunga, tunni tongga uladi. Xalqning dasturxoniga endigina non chiqqan edi. Qozoniga endigina et tushgan edi — bular yetib kelishdi. To'kis-tugal mol-mulkleri bilan qaytishdi. O'z yerlariga qaytishdi, o'z xalqi bag'riga qaytdi ular. Ular begonalar emas. Lekin shu dasturxonadagi nonga haqlari bormi? Endi o'zlarini hotamtoy ko'rsatib mahallaga osh tortishga haqlari bormi? Aqalli birontasi xalq oldida tiz cho'kib tavba-tazarru qildimi? Yo'q! Ana shularning birini otib ketishdi. Men uning qotilini topishim kerak... Topaman ham. Jabrlanuvchi kim bo'lishidan qat'i nazar, jinoyatchini topish — burchim. Lekin... jinoyatchi ham men o'ylaganday fikr qilgan bo'lsa-chi? Muhammadrizaevni so'roqqa chaqirganimda u menga shu savolni bersa-chi? Nima deb javob qaytaraman? Oqlaymanmi?.. «Bular aldovga uchraganlar, musofirlikda dardlar chekishdi», deymanmi? «Olib qaytgan mulklariga qaraganda dardlar chekishganga o'xshamaydi», desa-chi? «Bular orasida kambag'alini ko'rmadim», desa-chi?»

Solihov bora-borguncha shu zaylda o'zi bilan o'zi bahslashdi. Xorijga ketib qolgan o'zbeklar qayta boshlaganida Ramazonov bilan ham bahslashgan edi. O'shanda Ramazonov «Ularni Vatan mehri tortib kelyapti. Ular Vatanni sotganlari yo'q. Tinchliklarini ko'zlab boshpana izlab ketishdi. Tarixda bunday voqealar ko'p bo'lgan. Butun-butun el-elat ko'chgan. Shuharlarni, qishloqlarni huvillatib ko'chib ketishgan. Biz ularni xoin, sotqin hisoblamaymiz-ku», degan edi. Solihov uning fikriga qo'shilgan edi o'shanda. Biroq ongida dastlab uyg'ongan fikr bugungiga o'xshab qo'zg'alib qo'yardi.

Ertasiga belgilangan vaqtga Jahongirni ham so'roqqa chaqirtirdi. Uning niyati Yo'Ichivoy bilan Jahongirni uchrashadirish edi. Biroq Yo'Ichivoy kechikdi. Solihov navbatchiga «Yo'Ichivoy Sharipov kelishi bilan meni ogohlantiring», deb so'roqni boshladi:

— Bu yerdagi turish-turmushingizdan shikoyatingiz yo'qmi? — dedi Solihov vazmin o'tirgan Jahongirga zimdan tikilib.

— Turish-turmushim... — Jahongir hazin jilmaydi. — Avvallariga solishtirsam — shohona yashayapman. Harholda oyoq uzatib yotadigan o'rnim bor. Endi sal eslaringiz

kirganga o'xshaydi. Oldin joyning hisobini qilmay olib kelib tiqaverardilaringiz. Ikki kishilik xonalarda yigirma kishilab yotganmiz. G'ing demaganmiz. Endi turmalaringizga havasga kelib yotsa arziydi. Mening shikoyatim yo'q, ammo bir iltimosim bor.

— Ayting.

— Zamon o'zgardi, deyapsizlar-a? Agar shu gap chin bo'lsa — iltimosimni bajaring. Sobitov degan bir bechorani qiyratib qamabsizlar. Bolalarini ko'mishga ham qo'ymabsizlar. Sobitovni bilasizmi, xotinini chopib tashlagan ekan.

— Ha, eshitdim, gapiravering.

— O'shani qanday bo'lmasin, otishga hukm qilish kerak. Yordam beringlar.

Solihov bu gapni eshitib, ajablandi. Jahongirning peshonasiga uning yashirin maqsadi yozib qo'yilganday qattiq tikildi.

— Nimaga? — deb so'radi u Jahongirdan ko'z uzmay.

Jahongir ham unga tikka qaradi. Shunda Solihov bu ko'zlarda makr yo'qligiga ishonch hosil qildi. Jahongirning ko'zlarida makr emas, ma'sumlik bor edi.

— Unga rahm qilinglar, — dedi Jahongir. Endi uning ovozida dadillik yo'q edi. Endi u ezilgan, xo'rangan bir odam ovozi bilan gapirardi. — Tirik qolsa jinni bo'ladi. Xor bo'lib o'ladi. Otsalaringiz bir bechoraning jonini azoblardan qutqarasiz.

— Buni biz emas, sud hal qiladi, bilasiz-ku?

Solihov dard bilan aytigan iltimosga shunday sovuqqonlik bilan javob qaytardi. U Jahongirning dardini hazm qila olmas edi. Uning qalbida bunday dardga, rahmga, mehrga o'rinn yo'q edi. Jahongirning dardiga sherik bo'lish uchun, yordam berolmagan taqdirda ham, jilla bo'lmasa umidbaxsh javob qaytarish uchun u o'sha bechora otaning alamlarini his qilishi kerak edi. Bu alamni Jahongirday his etish uchun esa farzand hajrida o'ttiz yil kuyishi kerak edi. Solihovning boshidan bunday balolar o'tmagan, alalxusus, uni bedardlikda ayblash ham noo'rin bo'lar.

Jahongir Solihovga tikila turib, uning sovuqqon javobidan ajablanmadidi. Tergovchilarning bundan battarini ko'rgan, bundan battar sovuq gaplarni eshitgan. Yo'q, gap ohangidan taajjublanmadidi. Uning hayron qoladigan joyi boshqa yerda — «Olloh odamzodni bir-biriga rahm-shafqatda yaratgan ekan, qani bu rahm-shafqat, qaylarda qoldi?» Jahongir ro'baro'sidagi odamga shu savol nazari bilan tikilardi.

— Ha, bilaman, — dedi u nihoyat. Endi uning ovozida ezilish ohangi yo'q edi. Endi u afsus bilan gapirardi. — Esiz, yaxshi zamonlar o'tib ketibdi-da, a? Uch kishi, «ha», deb qo'ysa masala hala edi. Zamon chatoq bo'libdi, nachaynik.

Solihov bu gaplar kesatiqmi yo chinmi, farqlamay hayron edi. U yana bir narsaga hayron: kechagina o'ziga so'nggi o'jni so'rayotgan odam bugun boshqa kishi uchun ham tilanyapti. Bu mehribonchilikmi? Sobitovni azobdan qutqaring, deydi. O'zi-chi, o'zi nimadan qutulmoqchi? Solihov bu savolga Jahongirning ko'zlaridan javob izladi. Hozirgi ma'sum ko'zlarda endi hech bir ma'no yo'q edi. «Odam zoti vasvasa holga yetganda ko'zlaridan ma'no qochardi. Bu odamga nima bo'ldi?»

Solihov xayolini yig'ishtirib muddaoga ko'chdi:

— Muhammadrizaev, akangiz oqsar edimi? — deb so'roqni boshladi.

— Akam yo'q mening, — dedi Jahongir e'tiborsiz ohangda.

— Xorijga ketib qolgan akangizni aytyapman. Ismi Olamgir edi shekilli? Yana ham aniqroq aytsam — ota bir, ona boshqa akangiz.

— Yetti pushtimizda cho'loq bo'Imagan.

— Sharipov ham oqsamaganmi?

— Uni tanimayman, yurganini ko'rmanman, deb aytdim-ku?

— Muhammadrizaev, sizni Sharipovning uyi oldida ko'rishgan. Erta saharda Sharipovni yoqasidan olgansiz. Orangizdan nima gap o'tgan?

- Ayg'oqchilaringiz aytishmadimi, to'qib-chatishga usta-ku ular?
- Ular ayg'oqchi bo'lishganda, gapingizni qanday bo'lmasin, eshitishardi. Ular o'sha mahallaning yigitlari. Sizni tanishar ekan.

— Bu dunyoda kim ko'p — og'ziga kuchi yetmagan odam ko'p. Til besuyak, benazorat, istagan paytdida tish hatlayveradi. Nachaynik, menga har gaplarni topib kelavermang. Men aytganidan qaytmaydigan odamman. Muhlatingiz tugayapti, agar ishni tezroq yumaloq-yostiq qilmasangiz holingizga maymunlar yig'laydi. Keyin men bilan bunaqa yumshoq muomala qilib o'tirmaysiz. Do'q-po'pisaga o'tasiz, so'kasiz, urasiz. O'shanda men ham to'nimni teskari kiyib olaman. «Men o'ldirmaganman, qotil uchinchi iz egasi», deb turib olaman. O'shanda siz meni qattiqroq ura boshlaysiz, qo'llarimni qayirasiz, barmoqlarimga bolg'a urasiz, burnimning uchiga papiroshoq cho'g'ini bosasiz, tirnoqlarim orasiga aigna sanchasiz... Men aytganidan tonmaydigan odamman, baribir «o'ldirmadim» deb turaveraman, ha, nachaynik, bu yog'ini hisobga olmayapsiz. Xo'p, deb turganimdan foydalanib qoling.

— Sizga o'xshagan bir dono muallim yetmay turuvdi. Menga kim aql o'rgatarkin, deb garang edim. Rahmat sizga. Qarangki, fe'limiz bir ekan: men ham aytganidan qaytadigan odam emasman. Mayli, siz tonavering, sizni bexos sayratib yuboradigan dalillar bor hali. Qirqbekliklar Olamgirni unutishmagan. Bu yoqda Sergey Komlev bor.

Boshini egib o'tirgan Jahongir tergovchiga yalt etib qaradi: kechadan beri Sergeyni eslayotgani bejiz emas ekan-da. Bular uning ham iziga tushishibdi-da?

- Unga tegmanglar, uning aloqasi yo'q bu ishga.
- Sharipov — akangizmi?

Jahongir sonini ilon chaqqandek sapchib turib ketdi. Solihovga baqravib qaradi. Tili darrov gapga qovushmadi.

— Siz... gapni... unaqa aylantirmang, nachaynik... Men uni tanimayman. Akam yo'q mening, o'lib ketgan u! Yigirma ikkinchi yilda! Dovonda qor bosib o'Igan.

Solihov mo'ljalni aniq olganiga ishonch hosil qildi.

— Yaxshi, — dedi u xotirjamlik bilan, — o'zingizni bosing. Men gumonimni aytdim, buncha asabiylashmasangiz?

Telefon qo'ng'irog'i jiringlab, navbatchi Yo'Ichivoy Sharipov kelganini ma'lum qildi.

— Yo'Ichivoy Sharipovmi, kiraversin, — dedi Solihov atayin ovozini ko'tarib. Yo'Ichivoyning nomini eshitib, Jahongirning sarosimasi ortdi.

— Nachaynik, bugun boshqa javob bermayman. Qamoqqa qaytaring, Xudo xayringizni bersin, iloji bo'lsa yolg'iz xonaga qo'ying.

— O'y lab ko'ramiz. Balki sizdan tilxat olib, chiqarib yuborarmiz.

— Nimaga? O'y lab ish qiling, nachaynik!

— Qotillingiz isbotlanmayapti, sizni uzoq ushlab tura olmaymiz. Hozir esa bir odam bilan sizni yuzma-yuz qilaman.

— Kerak emas, men xohlamayman!

— Xohishingiz bizni qiziqtirmaydi. Anavi burchakka borib o'tiring.

Xonaga ikki kishi kirib, Jahongirning yonidan joy olgach, ostonada Yo'Ichivoy ko'rindi.

— Bu odamlarga yaxshilab qarang, birontasini taniysizmi? — dedi Solihov.

Yo'Ichivoy o'tirganlarga bir qur nazar tashlab, Jahongirni ko'rsatdi.

— Bu kishini bir-ikki marta ko'rganman, biznikiga kelganlar.

— O'zlar kelganmilar yo mehmonga chaqirganmisizlar?

— O'zlar kelganlar. Otam rahmatli bilan darvozaxonada gaplashishgan. Ichkari kirmaganlar.

— Oralardan qattiq-quruq gap o'tmaganmi?

— Fahmlamaganman.

— Bu kishi ketgach, dadangizning kayfiyatları buzilmaganmi?

Yo'Ichivoi o'ylandi. U eslash uchun o'ya tolmadi. Aksincha, dadasining sarosimasini, onasiga bir gapni pichirlab aytganini, onasining hushidan ketayozganini aytish yo aytmasligini bilmay o'ylandi. Oxiri bir qarorga kelib, javob berdi:

— Yo'q, buzilmagan.

— Siz yoki onangiz Olamgir Muhammadrizo o'g'lini bilirmidizingiz?

Yo'Ichivoyning rangi o'zgardi. Yuzi uchdi. Jahongirga xuddi yosh boladay javdirib qarab qoldi. Solihov savoliga javob topganday bo'ldi: bu katta bosh, bu o'tkir ko'z, turtib turgan yanoq, qalin lab, to'liq gavda ovoz... ha, ovoz ham Jahongirni eslatardi. Solihov endi Jahongirga qaradi. Jahongir Salihovning kashfiyotini sezganday boshini egib oldi. Solihov:

— Olamgir Muhammadrizo o'g'lini eshitganmisiz? — deb savolini qaytardi.

— Yo'q... — dedi Yo'Ichivoi qat'iyatsizlik bilan.

— Dadangiz tug'ma oqsoq edilarmi yo yaralanib, yo oyoqlari sinib oqsab qolganmilar?

— Dadam... tug'ma ekanlar.

— Siz Qashqar yo'lida tug'ilganmisiz?

— Ha.

— Bolalaringiz-chi?

— Hammasi Qashqarda tug'ilgan.

— Nechta bolangiz bor?

— Uch o'g'il, bir qiz.

— Ismlari nima?

— Kattasi Jahongir, ikkinchisi Zoyir... uchinchisi...

Uchinchisining ismi Jahongirning qulog'iga kirmadi. Ko'kragini birnima qisib kelib, tomog'ini g'ippa bo'g'di, ko'z oldi qorong'ilashdi. Uzoq-uzoqlardan g'alati tovushlar eshitdi. So'ng osmon bilan yer tutashgan joyda do'mboq o'g'il bola ko'rindi. Bolakay yastanib yotgan poyonsiz lolazordan yugurib kelib, o'zini uning quchog'iga otdi...

## 7. O'G'RI

*Kapitan Ramziddin Ramazonov uchun Jahongirning birinchi qamoqdan keyingi hayoti qorong'i. Chunki Jahongirning boshidan o'tgan voqealar tergov hujjatlariga tirkalmaydi. Bu bobda ana shu voqealar qalamga olinadi.*

Jahongir lolazor oralab yugurib kelgan do'mboqchani quchoqlaganini aniq eslaydi. G'alati tovushlar ham esida. Keyin-chi, keyin nima bo'ldi? Ovozlar tindi. Lolazor olovga aylandi. Yer yuzi lovullab yondi. Jahongirga nima uchundir alanga ta'sir etmadni. Faqat tutundan bo'g'ildi. Og'ir-og'ir nafas oldi. Keyin kuragi achishdi — cho'g' bosildi shekilli. So'ng hammasi tindi — boshqa narsani eslolmaydi. Qancha yotganini ham bilmaydi. Uzoqdan eshitilgan ovozlar hushiga keltirdi. Ko'zini ochay dedi-yu, qo'rqi: Yo'Ichivoyni ko'rishdan qo'rqi.

Yo'Ichivoyni dastlab ko'rganida yuragi jiz etgan edi. Muhtaram o'quvchining yodida bo'lsa, mayor Solihov Yo'Ichivoyning shakli-shamoyilida Jahongirga xos belgilarni sezgan edi. Jahongir esa Siddiq oxun mahallaga osh bergen kuni xizmat qilib yurgan Yo'Ichivoyna ko'zi tushib, unda Xadichanining belgilarini ilg'adi: uzun kipriklar, bejirim burun, chap yuzida kulgich, tutashgan qoshlar... Ko'rqi-yu, hatto osh oshalagan qo'li muallaq turib qoldi. Sherigi «Ha, olmaysizmi», demaganida qancha vaqt nest bo'lib o'tirishini o'zi ham bilmasdi.

- Bu yigit kim? Taniysizmi? — deb so'radi u sherigidan.
- Siddiq oxunning o'g'li bo'lса kerak. Ko'pincha birga ko'raman.

Oshga kirib kelishayotganida eshik oldida Siddiq oxun yo'q edi. Chiqishayotganda ko'rdi: yo, alhazar!!! O'ttiz uch yil kutgan diydor kuni shumi?! O'ttiz uch yil Xudoga nola qilib akasi bilan uchrashadirishni so'raganida diydor chog'ida badanimga muz yogurtir, oyoqlarimdan darmonni ol, tildan qoldir, demagan edi-ku? Nima bo'ldi unga? Nima uchun oyoqlari zil-zambil bo'lib qoldi? Nima uchun ko'z oldi qorong'ulashdi? Nima uchun hamisha yoniq turgan ong chirog'i xiralashdi? Yuragi-chi? To'xtaganga o'xshaydi... Sherigi bilagidan olib, «Maza qochdimi, qori» demaganida shu yerda yiqilib qolishi hech gap emas edi.

O'shanda ikki aka-ukaning ko'zlar uchrashdi! Bir juft ko'z — bu kunni o'ttiz uch yil kutgan ko'zlar oldiga kutilmaganda parda tortildi. Boshqa bir juft ko'z — bu uchrashuv sodir bo'lishini istamagan ko'zlar esa cho'g'day yondi! Ammo bu yonish uzoq davom etmadı. Yondi-yu, o'chdi! Chunki bu ko'z egasining yuragi jon rishtalari uzilishi aniq ekanini sezgan edi. Ota yurtiga kela-kelguncha «ajal haydamayotgan bo'lса bas», degan xavotiri bor edi. Shu onda xavotiri chinga aylandi. U o'zini yo'lbars yashaydigan qafasga tushib qolgan bechora odam, deb his qildi. Yo'lbarsning qorni to'qmi, uni qachon yeydi, mana shugina muammo edi.

Jahongir Yo'Ichivoyni yana ko'rish uchun bir necha marta yo'l poyladi. Ko'rdi ham. Lekin unga yaqinlashishga, so'zlashishga jur'ati yetmadi. Qalbining qaeridadir yashiringan bir ovoz «Shu sening o'g'ling!» derdi. Akasi birinchi suhbatda xunuk xabar yetkazdi. Tergovchi huzuridagi bu uchrashuvga qadar Jahongir ikki o't orasida edi. Yo'Ichivoy farzandlarining ismini aytayotganda shu paytgacha «Shu sening o'g'ling», deb shivirlayotgan g'oyibona ovoz birdaniga «Sening o'g'ling shu!» deb hayqirib yubordiyu hushini oldi.

Hozir ko'zini ochsa, yana Yo'Ichivoyni ko'radi. G'oyibona ovoz hayqiradi... Yo'q, g'oyibona ovoz emas, o'zi hayqiradi: «O'g'lim, jonim bolam, o'ttiz uch yil seni xayolan bag'rimga bosib yashadim, kel endi, chinakamiga bag'rimga olayin!» deydi. U-chi? U nima deydi? Darrov ishonadimi? Ishonmay-chi? Unda nima uchun o'g'liga «Jahongir» deb ism qo'yadi? Balki... Xadicha qo'ygandir bu ismni. Undan yodgorlik deb qo'ygandir... Xadicha meni o'ldiga chiqargandir. Lekin nima uchun Yo'Ichivoy Siddiq oxunni «dada» deydi? Boqib katta qilgani uchunmi? Unda nima uchun akam yashirdi?!»

Jahongir bu savollariga tezroq javob olish uchunmi, shart ko'zini ochdi. Oppoq shift bulutli osmon bo'lib ko'rinish, ajablandi. Ko'zini yumib-ochdi. Fikri biroz ravshan tortdi. Tergovchining xonasida o'tirgan edi, bu yerda esa yotibdi. Qo'l-oyoqlari o'ziga bo'ysunmaydi — qimirlatay desa, qimirlamaydi. Ovozlarga quloq tutdi — uzoqdan emas, shu yaqin oradan eshitilyapti. Kimlardir past ovozda gaplashishyapti. Gapiray desa og'zi ochilmaydi, lablari qurib, bir-biriga yopishib qolganday.

- Ko'zini ochdi shekilli?

Jahongir ovoz kelgan tomonga qaramoqchi edi, boshini burolmadi.

- Labini ho'llash kerak...

Labiga suv tomganday bo'ldi, tamshandi. Nazarida kimdir unga muzdek buloq suvi tutgandek edi. U yutoqib, ko'zlarini yumib, huzur qilib icha boshladı. Icha-icha bir chelakni bo'shatdi, ikkinchisini... suv qayoqqa ketyapti, bilmaydi. Ichaveradi, ichaveradi... Suvga to'yib, atrofiga qarasa — Qirqbelta, hovlisining o'rtasida turibdi. Hammayoq oppoq qor. Dadasi hovli chetida — qazosini topgan yerda oyoqyalang turibdi. «Dada, shamollab qolasiz», desa eshitmaydi. Jahongir unga intildi. Qor uchqunlari chirpirak bo'lib to'zib, uni uchirib ketdi. Jahongir ucha-ucha horidi. Boshqa yurtlarga borib qoldi shekilli, dimog'iga o'zgacha havo urilib, ko'ngli behuzur bo'ldi. Hozirgina ikki

chelak buloq suvi ichgan edi, ichayotgan damda ham ichi kuymagandi. Endi tashnalik kuch ko'rsatdi. Beixtiyor suv, deb pichirladi. Yana yuziga suv tomdi, yana chelakdan simirdi. Birdan... chelakni tushirib yubordi. Seskandi. Shu seskanish asnosida ko'zini ochdi. Xira parda ortida oq shiftni, oq shiftning bir parchasini to'sib turgan opachoq burunli notanish yuzni ko'rди.

— E, bormisiz paxan, ko'zni oching. Shu yurak bilan yuribsizmi, paxanman, deb.

Pachoq burunli yuz kulimsiradi. Bu yuz mana shu pachoq burunni ko'tarib yurishdan boshqa narsaga yaramasdi. O'lim chohidan iziga qaytgan Jahongir ko'zini ochib, shu nojo'ya kashfiyotni ko'rdiyu ko'ngli behuzur bo'ldi. Yaxshi hamki bu pachoq burun shunchaki kulimsiradi, ishshaymadi. Uning ishshayganini ko'rgan yuzlab odam necha kun, necha tun yo uxlamaydi, yo ovqat yemaydi — bunisi Yaratgangagina ma'lum.

— Paxan, qutulib chiqqandan keyin bir eriydigan bo'ldingiz. Jahannamning og'zidan shart tortib oldim o'zim.

— Bekor... qilibsiz...

Jahongirning og'zidan bazo'r chiqqan bu gapni eshitib pachoq burun unga g'alati qarab oldi.

— Odam zotiga yaxshilik yoqmaydi, — dedi u to'ng'illab. — Jahannamning og'zidan tortib oldim, desam, «bekor qilibsiz» deydi. O', paxan, rahmat demasangiz ham mayli. Lekin o'ladigan bo'lsangiz, bu yerda o'lmang, boshqa joyga bori-ib... yoki juda shu katakda o'Igingiz kelsa, men chiqib ketgandan keyin bemalol jo'nayvering, — u uzun hushtak chalib qo'ydi, — o'sha yoqqa. U yoqda oshna-og'aynilar ko'p, salom aytasiz bizdan. Shoqolning ishlari besh, yaqin orada bu yoqlarga kelmaydi, kutmalaring, deysiz. Shoqol — bu menman. Shoqosim desangiz it ham tanimaydi. Shoqol desangiz hammaning og'zi ochilib qoladi. Bu dunyo hali Shoqolday o'g'rini ko'rmagan.

— O'g'rimisiz?.. — deb so'radi Jahongir.

— O'g'riman, paxan. O'g'ri bo'Iganda ham zo'riman. Buni yashirmayman. Qo'lidan kelsa ushlasin, qamasin. Bir zang'arga ro'baro' kelmaganimda ushlommasdiyam, qamamasdiyam. Xitoydan kelganlardan bittasining iziga tushuvdim. Loyiniyam, tillasiniyam isini oluvdim.

— Kim? — Jahongir bo'g'ilib, ko'zi katta-katta ochildi.

— Kimligini bilmayman, paxan. Oqdo'ppi mahallada uyi. Tanishlardan bormi u yerda?

— Yo'q.

— Xullas, payt poylab ketiga tushdim. Mo'ljalim bo'yicha uyda bir yigitcha qolishi kerak edi. Lekin u yigitcha emas, azroilvachchaning o'zi ekan. Yarim kechada uyni ship-shiydam qilib chiqayotsam, ro'paramda turibdi. E, bunaqalarni bir kalla qilib enasinikiga jo'natvorardim. Endi kalla qilaman, desam, qo'lini bir balo qilib aylantirdi, bir balo deb chinqirdi, qo'li aylanib turib, oyog'i jag'imga qanday tushdi, hayronman. Bir nafasda dabdalamin chiqardi. Urishga urdi-yu, anavilarga «hech narsa olmadi», dedi. Bu ahvolimni yengillashtiradi, ko'p o'tirmayman. Lekin «hech narsa olmadi», deb o'zları ham qutulib qolishdi-da. Tillayu «loy»lar bularning hujjatlariga tirkalsa, naq enasini ko'rardi-da. U bo'ldi, bu bo'ldi, jag'im singani qoldi. Mana, xudo, deb o'tiribman. Hukumatimiz odil-da, avval tuzatadi, keyin qamaydi. Siz o'lib ketaversangiz ham bo'lardi, lekin sizni tuzatishadi. Chunki sizni otishlari kerak. O'zingizdan o'zingiz o'lib qolsangiz kimni otishadi? Nima bilan tushganingizni eshitdim, paxan. Boradigan yeringiz tayin. Lekin xafa bo'lmang. Bitta boshga bitta o'q. Boshqasining keragi yo'q. Menga ham atalgani bordir. Hozir yo'q bo'lsa, zavodda atay Shoqolga atab allambalo o'q yasalayotgandir. Hali u tomonlarda ham uchrashib qolamizmi... — U ishshaydi. Jahongir uning aftini, sarg'aygan so'yloq tishlarini ko'rib ko'zlarini yumib oldi.

«Bu shoqol emas yo iblisning o'g'li, yo jiyani, — deb o'yladi u. — Jahannam og'zidan tortib oldim, deydi. Balki men hozir jahannamning o'zidadurman. Bu maxluq hademay o'choqqa o't qalay boshlar. Harholda bu odam bolasi emas. Qani, kalima keltiray-chi: la ilaha illallahu..» Jahongir ko'zini ochsa — Shoqol yo'q. «Ha, alahsirabman, la ilaha illallah...»

— Paxan sizning joningizni menga topshirishgan. Sho'rvaning suvidan olib qo'yanman. Ichish kerak. Qani, Sariq, yordam ber.

«Alahsiramagan ekanman».

Sariq degani — malladan kelgan kishi, unga engashib, qo'lini yostiq tagiga tiqdi-da, qaddini bir oz ko'tardi. Shoqol alyumin krujkadagi sho'rvani uning labiga olib keldi. Jahongir istamasa ham zo'rlab ichirdi.

— Hukumatni injitmang, paxan. Ochdan o'lib qolsangiz, sizga atalgan o'qni nima qiladi?

Bu uning hazili edi — yana ishshaydi.

Sho'rvani ichib olgach, Jahongirning oyoq-qo'liga jon kirganday bo'ldi. Tili ham o'ziga bo'ysina boshladi.

— Shoqol, sheringiz ham o'g'rimi? — deb so'radi Jahongir.

— E, yo'q, bu ammamning buzog'idan o'g'ri chiqmaydi. O'zi olimmi, bir balo. Qo'shnisining qizalog'iga ishtaha qilib qolibdi. Jig'ini ezish kerak bunaqalarning. Hali boradigan yerida adabini yeydi. O'g'rilik gunoh emas, buzuqlik gunoh, nima dedingiz, paxan?

— To'g'ri. O'g'rini yaxshi ko'raman...

— Bormisiz, paxan, gapiring. Shoqolni avval ham eshitganmisiz?

— Yo'q. Siz... Burgutni eshitganmisiz?

— Burgutmi?.. Yo'q, eshitmaganman. Yo... o'zingizmisiz?

— Yo'q. Men hazar qilaman o'g'rilikdan.

— Paxan, tushunmadim, yaxshi ko'rasizmi yo hazar qilasizmi?

— Bir o'g'rini yaxshi ko'raman. Ammo o'g'rilikdan hazar qilaman. Burgut menga yaxshilik qilgan — o'limdan asragan.

— Menga o'xshagan ekan-da?

— Yo'q, siz chakki qildingiz.

— Bu, paxan deyman, boshni u-bu narsaga urib olmaganmisiz? Gaplaringiz almoysi-aljoyi-ku, a?

Jahongir javob bermay asta ko'zini yumdi. U bir necha og'iz so'z aytish bilan toliqqa, gapga chog'i kelmay qolgan edi. Chog'i kelganda ham Shoqolga tushuntirib o'tirmas edi. Uning Burgut bilan uchrashgani, Burgutning uni o'limdan asrab qolgani ikki kishigayu Xudogagina ma'lum. Jahongir bu haqda biron kimsaga og'iz ochmagan. Bu pachoq burunga aytish niyati ham yo'q.

U uxladimi yo yana hushidan ketdimi, aniq bilmaydi. Lolazor ham, qor bosgan hovli ham, qalin muzliklar ham, muz qabrga qo'yilgan Zokirxo'ja ham ayqash-uyqash bo'lib ketdi. Xuddi boshi ichiga daydi shamol kirib olib, xotiralarini xazonday to'zitib yuborgan edi.

Shamol tingach. Burgut ko'rindi. Juda aniq-tiniq oko'rindi. Ovrupacha kiyinib olgan, bo'ynida kapalak nusxa galstuk, boshida ixcham shlyapa, kostumi yap-yangi. Oq ko'ylagining oxori to'kilmagan. Bu kiyimlar faqat shu qaldirg'och mo'ylovli, qora ko'z, qora qosh qotma yigitga atalib tikilganday — o'ziga yopishib turibdi.

Burgut o'ttiz uchinchi yilning yozida unga shu ko'rinishda duch kelgan edi.

Jahongir qamoqdan qutulib chiqishi bilan «E, quyosh!» deb hayqirishni umid qilgan edi. Baxtiga qarshi uni tun qorong'usida ozod etdilar. Hayqirig'i ichida qolib, buni yomon bir narsaga yo'ydi. Sovuq o'lkaga bitta vagonda yetib kelgan edi. Bu yerlarga kelish oson, qaytish azob ekan. U poezddan bunisiga chiqaverib holdan toydi. Kaltabinlik qilib peshonasiga yozdirgani o'ziga jabr bo'ldi. Bekatlarda ham, poezdda ham odamlar undan hayiqib, moxovga duch kelganday o'zlarini chetga olishardi. Qamoqda berilgan qattiq non tugab qolayozdi hamki, issiq o'lkaning issiq nafasi sezilmaydi. Kunduzlari tan biroz rohat oladi. Ammo kechalari muz ustida yotgandek bo'ladi.

Yurtda qahatchilik hukm surayotganini ham shu yo'lda bildi. Ochlikdan shishib, ko'chada o'lib yotganlarni ko'rdi. Insof qilinsa murda ustiga qog'ozmi, lattami tashlangan, aksar murdalar ochiq, terib olib ko'mishga odam, tobut yetishmas edi. Bu mudhish manzaralarni ko'rib, Jahongirning yuragiga «yurtimda ham shu ahvolmikin», degan g'ulg'ula tushdi. Bir kunga mo'ljallangan nonni ikki kunga yetkazib, sillasi quridi.

Bir bekatda poezd hadeganda kelavermadı. Jahongir xaltachasini quchoqlab, devorga suyanib o'tirgan edi, ro'baro'sida orasta kiyingan, qo'lida yangi charm portfel tutgan yigit ko'rindi.

— Assalomu alaykum, — dedi u.

Necha yil davomida unut bo'layozgan bu so'z quloqqa allaqanday ajabtovur eshitildi. Jahongir «birinchi ko'rgan o'zbegimni quchoqlab olaman», deb xayol qilardi. Salomni eshitdi-yu, hushi uchdi. Nima qilishni bilmay qoldi. Hatto alik olishni unutdi.

— Qarasam, hamshaharga o'xshaysiz, qaerliksiz?

— Qirqbeldanman, — Jahongir shunday deb qo'yib, «Qirqbel»ni bilarmikin bu, deb o'yladi.

— Uygami?

— Ha.

— Birga ketar ekanmiz. Men bu yerga davlat ishi bilan kelganman. Siz nima qilib yuribsiz?

— Qamoqdan qaytyapman. — Jahongir shunday deb o'rnidan turdi. Yigitning ko'ziga tikildi: ko'zi o'ynab turibdi.

— Ismim Burgut. Sizniki-chi?

— Jahongir. Siz davlat odami bo'lsangiz, men o'ziga to'q dehqon bolasiman. Sizning tilingizda unsurman, men bilan birga keta olarmikinsiz?

— Siz ham, men ham bu yerda musofirmiz. Gapni siyosatga burmang. Agar malol kelmasa menga yordam qilib yuboring. Poezd hali-beri kelmas ekan. Ungacha bir joyga boramizu qaytamiz.

Jahongir «Baribir, bekor o'tiribman, borsam bora qolay», deb unga ergashdi. Burgut shaharchani yaxshi bilarkanmi, aylanma ko'chalardan tez-tez yurar, ochlikdan sillasi qurigan Jahongir unga arang yetishib borardi.

Yura-yura uch qavatli binoga yetdilar. Burgut to'xtab, yon-atrofiga alangladi-da, chaqqonlik bilan o'zini yo'lakka urdi. Jahongir uning izidan uchinchi qavatga ko'tarildi. Burgut charm qoplangan eshikni taqillatdi. Zum o'tmay eshik qiya ochilib, go'shtdor bashara ko'rindi. Mehmon kim kelganini bilishga ulgurmay Burgut eshikni kuch bilan itarib ochib ichkari kirdi. Past bo'yli, tepakal mezbon dahlizda haykalday qotdi.

— O'rtoq Tozidullin, omommisiz, mana, iltimosingizni yerda qoldirmay keldik. Andak kuttirib qo'yanimiz uchun uzr. Badxatroq ekansiz, turar joyingizni topguncha picha vaqt o'tdi. Ko'p emas, u, oygina qidirdik uyingizni. Hamshahrim qamoqdan chiqib kelayotgan ekan, «Yur, dedim, qiyomatli oshnam bor, palovxonato'rani damlab kutyapti», dedim. Palov tayyormi, o'rtoq Tozidullin, kiraveraylikmi?

Burgut shunday deb unga yaqinlashdi. Tozidullin degani bir qadam tislanib tilga kirdi:

— Keligiz, keligiz, plov tayyor, — dedi u duduqlanib.

— Qani, hamshahar, tortinmang, kiravering. O'rtoq Tozidullin o'zimizning odam.

— Gazidullin, — deb o'zini tanishtirdi mezbon.

Jahongir ichkari kirdi. Xona bir oz betartib edi. Gazidullin yo kecha mehmon kutgan, yo yeb-ichib yig'ishtirishga erinib, idish-tovoqni to'plab qo'yaverган edi.

Burgut borib divanga o'tirdi-da, oyoqlarini chalishtirib oldi.

— Hamshahar, keling, o'tiring, — dedi Jahongirga, so'ng mezbonga qaradi: — Tozidullin, kim aytadi sizni davlat odami deb, shu ham tirikchilikmi, odam turadimi bu uyda yo molmi? Tez yig'ishtiring. Keyin qorin g'amini yeng. Vaqtimiz ziq, tez bo'ling.

Mezbon gavdasiga yarashmagan holda chaqqon harakat qilib dumaloq stol ustini birpasda tozaladi. So'ng non, kolbasa, pishloq qo'ydi.

— Kolbasang cho'chqanikimasmi? — dedi Burgut.

— Astag'firulloh, minda musliman-ku! Chushka yo'q minda. Marhamat kiligiz, pojaluysta.

— Ko'rdingizmi, hamshahar, davlat odami juda odobli bo'ladi-da.

Jahongir qorni och bo'lsa-da, dasturxon ustidagilardan bir chimdim, bir chimdimgina yedi. U Burgutning muomalasidan noxush bir nimaning isini sezib turardi. Bu mehmondorchilik do'stona uchrashuv samarasi emasligini allaqachon fahmlagan edi. Burgut Jahongirning ziyrak zehni ko'p narsani ilg'aganini sezdi. Shu uchun kutilmaganda mehmondorchilikka yakun yasadi. Enli sochiqqa non, kolbasa, pishloqni o'rab Jahongirga uzatdi:

— Hamshahar, olvoling, yo'lda asqotadi. Har bekatda gullab turadigan restoranlar yo'q hozir. O'rtoq, Tozidullinga davlat non-ovqat berib turadi.

Jahongir tugunchani istamaygina olib, xaltasiga soldi.

— Endi siz meni ko'chada poylab turing. Biz o'rtoq Tozidullin bilan davlat ishlarini gaplashib olishimiz kerak.

Jahongir o'rnidan turib xaltasini olayotganida nigohi Gazidullinning ko'ziga tushdi. Bir qop go'shtday bo'lib turgan bu odamning javdiragan ko'zlarida hadik zohir edi. Gazidullin dastlab Jahongirni yollangan jallod sifatida qabul qilib, o'takasi yorilayozgan edi, endi esa ko'rinishi qo'rqqulik, ammo fe'li mo'min bo'lgan bu odamning chiqib ketayotganidan, Burgut bilan yolg'iz qolayotganidan qo'rqi. Jahongir buni bir qarashda sezdi.

«Bu qotma olifta sizlab turib jonni oladigan toifadanga o'xshaydi», deb o'yladi Jahongir, zinapoyadan tusha turib. U muyulishga o'tib, devorga suyanganicha Burgutni kuta boshladi. Gazidullinning derazasini o'zicha chandalab topib, o'sha yoqqa tikildi. Nazarida deraza ochilib yo Burgut, yo mezbon uloqtirib tashlanadiganday edi. Bu «davlat» odamlarida qanday «davlat ishi» borligini Jahongir ilg'agan edi. Burgut Gazidullinni uch oy qidirgan ekan, demak, orada jiddiy gap bor. Bu ikki «davlat odami» o'g'rimi, bosqinchimi, qotilmi — Jahongir uchun shugina qorong'i.

Burgut hayallamadi. Qo'lidagi portfelini qappaytirib chiqib keldi. Jilmayib kelishidan ma'lumki — ish pishgan.

— Davlat ishiday og'ir yumush yo'q dunyoda. Tushuntirish ishlarini olib bormasangiz bo'lmaydi, — dedi u Jahongirga yaqinlashib.

Jahongirning ko'ngli noxushlikni sezib, derazaga qarab oldi — harakat sezilmadi.

— Uni... o'ldirdingizmi? — dedi Jahongir Burgutga tik qarab. Burgut bunday savolni kutmagan edi, Jahongirga taajjub bilan qaradi.

— Esingiz joyidami, hamshahar, men jallod emasman, davlat ishidagi odamman.

— Birodar, davlat ishidan latta hidi kelib turibdi.

— E, hamshaharim, go'l odamga o'xshaysiz. Qani, ketdik, bu yerda turmaylik, — Burgut shunday deb Jahongirni qo'ltiqladi. — Bizning ishdan latta hidi kelmaydi,

qo'rwmang. Men Burgutman, o'laksa yeydigan quzg'un emasman. Tozidullinning qarzi bor edi. Shuni berdi. Qarib, xotirasi parishon bo'lib qolgan ekan, o'zim qistab keldim.

— Men-chi? Meni nimaga sudradingiz, uni qo'rqtish uchunmi?

— Hamshahar, har bir tirik jonga hamroh kerak. Baribir bekor o'tirgan edingiz, bahonada olam-jahonni ko'rdingiz, qorinni to'qlab oldingiz.

Jahongirga bu gap malol kelib to'xtadi. Xaltani ochib tugunchani oldi-da, Burgutga uzatdi:

— Mang, men haromga toqat qilolmayman.

— Nimasi harom? Cho'chqa go'shti aralashmagan bularga.

— Birovni norozi qilib olingan non menga botmaydi.

Burgut Jahongirga sinchkovlik bilan nazar tashladi.

— Bolshevik desam, basharang o'xshamaydi, — dedi u sensirab, — lekin gapingdan bosheviklarning isi kelib turibdi. Sen oliftagarchilik qilma, og'ayni. O'lib yotgan odamlarni ko'rmadingmi? Hammasi bir tishlam nonga zor bo'lib o'lgan. Sen bola-chaqangning oldiga tirik yetib olishingni o'yla.

Jahongirning tuguncha uzatgan qo'li muallaq qoldi.

— Xaltingga solib qo'y, tura tursin, senga yoqmasa o'zim yeyman, — u shunday deb yurdi. Jahongir tugunchani xaltasiga noiloj joylab, unga ergashdi. Burgut oldinda, Jahongir yarim qadam orqada borardi. Chetdan qaragan kishi mansabdor odam xizmatkorini boshlab ketyapti, deb o'ylardi.

— Sen Tozidullinga achinyapsan, shekilli? — dedi Burgut Jahongirga qaramay, — u noninigina emas, jonini ham berishi kerak edi. Joni siylovga qoldi. U hozir seni ham, meni ham duo qilib o'tiribdi. Sendan yashirmayman, bilib qo'y: men o'g'riman. O'zimning ishimga halolman. Bu marazi g'irromlik qilib qochgan edi. O'zbekning nonini tuyu qilmasin, deb izlab keldim. Bu pulni o'sha yoqda topsam ham bo'lardi, lekin g'irromga toqat qilolmadim.

— O'g'rilik gunoh, birovning moliga ko'z tikish gunoh, — dedi Jahongir.

— Nima-a? — Burgut yana to'xtadi. — Hey, esing joyidami o'zi? Bu zamonda gunoh-savob degan narsa qolibdimi? Necha yil o'tirganiningni bilmayman-u, ammo aqling kirmabdi. Sen qamoqda o'tirmagansan, bolsheviklarning mакtabida o'qigansan.

— Bolsheviklaringizni bilmayman, ammo islomda o'g'rilik gunoh.

— Nima, sen mullamisan? Mulla bo'lsang peshonangga nima uchun yozdirib olding?

— Mulla emasman, musulmon farzandiman. Yozuv... shayton yo'ldan urdi. Nima deb yozilganini bilasanmi?

— Menga buning qizig'i yo'q.

— «Alqasosu minal haq» deyilgan. Bu «Qasos Haqdandir» degani.

— Tushunarli. Demak, kimdadir qasding bor. Lekin, og'ayni, sening ishing chatoq. Hozir hamma xudosiz bo'lib ketgan. Bu gaplaringni birov sariq chaqaga ham olmaydi. Shuning uchun boshimni og'ritma. Men o'zimning qonunimga bo'ysunaman. Bolshevikning bilan ham, isloming bilan ham ishim yo'q. Hozir machitlarda mol boqadigan zamon.

— Machitga til tekkizma! — Jahongir shunday deb uning yoqasini changalladi.

— Qo'lingni tort, ahmoq, — dedi Burgut uni siltab tashlab, — borarsan, o'zing ko'rarsan ahvolni. — Burgut shunday deb yurdi.

— Shunga yo'l qo'yib yuribsizlarmi?

— Menga nima? Men o'zimga yarasha mustaqil davlatman. Boshqa davlat bilan ishim yo'q. Menga Nekolay poshsho bo'ldimi, Kerenskiymi, Leninmi, Stalinmi — farqi yo'q. Menga ov ovlaydigan ovloq bo'lsa, bas. Poshsholar ham, bolshevik ham menga toqat qilolmaydi. Men ham ularni birday yomon ko'raman. Sen poshsholikni yaxshi ko'rasan.

Poshsholik ham sendaqalarni yoqtiradi. Endi davr-davronlaring o'tdi. Mening davrdavronim esa o'tmaydi. Sen esing bo'lsa, mening davlatimga kir. Davlat ishlari seni xor qilib qo'y maydi.

— O'g'rilikdan hazar qilaman.

— Uyingga yetib olguncha hazar qilmay tur. Sen menga yoqib qolding. O'g'il bola ekansan. Faqat men bilan gap talashma. Sen gap bilarkansan, men ish bilaman. Ora ochiqmi?

Albatta, ora ochiq edi. Osmonda quyosh bilan oy to'qnash kelmagani kabi bu tasodifiy hamrohlarning fe'li, dunyoqarashida yaqinlik bo'lishi mumkin emas edi. Jahongir o'ziga to'q oilada tug'ilib o'sdi. U uyida to'plangan boylikni birovning haqi deb bilmas edi. Otasi ham, bobosi ham bularni Ollohnning ne'mati deb bilib, shukrona sifatida kambag'allarni siylab kelishgan. Boylik ham, kambag'allik ham Tangrining bir sinovi, boy manmanlikdan, kambag'al o'zgalar haqiga xiyonat qilishdan asralishi zarur — ularning aqidalari shu edi. Ular birovning yeb turgan nonini tortib olishmagan, aksincha, yeb turgan nonlaridan sindirib berishgan. Shunday oilada nazari to'q bo'lib o'sgan odam o'g'riga yon bosarmidi?

Burgut esa Tangrining sinovlariga bepisand qarovchi davrada unib-o'sdi. Yetimlik suvini barvaqt ichib qo'ygan bu odamning aqidasi bitta edi — o'zing yulib olmasang, senga birov bermaydi. Ishlab, mehnat bilan topib yeyish haqidagi tushuncha unga begona aniqroq aytilda, aynan shu o'g'rilikni u mehnat deb biladi. Birovning haqi degan tushunchani u o'zicha talqin qiladi. Ya'ni: bu dunyo umumnniki, ne'matlar ham umumnniki. Demak, hamma eplaganicha yulib oladi bu ne'matni.

Shunday ekan oraning ochiqligi tabiiy.

Ular kutgan poezd oqshomda keldi. Burgut Jahongirning xaltasidagi tugunchani ochib tamaddi qilib oldi. Jahongir o'zining qattiq noniga qanoat qildi. Burgut uni zo'rlamadi.

Kechasi Jahongirning badanida og'riq turdi. Jahongir avvaliga buni ochlikka yo'ydi. Tongga yaqin titray boshladidi. Dastlab vagon uni tebratgan bo'lsa, endi uning titrog'idan vagon chayqalayotganday edi. Jahongir isitma aralash alahsiradimi yo baqirib yubordimi — bilmaydi. Peshonasiga tekkan muzdek kaftni sezib ko'zini ochdi.

— Ahvol chatoq-ku? — dedi unga engashib qarab turgan Burgut.

Tong otdi, kun yoyildi. Vagon ichi dimiqdi. Jahongir nafas oololmay qoldi. Yaqin o'tirganlar uning titrog'ini ko'rib, o'zlarini chetga olishdi.

— Bezugakka o'xshaydi, — dedi birov.

— Yo'q, terlama bu, — dedi boshqasi.

— Hammamizga yuqtirmasa edi. Balki vabodir?

— Vaboda titramaydi, vabomas. Lekin kasalining yomonligi aniq. Duch kelgan yerlarda yotib yuradigan daydig'a o'xshaydi.

Shu singari gaplar vagon bo'y lab tarqalib, vagon-og'asi Burgutga yaqinlashdi:

— Birodar, keyingi bekatda tushib qolganinglar ma'qulmikin, uzoqqa borolmaysizlar. Dori-darmon qilmasangiz bo'lmas.

Burgutning vagondagi gaplardan xabari bor, odamlarning mehrsizligidan g'azablanib o'tirgan edi. Vagonog'asi dori-darmonni gapirmaganida uni urib yuborishga ham tayyor edi. «Yo'l uzoq, bu ahvolda o'lib qoladi», deb o'y lab, uning maslahatiga ko'ndi.

Poezd to'xtagach, vagonog'asi yordamida bir amallab Jahongirni ko'tarib tushib, bekatdagi yakka daraxt ostiga yotqizdi. Jahongir ozg'in bo'lgani bilan suyagi yo'g'on edi — ikkovlon qora terga botishdi.

Burgut arava topib kelguncha Jahongir majolsiz nigohini titrayotgan barglarga qadab yotdi.

«Umrim bargga o'xshab ilinib qoldimi? — deb o'ziga-o'zi savol berdi. — Akam bilan otishishga chiqqanimda bargning uzilishi qiyin bo'lgan edi. Jonning uzilishi qiyinmi? Ha... Zokirxo'ja azoblanib jon bergandi. Zokirxo'janing qismati mening peshonamda ham bor ekan-da. Yo'lida xor bo'lib o'lish uchun muzliklar ichida tirik qolgan ekanman-da. Qasos haqdandir... demak, qasos mening qo'lim bilan bo'lmaydimi? Armon bilan ketamanmi? Bir o'g'rining qo'lida jon berib, go'rga janozasiz, kafansiz kiramanmi?..

Jahongirning ko'zidan yosh dumaladi. U o'layotgani uchun g'amda emasdi, armon bilan o'layotganidan afsusda edi.

Jahongir ko'zini yumib-ochdi. Voajab, hozirgina daraxt barglari yam-yashil edi. Endi sap-sariq tusga kiribdi. Ana, birin-sirin uzilmoqqa boshladi barglar. Yomg'irday yog'ilyapti barglar. Birpasda shoxlar yalang'och bo'lib qoldi. Daraxtlar daraxt emas, osmonga sanchib qo'yilgan nayzalarga o'xshaydi. Bag'riga sonsiz-sanoqsiz nayza sanchilgan osmon azobga qanday chidaydi? «Daraxt nimaga quridi? Qiyomat yaqinmi? Machitlarda mol boqilayotgan bo'lsa, qiyomat boshlangandir. Odamlar dupurlab chopishyaptimi? Mahsharga shoshilishyaptimi? Men nima qilib yotibman? Qiyomat boshlanibdi, yer silkinyapti. Ha, qiyomat bu. Hammayoq qon... qon...»

Isitma otashidagi Jahongirning ko'zlari ochiq, lekin hech nimani ko'rmas edi. U aravaga olib yotqizishganini sezmadni. Aravaning silkinishini zilzila deb, qo'sh ot dupurini odam dupuri, deb xayol qilib fikran mahshar sari shoshilardi.

Musofir shahardagi shifoxonaga olib kelinganini, sakkiz kun deganda hushiga kelganini, keyinroq hamxonalaridan bildi.

— Akangiz mehribon ekanlar, sakkiz kun parvona bo'ldilar, — dedi hamxonasi, u o'ziga kelgach.

Jahongir «akam kim ekan?» deb ajablandi. Bozorga ketgan Burgut qaytgach, «akasi» kim ekanini bildi.

«Men Tangrim o'g'rining qo'li bilan yerga qo'yadi, deb o'ylasam, o'g'rining qo'li bilan jonimni qaytarib beribdi-ku? Uning qo'lidan non olmagan edim, jon oldim... Olloh jonimni beribdimi, demak, qasos ham mening qo'lim bilan bo'ladi...»

Jahongir «Meni deb shuncha yurdingizmi», demadi. Burgut esa «Seni tashlab ketishga ko'zim qiymadi», demadi. Burgut to yurtga yetib borguncha ham Jahongirning kasalidan gap ochmadi.

So'nggi bekatga yetib kelishgach, Burgut qo'l uzatdi:

— O'sha gap-gap: ora ochiq, omon bo'l, hamshahar, — dedi kulimsirab.

— Sizni qaerlardan yo'qlasam bo'ladi?

— Qarzingni bermoqchimisan? Qo'yatur, ko'milgan tillalaring joyida tura tursin. Muhtoj bo'lsam seni o'zim topaman. Sen meni butunlay unut, ora ochiqmi?

Shunday dediyu bekatda to'zib yurgan odamlar orasida bir onda g'oyib bo'ldi. Jahongir shundan so'ng uni ko'rmadi. Burgut «Muhtoj bo'lsam seni o'zim topaman», degan edi, topmadi. Jahongir buning shunchaki ko'ngil uchun aytilgan gap ekanini bilardi. Burgut muhtojlikka uchraganda ham kelmas edi. Chunki u g'irrom bilan bir qatorda minnatga ham toqat qilolmas edi. Jahongir keyinchalik o'g'rilarni ko'p ko'rdi, ammo Burgutga o'xshaganini uchratmadni.

Burgut unut, degani bilan Jahongir uni unuta olmadni. Uni ko'p esladni. Bugun shifoxonada ko'z ochgani sabab bo'ldimi yo Shoqolning gaplarimi, harholda Burgutni yana yodladi.

Jahongir o'shanda Burgut bilan xayrlashgach, shaharning qaerida tunashini bilmay garangsidi. Bu shaharda quchoq ochib kutib oladigan yaqini yo'q. Mehmonxonalarining unga joy bermasligi tayin. O'ylab-o'ylab bir paytlar tahsil olgan madrasasiga borishni xayol qildi.

Ko'chalar uning nazarida rangpar ko'rindi, ularda ilgarigi jon yo'q edi. Qahatchilik degan yovuz qush qora qanotlarini bu yurt, bu shahar ustiga ham yozgan edi. Sillasi qurigan odamni bitta-bitta cho'qilab ko'cha-ko'ydi ham dumalataverardi. Shaharda o'lim ko'p, ammo yig'i oz edi. Yig'lash uchun ham qorin to'q bo'lishi kerak. Ocharchilik ko'zdagi yoshni quritib, diydalarini qotirgan edi.

Jahongir madrasaga borgach, taajjubda qotdi: madrasa darvozasiga qo'sh qulf urilgan, devorlar asta nuray boshlagan. Aftidan, bu yerda anchadan buyon odam yashamas edi.

Jahongir yaqin kishisini xarob tarzda uchratgan odam holiga tushib, ko'ziga yosh keldi. Eng yaqin kishingni abgor alfozda ko'rsang uni bag'ringga bosasan, yuzlarini silaysan. Xudodan muruvvat so'raysan, so'ng uning dardiga davo choralarini izlaysan. Necha yuz yil savlat to'kib turgan, necha ming ilm tolibiga boshpana berib, necha yumuq ko'zlarning ochilishiga guvoh bo'lgan, necha dilning sirini bag'riga singdirgan bu imoratni quchoqlab bo'lmasa, yarasiga malham topib bo'lmasa... Jahongir g'amini ichiga yutib, imoratga yaqinlashdi. Kaftini g'isht devorga qo'ydi — go'yo bu aftodahol imorat yuzini siladi. G'isht devordan iliqlik chiqib uning kaftiga o'tdi, keyin butun tanasiga taraldi. Muzliklarda to'g'nab qolgan ilig'iga harorat o'tganday bo'ldi. U beixtiyor yuzini ham devorga qo'ydi. Dimog'iga tanish hid urilib, yuragi entikdi. Qulog'iga tanish ovozlar eshitildi:

- Dil nadir, ko'krakning chap tomonida joylashgan bir parcha go'shtmi?
- Bu — dilning birlamchi ma'nosi. Ya'nikim, bu go'sht g'ovaklarida ruhning asl manbai bo'l mish qora qon mavjuddir. Bu yurak hayvonotda, hatto o'likda bordir va u hech qancha qiymatga ega emasdir.
- Mulla Jahongir, dilning ikkilamchi ma'nosini siz ayting.
- Hazrat G'azzoliy shunday zikr etibdilar: «Dil — Parvardigorning o'z bandalariga ato etgan ruhoniy ne'mati bo'lib, uning jismoniy dilga aloqasi bordir. Bu ne'mat insonning asl mohiyatidirki, inson butun ilmu ma'rifatga uning vositasida erishadi va barcha xitob, azob, itob va talablar unga qaratilgan bo'ladi: Ruhoni ne'mat bilan jismoniy yurak o'rtasidagi mustahkam aloqaning haqiqiy suratini ko'pchilik anglab yetmaydi...»
- Balli, mulla Jahongir, endi qissadan hissani ayting.
- Taqsirim, qissadan hissa shulki, Parvardigorning bandalariga bergen ruhoniy ne'mati iblisga xos illatlardan, chunonchi, hasaddan, yovuzlikdan, xiyonatdan, nafs buzuqligidan asralmog'i lozim. Asralmas ekan, jismoniy dil parokanda bo'lg'usidir.
- Balli... mulla Zayniddin, siz ayting, jon nadir?...»

Hozirgina jaranglab chiqqan ovozlar nimadandir cho'chiganday pasayib, g'isht kovaklariga singib ketdi. Jahongir qaddini tutib, osmonga qaradi: «Bu dargohning nima gunohi bor ekanki, darvozalariga qulf urilsa. Bunda ilm toliblari qirilib bitganmi yo mudarisslarmi? Yo Burgutning gaplari rostmi?»

Osmon jim, imorat ham... Savolga javob yo'q.

Jahongir devorga suyanib o'tirib boshini kaftlari orasiga oldi. Qirqbelga qaytib, kindik qoni tomgan uy o'rnida vayrona ko'rsa bunchalik ezilmasdi. Yeng shimarib uni obod qilishga kirishardi. Lekin yumuq ko'zlarni ochuvchi bu muqaddas imorat darvozasini qanday ochish, chiroqni qanday yoqishni bilmash edi.

Ruhi g'uborlarga ko'milayotgan bir damda yelkasidan kimdir asta ushladi. U boshini ko'tarib qaradi — yonoqlari turtib turgan, ko'zlari kirtaygan qariya.

— Inim, tobingiz qochdimi?

Jahongir o'rnidan turib, unga salom berdi. Qaddi dol bu qariya ko'ziga issiq ko'rindi.

— Aybga buyurmang, inim, halovatingizni buzdim.

«Qimirlamay o'tirganimga meni o'lib qolgan degandir», — deb o'yladi Jahongir. Keyin qariyaga tikilib qaradi.

— Ha, inim, tikilib qoldingiz?

— Otaxon, sizni bir kishiga o'xshatyapman. Shu madrasada mudarrisimiz bo'lardilar, mulla Nizomiddin degan?

— Mulla Nizomiddin? — qariya kuldi. Og'zini yumbanda tepadagi bittagina tishi pastki labining ustiga chiqib qoldi.

— Nimaga kulasiz? — dedi Jahongir ajablanib.

— Mulla Nizomiddin yo'q hozir, Nizom qorovul bor. O'sha mudarrisining menman. Ilgari shu imorat ichkarisida dars berardim, endi tashida qorovulman. Siz bunda tahsil olgan bo'lsangiz... tanimayroq turibman?

— Ismim Jahongir, qirqbeklik Muhammadrizoning farzandlariman. Alg'ov-dalg'ov boshlanib, xatmi kutub qilolmay qishlog'imga qaytgan edim.

— Ha... mulla Jahongirmi? Buni qarang-a, tanimay qolibman, qaysi shamol uchirdi?

— Sovuq yurtlarning shamoli, qamoqdan qaytyapman.

— Yo, alhazar, bu nima deganingiz?! Sizni nimaga qamadilar ekan?

— Taqsirim, buning tarixi uzun. Aytib, sizga yuk qilmay. Tuhmatning to'riga tushib qolgan ekanman.

— Ollohnning o'zi asrasin tuhmatlardan. Aybga buyurmang, bo'tam, bu peshonangizdagi yozuv nimasi?

— Qamoqda iblisning yo'liga yurib yozdiribman. Vatanning xumori tutganda esi og'ib qolar ekan kishining. O'shanday lahzadan xotira endi bu. Tikilmang, o'qiy olmaysiz, arabcha harfni bilmaydigan o'ris yozgan, chaplashib ketgan.

— Shayton vasvasasidan o'zi asrasin. Qani, yuring, kulbamizga boraylik. Menga bir kulba qurib berishgan, o'zimning ko'zimga saroydek ko'rindi. Jonni o'sha yerda saqlaymiz. Yuring, bo'tam, yuring.

Jahongir e'tibor bermagan ekan: qulf darvozaning ro'baro'sida odam bo'yidan sal tikroq kulba turardi. Kulbaning tomiga qora qog'oz qoqilgan, berk darvozaga qaratib darcha qo'yilgan, yon tomonda esa ensiz eshikcha bor edi. Engashib ichkariga kirishdi.

Darcha tomonda taxta so'ri qilingan, so'ri ustiga ko'rpa to'shalgan. Aftidan mudarris — Nizom qorovul yonboshlab yotib, shu darcha orqali imoratni qo'riqlar edi. Darchaning qatorida randalanmagan taxtadan tokcha qilingan. Unda besh-olti qalin kitob. Bu mudarris — qorovulning birdan-bir ovunchog'i shu — o'tmisht xotirasi bo'lsa kerak.

— Bu madrasa menga umrim bo'yi berilgan deb o'ylab, uy-joy qilmagan ekanman. Madrasani berkitishgach, ko'chada qoldim. Bu yerni ombor qildilar. Qayoqqa borishni bilmaganimda qorovullikni berdilar.

— Nimaga berkitdilar madrasani?

— E, bo'tam, dunyoning ishlaridan bexabarmisiz?

— Oz-moz xabarim bor. Qamoqqa tushganlar aytib berishardi, ammo ko'pam ishonmasdim.

— Ishoning, bo'tam, ishoning. Bir inqilobni boshlashdi, nomi madaniy ekan. Men bu inqilobni ko'rib, yoqa ushладим: hay-hay, madaniysi shu bo'lsa, vahshiysi qanday bo'lar ekan — farqiga aqlim qosir. Dastlab masjidlarni buzmoqqa kirishdilar. Yo, Ollo, imoratda nima gunoh bor ekan? Keyin Yaratgan ularning oko'ngliga picha insof yubordimi, buzmay, har turli idoralarga berdilar. Ombor etganlari bir navi, yahudiy yamoqchilarga ustaxona qilib berdilar, shunisiga dog'man. E, aytasam tilim, aytmasam dilim kuyadi. Qani, marhamat qiling, bo'tam, o'tiring.

Jahongir kulbaning o'ng tomoniga to'shalgan yupqa ko'rpa chaga o'tirdi. «Nahot, fozillar xorliqda, ojohillar farog'atda bo'lsalar. Nahot, jamiyatga bunday fozil odamning

keragi bo'lmay qolgan? Ilm nima bo'lgan, diyonat nima bo'lgan, insof, vijdon nima bo'lgan?»

— Talabalarimizdan bir qanchalari meni bu yerdan olib ketmoqchi edilar. Yo'q, dedim. Ketsam, madrasamiz yetimlikdan faryod urib qolayotganga o'xshaydi. Bir qancha idoralardan xizmatga ham chorladilar. Rad etdim. Madrasasiz dunyo ko'zimga qorong'i. Madrasa shu holida ham quyosh men uchun. Men qorin g'amida, shuhurat ilinjida quyoshga xiyonat etsam, do'zax azobiga shu dunyodayoq giriftor bo'la qolmaymanmi?

Mudarris Nizom qorovul gapdan to'xtadi. Darchadan yopirilib kirayotgan yorug'lik uning ko'zidagi namda akslandi.

Mudarrisning dardini tasvirlashga so'z ojiz. Yolg'iz farzandini qabrga qo'yganlarda shunday kulfat bo'ladi, Vatanni behad suygani uchun bu tuproqdan xorlab quvilgan odamda shunday alam bo'ladi. Ota-onasidan bevaqt ayrılgan, tuhmat bilan zindonga bandi etilgan odamlar dardi bu qadar ulug' bo'lmaydi.

Mudarrisining qaddini nima buksi: dardmi yo qarilikmi? Nima uchun eti ustixonga yopishdi: darddanmi yo ochlikdanmi?

Jahongir mudarrisga qarab Zokirxo'jani esladi. Zokirxo'ja ham gapira turib birdan jimb qolardi. G'amli xotiralar panjasি bo'g'ziga chang solib gapirtirmay qo'yardi. O'lim oldida taqdirga tan berib, bir gap aytgan edi, hozir Jahongir ko'zlari kirtaygan mudarris — Nizom qorovulga qarab, shuni esladi: «Osmonlar — kamon, yer — kamon ipi, hodisalar, ofatu kulfatlar — o'q bo'lsa, insonlar ul o'q-yoylarga nishon bo'lsa, otg'uchi Xudoyi taolo bo'lsa, odamlar qaerga ham qocharlar? Tangrining oldig'a qochishdan o'zga chora yo'q...»

«Tangri bu yurtga shuncha kulfat yubordi, odamlar nima qilsinlar, — deb o'yladi Jahongir. — Qayga qochsinlar? Akam qochdi. To'g'ri qildimi? Ammo bu odam nimaga qochmadi? Akam tillalarining kuchi bilan yurgandir, bu odam ilmi bilan davr surardi-ku, shunga aqli yetmadimi? Yo'-o'q... donolar Vatanni xorlikda tashlab qochmaydilar...»

— Ha, bo'tam, yana menga tikilib qoldingiz?

Jahongir darrov javob bera olmadi. Tikilishi boisini yashirib, o'zgacha javob qildi:

— Ochlik sillangizni quritibdi...

— Shunga shukr qilib yotibman. Birodarlarim ochlikda qaqqash, men yog'li palovga to'ysam, u dunyo-bu dunyo o'zimdan rozi bo'lolmas edim. Menga berilayotgan non jon saqlashimga yetadi. Biroq ko'chada sulayib yotganlarni ko'rsam, — mudarris istiholaga borib «o'lib yotganlarni» demadi, — shu bir tishlam non ham tomog'imdan o'tmaydi. Egamning qahri ham marhamatiga yarasha. Shu qahrga loyiq ekanmiz, shukr qilishdan o'zga choramiz yo'q.

— Taqsirim, o'ylab o'yimning tagiga yetolmayapman. Bu ne hol o'zi? Iblis har birimizning yuragimizdan joy olvoldimi, ko'zlarimizni ko'r qildimi?

Mudarris — Nizom qorovul darrov javob bermadi. Yorug'lik yopirilib tushayotgan darchaga qaradi. Keyin xuddi o'ziga-o'zi dars berayotganday ohista so'z boshladi. Jahongir dong qotdi. Ilm tolibi ekanida eshitgan o'sha ovoz, o'sha ohang...

— Rasululloh sallallohu alayhi va sallam, aytibdilar: «Mening ummatimga ham ilgari o'tganlarning kasali yetib keladi». «Ilgari o'tganlarning kasali ne edi?» deb so'radilar. Rasululloh javob qildilar: «Kibr-havo, manmanlik, mol-dunyo orttirishdagi raqobat, bir-biridan chetlanish va zulmga, so'ngra esa bosh-boshdoqlikka olib boradigan hasadgo'ylik». Payg'ambar oalayhissalom yana shunday deganlar: «Ummatim ustida eng ko'p qo'rqaqidan narsam, ularning mol-dunyolari ko'payishi natijasida bir-birlariga hasad qilib, o'zaro nizolar chiqishidir... Olov o'tinni yegani kabi hasad yaxshi amallarni yeydi». Qilingan birinchi gunoh — hasad bo'lgan edi. Iblis Odam alayhissalomning

martabalariga hasad qilib, u zotga sajda qilishdan bosh tortdi — hasad uni gunohga yetakladi. Tangri bergen ne'matlar orasida nafs degan bir lafz borki, bunda insondagi barcha mazmum sifatlarni o'zida jamlagan zo'ravon kuchni nazarda tutadilar va shu bois deydilar: «doimo nafsga qarshi kurashish va mudom uni sindirish lozim, zero payg'ambar alayhissalom: «Eng qattol dushmaning o'z ichingdagi nafsingdur», deganlar.

Mudarris Nizom qorovul «javobim shu» deganday Jahongirga qaradi. Jahongir Abu Homid G'azzoliyning asarini esladi.

Shu zaylda boshlangan suhbatning chek-chegarasi yo'qdek edi. Tokchadagi kitoblar qo'lga olindi, varaqlandi, o'ziga hikmatlarni yashirgan satrlar tilga kirdi. Shu kun, shu tun Jahongir boshiga tushgan savdolarni oz bo'lsa-da, unutdi. Olma qoqidan damlangan choydan ichib tunni tongga uladilar. Saharda Jahongir yo'lga otlandi.

— Sizni Ollohnning o'zi panohida asrasin, — dedi mudarris — Nizom qorovul, — ehtiyot bo'ling, bo'tam. Sizga yaxshilik qilganlarga yaxshilik qiling, yomonlik qilganlarga yomonlik qilmang.

Yarim yo'lni aravada, yarim yo'lni piyoda bosib, Qirqbelga yetib keldi. Qishloq o'sha-o'sha — o'zgarmagan. Uylar ham, daraxtlar ham birdek. Oradan shuncha yil o'tib ketmagandek.

Yo'lda uchragan yosh-yalang salom berib, uni tanimay qolaverishdi. Taniganlarning ayrimlari qo'shqo'llab, ba'zilari qo'l uchida omonlashib «omon-eson keldingizmi», deb hol so'rashdi. Jahongir ularga qisqa javob qilib uyiga shoshilardi...

...Hovlisiga qadam qo'yishi bilan tiz cho'kadi, so'ng peshonasini ota-onasining oyog'i tekkan yerga qo'yib tavof qiladi, tuproqni ko'ziga surtadi. So'ng ichkaridan «Dadajon!» degan qo'ng'iroqdek ovoz keladi. Keyin... ayvonda Xadicha paydo bo'ladi.

— Xayriyat, ketib qolmagan ekansizlar, akamga qo'shilib ketganmikinsizlar, deb jonim halakda edi.

— Sizni tashlab qayoqqa ketamiz, yo'lingizga ko'z tikib kutdik. Xudoning marhamatiga ishondik, shu kunga yetkazganiga shukr. Ana, o'g'lingiz ham katta bo'lib qoldi...

Ko'chasiga burildiyu hayron qoldi: devor boshqa, darvoza boshqa. Eshik oldida ikkita ot qo'shilgan arava. Jahongir qadamini tezlatib yurib keldi-da, darvoza ro'baro'sida to'xtadi. Miyasi lo'qillay boshladi. Kimdir boshiga bir me'yorda bolg'a urayotgandek bo'ldi. U o'pqon sari yurgandek ichkariga asta qadam bosib kirdi. Ko'zi ayvon ustunidagi qizil bayroqqa tushdi.

U tiz cho'kmoqchi edi, tavof etmoqchi edi, kim toptadi ekan bu hovlini? Jahongir devordagi lavhani ko'rib, o'qidi: «Qizil omoch» kolxozi». «Bu yerga ham yetib kelibdi-da, bu kolxz, — deb o'yladi u. — Xudo urgani rost ekan». Qamoqdagi kunlari oxiriga yetay deganda bir qancha yangi mahbuslar — «yangi hayot dushmanlari» kelgan, «kolxz», «qulox» degan so'zlarni o'shalardan eshitgan edi.

Jahongir nima qilishini bilmay turganida ichkaridan oyog'iga xrom etik, boshiga qora shapka kiygan shop mo'ylovli kishi chiqib, unga o'grayib qaradi-da:

— Mahkam, begona odam nima qilib yuribdi bu yerda? — deb baqirdi. Shu zahoti hovlida past bo'yli yigit paydo bo'ldi.

— Ha, og'ayni, nima bor bu yerda sizga? — dedi u Jahongirning yo'lini to'sib.

Jahongir shopmo'ylovni tanidi. Uni hukm qilishganda chirani ayblagan odam shu edi.

— Sen, nari tur, — dedi Jahongir past bo'yli yigitga, — men manavi lakang bilan gaplashaman. Sotvoldi aka, tushunmayroq turibman, sizga nima bor bu uyda?

Shopmo'ylov unga qarab turib:

— Ha, senmisan, — dedi to'ng'illab, — o'lmabsanda. Ammo bu yerga kelib, chakki qilibsan. Uying musodara bo'lgan.

— Kim musodara qildi?

- Kim deysanmi? Sho'ro hukumati! Endi bu yer kolxoz idorasi. Sen kolxoz uchun yot begonasan, bu yerga qadam bosa ko'rma.
- O'z uyimga... o'zim begonamanmi?
- «O'z uyim» degan gap yo'q. Hamma narsa umumnniki.
- Hamma narsa?.. — Jahongir qamoqda eshitgan gapni eslab, beixtiyor aytib yubordi, — xotiningiz hammi?

Pakana yigit yana Jahongirning qarshisida paydo bo'lib, dag'dag'a qildi:

- Tiling qirqilsin, ahmoq! Rais akam sho'roning odamlari!
- Mahkam, qoch, u bilan o'zim gaplashaman. Sen, boyning bolasi, jo'na bu yerdan, qorangni ko'rmay.

Jahongir uning po'pisasini eshitmaganday olma daraxtiga qadalib turgan supaga o'tirdi. Shopmo'ylov uni yeb qo'yguday bo'lib o'qraydi-da, ichkari kirib ketdi. Pakana yigit haydasa baloga qolishi mumkinligini anglab, yaqinlashishga jur'ati yetmay, ayvon ustuniga suyanib turib oldi. Xorlik azobi tan azobidan kuchliroq. «Bu uyga begonasan!» deb haydash o'rniliga yuz darra, ming darra urganida ham bunchalik alam qilmas edi. Muzliklarda yurganida Jahongir uyini sog'inib ezilardi. Qizigan ko'kragini muz parchasi ham sovuta olmasdi. O'sha kulfatli kunlarda yig'ilamagan, o'zini bosishga qurbi yetgan Jahongir birdan bo'shashdi, ko'ziga yosh keldi. Bu yosh ojizlik yoki nochorlik emas, g'azab qo'lidan toshib chiqqan edi. U o'rnidan turib avval pakanani, so'ng shopmo'ylovnini yanchib tashlagisi keldi. O'rnidan turishga shaylandi ham, ammo o'zi bilmagan bir kuch to'xtatdi. Bu kuch — farosat edi, «bularni majaqlaganing bilan foydasi bormi, bular bir qarol, hojalari boshqa bo'lsa, tegma ularga. Ularning qasosi Haqdandir. Hozir ular sening baxtsizligindan kulyaptilar. Bilmaydilarki, ularning baxti omonat, ertaga baxt senga berilib, sening baxtsizliging ularga nasib etadi. Tur, shu kunga omon yetay desang, indamay chiq bu yerdan».

Ongida uyg'ongan buyruqqa itoat etdi: bir-bir bosib chiqdi. Qadrdon yer, qadrdon tuproq uni qo'yib yuborgisi kelmayotganday oyoqlari zil og'ir, yerdan uzilishi qiyin edi.

Jahongirni oyoqlari qabristonga yetaklab bordi. Ajdarqoya poyida do'mpaygan qabrlarni tizza bo'yi o't qoplagan. Jahongir qabriston etagida to'xtab, ko'zlarini javdiratib ota-onasining qabrini izladi. O't bosgan qabrlarni bir-biridan ajratish qiyin edi. U go'rlarni bosib o'tmay, kelgan yerida cho'kkalab uzoq tilovat qildi. So'ng uzlatguzinlikni ixtiyor qildi. U rixlatga chekinganlar dunyosining bu yorug' dunyodagi posboniday qimir etmasdan o'tirardi.

- « — Onajon, men sizning yolg'izingizman, meni juda barvaqt tashlab ketdingiz?
- Boshingga tushadigan kulfatlarni ko'rmasin, deb momong chaqirib oldi.
- Meni kim chaqiradi, ota, sizmi?
- Seni chaqirmayman, zimmangda yumushing bor.
- Yo'l uzoqqa o'xshaydi, yukim og'ir, bardosh berolmayman.
- Bardoshli bo'l, arvohimni chirqiratma, Jahonim...»
- Jahon!

Jahongir seskandi: ovoz qaerdan keldi, qabr ichidanmi?

— Jahongir!

U boshini ko'tarib orqasiga qaradi — Daminni tanidi. Savod chiqarishga ko'ngil qo'yib undan yozuvchizuvni o'rgangan qarol yigitcha edi, yillar o'tib qoruvli yigitga aylanibdi.

— Shu yerdadirsan, deb o'ylovdim.

Ular quchoqlashib ko'rishdilar.

— Yur, uyga boraylik, — dedi Damin.

— Oshiqmay tur, bir oz shu yerda o'tiraylik.

— Uyingga kiribsan, bildim. Sotti bilan pachakilashmaganing durust edi.

- Nimasidan qo'rqasan?
- Ko'ngliga yoqmaganlarni quloq qilib yuribdi. Bitta echkisi bor odamni ham boy deb xatga tirkayapti. Harholda rais degan nomi bor.
- Saylashga saylab qo'yib boshlaringni toshga uryapsanlarimi?
- Gapingni qara, saylamasak bir balo, saylasak yana bir balo. Chori ota «Hoy bola, birodarlarining xo'rlama» devdi, «Bog'dor boy» deb uni quloq qildirvordi. Ota boyaqish shaharga yetmay uzilibdi. O'ligini olib kelib shu yerga ko'mishdi, ammo oilasini baribir jo'natvordi.

Jahongir Chori otani yaxshi tanir edi. Bu benazir bog'bonning bog'ida jannatda ham topilmaydigan mevali daraxtlar bor edi.

- Bog'ni kolxoz olib qo'ygandir?
- Qo'yarmidi? Bog' qurib qolsa kerak, qarovning mazasi yo'q.
- Shunday odamni xorlagani uchun ko'r bo'ladi.
- Jahon, u opalarining ham jo'natgan, hech kim qolmagan.
- Yuragim sezgan edi. Cho'ldagi yakka daraxtga o'xshab qoldimmi?..
- G'am chekaverma. Bitta sen yolg'izmassan. Uylanarsan, bola-chaqa orttirarsanam, ungacha biznikida turaver.
- Menikilar... ketgani rostmi?

Jahongir bu savolni berishga yuragi betlamay turgan edi. U Xadichaning ketganini bilsa ham, «balki ketmay qolgandir, balki yo'ldan qaytgandir» degan ilinj — uzoq yulduzning ojiz nuriday umid uni yoritib turar edi. Savolga «ha» degan javob olsa, bu so'nggi yulduz nuri ham so'nardi. Kutganidek bo'ldi: «ha», degan qisqa javob oldi. Mana shu javob osmonga o't qo'ydi, Jahongirni osmon o'ti bag'riga oldi; so'ng yerni qoq ikkiga ajratdi, Jahongirni tubsiz jarga uloqtirdi.

- Ilojing qancha, ko'nikasan endi, uylanasan, bola-chaqa topasan...

Damin to'porilik bilan aytgan bu yupanch so'zlarining o'qqa aylanib do'sti yuragiga sanchilishini o'ylamagan edi. So'nggi umidini ko'mgan odamga uylanish haqida so'z aytish joizmi?

Jahongir Daminnikida tunab qoldi. Ertalab Damin guzarga chiqdi-yu, hovliqib qaytdi:

- Jahon, uyidan haydayapti, dema, ammo ketmasang bo'lmaydi shekilli. Sotti rayonga xat tushuribdi. Sen haqingda emish. Seni ham quloq qilib yuboradiganga o'xshaydi.

Jahongir bu gapni eshitib ajablanmadni ham, hayajonlanmadni ham. Xotirjamlik bilan yuziga fotiha tortib, o'rnidan turdi.

- Faqat ko'nglingga egri gap olma, — dedi Damin xijolatlik bilan.
- Xat jo'natmasa ham ketar edim, bu yerda qolib nima qildim. Sahrodagi yolg'iz daraxtman men.

U shunday deb Damin bilan xayrashdi. Yo'lni to'g'ri jaydidaraga oldi. Oqshomgacha atrofda aylanib yurdi. Kun botishda katta chinorga yaqinlashdi. Yerni pichoq bilan tatalab kavlab xumni ochdi. Tilla tangalardan olib beliga tugdi-da, xumni yana ko'mib qo'yib, shahar tomon ravona bo'ldi.

## 8. YERDA NIMA GUNOH?

*Mayor Solihov Jahongir bilan Yo'Ichivoyni yuzlashtirgach, Yusufxonaga, Siddiq Sharipovning qishlog'iga borishi kerak edi.*

Hushidan ketgan Jahongirni olib chiqishgach, Solihov joyiga o'tirdi. Kutilmagan bu voqeadan sarosimaga tushgan Yo'Ichivoy umidvor odamning ko'zi bilan mayorga qaradi.

— Dadamni... shu kishi... — dedi biroz duduqlanib. «O'ldirganmi?» deyishga tili bormadi.

— Yo'q, bu odam emas.

— Unda nimaga ro'para qildingiz?

— Demak, shunday qilish lozim edi, — Solihov qo'pol ohangda gaplashayotganini o'zim ham sezib, grafindagi suvdan quyib ichdi. — Siz... Qirqbel degan qishloqni eshitganmisiz?

— Yo'q... — Yo'Ichivoy shunday deb ko'zini olib qochdi.

— Qirqbel otangiz o'ldirilgan Daydidaraga yaqin. Demak, otangizning tanishlari Qirqbelta bo'lishi mumkin, — dedi Solihov undagi o'zgarishni sezmaganga olib. — Bu yerga kelganlaringdan so'ng hech Yusufxonaga bordinglarmi?

— Dadam rahmatli bordilar.

— Borib kelib nima devdilar? Balki eski tanishlarini uchratganlarini aytgandirlar?

— Esimda yo'q.

— Bobongiz haqida hech gapirganmilar? Kim bo'lgan bobongiz?

— Bobom... dehqon bo'lganlar.

— Boy dehqonmi, o'rtaholmi yo kambag'almi?

— Buni so'ramaganman. Nimaga meni so'roq qilyapsiz? Axir jabrni biz ko'rgan bo'lsak, qotilni topish o'rni...

— Qotilni topish uchun ham so'rayapman. Siz ko'p narsani bilmaydiganga o'xshaysiz yo bilsangiz ham aytgingiz kelmayapti. Men onangiz bilan gaplashishim kerak.

— Mumkin emas, siz nomahramsiz.

— Bu gaplarni qo'ying, yigit, boshqalarga mumkinmasdir, menga mumkin.

— Sizni uyga kiritmayman.

— Uyingizga borish niyatim yo'q. Hozir borib, onangizni shu yerga olib kelasiz. Yo'q desangiz, militsioner yuborib oldirib kelaman. Menga shunday huquq berilgan.

Yo'Ichivoy ilojsiz bir ahvolda o'rnidan turdi. U chiqib ketgach, mayor telefon trubkasini ko'tardi. Solihovga kapitan Ramazonov kerak edi, xayriyat, xonasida ekan.

— Kapitan, bir ishni xom qilibmiz. Menga 1955 yilda Xitoydan o'tib kelgan Sharipovlarning ro'yxati kerak.

— Siddiq Sharipovga aloqadorlarmi? — deb so'radi kapitan.

— Yo'q, umuman Sharipovlarning hammasi kerak. Nazarimda bular boshqa odamning familiyasiga o'tishgan. Kechgacha aniqlab bering, men ertaga Yusufxonaga borib kelaman.

Solihovga kalavaning uchi ko'rinish qolganday edi. Lekin bu kalava uchi uni qotil tomon boshlamay, boshqa bir sir sandig'i sari yetaklayotgan edi. «Balki Sharipov chindan Muhammadrizaevning akasidir. Balki boshqa familiyada qaytgandir. Balki yigirma ikkinchi yilda bir jinoyat qilib qochgandir. Xo'sh, shunday bo'lgan ham deylik. Aka-uka orasidan nima gap o'tgan? Aka-uka mojarosini uchinchi odam hal qilganmi? Kim u uchinchi odam? Bu savolga Muhammadrizaev javob berishi mumkin. Lekin u aytmaydi. Balki... u uchinchi odamni ko'rmagandir. U kelganda akasi o'lib yotgandir. Akasini saqlab qololmagani uchun o'zini-o'zi la'natlab, ayblab jazo olmoqchidir. Harholda, aka-uka nima uchun aynan Daydidarada uchrashadi?».

Yo'Ichivoy hayallamadi. Solihov bugungi so'roq natijalarini yozib, rasmiylashtirguncha keldi.

— Onangiz qanilar? — dedi u Yo'Ichivoyning yolg'iz kirganini ko'rib.

— Shu yerdalar, odamingiz qo'y mayapti, paranjini olasan deydi, — Yo'Ichivoyning gap ohangidan uning qattiq achchiqlangani sezildi.

Solihov navbatchiga qo'ng'iroq qilib, paranjili ayolni o'tkazib yuborishni buyurdi. Shundan so'ng Yo'Ichivoy chiqib, onasini boshlab kirdi.

— Xafa bo'l mang, opa, ishimiz shunaqa, — dedi Solihov uzr ohangida, — o'g'lingiz ko'p narsani bilmas ekan. Qaytganlaringizdan so'ng Yusufxonaga bordinglarmi?

— Dadasi boruvdilar.

— Siz asli Yusufxonadanmisiz?

— Ha.

— Qarindoshlaringiz yo'qmi u yerda?

— Yo'q.

— Qirqbelta-chi?

— Yo'q.

— Qiziq... Hech kimingiz bo'lmasa ham, yaqinlaringizning qabri bordir. Shuncha yildan keyin ham ziyoratga o'tmabsiz-da?

— Dadalari borganlar.

— Qaynotangizning kasb-korlari nima edi?

— Dehqon edilar.

— Boymi, o'rtaholmi, kambag'almi?

— Kambag'al edilar.

«Bu yigit o'ziga pishiqqina ekan, — deb o'yladi Solihov, — kela-kelguncha onasini savol-javobga tayyorlabdi. Bu ayolning ko'zlarini ko'rsam edim. Agar yolg'on gapi rayotgan bo'lsa, ko'zlar fosh qilib turardi. Bu yigit shuni bilganmi, shuning uchun paranjisini oldirmayaptimi? Men ularni cho'chitib qo'ydim shekilli? O'tmishlaridan cho'chishmayaptimi? Bu paranji ayol yuzini emas, sir-asror yuzini to'sib turibdi».

— Opa, o'tmishni so'rayotganidan cho'chimang. Qaynotangiz boy bo'lganida ham, boringki, bosmachi bo'lganida ham sizlarga zarracha ziyon-zahmat yetmaydi. Men bu gaplarni sizlarni ayplash uchun surishtirayotganim yo'q. Mening vazifam sizning kechmishlaringizni o'rganish emas, qotilni topish. Qotillikning bir ildizi o'sha yillarga borib taqalar balki, deb gumon qilyapmiz. Eringiz bezoriga tasodifan duch kelmagan. U Daydidaraga aldab yoki majburlab olib borilgan.

Ayol xo'rsindi. Bu xo'rsinishda paranji ichidagi vujudning qayg'u-hasratlari zohir bo'ldi. Bu qayg'u-hasrat tilga ko'chadimi, aytildimi noma'lum. Odamni vujudga yashiringan qayg'u-hasrat yeydi. Paranji ichidagi ayol bunga yana qancha chidaydi? Ko'rgan-kechirganlarini balki o'zi bilan olib ketar?

— Opa, ism-nasabingizni ayting.

— Xadicha... Sharipova.

— Sharipov — eringizning familiyasi, otangizning ismi nima?

— Rahmonqu...

— Eringizning aka-ukalari bormidi?

— Yo'q... — ayolning ovozi titradi.

— Eringiz nimaga oqsardi?

— Tug'ma edi.

Solihov Jahongirning suratini olib Xadichaga uzatdi:

— Bu kishini taniysizmi?

Xadicha jim qoldi. Xo'rsindi. So'ng yig'lamsiragan ovoz bilan:

— Yo'Ichivoy, o'g'lim, meni olib ketgin, mazam qochayapti, — dedi.

Solihov savol-javob yozilgan qog'ozga imzo chekdirib oldi-da, ularga ruxsat berdi. «Baribir cho'chishyapti, nimadandir qattiq qo'rqlihyapti. Balki... Uchinchi odamni ular

bilishar? Agar Sharipov bilan Muhammadrizaev aka-uka bo'lsa bu ayol bilishi kerak edi. Nima uchun suratdagi qaynisini tanimadi? Yo Muhammadrizaev tanimas darajada o'zgarib ketganmi?»

Oqshomda xonaga Ramziddin Ramazonov kirib keldi. Qo'lidagi charm jild orasidan bir varaq qog'oz olib mayorga uzatdi.

— Sharipov familiyasida to'rtta oila o'tgan. Bittasi Siddiq Sharipov. Tug'ilgan yeri Yusufxona qishlog'i. Ikkinchisi Safarqul Sharipov ham o'sha yerdan. Hozir shu qishloqda yashaydi. Uchinchi Sharipov Paxtaoboddan, to'rtinchi Marg'ilondan. Siddiq Sharipovni Safarqul bilsa kerak. Ertaga otlanyapsizmi?

— Ha. Sharipovning o'ldirilishi tasodifiy emasligi aniq. Oilasi ham nimanidir yashiryapti.

— Agar zarur ishingiz bo'lmasa, menga ruxsat bering. Komlev bilan uchrashish uchun Samarqandga jo'nashim kerak.

— Komlev? Tirik ekanmi?

— Tirik ekan. O'n yetti yil o'tiribdi.

— O'n yetti yil?.. — Solihov o'rnidan turib, xona bo'ylab yurdi. — O'g'ri bo'lsa o'tgan umriga achinmas edim. Lekin olim odam... O'n yetti yil ichida qancha ish qilardi, a?

Ramazonov «iloj qancha?» deganday yelka qisib qo'ydi-da, mayordan ijozat olib chiqdi.

Mayor Sanjar Solihov Yusufxona qishlog'iga peshinga yaqin yetib keldi. Qishloq tog'ning kungay tomoniga, shunday beliga joylashgan, pastlikda daryo suvi aqqirib oqadi. Bahaybat chinor poyida qaynab yotgan buloq qishloqning jon tomirlari ulangan yuragiga o'xshaydi. Yozda gavjum bo'ladigan bu joyda hozir odam zoti ko'rinnmaydi.

Qishloq soveti raisi mayorning maqsadini bilib xayolga toldi.

— Ikki yilcha bo'ldi kelishganiga. Yozda xotin, bola-chaqasini olib, toqqa chiqib ketadi. Qo'y boqadi. Yomonligini sezmaganman. O'zi shu qishloqda tug'ilib o'sgan ekan. Men yaxshi bilmayman. Ishqilib shpion emasmi?

Solihov raisning shubhasini eshitib kului.

— Shpion kelib-kelib sizning qo'ylaringizni boqadimi? Men u kishidan bir gap so'rayman, xolos.

— Shundan shunga kelgan bo'lsangiz, bu gapingiz anov-manovga o'xshamaydi. Hech eshak minganmisiz?

— Nima edi?

— Safarqul aka hali yozloqdan qaytmagan. O'toviga boraman, desangiz yayov yetolmaysiz. Bir odam qo'shib beraman, boshlab boradi.

— Sharipovning yoshligini kim biladi bu qishloqda?

— Soqi bobo bilishi mumkin. To'qson yilning u yoq-bu yog'idagi gapni so'rayverasiz. Kim qayga borgan, nima degan — xatosiz aytib beradi. Boboning kallasi butun.

Soqi bobonikiga raisning o'zi boshlab bordi. Mayor ixrab yotgan bir choldir-da, deb o'ylagan edi. Olmazorda ketmon chopayotgan qariyani ko'rib, «to'qsondan oshgan chol shumi?» degan savol nazari bilan raisga qaradi.

Soqi bobo ularni ko'rib, ketmonni yerga qo'ydi.

— Ha, rais bolam, kel, omomisan. Ena-otang omomni? — dedi u xo'shlashib.

— Bobo, mehmon militsiyadan ekan.

— Melisadanmi? — qariya «ilgari ko'rmaganmanmi?» deganday tikilib qaradi. — Qirq sakkizinch yildan beri qadam bosmay qo'yuvdilaring, yo'q bo'p ketgansanlar, deb o'ylabman. Ma'murni qirq sakkizinch yilning ramazonida olib ketishuvdi-da. Asirda bo'lgansan, deb otvorganmisanlar, ja daragi yo'q-ku, boyaqishning.

— Bobo, men u odamni bilmayman. Men boshqa xizmat bilan keldim.

— Xizmatingni qara sening. Tappa-tuzuk odamni qamaysan, otasan, go'rga tiqasan... Shuni xizmat deb yuribsanmi?

— Soqi bobo, bu odam unaqa emas, o'g'ri, kallakesarlarni ushlaydi.

— Bizning qishloqda o'g'ri yo'q, bolam, bekor ovora bo'psan. Yusufxonadan avliyolar o'tgan. Anavini ko'ryapsanmi, hazratim Ali bir ketmon urib olganlar. Keyin buloq bo'yida hordiq chiqarganlar.

Sanjar Solihov chol imo qilib ko'rsatgan tomonga qaradi. Chindan ham tog'ning yarmi ketmonda olinganday tikkasiga kesilgan edi.

— Bobo, Safarqul degan cho'poninglar bor ekan. Shu odam yigirmanchi yillarda Qashqarga o'tib ketgan ekan?

— Safarqulmi? Yigirma to'rtinchchi yilda ketgan. Xomroq chiqdi shu bola. Otasi rahmatli ham bo'sh-bayov edi. Yigirmadan oshgan yigit «Qo'ylarimni haydab oborib bersang, yuz tilla beraman», desa ishonib ketaveradimi? Hemirini ham bermabdi. Musofirlikda xor bo'lib, ana, qaytdi yana.

— Kimning qo'yini haydab ketgan?

— O'rozboyvachchanikini. Safarqulga pul zarur edi. Uylanay desa, bir dona butun noni yo'q. Xo'p degan-da boyaqish.

— Safarqul akaning og'a-inilari bormidi?

— Bor edi-yu, turmagan. Og'a-inilari o'lib-o'lib bir o'zi qolgan edi.

— U yoqdan durustroq bo'lib qaytishgandir. Axir qo'sha-qo'sha gilamlar bilan kelishyapti.

— Be, — chol kului, — shu Safarqulning peshonasiga buyum bitarkanmi? Podshoga xazinachi bo'lsayam yirtiq chorig'ini sudrab yuraveradi bu.

— Qashqarda orttirgan tanishlari hech yo'qlab kelishganmi?

— Men ko'rmadim, sen-chi, rais bolam? Ko'rmadingmi? Rais ko'rmagan bo'lsa, men ko'rmagan bo'lsam, kelmagan hisoblanadi-da, bizga ishonaver. Menga qara, buncha surishtirib qolding, Safarqulimiz shpionmasmi mabodo?

Bu gapdan rais kulib yubordi.

— Nega kulasan, nodon! Gaplarini eshityapsanmi buning?

— Shpionmas ekan, bobo, xotirjam bo'ling.

— Xotirjam bo'lmay nima, — chol qo'l siltab qo'ydi. — Bu dunyoning tayini qolmadi. Odam bolasi rizqi bilan birga tug'iladi. Kindik qoni qaerga tomsa — rizqi o'sha yerda. Ota yurtida to'yungan odam musofirlikda to'yarkanmi! Qorni to'ygani bilan ko'zi ochiq ketadi. Birov seni xafa qilgan bo'lsa yeringni tashlab jo'naysanmi, nodon! Yerda nima gunoh? Yer seni to'ydirsa, ustingni but qilsa. Ha, yer ko'r qilgurlar-e, qochib ketishdi? Qochib nima baraka topdi? Ana, o'sha chorig'ini sudrab qaytdi. — Chol Solihovning ko'nglidagi gaplarni aytayotgan edi, shu sababli indamay qulq soldi. — Bir o'zları ketishdi, bir qolganlarni quvg'in qilishdi. Yerning tilini biladigan odam borki, har tomonga sargardon bo'ldi. Sen bilib qo'y, rais bolam, kim yerga mehrini berib ishlasa — boy bo'ladi. Qornini silab yotgan odam boy bo'lib qolmaydi. Endi ko'zlaringni och, biz ham ana-mana deb turibmiz, bizdan keyin kim eplaydi bu yerni?

— Xo'p, bobo, bizga ruxsat bering, boraylik.

— Atay shuni so'ragani keldinglarmi? — chol Solihovga ajablanib qaradi. — Quruq ketmanglar, mehmon qilay.

Ular qariyaga minnatdorchilik bildirib, izlariga qaytishdi. Raisning xonasida choy ichishgach, bir yigitcha ikkita eshakni yetaklab keldi. Yaydoq eshakka o'zi, to'qim urilganiga Solihov minib, yo'lga tushishdi. Solihov bir-ikki eshak mingan, lekin o'rnashib o'tirishga hali odatlanmagan edi. Eshak yo'rg'alaganda xuddi otilib ketadiganday jilovga yopishardi. Ayniqsa, eshak loyda sirg'anganida uchib ketay derdi.

— Aka, siz xachir minishingiz kerak ekan, — dedi yo'l boshlovchi.

— Nega endi? — deb ajablandi Solihov.

— Oyog'ingiz uzun ekan, yerga tegib qolay deyapti, — deb kului yigitcha.

— Shunisi durust, yiqilib tushmayman, — dedi Solihov ham kulib.

Quyosh botib, cho'qqilar qovoq uya boshlagan paytda manzilga yetib borishdi. Uncha katta bo'limgan ko'l bo'yiga uchta o'tov tikilagan, o'tovdan sal narida toshdan qo'ton qurilgan edi.

— Safarqul aka! — deb chaqirdi yigitcha o'tovga yaqinlashgach.

— Baqirma, ko'rib turibman kelayotganiningni.

O'tovdan o'rta bo'yli, yuzi yapaloqroq odam chiqdi.

— Bu akam sizga mehmonlar, so'raydigan gaplari bor ekan, — dedi yigitcha eshakdan tushib.

— Gaplari bo'lisa, bosh ustiga, tun uzun, gaplashaveramiz, — Safarqul shunday deb Solihov bilan so'rashdi. Sanjar Solihov eshakdan tushganidan keyin yo'l azobini his qildi. Beli tortishib, oyoqlari o'ziga bo'ysunmay qoldi.

— Egamqul!

O'tovdan bir qo'lida obdasta, ikkinchisida sochiq ushlagan o'n uch yoshlardagi bola chiqib, mehmonlarga salom berdi. Solihov yuvinib olgach, o'tovga kirishdi.

— Jannatning mana shu bo'lagida bola-chaqa bilan Xudo, deb yotibmiz, — dedi Safarqul, mehmonga lo'labolish uzatib. — Qornimiz to'q, qulog'imiz tinch. Shunisiga shukr. Yana besh kundan keyin qishloqqa qaytamiz. Qishning nafasi kelib qoldi.

Safarqulning Egamquldan kattaroq uch o'g'li kirib mehmon bilan so'rashib, biroz o'tirib, so'ng chiqib ketishdi. Dastyorlikni Egamqul qildi. To ovqatlanib bo'lishguncha ham Safarqul mehmonning maqsadini so'ramadi. Solihov ham shoshilmadi.

— Xudo to'rt o'g'il berdi menga. Ikkitasini uylantirdim. Qishloqqa qaytsak, Xudo xohlasa uchinchisini uplayman. Xudo bularning rizqini butun qilib berdi, ko'z tegmasin.

— Safarqul aka, aka-ukalar yo'qmi?

— Yolg'izman, inim. Suyanadigan tog'im, maslahat beradigan donishmandim yo'q. Shuning uchun ham sargardon bo'ldim. Menga zarur ekanmi musofirlikda xor bo'lib yurish.

— U tomonda nima ish qildingiz?

— Mening hunarim bitta — qo'y boqaman. Ha, hayron bo'lyapsizmi, u yoqda ham qo'y boqsangiz, buyoqda ham ahvol shu bo'lisa, nimaga ovora bo'lib kelib yuribsiz, demoqchimisiz? E, inim, siz tushunmaysiz, musofirning dardini anglastingiz qiyin. Otamning arvohini chirqiratib ketuvdim, shu gunoh bilan o'tamanmi, devdim, yo'q, Xudo rahm qildi.

— Qashqarda yaqinlaringiz bormidi?

— Kimning qo'yini boqqan bo'lsam, o'sha yaqinim edi.

— Savolga tutayotganidan ajablanmang, men miliitsiyadanman.

— Sezib turibman. Harholda, meni tomosha qilgani kelmagansiz. So'raydiganingizni so'rayvering. Gunohim bo'lisa olib ketarsiz.

— Sizni olib ketgani kelganim yo'q, — Solihov shunday deb yon cho'ntagidan Jahongir bilan Siddiq Sharipovlarning suratlarini olib, unga uzatdi. — Shu odamlarni taniysizmi?

Safarqul suratlarga bir-bir nazar tashladi.

— Bu Olamgir aka, bunisini tanimayman.

— Yaxshilab qarang-chi, bir-biriga o'xshamaydimi?

U ikki suratni yonma-yon qo'yib tikildi.

— Ko'zlari o'xshab ketadi. Lekin boshqa-boshqa odam ikkisi.

- Demak, bu odamning ismi Olamgir, — dedi Solihov Jahongirning suratini cho'ntagiga solib, — qaerdan taniysiz?
  - Qashqarda xizmatini qilganman.
  - Qo'yini boqqanmisiz?
  - Qo'yi yo'q edi unda, uyida qarollik qilganman. O'rozboyvachchaning nomardligidan kuyib yurganimda shu odam yo'liqdi. Boshpana berdi. Buning ham boshiga kulfatlar tushgan ekan.
  - Qanaqa kulfat?
  - Otasini sho'rolar otib tashlagan ekan, ukasi yo'lda qazo qilibdi. So'ng xotinidan ayribaldi. Olamgir akaning bag'ri keng edi. Boshqaga uylanmay, ukasining xotiniga o'ylandi. Yo'lda tug'ilgan bolaga otalik qildi.
  - Ukasi nimadan o'lgan ekan, aytmovdimi?
  - Bular ko'chkiga duch kelishgan. Ukasi besh-olti yigit bilan oldinda ketayotgan ekan, g'aflatda qolgan.
  - Ismini aytmaganmi?
  - Aytgan bo'lsa ham esimda yo'q.
  - Siz bu odam bilan birga qaytdingizmi?
  - Ha.
  - Nima uchun ism-nasibini o'zgartirdi, sizga aytmadimi?
  - Aytgan: u qaytish uchun ruxsat ololmay yurgan ekan. «Bu dunyoning qiliqlarini anglash mushkul. Sho'ro hukumati oldida gunohim yo'q. Shunday bo'lsa ham ehtiyojschart. Sen bilan aka-ukaday edik, aka-ukaday ro'yxatga tirka, birga ketaylik, yaxshililing yerda qolmaydi», dedi.
  - Sizga nima berdi buning evaziga?
  - Gilam bermoqchi edi, olmadim. O'zimniki peshonamga bitsin, dedim.
  - Olamgir Qirqbeldanmi?
  - Ha, o'sha yerdan.
  - U yerda qarindoshlari yo'qmi?
  - Opalarim qolgan, derdi. Yana bilmadim.
  - Yusufxonaga hech keldimi?
  - Yo'q, o'sha xayrashganimiz bo'yи uchrashmadik.
  - Qashqarda biron-bir odam bilan yovlashib qolmaganmidi?
  - Buni yaxshi bilmayman. Men ulardan nari edim, kam ko'rishardim. Birov bilan yovlashmagandir. Fe'li torroq edi-yu, ammo qo'rqoqligi ham bor edi.
- Sanjar Solihov Olamgirning suratini olib cho'ntagiga soldi.
- Inim, men ham sizdan gap so'ray, ijozatmi?
  - So'rang.
  - Olamgir akani nima uchun surishtirib qoldingiz, tinchlikmi?
  - Tinchlik emas-da. Olamgir akangizni o'ldirib ketishibdi.
- Safarqul «yanglish eshitmadimmi?» deganday Solihovga qarab qoldi, so'ng pichirlab duo o'qib, yuziga fotiha tortdi-da, «Qazo o'zining yerida quvib yetibdi», deb qo'ydi.
- Solihovning iltimosi bilan ko'l bo'yiga chiqishdi. Osmon tiniq. Yulduzlar yuzida dudli xira parda yo'q. Yengil shabadada jimirlayotgan ko'l suvi besh kunlik oy aksini avaylab o'ynaydi. Osmonni zabit etgan yulduzlar, ko'l atrofini sadoqatli soqchilarday o'rabi turgan tog'lar o'zlari qaror toptirgan sukutdan mast. O'ziga qandaydir sehrni yashirgan bu sukut Solihovni ham o'ziga bo'ysundirgan. Ko'lga tikilib turgan Solihovga shahardagi ola-g'ovur, yugur-yugurlarning bari bekorchi bo'lib tuyuldi. «Tabiat inson bolasiga shunday ajoyibotlarni, sehrli in'omlarini bersa-yu, noshukr odamlar bulardan ko'z yumib maydashuya narsalarni talashsalar, bir-birlarini botqoqqa botirsalar, oyoqdan chalsalar,

azoblasalar, o'ldirsalar... Shu yerning norasmiy xo'jası mana shu yapaloq yuz cho'ponni birov nazarga ilmaydi. Chunki uyida qo'sha-qo'sha gilami yo'q, ko'mib qo'ygan tillayu pullari yo'q. Buni shaharda odamlarning chaqasiga ko'z tikib o'tirgan gaz suv sotuvchidan tortib, gerdayib yurgan olimgacha mensimaydi. Balki Safarqulning baxti ham shundadir? Uning uchun eng muhimi — ota yurtida yashash. Bezaklaru buyumlar xayoliga kelmaydi. Mana shu ko'l, mana shu tog' Safarqulniki. Qishloqqa yoki shaharga borib shunday desam, meni telbaga chiqarishadi. Lekin shu odamdan boshqasi bu yerga kelib turmaydi. Agar yonimda ming tilla bo'lsayu buni Safarqul bilsa, ko'nglida yomonlik uyg'onmaydi. Chunki u haloliga o'rgangan. Lekin boshqalar bir so'm uchun odam o'ldirishi, bitta amal kursisi uchun odamni badnom qilib yuborishi mumkin. Nega shunday? Biz kimlarga sig'inishimiz kerak?..»

— Izg'irin turdi,sovqotmadingizmi? — dedi Safarqul, uning yoniga kelib.

— Bunaqa ajoyibotni har kuni ko'ravermaymiz. Bir ko'zlarim to'yib olsin, — dedi Solihov.

— Bu ham bir ne'mat. Tog'lar ham, ko'l ham, dovdaraxt, o't-o'lan ham odamga o'xshaydi. Yaxshi gapirib, boshini silasang, marhamatlarini ayamaydi. Noshukrlik bilan oyoqosti qilsang, g'azabga keladi. Inson bolasini shu tabiat boqqanidan keyin, tabiat oldida hamisha qulluq qilib turishi kerak, ma'qulmi, inim?

Solihov «to'g'ri», deb qo'yib, olimlarning «Yovvoyi tabiatni yengamiz!» degan shiorini esladi. «Kim haq — bu savodsiz cho'ponmi yo miyasi bilimga g'ij-g'ij to'lgan olimmi?» deb o'yladi.

— Safarqul aka, olimlar tabiatni yengish kerak, deyishyapti.

Safarqul bosh chayqab, ko'l tomon uch-to'rt qadam qo'ydi.

— Beriroq keling, — dedi Solihovga qarab, — mana shu ko'lni tog'ning naryog'iga o'tkazib bering yoki hov tog'ni yo'ldan oling. Erta-indin qalin qor tushadi, shu qorni yog'dirmang, biz ovora bo'lib qishloqqa borib yurmaylik.

Solihov cho'ponning maqsadini tushunib kulimsiradi.

— Qo'lingizdan kelmaydimi? — dedi Safarqul istehzo ohangida. — Kelmaydi. Xo'sh, qanday yengmoqchisiz? Tabiat sizga nima yomonlik qildi? Nimaga yengmoqchisiz?

— Men olimlarning gapini aytdim, Safarqul aka, — dedi mayor aybdor odamning ovozida.

— Olimlaringizga aytib qo'ying, tuzluqqa tupurishmasin, — Safarqul biroz jim qoldi. So'ng yana tilga kirdi: — Men esimni taniganimdan beri qo'y boqaman. Ota-bobom ham qo'y boqqan. Biz tabiatni yengishni o'ylamaganmiz. Bolalarim ham o'ylamaydi. Bu yerlarda yashaydigan odamlardan bunaqa ahmoqona fikr chiqmaydi.

Safarqul boshqa gapirmadi. Solihov ham uni gapga tutmadi.

Tun o'z hukmida qattiq edi. Yulduzlarning jimirlashi ham, oyning suvdagi aksi ham bu hukmga qat'iy bo'yosinar edi. Yuzaki qaralsa, bu tun ham, barglarning bu shiviri ham, chigirtkalarning chirillashi ham odatdagiday, o'zgarishsiz edi. Tunlar tunlarga o'xshaydi. Zohiran shunday. Botinan esa, odamning kechagi umri bugungisiga o'xshamaganiday, tunlar ham tunlardan farq qiladi, faqat biz buni sezmaymiz. Solihov maylini ana shu betakror tun hukmiga berdi.

Ertalab Safarqul ham yo'l tadorigini ko'rdi.

— Inim, malol kelmasa, meni shaharga ola keting. Olamgir akaning uyini ko'rsatib qo'ysangiz bas. Fotiha o'qib qaytaman. Harholda, tuzlarini ichganman, eshitib turib bormasam gunoh bo'ladi.

Safarqulning bu niyati Solihovga yoqib tushdi. Chunki bu tashrif ko'p sirlar sandig'ini ochishi mumkin edi.

«Aka-uka orasida nima gap o'tgan? Nima uchun Jahongir xorijga ketmagan? Ulgurmaganmi, qo'lga tushib qolganmi? Olamgir uning xotinini olib qochganmi? Nima sir bor ularning orasida? Yo'Ichivoy voqeadan bexabardir. Lekin onasi biladi, bila turib nimaga yashiradi? Balki opalari bilishar? Ular tirikmikin?»

Safarqulning izidan borayotgan mayor Solihov ana shu savollarga xayolan javob izlardi.

Solihov Safarqul bilan ko'l bo'yida suhbatlashayotganida kapitan Ramziddin Amazonov poezd vagonining yuqori o'rindig'ida chalqancha yotib Samarqanddagi uchrashuvni, suhbatni o'zicha tahlil qilar edi.

Ular «Abram bulvari» deb nomlangan joyda uchrashdilar. Xiyobonda odam kam. Ahyon-ahyonda qo'zg'ab qoladigan achchiq shamol xazonlar orasidan birnimani izlaganday titib — to'zitadi, hech nima topolmagach, tinchiydi.

Boshiga kepka kiyib olgan, qaddi sal bukilgan, biroq g'ayrat tark etmagan Sergey Komlev o'tirib suhbatlashishga unamadi.

— Azizim, meni afv eting, har bir daqiqam sanoqli mening, — dedi u. — Harholda o'n yetti yilni boy berdim. Mantiqan olib qarasak, siz bilan gaplashmasligim kerak edi. Chunki o'n yetti yilning gunohi siz kabi odamlarning bo'ynida. Lekin men gina saqlamayman, bu birinchi, siz qamamagansiz — bu ikkinchi, zarur ish bilan atayin kelibsiz — bu uchinchi. Zarur ishingizni ayting.

(Amazonov Komlevning sof o'zbek tilida gaplashishidan lol edi. Muhtaram o'quvchining yodida bo'lsa, Komlev 1922 yilda Jahongir bilan uchrashganida o'zbekchani buzibroq so'zlardi. Oradan yillar o'tib, tarix ilmi bilan shug'ullanish jarayonida u tilni binoyi o'zlashtirib olgandi).

— Siz Jahongir Muhammadrizaevni bilasizmi?

— Bilaman, u tirikmi?

— Tirik.

— Tirikligi yaxshi, lekin sizning surishtirib qolganingiz chatoq. Nima gap o'zi? Men uni oxirgi marta o'ttiz yettinchi yilda ko'rganman.

— Sizdan keyin u ham ketgan. So'ng partizanlar otryadida bo'lgan. Keyin yana... Xullas, hozir qotillikda ayblanyapti. Ochiqrog'i — o'zi bo'yniga olib turibdi.

Komlev unga qattiq tikildi.

— Bo'lishi mumkin emas! — u shunday deb qo'lini orqasiga qildi-da, tez-tez yurib ketdi. Keyin birdan to'xtab, orqasiga o'girildi. — Men ishonmayman! Bo'lishi mumkin emas! Bir odamni shuncha qiynash mumkinmi? Ayting, insof bormi, sizlarda!

— Sergey Vasilevich, axir...

— Jim bo'ling, iltimos, jim bo'ling. Siz «savolni men beraman», deyishni yaxshi ko'rasiz, ma'zur tuting, azizim, endi savol berish navbati bizga ham yetdi. Shu savolni berish uchun o'n bir yil u yoqda, olti yil bu yoqda ma'dan qazidim. Balki shu savolni berish uchun o'lmay qolgandirman: men o'zimni aytmay, uning aybi nima? Qishlog'iga birovlar o't qo'ydi, jabrini u tortdi. E'tiqodli odam qishlog'iga o't qo'ymaydi, bilib oling. O'ttiz yettinchi yilda men bilan uchrashgani uchun qamabsizlar. Men Temur davri madaniyatini o'rganganim uchun xalqqa dushman ekanman. U-chi? U o'rganishni istamagan edi. Jahongir balki katta olim bo'lardi. Lekin uning hayotda boshqa bir maqsadi bor edi, afsuski, bu maqsadni birovga aytmasdi. U shu maqsadining qurboni bo'ldimi yo yo'l topolmay gangib jarga quladimi? Jar yoqasiga o'zi bordimi yo sizlar majburladinglarmi?

— Sergey Vasilevich, u gaplarni menga aytganingiz chakki. Men to'rt yil urushda jang qildim, endi jinoyat qidiruv bo'limidaman. Ahvolingizni tushunib turibman.

— Ahvolimga tushunib bo'psiz! Sizni ayblamayman! Ammo hamkasblaringizda vijdon yo'q. Birontasi chiqib, tavba qildimi? Mayli, bizga tavba qilishmasin, marhumlar xotirasi oldida tavba qilishsa bo'lardi. Ha, mayli, qo'ying ularni. Mendan nimani istaysiz?

— Yigirma ikkinchi yilda birga o'girganlaringda kimdandir o'ch olishi lozimligini gapirganmi?

— U yerlarda, azizim, o'ch olish haqida emas, tirik qolish haqida gap borardi.

— Akasi haqida gapirmaganmi?

— Akasi?.. Nazarimda hech kimi yo'q edi uning. Ha... opalari bo'lgan. Quloq qilingan ekan. Izlab topolmabdi. O'ttiz yettida uchrashganimizda shundan afsusda edi.

— Peshonasidagi yozuvdan xabaringiz bordir?

— Ha, «alqasosu minal haq». Bu «qasos olaman» degani emas, «Qasos Haqdandir» degani. Ya'ni, boshiga bu kunlarni solganlardan Xudoning o'zi qasos oladi, demak. Nima, siz yigirma ikkinchi yildagi alam uchun endi o'ch oldi, deyapsizmi?

— Bo'lishi mumkin emasmi? Pushkinni eslang: so'nggi o'qni otish uchun necha yil payt poyladi?

— O, Pushkinni ham bilasizmi? Azizim, Pushkin bu asarni sizlarga qo'llanma sifatida yozmagan. U san'at asari! Unda tirik odamlar, ularning ruhiyati bor. Sizlar uchun ruhiyat sariq chaqa-ku? Sizlarga dali kerak, guvoh kerak. Uchtagina guvoh...

— Shaxsan men uchun sariq chaqa emas. Qotilning ruhiyatini bilolmasam, jinoyat ildizini ocholmayman. Siz ham bizning ruhiyatimiz bilan hisoblashmayapsiz. Xato qilindi, tan olindi. Lekin jinoyatlar davom etyapti, odamlar o'ldirilayapti. Demak, jamiyat bizning xizmatimizga muhtoj.

— Shundaymi? Lekin, azizim, bu xizmatlaringiz idorangiz gunohlarini yuvib ketolmaydi. Yuz yildan keyin ham bu malomatdan qutulolmaysiz.

Ramazonov Komlevga e'tiroz bildira olmadi. «Chindan ham shunday, — deb o'yaldi u, — igna bilan topgan-tutgan obro' pashanaxa bilan sovurildi. Yana igna bilan obro' toplash mumkin bo'larmikin?»

— Sergey Vasilevich, men siz bilan bahslashgani kelmovdim, — dedi kapitan gapni burishga majbur bo'lib.

— Ha, ha, tushunaman. Men savollarga javob berdim shekilli?

— Siz Muhammadrizaev bilan uchrashishni istamaysizmi?

Bu taklifni Komlev kutmagan edi. Shu sababli darrov javob bermadi.

— Ochig'ini aytsam, Muhammadrizaevning qotillikni bo'yniga olishi bizda gumon uyg'otgan. Jinoyat ildizi boshqa yoqda bo'lishi kerak.

— Hozir qamoqda o'tiribdimi u?

— Hozir... shifoxonada.

— Yaxshi, boraman. Lekin sizga yordam berish uchun emas. Jahongir uchun boraman. Ertaga ilmiy kengashim bor. Raqiblarimni yanchib, keyin boraman.

— Raqiblaringiz ham bormi? — dedi Ramazonov hazil ohangida.

— O, siz nima deb o'ylovdingiz, — dedi Komlev bu nimhazilni tushunmay. — Bizni sud oqladi, lekin hamkasblarimiz oqlagani yo'q. O'ttiz yettinchi yilda ilmiy ishimga qarshi turganlar hali ham qarshi. Olam o'zgarib ketdi, lekin ularning dunyoqarashi o'zgarmagan. O'zbeklarga hayronman, Men rusman, o'zbelarga qarab: «Tarixlaring boy», desam ular «Bizga bunday tarix kerakmas», deyishadi. Siz shirin palov pishirib qo'shnilariga ulashsangiz-u, o'zingiz och o'tirsangiz, shunaqasi bo'ladimi? Bo'lar ekan. O'zbekning madaniyat tarixidan butun dunyo bahramand, o'zi esa ko'zlarini yumib, qulqlarini berkitib olgan. Ko'zni ochishga qo'ymaydilar. Ertaga ular bilan olishaman. Umr so'qmog'ini kurash va alam shamollari supuradi. Undan kechib bo'lmaydi.

Ramziddin Ramazonov bu harakatchan odam bilan uzoq suhbat qurgisi kelgan edi, ammo Komlev gapni kalta qildi. Soatiga qarab oldiyu xayrashib, shoshilganicha ketdi.

Vagonning yuqori o'rindig'ida chalqancha yotgan Ramazonov shu suhbatni eslab, bu odamning donoligiyu irodasiga tan berdi.

Mayor Solihov Yusufxonadan, kapitan Ramazonov Samarcanddan yaxshi kayfiyat bilan qaytdilar. Ular bu uchrashuvga qadar zimistonda sham ko'tarib, igna qidirayotgan odam holida edilar. Zimiston sham yorug'lagini yutaman, deydi. Atrofdagi odamlar esa, «igna u yerdamas, bu yerda», deb chalg'itadilar. Bunaqada ignani topishdan butkul umid uzib qo'yish mumkin edi. Shunday xulosa sari burilishda ular qo'lidagi sham yaxshiroq yoritganday bo'ldi.

## 9. SAHRODAGI YAXSHI ODAT

*Jahongirni shifoxonada Shoqol bilan qoldirgan edik. Uning ahvoli nechuk ekan? Devorlariga qadar dori hidi unniqib ketgan bu tor xonada xayoliga nelar keldi?*

Poyoni osmonga tutash sahro. Sahroda birgina tirik zot. U — Jahongir. Qumming otashi oyog'ini kuydiradi. Osmonning qoq o'rtasida ilinib olgan quyosh unga qasd qilgan: olovli nafasi bilan kuydirib tashlamoqchi. Tomoqlari qurigan. Oyoqda majol yo'q. Ammo so'nggi kuchini to'plab olg'a yuradi. Yana bir barxan, balki ikki barxanni oshib o'tgach, jonga rohat beruvchi buloqqa yetadi. Buloq atrofi daraxtzor, xuddi Qirqbelga o'xshadi. Qo'ng'iroqlarini jaranglatib karvon o'tadi.

«Hoy, yo'lovchi, yur, biz bilan, joningni qiynama», deydi karvonboshi.

«Mening manzilim boshqa», deydi Jahongir.

«Nima sen Majnunmisan, Laylining hajrida o'rtanyapsanmi? Muhabbat seni shu ko'yga soldimi?» deydi karvonboshi.

«To'g'ri topdingiz, Men Majnunman, maqsadim majnuniman. Men muhabbatga begonaman. Manzilimga muhabbat bilan borib bo'lmaydi».

Karvon ketadi. Boshqasi keladi, yana ketadi. Nihoyat, ikki barxanni oshib o'tadi. Ana — buloq! Ana — jon rohati! Lekin... suv yo'q-ku?

«Sen kechikding. Birov ichib qo'ydi».

Bu — otasining ovozi.

«Ota, qaerdasiz?»

«Suvingni birov ichib qo'ydi, kechikding».

«Otajon, qaerdasiz?»

«Kechikding, bolam».

«Ota!»

Javob yo'q. Buloq ham yo'q, daraxtlar ham... Sahro... Yolg'iz o'zi turibdi. Qo'ng'irog'i jiringlagan karvon ham yo'q... Osmonga ilinib turgan quyosh yamlamay yutaman, deydi.

Jahongirning nafasi qaytib, uyg'ondi. Shoqol yondagi karavotda chordana qurib olgan, xuddi afsungarday unga tikilib o'tiribdi.

— Otangizni sog'inibsiz, paxan, rosa chaqirdingiz. Odamga uyqu bermas ekansiz. Men-ku, kechasi uxlamayman. Olim bolani qiynavordingiz.

— O'zi qani?

— Gum bo'ldi. Tuzalibdi. Endi onasini ko'radi. Ikkalamiz qoldik, paxan. Menam chiqib ketaman bu yerdan. Aniq bilaman, uch yildan ortiq berishmaydi menga. Chiqqanimdan keyin bir ishga sho'ng'iymanu mol-dunyo yig'ib olaman.

- Mol-dunyo shu paytgacha birovga vafo qilgan emas.
- Menga vafo qiladi, hammasini o'ylab qo'yganman.
- Mol-dunyo desangiz yakka-moxov bo'lib qolasiz. Bir boy xastalanib yotsa ham uni yo'qlovchi topilmabdi. Buning sababini donishmanddan so'rasha u: «Odamlar sizdan qarzdor, shunga uyalib kelishmayapti», debdi. Shunda boy «Odamlardan ajratib qo'ygan mol-dunyoga la'natlar bo'lzin», degan ekan.
- Bu o'tgan zamonning gapi, paxan. Hozir do'sting qancha kam bo'lsa, shuncha yaxshi — tinch yashaysan. Sotadiganlar kam bo'ladi.
- Shoqolning «sotadiganlar kam bo'ladi», degan gapi 1933 yilni, Qirqbelni, uyiga xo'jayinlik, qilib turgan Sotvoldini, «Sotti xat yubordi», deb rangi o'chib turgan Daminni Jahongirning yodiga soldi.
- Mudarris Jahongirning tez qaytishidan ajablandi. Bunaqa paytda ayrim odamlar «nima balo uyingdan ilon chiqdimi», deyishadi. Jahongir mudarrisdan shunga o'xshash savol kutgan edi. Boshqacha sharoit bo'lganida balki mudarris — Nizom qorovul shu qabilda hazilnamo gap qilishi mumkin edi. Biroq, boshpanasi yo'q odamga shunday deyish mehmon tashrifini malol olganday tuyulardi. Nizom qorovul «Eson-omon borib keldingizmi, bo'tam», deb gapni qisqa qildi. Hammasini Jahongirning o'zi aytib berdi: uyidan «ilon chiqqanini» ham, opalarining quloq qilinganini ham, Sottining rayonga tushirgan xatini ham aytdi.
- Lipillab yonayotgan qora chiroq hujrani arang yoritardi. Jahongirning zimiston yuragiga hozir minglab chiroq yoqilsa ham yoritolmagan bo'lardi. Alamga chulg'angan bu zimiston yurakka faqat dono maslahatgina nur berishi mumkin, mudarris esa bu nurni baxsh etishga shoshilmas edi. U chiroqning eshilib to'lg'onayotgan o'tli tiliga ancha fursat tikilib o'tirdi.
- Yonib turgan sham tepasidagi shiftdan, yonidagi devorlardan nafratlanibdi, — dedi u o'ychan ohangda. — Bular mening yo'limni to'syapti, mavjimni pasaytiryapti deb g'azabga minibdi. Avval shiftni, keyin devorni mahv etishga qasd qilibdi. Bu bilan o'z o'limini chaqiribdi. U nodon bilmabdiki, bu shift, bu devorlar uni o'chirib qo'yishi mumkin bo'lgan shamoldan asraydi. — Mudarris shunday deb yana sukut saqladi. Keyin yengil xo'rsinib, qissadan hissa yasadi: — Ne falokatki, zamonda nodon shamlar ko'paydi. Nodonliklari tufayli o'zlarigina o'chsalar mayliga edi, qancha umr o'tini ham o'chirdilar. Bo'tam, meni aybga buyurmang, sizga qanoat tilashdan o'zga choram yo'q. Bu kunda toptalgan ko'katning ohli qo'shig'ini tinglovchi yurakni qaydan topamiz? Mening zaif ongim sizning qorong'i yo'lingizni yoritishga ojiz. Men o'zimni Ollohnning ixtiyoriga berib, bu dunyo g'amlaridan xoli bo'lishni niyat qilganman. Xohish bildirsangiz, men bilan birga yashang.
- Taqsirim, shu so'zlaringizni o'ziyoq men uchun bir dunyo, Xudo umringizni ziyoda qilsin. Men bunda o'tira olmayman. Opalarimni izlab topay, holidan xabar olay.
- U holda men sizni yolg'izlatmay. Sho'ro idoralarida xizmatda turgan talabalarim bor, ular opalaringizning qaydaligini so'rab-surishtirib berishadi.
- Malol kelmasa, shaharning nomdor zargarlaridan bir-ikkitasini ham bilib bering.
- Muxtasar kengash shu bilan yakunlanib, ustoz-shogird Ollohnning marhamatlari, karomatlari, mo'jizalaridan suhbatlashib o'tirishdi.
- Bir hafta umidli xabarni kutish bilan o'tdi. Bu vaqtida Jahongir ikki zargarga uchradi, ishi yurishmadi. Ular peshonasida g'alati yozuvi bor bu odamning taklifini eshitishni ham istashmadi. Uchinchi zargar qirqbellik Muhammadrizo nomini eshitgan ekanmi, bir kunlik mulohazadan so'ng Jahongirning mushkulini oson qildi. Jahongir qo'liga pul tekkan kuniyoq jallobdan bir qo'y olib, madrasa hovlisida so'ydi. Go'sht-yog'ni bo'lib,

mudarrisiga berdi. U atrofdagi xonadonlarga tarqatib chiqdi. O'zlariga tekkan bir bo'lak go'sht bahonasida shu kun qora qozon qaynadi.

Sho'ro idoralarida ishlayotganlar mudarrislarining iltimosini yerda qoldirishmadi. O'n ikki kun deganda Jahongirning qo'liga bir parcha qog'oz tegdi. Undagi xabarga qaraganda katta opasining oilasi Rostov tomonlarda, kichik opasi esa Bryansk yoqlarda panoh topgan edi.

Jahongir xabarnomani olgan kuniyoq yo'lga otlandi. Mudarris — Nizom qorovulning xayrlashuv chog'i unga aytgan gapi qisqa bo'ldi:

— Yaxshi-yomon gaplarimga rizo bo'ling, bo'tam...

Odam yolg'izlikni ixtiyor qilgani bilan olam aro yakka yashay olmaydi. Bugun ko'ziga yomon ko'ringanlar vaqt o'tishi bilan avliyo tuyulib, ularga intiladi. Jahongir sovuq tutqunlikda yurganida «opalarim boshiga shunday kunlar tushar, men o'z uyimdan quvilarman, deb o'ylamagan edi. Nazarida uning ikki yo'li bor edi: biri — qishloqda yashab, akasining qaytishini kutish. Bu qozonga tosh tashlab, osh pishishini kutishdek bir gap ekanini u anglardi. Akasi tirikmi, omonlik bilan u yoqqa o'tib ketganmi, esonlik bilan qaytadimi, qaytishni istaydimi, yo'qmi — Yaratgangina biladi. Jahongirga ma'lumi shuki, yuragi: kut, keladi, boshqa chorasi yo'q, ota yerning ohanrabosi tortadi, dedi. Ikkinchchi yo'li — akasining izidan tog' oshib borish, uni topish va o'sha yerda otasning xunini olish... Jahongir uchinchchi yo'l ham mavjud bo'lishi mumkinligini o'ylamagan edi. Hozir-ku, uchinchchi yo'lga qarab ketyapti. Hali peshonasida yana qancha yo'l bor — kim biladi? Bu dunyoda umr ko'rish sayd izidan quvib yurgan sayyod hayoti kabi kechsa-chi?

Rostovning cho'lida katta opasining izini topmadni. Biroz qo'pol, ko'zlar qirg'iydek boquvchi kazaklar uning iltimoslariga qo'l siltab qo'ya qolishardi. Sakkiz kun qishloqma-qishloq kezib madori quridi. Bu tomonlarda ochlik arvohining soyasi uncha sezilmas edi, biroq begonaning bir burda non olishi ham amri-mahol edi. Jahongirning so'nggi ilinji — bir necha xonadonlik xutor — qamish tomli pastak uylarning etagidagi yerto'lada yashovchilarda edi. Kazaklarning aytishicha, u yerda o'zbeklar yashardi. Jahongir boshqa qishloqlarda uch o'zbek oilasini ko'rdi, lekin ular qirqbelliklarni uchratishmagan, eshitishmagan edi. So'nggi oila qozoqlar bo'lib chiqdi. Uy egasi, keng yelkali baquvvat qozoq Jahongirning sarguzashtlarini indamay eshitdi.

— Shu yerga yuborishgani aniqmi? — dedi u Jahongir hikoyasini tugatgach.

— Ishonchli odamlar ma'lumot bergen.

— Unda bovurlaringdan umidingni uz. Ular yo'lda nobud bo'lib ketishgan. Moliga qo'shib jonini ham olishgan.

Jahongir qozoqning shu xulosasi bilan yana qishloqma-qishloq yurib Rostovga qaytdida, poezdga o'tirib Bryansk tomon yo'l oldi.

Kichik opasidan xabar topishda uncha qiyalmadi. Cho'l azoblari bu yerda yo'q edi. Uch kun deganda opasining daragi chiqdi. O'rmon etagida joylashgan yog'och uylarning birida yigirma besh-o'ttiz yoshlardagi o'zbek juvonni ko'rib xuddi opasini uchratganday quvondi. Biroq, bu xursandchiligi bulut chokini so'kib bir yuz ko'rsatgan quyosh kabi omonat edi.

— O'tgan bahorda kulfat tushdi boshlariga... kichik o'g'llari o'rmonga o'ynab ketgan ekan. Opangiz, qizlari, pochchangiz izlab kirib qaytib chiqishmadi. Bu yerliklar botqoq yutgan, deyishyapti... Katta o'g'llari raisnikiga ketgan ekan... o'sha voqeadan bo'sh-o'n kun o'tib, mening oldimga keldilar. «Otvorishsa ham uyimga ketaman», deb jo'nadilar... — juvon bu kulfatlarga o'zi aybdorday zo'r-bazo'r gapirib, ko'ziga yosh oldi.

Jahongir yig'lab yubormaslik uchun ko'zini undan olib qochdi. Bostirib kelayotgan qora bulutday turgan o'rmon «yaqinlashgan inson zotini yamlamay yutaman», deyayotganday edi.

Jahongir «dunyoning barcha sitamlari, kulfatlari mening boshimga yog'ilgan», deb o'ylardi. Uy egasi — pahmoq soqolli chol kelgach, fikri o'zgardi. Kulfatu sitamlar boshqalarga ham buyurgan ekan.

Chol Jahongirning kimligini bilgach, o'zini tanishtirdi:

— Andrey Grigorevich, — dedi u qo'l uzatib, — odamlar Grigorich deyishadi, sen ham shunday deyaver. Qarindoshlaringni tanirdim, joylari jannatda bo'lsin, — u shunday deb tokcha pardasini surib uzun bo'yli shisha oldi. — O'tir, ularning ruhini eslaylik, — u bo'zani eslatuvchi qo'l bola aroqni ikki krujkaga quyib, birini Jahongirga uzatdi. — Darvoqe, sen ichmasang kerak, a? Mayli, o'zing bilasan, — Grigorich bir nima deb pichirlab cho'qindi-da, krujkadagini ichib yuborib, kaftini dimog'iga tutdi. — Qarindoshlaringning baxti yo'q ekan. Olyaning ham baxti qaro ekan. Buning eri o'tgan yozda ayiqqa duch kepti. Ikkita bolasi bilan o'tiribdi endi. Qayoqqa boradi? Bu yerdan chiqish mumkinmas...

Jahongir Olya kim ekan, deb taajjublangan edi, keyingi gapdan so'ng o'zbek juvonga qaradi. U labini qimtib, boshini egib o'tirardi. Ichkarida go'dak yig'isi kelib, u irg'ib o'rnidan turdi.

— Olya deganingiz... — deb tusmolladi Jahongir.

— Ha, Olya deganim shu qizim, o'zining oti... — chol eslashga urindi. — Kizimka, otingni yana esimdan chiqardim?

Ichkaridan «Oynisa» degan zaif, titroq ovoz keldi.

— Shu uyda kampirim bilan turaman. Qarishdoshlaring daraxt kesib, yarim yerto'la qurib olishgan edi. Olyaning eri ham boshpана quruvdi. U ayiqqa yem bo'lganidan keyin Olyani uyimizga oldik. Bizga ham ovunchoq, ham xizmatimizni qiladi. Bularni boylar deb olib kelishgan edi, boy qiziga o'xshamaydi. Mehnatdan qochmaydi, — chol ikkinchi krujkadagini bu safar cho'qinmay ichib yubordi. — Bizning qishloqdan ham uchta oilani qulq qilishgan. Ikkitasi o'zimizga o'xshagan odamlar edi. Solomonich deganimiz yerga kaftini qo'yib don ekish mumkinmi-yo'qmi, aytib berardi. Hamma bilan baravar mehnat qilib, hammadan ko'p hosil olardi. Aybi shu bo'ldiki, kolxzoga kirmadi. Endi sen mena ayt, peshonangdag'i yozuvga qaraganda ko'pni ko'rganga o'xshaysan: men imperator a'lo hazratlari davrini ham ko'rdim, Kerenskiy, Lenin davrini ham ko'rdim, lekin baribir tushunmayapman. Imperator Nikolay a'lo hazratlari siyosatchilarni surgun qilardi. Hozirgilaring dehqonlarni surgun qilyapti. Siyosatchi gap sotadi, g'alva ko'taradi, surgun qilsa-qilaversin. Dehqon sho'rlik ularni boqsa, kiyintirsa surgun qilgani nimasi?! Odamlarni qiynashdan maqsadlari nima?

Jahongirning bunday suhbatga hozir xohishi ham, holi ham yo'q edi. Bolasingning yig'isi bahona bo'lib, Oynisa kirib ketdi. Jahongirga ham bir bahona bo'lsa-yu, tashqariga chiqsa, yolg'iz qolsa... Lekin buning iloji yo'q. Chol savolni berib qo'yib, javob kutyapti.

— Buni o'zlaridan so'rash kerak, men bilmayman.

Chol tabiatan ezma edimi yo badani qizib sergapligi tutdimi, harholda Jahongirni bezor qildi. Kampiri kelib cholga dashnom bermaganida tong otguncha gapishtishi mumkin edi.

Jahongirdan «pichanxonada yotasizmi?» deb so'rashganida u opasi yashagan uyni ko'rsatishni so'radi.

Yerdan odam bo'yi barobar ko'tarilib turgan ikkita darchali yarim yerto'la uy qishloq chetida edi. Darchaga ham, eshikka ham taxta qoqib tashlangan ekan. Grigorich taxtalarni sug'urib, ichkariga kirdi-da, sham yoqdi. Zax yerto'lada shamning ham nafasi qaytganday olovli tili jonsiz lipilladi.

— Pichanxonada yotganining ma'qul, bu yerning havosi yaramaydi, — dedi chol. — Men ham yoz bo'ldi, deguncha pichanxonaga chiqib olaman, qishda pech ustida rohat qilaman, yur.

Jahongir qaysarlik qilmay unga ergashdi.

Pichanxona degani — hovli etagidagi pichan g'arami edi. Chol g'aramga qo'yilgan narvondan tepaga chiqib, o'rashib yotib oldi. Jahongir uning yoniga cho'zildi. Chol ko'p gapirmay, uyquga ketdi. Jahongirning uyqusi kelmadi. Osmonni qoplab olgan yulduzlarga tikilib yotdi.

Osmon xastaning ko'ziga xasta, baxtiyorning ko'ziga go'zal ko'rindi. Odam xushhol paytida yulduzlar jimiri unga baxt yog'dirayotganday bo'ladi. Sevishganlarga ko'z qisayotganday, imlayotganday tuyuladi. G'amnok odam osmonning bu sehrini his etmaydi. Jahongir osmonga tikilib uning sehrini ilg'amadi. Nazarida osmon unga ming-ming ko'zlarini tikib hayron-lol turardi. Sovuq o'lkada yulduzlar unga titrabaqshayotganday tuyulardi. Hozir ko'zlar yulduzlarda, xayoli esa kechmishda edi. To'y... kirib kelgan kuyovnavkarlar, hovli o'rtasidagi gulxan, otasi bilan yig'lab xayrlashayotgan opalari... Otasining duosi... «Ilohim baxtli bo'linglar, uvali-juvali bo'linglar...» Baxtli edilar, uvali-juvali edilar... Duoning kuchi qirqildimi, baxtsizlik darvozalari lang ochildimi? Qamoqqa olib ketishayotgandagi opalarining faryodlari osmon qa'ridan yulqinib chiqib, uning qulog'iga urildi... «Eson-omon diydor ko'rishaylik, ukajon!»

Onalari boshqa edi. Ammo opalari onaday mehribon edilar. Jahongirni bu yerlarga ana shu mehr tortib kelgandi. Odamning xotirasida ko'proq so'nggi uchrashuv, so'nggi eshitilgan so'zlar qoladi. Hozir Jahongirning quloqlari ostida faqat bir nola jaranglaydi: «Eson-omon diydor ko'rishaylik, ukajon!» Diydor... endi qiyomatga qoldi...

Bir necha bo'xcha ortilgan aravalari, poezdlari... Yana aravalari... Biri cho'l qo'yniga qarab oqadi. Biri o'rmonga... Qayoqqa, qanday odamlar huzuriga borayotganini, qaysi gunohlari uchun quvg'in bo'lganlari, endi boshlariga ne kunlar tushishini bilmagan bechoralar... Bir arava talon-taroj qilindi. Kuraklarga pichoqlar sanchildi, bo'g'izlandi. Murdalar quzg'unlar, qashqirlarga tashlab ketildi...

Bu manzara ko'z oldiga kelib. Jahongirning yuragidan bir tomir uzilganday bo'ldi.

Botqoq yutayotgan jiyanlari, opasi, pochchasi ko'z oldiga kelganda go'yo ikkinchi tomir uzildi.

Ota-onasi, ukalaridan ajralib, bu yerdan bosh olib ketgan jiyani unga yigirma ikkinchi yilni, bekatdagi xarob bolalarni, yig'lagan Komlevni eslatdi. Shunda yuragida yana bir tomir uzildi.

Odam boshiga shunday kulfatlar, ayriliqlar tushsa, chidamay o'lib qolsa kerak, deb o'ylaysiz. Kulfatlar yonida umid turmaganida balki shunday bo'lardi. Har kimni har xil umid ushlab qoladi, uzilgan tomirlarni ulaydi, o'lgan tanaga jon qaytaradi. «Dunyoning menga atalgan g'am-kulfati ado bo'ldi, endi alamlar yiroqlashdi», deb o'laydi. Jahongirning nazarida ham shunday edi. «Yaratgan bandasiga bundan ortiq jabr-jafoni ravo ko'rmas», deb fikrlardi.

Bu tun Belorusiyaning ovloq bir qishlog'ida yana bir odam uyg'oq edi. U — Oynisa. Oloviddin boy xorijga o'tib ketayotganida marhamat qilib, qaroli Yigitaliga halol mehnati uchun bir oriq sigirni in'om qilgan edi. Oynisaning o'shandagi barcha duosi boyga atalgan edi. Qishloqdan quvilganidan beri uni qarg'aydi. Boy sigir emas, balo tashlab ketgan ekan. O'sha «qorning yorilgur» sigirni in'om etmaganida, unga yaxshi qarashmaganida, «tug'may o'lgur, tug'ib bermaganida», mol-hollari ko'paymaganida, Yigitali jonini jabborga berib ishlamaganida bu ko'rguliklar yo'q edi.

Erkakning qayg'usi bilan ayolniki bir-biriga o'xshamaydi. Pichan ustida yotgan Jahongir opalari qayg'usida ezilib, Oynisa haqida ham o'ylardi. Eri ayiqqa yem bo'lgan,

jasadni emas, burda-burda kiyimlarni yerga ko'mgan bu ayol unga Xadichani eslatadi. Oynisa eriga aza ochib, ko'zi yoridi. Xadicha-chi? Uning ahvoli nechuk? Ko'zi yoridimi? O'g'il ko'rdimi? Qizmi? Oynisa begona yurtda, begona uyda bolasini bag'riga bosib yotibdi. Xadicha ham begona yurtda, begona uyda... Oynisa yolg'iz. Xadichasi akasining panohida. Oynisa bu yerlardan qachon qaytishini bilmaydi, ruxsat so'rab qilgan arzlari rad etildi. Jahongir Xadichani qachon qaytib kelishini bilmaydi.

Oynisaga Jahongirning qismati qorong'i. Opalaridan ayrılgan bir alamzada ekanigina ma'lum. U Jahongirning kelishidan xursand — har-holda yurtining tirik bir parchasi. Erta-indin u ham ketadi. U yana yolg'iz qoladi...

Tongga yaqin Jahongirning ko'zi ilingan ekan, bolaning jarangdor ovozi qulog'iga chalinib uyg'ondi, ammo darrov ko'zini ochmadi.

— Aya, dadam keldilarmi?

— Yo'q, bolam, dadang emaslar, o'rtog'ing Nurulloning tog'alari.

Jahongir tushlariga kiradigan do'mboq bolachaning, Xadichanining ovozini eshitganday yuragi entikdi. Ko'zini ochdi. Qaddini ko'tarib, pastga qaradi. Oynisa besh yashar bolasining qaddini bukib, yuzini yuvar edi. Jahongirning nigohini sezib, Oynisa ham yuqoriga qarab oldi.

Nonushtadan so'ng Jahongir opasining uyiga qarab ketdi. Buyumlarga birov qo'l ham urmaganga o'xshaydi. Kiyimlar ham taxlanganicha turibdi. Opasining kamzuli, pochchasining to'ni... Paranji ham... Opasi shu yerga ham ko'tarib kelibdi-da, paranjisini... Kamzuldan opasining, jiyanlarining hidi keladi. Jiyanlarini suyib erkalaganday kamzulni siladi. Kenja jiyanini ko'rmagan edi. U shu kamzulga yuzini qo'yib erkalangan... Jahongir kamzulni silayotib seskanib ketdi: kamzul qatida qattiq narsalar bor edi. Paypaslab ko'rdi — tangalarga o'xshaydi. «Rahmatli otasi o'z ulushidan qizlariga ham bergen ekan-da...» Jahongir o'g'rilik ustida qo'lga tushganday, nazarida bu uyga atayin shuni izlab kirganday uyaldi. Opasi darchadan «shuni deb kelgan ekansan-da», deb qaraganday bo'ldi.

Eshik oldida sharpa sezilib, Jahongir cho'chib qaradi.

— Narsalari bus-butun, o'zim yig'ishtirib qo'yganman, — dedi Oynisa aybdor ohangda.

«Bilganmikin? — deb o'yladi Jahongir, keyin darhol o'ziga-o'zi javob berdi, — bilgan...»

— Qora kunlarga yarar deb olvolgan ekanlar, o'zlariga buyurmabdi, — dedi Jahongir kamzulga imo qilib. — Bularni... siz oling.

— Yo'q olmayman. O'zlariga buyurmagan, menga buyurarmidi. Hazar qilyapti deb o'ylamang, birovning haqidan qo'rqaman.

Oynisa shunday deb iziga qaytdi. Biroz turib, Jahongir ham uydan chiqdi. Chol pichan g'arami oldida chalg'i charxlar edi.

— Djaxanir, — dedi u, — otingni aytish qiyin ekan, osongina Jenya desam xafa bo'lmaysanmi? Jenya, qachon qaytmoqchisan?

Jahongir bu yerlarning odatini, mehmonga shunday savol berilishi mumkinligini bilmas edi. Bu savolni eshitib, «hozir ketishim kerakmi?» deb o'ylab, yelka qisdi.

— Uch-to'rt kun tur, — dedi chol, — qarindoshlaringning ruhi shod bo'ladi. Shu bahonada menga qarashib yuborasan. To'ng'ichim germanlar bilan urushda nom-nishonsiz ketdi, kichigini oqlarmi, qizillarmi, bilmayman, chopib tashlashgan. Shundan beri yolg'izman, suyanadigan tog'im yo'q. Xo'p, desang yur, chalg'i tortishni bilsang, o't o'rishvorasan.

Chol shunday deb charxlab turgan chalg'ini Jahongirga uzatdi. O'zi pichanga sanchib qo'yilganini oldi-da, o'rmon tomon yurdi. O'rmon oralab ko'p yurishmay, Grigorich to'xtadi.

— Qarindoshlaring shu yerda, — dedi u botqoqlikka imo qilib.

Jahongir botqoqlikni endi ko'rishi edi: sassiq ko'lma akka o'xshagan joy, ayrim yerkari quyuq atalaga o'xshaydi, ayrim yerlarini po'panak bosgan.

— Bu botqoq ko'p odamlarni yutgan. Qabriston desang ham bo'ladi. Xohlasang ibodat qilib ol.

Grigorich «xalal bermay», deb nari ketdi. Jahongir tiz cho'kib, tilovat qildi. Yuziga fotiha tortayotgan pallada botqoq biqirlab qaynadi. Uning nazarida opasi, jiyanlari qaytib chiqayotganday tuyulib, qo'rqqanidan yuragi orqasiga tortib ketdi. Anchagacha baqrabay o'tirdi. Chol uning qo'rqqanini sezdimi yo kutish joniga tegdimi, tomoq qirib:

— Jenya, bo'ldi, ketdik, — dedi.

Ular o'rmon oralab yurib, yalanglikka chiqishdi. Tizza bo'yli keladigan o't gullarga belanib, epkinda chayqalib yotibdi.

Jahongir yigirma ikkinchi yildan beri qo'liga chalg'i olmagan edi. Bu qo'llar o'n bir yil cho'kich urishga ko'nikib qolgan ekan, chalg'i dastlab unga bo'ysinmadni. Biron soatlardan so'ng ishi yurishib ketdi.

Yalanglikdagi o'tning yarmini o'rib, oqshomda uyg'a qaytdilar. Yog'och uy zinasida o'tirgan bola ularni ko'rgach, yuguraymi, boraymi-bormaymi, deb ikkilanib turib qoldi. Ertalab begonasiraganini unutib, bir-ikki qadam qo'ydi. Shunda chol chalg'ini pichanga sanchdi-da, bolaga quchoq ochdi.

— Sashenka, nimaga qarab turibsani, qani, chop!

Bola yugurib, kelib, Grigorichni quchoqlab oldi. Jahongir uning boshini silab, erkalab qo'ydi. U quduqdan chelakda suv tortib yuvinmoqchi edi, bola yaqinlashdi.

— Suv quyib beraymi? — dedi burro qilib. Keyin ruxsat kutmay, yog'och cho'michda suv oldi. — Siz Nurini tog'asimisiz? — dedi Jahongirga tik boqib.

— Ha, — dedi Jahongir.

— Nuri endi o'rmonda turadi. Ayasi ham, adasi ham o'sha yerda. Men uni sog'indim. O'ynagani kelmayapti.

Jahongir bolaga nima deb javob berishni bilmay «Oting nima?» deb so'radi.

— Samariddin, ertalab aytuvdim-ku? — dedi bola ajablanib.

Darvoqe... ertalab so'rangan edi-ya...

— Siz Nurilarni olib ketasizmi? — deb so'radi bola.

— Ha, — dedi Jahongir noiloj.

— Dadam o'rmondan kelsalar bizni ham olib ketadilar. Dadam chiqqunlaricha poylasangiz, birga ketardik.

— Xo'p, kutaman.

Bola buni eshitib, cho'michni chelakka tashladiyu bu xushxabarni onasiga yetkazish uchun uyg'a yugurdi.

Kechki ovqatdan keyin Samariddin Jahongirga yaqinlashib, peshonasiga barmoqchalarini tekkizdi-da:

— Bu nima? — dedi.

— Samarxon, unaqa dema, qoch.

Jahongir qo'yavering, deganday Oynisaga jilmayib qaradi. Keyin:

— Bu shaytonning izi, — dedi-da, bolani tizzasiga o'tqazdi.

— Qanaqa shayton? — dedi bola.

— Muzlarning ichida yashaydi, — dedi Jahongir.

— Oppoq bo'ladimi?

— Ha.

— Unda nimaga izi ko'k?

— Oyog'i siyohga tushib ketgan ekan.

— Siyoh qanaqa?

Bolaning so'roqlari poyonsiz ekanini sezgan Jahongir:

— Burning nimaga puchuq? — deb so'radi.

— Puchuq qanaqa bo'ladi? — deb so'radi bola bo'sh kelmay.

Jahongir kulib yubordi.

— Nima deyapti? — dedi Grigorich qiziqib. Jahongir bolaning gaplarini tarjima qilib bergach, chol ham miriqib kului.

— Siz qaerda yotasiz? — deb so'radi Samaraddin Jahongirdan.

— Pichan ustida.

— Aya, menam tog'am bilan yotaman.

— Yo'q, Samarxon, yiqilib tushasan.

— Dedul, ayamga skaji, — dedi bola choldan panoh izlab.

— Olya, ruxsat ber, erkaklar ochiq havoda yotishi kerak, — dedi chol.

Samaraddin xursandlikdan irg'ishlab, g'aram ustiga birinchi bo'lib chiqib oldi. U biroz osmonga qarab yotdi-da, ko'zi uyquga ilinishi oldidan Jahongirning bo'ynidan quchoqlab oldi. U dadasi bilan shunday yotardi. Jahongir buni fahmladi. Tushlarida ko'radigan do'mboqcha o'ngida paydo bo'lib quchoqlaganday tuyulib, yuragi entiqdi. Bolaning iliq nafasi ko'kragiga urilib, badaniga jon qaytib kirganday bo'ldi. Yuzini bolaning yuziga qo'ydi.

Ertalab uyg'ongan chol ota-boladay achenlashib yotgan Jahongir bilan Samariddinni ko'rib ko'ziga yosh oldi. O'z nabirasiday bo'lib qolgan bu bolani har quchoqlab erkalaganida, bola har safar bo'yniga osilganida ko'ziga xuddi shunday yosh kelardi. Uni bolalik baxtidan ayirganlarni la'natlardi. Ba'zan zamonni ham qarg'agisi kelardi, ammo bunga tili bormas edi. Harholda shu zamonda yashayapti, bundan battar kunlarni ko'rganda ham qarg'amagan chol zamonni endi la'natlashni shakkoklik, deb bilardi.

Jahongir uyg'onib, ko'zini ochdi. Chol mungli boqishini yashirib, jilmayib qo'ydi. Jahongir bolani uyg'otib yubormaslik uchun qimirlamay qo'yaqoldi. Chol tushib ketganidan keyin ham o'rnidan jilmadi.

— Dedul, Samarxon uyg'onmadimi?

— O'g'ling dadasi bilin yotganday maza qilib uxlayapti...

Jahongir bu gapni eshitib, Oynisaning ne holga tushganini his qildi: yuragi poralanib ketgandir?..

Samariddin nonushtadan keyin ularga ergashdi. O'rmondan qo'rqib qolgan Oynisa uning borishiga ruxsat etmadi. Buning azobini o'zi tortdi — o'g'li kun bo'yi etagiga yopishganday g'ingshib yuraverdi. Oshxonaga kirsa, oshxonaga kiradi, uyga kirsa, uyga... Oynisaning yuragi qon bo'lib, uni siltab tashlab, qarg'ab yuborishiga bir bahya qoldi. Qarg'ashdan o'zini tutdi, biroq, yig'isini tiya olmadi. Yum-yum yig'ladi. Qishlog'ini eslab oh tortdi, erini yodlab faryod urdi, yetim qolgan bolasini o'ylab nola qildi. Samariddin onasini bu ahvolda ko'p ko'rgan, bu yig'ilarning sababini bilmas, biroq mitti yuragi achishib, o'zini qo'ygani joy topolmay qolardi.

Oqshomda erkaklar qaytishganda Samariddin to'g'ri borib o'zini Jahongirning quchog'iga otdi.

— Ha, sotqin, mendan kechdingmi? — dedi chol unga yolg'on po'pisa qilib. Keyin yuzidan avaylabgina chimchilab qo'ydi. — Yurak sezgir bo'ladi. Yurakni aldash mumkinmas... — Grigorich shunday deb nari ketgach, Samariddin Jahongirning qulog'iga shivirladi:

— Ayam yig'ladilar.

— Xafa qilgandirsan-da? — dedi Jahongir qovoq uyub.

— Yo'-o'q, dadamni sog'inganlar.

— Sen-chi?

— Menam sog'indim. Yana sog'insam yig'layman.

— Yig'lama, o'g'il bola yig'lamaydi.

Kun bo'yi onasining izidan qolmagan Samariddin endi Jahongirga bog'landi-qoldi. Oynisa bir-ikki chaqirsa ham o'zini eshitmaganga soldi. Shunda Oynisa najot kutib Grigorichga qaradi:

— Bunaqa o'rganib qolsa, keyin nima qilaman?

Chol «menam shuni o'ylayapman», deganday soqolini silab o'tirdi.

— Balki ketmas... Menga ichini ochgani yo'q, lekin nazarimda, qaerda yashash uning uchun baribirga o'xshaydi. Qishlog'iga qaytsa, surgun qilinishi tayin. Shu yerda qolavergani durustmasmi? Sen, Olenka, u bilan bir gaplashib ko'r.

Bu gapni eshitib, Oynisa bir seskanib tushdi.

— Yo'q, yo'q, — dedi u shoshib. — Ketganlari ma'qul. Erkak odam o'zini xor qilib qo'ymaydi.

— E, kizimka, kizimka, odamlar baxtning orqasidan quvib yurishadi. Sen esa, og'zingni ochib o'tiribsan.

Oynisa cholga javob qaytarmadi. «Baxt faqat shu erkakning qolish yo qolmasligida emas, ikki bebaktning bir-biriga suyanishi bilan olam guliston bo'lib qolmaydi. Men bevaman. Uning boshi ochiqqa o'xshaydi. Peshonamdag'i bu kulfatlar ozmi menga, yana bir gunohga ro'para bo'lsam, nima qilaman? O'g'lim ota mehridan bebahra o'ssa-o'ssin, men otasining arvohini chirqiratmasam bas», degani bilan chol tushunarmidi?

Bolaning tobora bog'lanib borayotganini Jahongir his qilardi, o'zi ketgach, uning ichikib qolishini ham bilardi. Shu sababli daladan qaytishi bilan opasining uyiga kirib ketardi. Bola quchoqlab organida ham me'yordan ortiq erkalashdan o'zini tiyardi. Oradan bir hafta o'tgach, Jahongir yo'lga otlandi. Uning bir ko'ngli shu yerda qolish edi. Opasi, jiyanolri, pochchasining uyi, izlarini tashlab ketgisi yo'q edi. Ammo bir ko'ngli ota yurtida: balki akasi, xotini qaytishgandir, balki katta jiyani darbadarlikda yura-yura qishlog'iga yetgandir?

Qaytadigan kuni Jahongir opasining nimchasini Oynisaga uzatdi. Ammo u olishdan bosh tortdi.

— Sizda omonat tursin, balki jiyanim shu yerga qaytar. Balki o'zim xabar olgani kelarman, — dedi Jahongir. Oynisa biroz mulohaza qilib turgach, nimchani oldi.

Jahongir shaharga qaytgach, mudarris — Nizom qorovulning holidan xabar olib, qishlog'iga shoshildi. Nazarida jiyani qishloqqa qaytib, Sotti — Sotvoldining qahriga duch keladiganday edi.

Qirqbelga oqshom oralaganda yetib keldi. To'g'ri Daminikiga borib, jiyанини surishtirdi. Keyin boshidan o'tganlarni so'zlab berdi. Tunni shu yerda o'tkazib, saharda qabristonga bordi.

Atrof sokin. Borliq quyoshning ko'tarilishini kutib, titrab turardi. Jahongir tilovat qilib bo'lgach, ko'rgan-kechirganlarini xayolan so'zlab berdi. Nazarida uning alamlı hikoyasini barcha marhumlar jim tinglashardи.

«Zab vaqtida o'lgan ekanmizmi, a?» derdi biri.

«Vaqtida o'lish ham Ollohnning karami», deydi boshqasi.

«Shu kulfatlarni bizning boshimizga solmagani uchun shukr», deydi uchinchisi.

«Farzandlarimizning g'amini ko'rsatmaganing uchun shukr, deydi to'rtinchisi. — Lekin jigargo'shalarimizni bizdan keyin kulfatlarga duchor qil, demagan edik-ku?..»

«Bolamning boshiga ofat yog'dirguncha, meni do'zaxda kuydirsang bo'lmasmidt!»

Jahongir tanidi bu nidoni, u — onasining ovozi.

«Kambag'alga muruvvat qil, deding, muruvvat qildim. Hasad qilma, deding, hasad qilmadim. Umr bo'yi chizgan chizig'ingdan chiqmadim. Faqatgina senga muhabbat qo'ydim va shu muhabbatim bilan qabrga tushdim, biloxir vaslingga yetmojni niyat qildim. Umrim bino bo'lib men sendan biron nima ta'ma qilmaganman. Yolg'iz bir o'tinchim — bolalarimning insofini va iymonini ber, azoblarga giriftor qilma, deb ertayu kech yolbordim. Iltijolarimni ne uchun qabul etmading. Gunoh mendami yo bolalarimdam?» Bu — otasining ovozi.

«Dadajon, nolangizni eshityapman. Menga ham bir gap ayting».

«Opalaringni yolg'iz tashlab keldingmi, o'g'lim?»

«Ilojim qancha edi?»

Javob o'rniga xo'rsinish eshitildi. So'ng... borliq titroqdan qolib, uyg'ona boshladi. Uzum donasining qoq o'rtasida, sharbat ichida urug'lar joylashgani kabi Jahongir yuragini qoq markazida zardob to'plangan edi. Uzum donasidan urug'ni chiqarish oson, lekin yurakdan zardobni qanday sitib chiqarish mumkin?

Jahongir yurakdagi shu zardob bilan shaharga qaytdi. Tanish zargar bu safar ham hojatini chiqargach, mudarris — Nizom qorovul hujrasida bir kecha tunab, yana poezdga o'tirdi.

Uning Bryanskka yo'l olishiga qabristondagi g'oyibona suhbat sabab desak, mubolag'a bo'ladi. Jahongir Oynisaga nimchani berib, hovlida Samariddinni dast ko'tarib o'pib, yerga qo'yanida nimanidir yo'qtganday tuyuldi. Qishloqdan uzoqlashgani sayin yuragi orziqaverdi. Jigarlarini tashlab ketayotgani uchun shundaymi yo tushidagi do'mboqchani o'ngida topganigami — o'zi aniq bilmas edi. Qishlog'iga sig'magan odamni darbadarlik kutardi. Qaydan qo'nim topish — darbadar uchun farqsiz. Shaharda mudarris bilan hamsuhbat bo'lib qancha yashashi mumkin? Sottiga o'xshaganlar duch kelsa, boshini qay devorga uradi?

Jahongir poezdda keta turib shularni o'ylardi. «Dadam rahmatli «Bu yerda ham bir burda nonga qorning to'yadi xorijda ikki kosa yeyolmaysan», devdilar. Bir kosa ovqatni qishloqda xotirjam yeyish nasib etmadi-ku? Akam qochib to'g'ri qildilarmi? Qochmaganlarida baribir quvg'in bo'larkanlar-ku?» Shu ongacha Jahongir akasini xorijga o'tgani uchun faqat la'natlardi. O'zi qishlog'idan uzoqlashgani sayin akasiga nisbatan alanga olgan g'azab gulxanining avji biroz pasaydi «Qochish boshqa, bu — xoinlik, majbur bo'lish — boshqa», degan fikr bu gulxanning butunlay o'chishiga yo'l bermas edi.

Poezd olg'a intilgani sayin havoning tafti qirqilib boraverdi. Jahongir bu safar manzilga yetishda ancha qiyndaldi. Kunda, kun ora yog'adigan yomg'ir yo'llarning atalasini chiqarib yuborgan, saf tortgancha nima qilishini bilmay turgan adl daraxtlar orasida pistirmada yotgan izg'irinli shamol qo'qqis hujum qilib yupun kiyingan Jahongirning badaniga igna bo'lib sanchilardi.

Jahongirni birinchi bo'lib Samariddin ko'rди. Onasining ro'moliga o'ralib zinapoyada turgan bola, aftidan, uni har kuni kutar edi. Ishonchlari, umidlari aldanmagan bolaning quvonchlarini bir ko'rsangiz edi! Samariddin Jahongirning bo'ynidan mahkam quchib oldi. Jahongir «Xayriyat, meni ham intiq kutadigan, qarshilaydigan tirik jon bor ekan», deb Yaratganga shukrlar qildi.

Dalada ish qolmagan, dehqonlarga issiq uyda yotishdan bo'lak yumush yo'q edi. Grigorich «shu yerda qishlaydigan bo'lsang o'tin tayyorla», degach, o'rmonga borib o'tin kesdi. Bir kuni chol barvaqt chiqib ketib, kun peshindan oqqanda qaytdi. Kampiri uzatgan choyni likopchaga quyib xo'rillatib ichdi.

— Uchrashdingmi? — deb so'radi kampir betoqat bo'lib.

— Uchrashdim, — dedi chol.

— Nima dedi?

— Nima derdi, Grigorich nima desa, shu bo'ladi-da, — chol bu gapni mag'rur bir ohangda aytdi. Choyini ichib bo'lgach, Jahongirga qaradi: — Jenya, men rais bilan gaplashdim. Sen Grigorich oilasining a'zosi sifatida kolxozda ishlaysan. Cho'chqa boqish qo'lingdan keladimi?

— Grigorich, qo'limdan kelmaydi. Meni bunaqa ishga ro'para qilmang.

— Boshqa ish yo'q kolxozda. Molga qaraydigan odam tayin. Cho'chqabiqarga yordamchi kerak. Bilaman, cho'chqani harom deysan. Lekin sen cho'chqa go'shtini yemaysan-ku, ovqat berasan, tagini tozalaysan, vassalom! Ishlab turmasang bo'lmaydi.

Jahongir chindan ham noiloj edi. U pastak bostirmada, sassig'i bir chaqirim nariga yetib boradigan cho'chqaxonada ishlashga majbur bo'ldi. Bir hafta mobaynida rais ikki marta kelib, cho'chqabiqar bilan gaplashib ketdi. Aftidan, noma'lum odamga cho'chqalarni topshirishga topshirib qo'yib, ko'ngli tinchimayotgan edi.

Jahongir bir kuni ishga otlanayotganida eshik qattiq taqilldi. Eshikni ochmoqchi bo'lib yugurgan Samariddin yarim yo'lda to'xtadi. Xonaga uzun shinel kiyib, yoniga to'pponcha taqqan malla odam kirib keldi. Uni ko'rib Oynisaning esxonasi chiqib ketdi. Kenjasini bag'riga mahkam bosib oldi.

— Muhammadrizaev kim? — dedi militsioner qo'pollik bilan.

— Men, — dedi Jahongir.

— Hujjatlaringizni ko'rsating!

Militsioner xona o'tasida tik turganicha hujjatlarni ko'zdan kechirdi.

— Ishlayapsanmi?

— Ishlayapman.

— Yaxshi, ishlayver. Bu yerdan bizning ruxsatimizsiz bir qadam ham jilmaysan.

— Men bu yerga o'z xohishim bilan keldim. Men quloq qilinmaganman.

— Men bitta gapni ikki marta qaytarmayman. Grigorich, mehmoningga ko'z-quloq bo'lib tur. Sen ham javobgarsan.

— Hech qayoqqa ketmaydi, xotirjam bo'l, — dedi chol, — mabodo tomog'ingni ho'llab olmaysanmi?

— Quy, Grigorich, sovuqning zahrini oladi.

U bir krujka qo'l bola aroqni ichib olib, indamay chiqib ketdi.

Kunlar o'taverdi. Qish bu qishloqda ham hukmini o'tkaza boshladi. Raisning tekshiruvi kamaydi, militsionerning esa dam-badam kirib hujjat tekshirish bahonasida Grigorich quyib bergen aroqqa nafsi qondirib ketishi odat tusiga kirdi. Samariddin Jahongirning ishdan qaytishini kutadi. Jahongir ovqatlanib olgach, ikkovi tashqariga chiqadi. Samariddin chol yasab bergen qo'pol chanaga o'tiradi. Jahongir otga o'xshab pishqirib uni uchiradi. U har pishqirganida, kishnaganida bola qiyqirib kuladi. Oynisa ularning o'yiniga derazadan boqib turadi. Jahongir uning nigohini tuyadi, shu sababli uy tomonga qaramaydi. So'ng Jahongir opasining yarim yerto'lasiga kiradi, boshqa vaqt shu yerto'lada umr o'tkazadi. Samaraddin unga ovunchoq, ba'zan ishlayotganida ham bolani qo'msab qoladi.

Bir kuni chol o'rmondan bo'y barobar archa kesib kelib uy o'rtasiga o'rnatdi.

— Bizning bayramimiz, — deb tushuntirdi u Jahongirga, — payg'ambarimiz tug'ilgan kun.

Jahongir bu bayramni bilardi. O'sha muzliklar orasida nasroniyalar gapireshardi. Ma'muriyat esa bayram qilishga yo'l bermasdi.

Chol bilan kampir dasturxon tuzab bo'lgach, uy burchagidagi Iso Masih surati oldida tiz cho'kib, uzoq ibodat qilishdi. So'ng chol-kampir bir necha qultumdan ichishib, o'pishishdi.

Ovqat mahali chol-kampir bir-biri bilan ko'z urishtirib olishdi. Jahongir buni sezdi. Ammo ularning maqsadini anglamadi. Bir mahal cholning o'zi yorildi:

— Jenya, bir taklifimiz bor. Sasha senga juda o'rganib qoldi. Hatto otasini ham unutganga o'xshaydi. Men bilan ishi yo'q, sening qaytishingni poylaydi. Birga bo'lib qo'ya qolganlaring durustmidi?

Bu gapni eshitib Oynisa turib ketdi. «Voy sho'rim», deb narigi xonaga qarab yurdi.

— Olya, o'tir, — dedi chol buyruq ohangida.

Oynisa qaytib, omonatgina o'tirib, boshini egib oldi.

— Jenya, sen erkaksan, gapir.

Jahongir oxir-oqibat shunay gap chiqishini bilardi. Xushro'ygina, chaqqongina bu juvon har qanday arning qorong'i yuragiga chiroq yoqishi mumkin edi. Jahongir ba'zan bu haqda ham o'yldi. Ammo uni bir o'y ushlab turardi: u boshiga yana ne kunlar tushishini bilmas edi. Bu jamiyatning qora ro'yxatiga tushib qolgan odamni aroq ichgani kiruvchi militsioner istagan paytida qo'liga kishan urib olib ketishi mumkin edi. Buning uchun ortiqcha aytilgan bir so'z yo yo'qolgan bittagina cho'chqa bolasi kifoya. Jahongir bularni sezib, o'zini hamisha qilko'prik ustidagi omonat odamday his qilardi. Bugun shu juvonga baxt beraman, deb uni ajdaho komiga itarib yuborishni istamas edi. Jahongir hozir bu gaplarni chol-kampirga, eng muhim Oynisaga aytib tushuntira olmas edi. Shu sababli o'ylab qo'yan boshqa fikrini o'rta ga.

— Grigorich, Oynisani dastlab ko'rganimda singlim bo'ladi, deb o'ylaganman. Siz aytganday ish yuritishimiz mumkin emas, meni gunohga qo'ymang. Oynisa menga singil, bolalari jiyan. Samarkon meni tog'a deydi, shunday deyaversin. Oynisa ko'nsalar... men aka bo'lay... — Jahongir shunday deb dsturxonligi bir bo'lak nonni ikkiga bo'lib, bir bo'lagini Oynisaga uzatdi. Oynisa unga qaramagan holda nonni olib, bir uchini sindirib og'ziga soldi. Qolgan bo'lagini bolasiga uzatdi.

— Non yemayman, — dedi Samariddin o'jarlik bilan.

— Yemasang tog'ang xafa bo'ladilar, — dedi Oynisa.

Bola «shundaymi?» deganday Jahongirga qaradi. Jahongir jilmayib qo'yib, o'zining ulushini olgach, Samariddin ham nonni og'ziga solib, apil-tapil chaynay ketdi.

— Bu ishing ham ma'qul, — dedi chol. Kampir esa «attang», deganday bosh chayqab qo'ysi.

Ular shu zaylda aka-singil tutinishgani bilan o'zaro kam gaplashishardi. Ayniqsa, yolg'iz qolishdan qo'rkishardi. Qasam ichishgan bo'lsa-da, harholda orada shayton bor...

Bu o'lkalarga bir umr hokimman, deb qalingina qor tashlagan qish bahorning taftiga dosh berolmay chekindi. Shunchaki chekinmadi, balki hali yana qaytaman, kuningni ko'rsataman, degan dag'dag'a bo'ronlari bilan ketdi. Chindan ham oradan oylar o'tib qaytdi. To's-to'polon bilan emas, ayyorlik ishlatib kirib keldi: tunda hamma yoqni oppoq qor bilan egallab oldi...

Jahongir o'rmon etagida shu zaylda yana uchta qishni ko'rdi.

## 10. IKKI UCHRASHUV

*Yusufxonadan yo'lga chiqqan Safarqul Xadicha bilan ko'rishganida nimalar der ekan? Haqiqatni bilgan Yo'lchivoy qay ahvolga tushadi? Komlevning Jahongir bilan uchrashuvi qay holda kechadi? Endi so'z shu haqda.*

Darvozani ochgan Yo'lchivoy Sanjar Solihovning yonida Safarqulni ko'rib, rangi quv o'chdi. Mehmonlarga «kelinglar», deyishga ham tili aylanmadidi.

— Safarqul aka yangi uylaringni bilmas ekanlar, boshlab keldim, — dedi Solihov undagi o'zgarishni sezmaganday.

Safarqul ostona hatlab yo'lakka o'tdi-da, hanuz nest bo'lib turgan Yo'Ichivoyni bag'riga bosdi. «Bandalik ekan, inim, dadangizni berib qo'yibsiz», degandan keyingina Yo'Ichivoy esini yig'ishtirib olib, «Ollohnning irodasi», deyishga kuch topdi.

Solihov ichkari kirmadi. Yo'Ichivoyning savol nazariga sirli jilmayib: «Ertaga soat o'n birda onangiz bilan birga boring, kutaman», dedi.

Mayor Solihov bugungi uchrashuvdan mammun edi. U marhumning uyida nima gaplar bo'lishini taxminan bilardi. Ertagi uchrashuvda ko'p tugunlar yechilishiga amin edi.

Idorada esa uni kapitan Ramziddin Amazonov kutardi. Komlevning erta-indin tashrif buyurishini bilib, Solihov iyagini silab o'ylandi.

— Ularni qaerda uchrashtiramiz, turmaning shifoxonasidami?

— Yana qaerda uchrashishlari mumkin? — dedi kapitan Solihovning maqsadini anglamay.

— Men Muhammadrizaevni hibsdan ozod qilmoqchiman, — dedi mayor, — qotillikka uning daxli yo'q, bu — bir, marhum uning akasi ekanani aniqlandi, bu — ikki, qotilni yo Muhammadrizaev biladi, yo marhumning oilasi. Muhammadrizaevni hibsdan tutib turishimiz samara bermaydi, bu — uch. Qotilning iziga tushish uchun Muhammadrizaevni ozod qo'yishimiz shart. Agar u qotilni bilsa, albatta uchrashadi.

— Qotil uchrashishni istamasa-chi?

— Muhammadrizaevning atrofidagi odamlar bilan qiziqib ko'ramiz. Gumaningiz to'g'ri chiqsa, uchrashishdan bo'yin tovlaganlar orasidan qidirish kerak bo'ladi.

— Komlevning bu ishimizda ko'magi tegishiga ishonasizmi? — deb so'radi kapitan. — Muhammadrizaev qamoqda ham, undan keyin ham akasi haqida gapirmagan ekan.

— Gapirgan bo'lsa ham Komlev unutgandir?

— Yo'q, cholning xotirasi o'tkirga o'xshaydi.

— U holda... akasi haqida gapirmagani g'alati emassi? Nima uchun gapirmagan? Hatto «akam chet elga o'tib ketgan» demaganmi, a? Menimcha, bunda bir sir bor. U sirni Daydidarada yechishi lozim bo'lgan.

— Oilasiga oid sir, deb o'ylasizmi?

— Yo'q Muhammadrizaev xotini, o'g'li taqdirini bilmagan. Yuzma-yuz uchrashuvda Yo'Ichivoy Siddiqov farzandlaridan birining ismini «Jahongir» leganidan keyin u hushidan ketdi. Yo'Ichivoy akasining emas, o'zining pushtikamari ekanini yurakdan his qilib yurgan. «Bir o'g'limning ismi Jahongir», deyilgach, guman haqiqatga aylanib, bu yangilikni yuragi ko'tara olmagan. Oilasi taqdirini oldindan bilganida Daydidara voqeasi yuz bermasligi mumkin edi.

— Akasi qishloqqa o't qo'yib, xotinini olib qochgan bo'lsa-chi?

— Menda ham shunday guman bor, — dedi Solihov. — «Alqasosu minal Haq» bekorga yozilmagan peshonasiga. Lekin u bor haqiqatni aytmaydi. Akasi mal'unlarning mal'uni bo'lgan taqdirda ham, marhumni endi yomon, demas. Balki Komlev bilan uchrashsa, xotiralari insofga keltirib, ko'nglini yumshatar, keyin dardini aytar?

Ramazonov bu gapni eshitib, miyig'ida kuldi.

— Bu bechoraning hayotida eslab, ko'nglini yumshatadigan voqeа bo'lганмикин?

— Bo'lмаган, deb o'ylaysizmi? Har qanday fojiali damda ham odamning ko'nglida chiroq o'rnida yoqiluvchi yaxshi bir gap, voqeа mavjud bo'ladi. Siz urushda yurib, faqat oh-vohni, nolalarni tinglaganmisiz? Odam kulgisini eshitmaganmisiz?

Kapitan Ramazonov «Odamlarning fe'li har xil bo'ladi», deb yelka qisib qo'ydi.

Daydiradagi qotillik sabablarini o'rganayotgan bu ikki odam sirlar tuguni ustida bosh qotirishayotganda marhum Siddiq Sharipov — Olamgirning xonadonida ko'ngillarni poralovchi voqeа sodir bo'lган edi.

Safarqul uyga kirib fotiha o'qigach, Xadicha ostonaga kelib, yuzini ro'moli bilan yarim yopgan holda so'rashdi. Safarqul «Ollohnинг irodasi» haqida gapirib, ta'ziya billirdi.

Yo'Ichivoy «Bu milisa bilan qaydan tanishdingiz?» degisi kelardi-yu, mezbonlik burchi mehmonni bu tarzda so'roqqa tutishdan to'xtatib turardi. Safarqul shunday savol berilishini yo'lga otlangandayoq bilgandi. Shu sababli Yo'Ichivoyning qarashidagi savol alomatini darrov sezdi.

— Yo'Ichivoy, inim, — dedi u ta'ziyaga oid gap-so'zlarga yakun yasagach, — bu odam bilan birga kelganimdan ranjimang. Uylaringizni bilmas edim. Bu odam meni izlab Yusufxonaga boribdilar, yozloqqa ham chiqdilar. Bir kecha o'tovimda tunadilar. Sizlarni surishtirdilar. Yolg'onga o'rganmaganman, rostini aytdim.

— Nimani aytdingiz? — dedi Yo'Ichivoy dag'alroq ohangda.

— Rahmatli Olamgir akaning Qirqbeldan ekanliklarini, boshlariga tushgan kulfatlarni, keyin... aka-uka tutinib yurtga qaytganlarini... Himmatlarini ham aytdim. Ukalarining xotinlarini panohlariga olganlarini ham...

— Nima? — Bu gapni eshitib, Yo'Ichivoy o'rnidan turib ketayozdi.

— Bilmasmidingiz? — Safarqul ayb ustida qo'lga tushgan o'g'ridek bo'ynini qisdi. Bu haqiqatning Yo'Ichivoynan sir tutilishini u bilmas edi. U Olamgirning Xadichani nikohiga olganidan xabardor, so'ng bu oiladan ancha yil uzoqlashib ularning taomiliyu sirlaridan begona bo'lib ketgandi.

— Yo'Ichivoy!

Onasining ovozini eshitib, Yo'Ichivoy o'rnidan qo'zg'aldi. Xadicha ostonadan chekinib, devorga behol suyanib turardi.

— Yo'Ichivoy, o'g'lim, qo'y, surishtirma...

Onasining ovozidagi zaif titroq Yo'Ichivoyning yuragiga ko'chdi. U onasini ichkari uyga kuzatib, o'zi mehmonxonaga qaytdi.

— Yo'Ichivoy, inim, men omining gunohidan o'ting. Ko'ngil so'rayman, deb ko'ngillaringizni vayron qildim. Xudo shohid, sizlarga yomonlik istamagan edim. Men dadangizning tuzini totgan edim, rozi bo'linglar, — Safarqul shunday deb fotihaga qo'l ochdi. Yo'Ichivoy uning ketishiga monelik qilmadi. Ko'chaga qadar kuzatib chiqib, xayrashar chog'i mehmonning yuragini zada qilmaslik uchun shunday dedi:

— Safarqul aka, biz sizdan domangir emasmiz. Bolalarining rohatini ko'ring. Gunohlarimizni Ollohnинг o'zi kechiradi. Mahshargohda yorug' yuz bilan ko'rishishni nasib etsin.

— Inshoollo...

Safarqul bu xonadonga kulfat tufayli yaqinlashgan edi, kulfat tufayli butunlay uzildi.

Yo'Ichivoy darvozani tambalab, iziga qaytdi-yu, hovli o'rtasiga kelganda to'xtab qoldi. U hozir yo'lini yo'qotib qo'ygan yo'lovchi kepatasiga tushgandi.

Xadicha o'g'lining to'xtab qolganini ko'rди. Yoniga chaqirmoqchi bo'ldi, ammo jur'at qilolmadi. Farzandini bir necha soat ko'rmasa yuragi orziqadigan ona ayni choqda u bilan yuzma-yuz kelishdan qo'rqi. U o'g'lining ko'ziga qarashdan, savollariga javob berishdan qo'rqi. Uning uchun eng dahshatlisi, mudhishi — haqiqatning ochilishi edi. Bundan necha yillar oldin Azroil unga ro'para kelib: «Boshingga shunday kun tushadi, o'sha damgacha yashayverasanmi yo omonatingni topshirasanmi», desa, «Ko'z qorachig'im, o'g'limning baxtini ko'rayin, bolamning bolalarini ko'rayin», deb niyat qilmay, shubhasiz «Jonimni olaqol», derdi. Hozir ham tayyor edi jon berishga. Ammo qani o'sha Azroil, qani jon o'g'risi?! Asta bostirib kelmay, shartta kirib ola qolmaydimi Ollohnинг

omonatini! Bu mushtiparni navbatdagi qiyonoqdan ozod qilmaydimi? Xonadon xojasini Daydidaraga haydab borguncha, shu jabrdiyda jonni bu dunyo azoblaridan qutqarmaydimi?

Yo'Ichivoy onasining o'limga rozi turganidan bexabar. U ham shu choqda onasiga ro'baro' kelishni istamaydi. Yuragi tuzoqdagi qushmisol potirlaydi. Safarqulning gapi dam uzoqdan eshitilib, dam qulog'i ostida jaranglab, vujudini ikkiga ajratib yuborguday bo'ladi. Shu topgacha kulfat nima, g'am nima, nochorlik nima, och yashash, yupun yashash nima — bilmagan yigit avval suyanadigan tog'idan ajrab, endi sinoatlar chohiga tushib qolgan edi.

Erining hovli o'rtasida to'xtab qolganini ko'rgan Nozima qoziqdagi to'nni olib, shoshilgancha tashqariga chiqdi. Yo'Ichivoy to'n ko'tarib kelayotgan xotiniga ko'zi tushib, xayolini jamladi. Xotinining «Nima bo'ldi, dadasi?» degan savolini javobsiz qoldirib, onasi o'tirgan uyg'a qarab yurdi.

Xadicha o'g'lini «jonimni qiynama, bolam», degan ma'noni anglatuvchi iztirobli qarash bilan qarshi oldi. Yo'Ichivoy ichkari kirib, derazaga orqa qilib o'tirdi. Onasiga qarashga botinmadni, so'z boshlashga ham jur'at etmadni. Ayni paytda indamay o'tira olmas edi. Shu bois:

— Safarqul aka ketdilar, — dedi past ovozda, — xijolat bo'luvdilar, biz sizdan domangir emasmiz, dedim.

— Yaxshi aytibsan, u bechorada gunoh yo'q.

Ona-bola bir-biriga aytadigan boshqa gapi yo'qday, jim qolishdi. Ona o'g'lidan bir savol kutardi, nazarida bu savol qiyomatni boshlab berishi lozim edi. O'g'il esa beriladigan savol onasining qalbini poralashi mumkinligini bilib, shu istihola bilan o'tirardi. Uzoq sukut saqlash joiz emas, Yo'Ichivoy nimadir deyishga majburiyat sezdi:

— Safarqul aka bilan anavi milisa ham keluvdi, — dedi u.

— Nimaga kelibdi?

— Ertaga borishimiz kerak ekan.

— Yo'q, jon bolam, meni olib borma o'sha yerga!

— Bormasak... milisa yuborib, zo'rlab olib ketadi.

— Voy xudoym, bu ko'rguliklaring ham bormidi... Yana nimani so'raydi?

— Aslimizni, nasl-nasabimizni surishtiradi. Dadam... bu yerdan ketishlarida... ayb ish qilmagan edilarmi?

— Dadang farishtadek pokiza, o'g'lim, qilg'iliqni boshqalar qilishgan. Biz uydan chiqib ketganimizdan so'ng kimdir qishloqqa o't qo'ygan.

— O'ttiz yil naryog'idagi gaplarni surishtirish nima uchun kerak unga? — Yo'Ichivoy shunday deb onasiga qarab oldi. Xadichaning ro'moli sirg'alib yelkasiga tushgan, oqargan sochlari parishon qolgan edi.

— Faqat u emas... sen ham bilging kelyapti... Ziyrak zehningdan biron nimani yashirishim qiyin. — Xadicha chuqur uf tortib, sukutga berildi. Yo'Ichivoy gap qo'shmay uning tilga kirishini kutdi. — Sen bilmaganingni o'sha milisa bilarkan. Surishtirishi bezizmas. O'sha suratdagi odam bizga begona emas. U kishi... dadangning ukalari...

Bu yangilikdan lol qolgan Yo'Ichivoy onasiga tikildi. Xadicha o'g'lining qarashiga dosh berolmay ko'zini olib qochdi.

— U kishi... qishloqdan ketolmay qolgan edilar. «Qizillar urib o'ldirishdi», deb bizga xabar yetkazishgan edi.

— Kim?.. Kim aytgan edi?

— Biz bilan birga ketganlar. Ular dovonda kelib qo'shilishuvdi. Darrov aytishmadi. «Bormayman, izimga qaytaman», deyaverganimdan keyin bildirishdi. Yo'lda aza ochdim, qora kiydim.

Yo'Ichivoy bolalik chog'larida eshitgan «sen yo'lida tug'ilgansan, shuning uchun Yo'Ichivoy qo'yganmiz ismingni», degan gaplarni eslab, ko'zlari kosasidan chiqib ketay dedi.

— Men... Men-chi? — dedi duduqlanib.

Xadicha o'g'lining bu ahvolini ko'rib, qo'rqib ketdi. Unga yaqinlashib, bag'riga bosib oldi.

— Jon bolam, o'zingni bos.

— Ayting, to'g'risini ayting...

— Aytaman, jon bolam, aytaman, bu sirni o'zim bilan olib ketolmayman. Qasam ich, deyishganda ko'nmgaganman, orada qasam yo'q, bir kunmas bir kun aytaman, deb o'ylardim. Mayli, endi aytay, zora bag'rimdagi qoralar yuvilsa... — Xadicha chuqur nafas olib, uzoq yillar asragan sirni ochishga quvvat to'plaganday bo'ldi. — O'sha suratdagi odam... otang... Sen yo'lida tug'ilgansan. Qashqarga borganimizdan keyin ovsinimning qazosi yetdi. Bolasi ham o'lik tug'ildi, o'zi ham uzoq yasholmadi. O'shandan keyin... Amaking senga ota bo'ldilar...

Yaqindagina otasining jismini yerga qo'ygan Yo'Ichivoy bu gapdan keyin uning ruhidan ham ajraganday bo'ldi. Haqiqat yuz ochgach, ona-bola o'ylaganday, olam ostin-ustin bo'lib ketmadi. Necha kundan beri yer yuzini isitmay qo'ygan quyosh o'sha-o'sha bezbetlarcha boqadi. Barglarini to'kib bo'lgan daraxtlar qorayib, xunugi chiqib turibdi. Olam o'sha-o'sha, qiyomat esa ona-bolaning yuragida boshlangan edi.

Derazadan yopirilib kirayotgan quyosh nuri tokchadagi kaftdek ko'zguga urilib, shiftga sapchigancha qotgan. Xontaxta ustida ichilmay sovub qolgan yarim piyola choyma tushgan quyosh nuri esa shiftda beoram yurakdek titraydi. Diqqat bilan qaralsa, piyoladagi choydan jon olgan quyosh nuri shiftga turli suratlar chizadi: tog'lar o'rnini tuyaga bo'shatadi, tuya bir gala bo'rilarga, bo'rilar chiroyli qasrga, qasr ibislarga...

Ona-bola quyoshning bu hunaridan bexabar. Bu onda, hayotning tomchiday bir qismida, ularning qalblari o'ttiz uch yillik voqealar po'rtanasiga bandi bo'lgan. Bu bandilikdan qutulish uchun yuraklar qattiq-qattiq tepadi, ko'krak qafasini sindirib, otilib chiqib ketmoqchi bo'ladi.

Xadicha farzandini bag'riga bosganicha ko'zlarini yumib olgan. U hech narsani eslagisi kelmaydi. Garchi yomon yo'lga yurmagan, to'g'ri yashagan bo'lsa-da, o'tgan hayoti ko'ziga jirkanch ko'rindi.

U o'g'lining boshiga yuzini qo'yib, yuragi o'rtanadi: Yo'Ichivoydan kap-katta yigitning emas, beshikdan endigina yechib olingen go'dakning isi keldi. Xadicha bolasini beshikdan yechib olib bag'riga bosganida, suyib erkalaganida, to'yib-to'yib o'pganida dimog'iga shunday beg'ubor hid urilardi. Endi bu hid qaerdan keldi? O'g'li go'daklik chog'iga qaytdimi? «Qo'lboq'idan qutulib, ozodlikka chiqqan bolacha tipirchilaydi, onasining qo'lidan yulqinib chiqib, go'yo yugurib ketmoqchi bo'ladi. Ie, ana, yulqinib chiqa oldi. Yugurib ketdi. Og'yalang yuguryapti, axir yo'llarda tikonlar bor-ku?! Tikon ham mayli, ufqda yer yonyapti! Bolasi esa to'ppa-to'g'ri o'tga qarab chopyapti. O'zi-chi, o'zi nimaga qarab o'tiribdi? Nimaga bolasini asrashga harakat qilmayapti? Xadicha turmoqchi bo'ladi — oyoqlari o'ziga bo'ysinmaydi. Ufqdag'i olovning tafti shu yerga ham yetib kelib, tutuni nafasini bo'g'adi...

Onasining ko'ksiga bosh qo'ygan Yo'Ichivoy hushidan ayrilgan odam ahvolida o'tiribdi. Ona yuraginiq tepishi unga «taq-dir», «taq-dir» kabi eshitilardi. Kuch bilan urayotgan yurak zarbi avval sustlashdi. So'ng... siyraklashdi... Yo'Ichivoy sergak tortib, boshini ko'tarib onasiga qaradi: ko'zlari yumuq Xadichaning yuzidan rang qochgan edi.

— Aya, ayajon! — dedi Yo'Ichivoy titroq ovozda.

Xadichanining mijjalari qimirladi, ammo ko'zi ochilmadi. Yo'lchivoy onasini ko'rpa chaga yetqizib, tashqariga otildi:

— Ayasi, ayasi deyman! — deb baqirdi ayvonga chiqib. Xavotirga tushib sergak o'tirgan xotini darrov eshik ochdi. — Ayamga qarang! — Yo'lchivoy shunday deb yugurib ko'chaga chiqdi. U hozir hech nimani o'ylamas, atrofdagi odamlarni ham ko'rmas edi. U ikki ko'cha narida yashovchi, hamshaharlari, «xitoy do'xtur» deb nom chiqargan Murodillanikiga qarab yugurardi. Baxtiga «xitoy do'xtur» uyida ekan. Yo'lchivoyning uzuq-yuluq gaplarini tinglab, «Sen uyingga qayt, oyog'ini issiq qil, men izingdan yetib boraman», dedi.

Yo'lchivoy qaynog'i o'lgan samovar suvini meshchaga quyib, onasining oyog'iga qo'yayotganida Murodilla xotinini boshlab keldi. Xadichanining tomir urishini eshitib, qoshiqcha so'radi. Yonida olib kelgan o'tkir hidli doridan quyib ichirdi-da, o'rnidan turdi.

— Bu yog'i yangangning ishi, sen xavotir olma, — deb tashqariga chiqdi.

Murodillaning xotini bir zumda Xadichanining chakkalariga, bo'yninga, bilaklariga, ko'kragiga kiprik qalinligidagi tilla ignalarni qadab tashladi. Muolaja amal qilib, Xadicha o'sh zahoti ko'zlarini ochdi. Kelini bilan hamshaharin ko'rib xijolatligini oshkor qilish maqsadida jilmaymoqchi edi, labi titrab, o'ziga bo'yasinmadi. «Hushimdan ketibman-da, — deb o'yladi u, — Xudo meni qaytarib berdimi, ishqilib yaxshilikka qaytardimi ekan yo qolgan-qutgan balolarni ham ko'rsin, dedimi?»

Xitoy do'xturning xotini eshikni ochib, ayvonda turgan eriga bosh irg'ab qo'ydi.

— Ayang o'ziga keldi. Qayg'u bir oz urintirib qo'ygan. Yangang xabar olib turadi, xavotir olma... O'zingning ishlaring qalay?

- Xudoga shukr, qimirlab turibmiz.
- Milisadan xabar bormi? Topishibdimi?
- Yo'q.
- Bittasini ushlashgan ekan-ku?
- Aniqmas, deyishyapti...

Bu haqda gaplashishga Yo'lchivoyning xohishi yo'q edi. Murodilla buni sezib, boshqa savol bermadi. Ignalarni olish vaqtı yetgach, ichkari kirib Xadichanining bilak tomirini ushlab ko'rdi-da, «xavotir olmanglar», deb uyiga qaytdi. Yo'lchivoy uni kuzatib qo'ydiyu, ichkari kirishga yuragi betlamadi. Kirsa yana o'sha gap qo'zg'oladiganday, onasi bu safar butunlay ko'z yumadiganday tuyuldi. U biroz hovlida ivrisib yurdi-da, keyin uyiga kirdi. Akalari bilan o'yinchoq talashayotgan kenjasini ko'tarib onasining xonasiga o'tdi. Tili chiqib, biyron bo'lib qolgan do'mboqchasini yerga qo'yishi bilan u yugurib borib, buvisining yoniga yotib oldi-da, akalarining yomonligidan arz qildi.

Kech kirguncha shu bola bilan ovunishdi. Kechki ovqat Xadichanining ham, Yo'lchivoyning ham tomog'idan o'tmadidi. Nozima uy to'riga qaynonasiga, etakroqqa eriga joy solayotganda Xadicha o'g'liga savol nazari bilan qaradi. Yo'lchivoy onasiga javob bermadi. Xadicha «ko'nglim yolg'izlikni istayapti», deya olmadi.

Bu tun na onaning, na farzandning ko'ziga uyqu ilindi.

«Endi nima bo'ladi?»

Ona-bola shu savolga javob izlashardi. Yuzaki qaralganda savol oddiy, uni yuzaga keltirgan voqeа ham oddiy. Fojia chiqarishga asos yo'qday. Ammo uy to'rida yotgan mushtiparning yuragi boshqa gap aytadi «O'g'lim bu musibatni ko'tara oladimi? — deydi u. — Shuncha yil aldaganning uchun Xudonnig qahri kelmaydimi? Chin dadasingning ahvollari ne kechadi? Akalarini o'ldirganlari rostmi? Ishonmayman, o'ldirganlariga ishonmayman. Unda nima sababdan u kishini qamab qo'ydilar? U kishining tirik ekanlarini, ko'rganlarini nima uchun dadasi mendan yashirdilar? Eri tirik xotinga, taloq xati olmagan xotinga uylanganlaridan qo'rqdilarmi? Xudoyim shuning uchun jazoladimi?»

Men-chi? Aldovga ishonib nikohdan o'tganim gunoh emasmi? Endi nima bo'ladi? O'g'limning chin dadasidan ham ajraymizmi? Bir ko'rib so'ng ajralish uchun bu yerga qaytib edikmi? Yo u kishini asrab qolish mumkinmi? Asrab qolsak nima bo'ladi? Men qaysi yuz, qaysi hayo bilan u kishiga ko'rinishman. U kishi menga endi nomahrammi? Nikohlaridan chiqmaganman, ammo boshqaga nikohlanganman. Bu muammoni kim yechib beradi? Asrab qolsak, o'g'lim u kishini «otam» deydimi? Demasa-chi?»

O'ttiz yildan ziyod vaqt mobaynida zardobga to'lgan yurak beoromligi bu tun etakroqda yotgan o'g'liga ham ko'chgan.

«Nimaga mendan yashirib kelishdi? Otasiga mehri yarimta bo'lmasin, deyishdimi? Aka-ukalar yuz ko'rishib bu sirni ochishlari, eson-omonlik bilan yashashlari mumkin edi-ku? Nimaga kelishisholmadi? Ayamni talashishdimi yo menimi? Endi nima bo'ladi? U odamni «ota» deymanmi? U odam meni «o'g'lim» deydilarmi? Jahongirning ismini aytganimda besaranjom bo'lganlarining sababini endi tushundim. Shu ism u kishiga sirni ayon etdimi? Ayam Jahongirimni boshqalaridan ko'proq suyadilar. Bu bejiz emas ekan-da?..»

Necha-necha ko'ngillarning sirlarini muhrlash uchun yaratilgan tun bu safar o'z ishini qildi: ikki yurakning hasratlarini bag'rige singdirib, quyosh chiqmay turib, qaysi bir ovloqlarga berkindi.

Mayor Sanjar Solihov marhumning xonadonidagilar sirlari oshkor bo'lgach, halovatlarini yo'qotishadi, deb taxmin qilgan edi. Bu oilaning asosiy sirni o'g'ildan yashirib kelganini esa u bilish u yoqda tursin, xayoliga ham keltirmagan edi.

Kecha prokurorning roziligin olib, Jahongirni ozodlikka chiqarib shahar kasalxonasiga yo'llagach, qotilni yaqin kunlarda qo'lga olishiga ishonch hosil qildi. «Tuyg'ularim meni aldamaydi», deb o'yldi u. Chindan ham ish nihoyasiga yetay deganda uning yuragi sezardi. Ba'zan yaxshi tush ko'rardi, ba'zan siqilgan yuragi yayray boshlardi. Bu safar ham shunday bo'ldi. Ona-bolaning kelishini xush kayfiyat bilan kuta boshladi. Xonasiga Yo'Ichivoyning yolg'iz kirib kelganini ko'rib, ajablandi.

- Onangiz qanilar? — dedi u norozi ohangda.
- Ayam betoblar. Mendan so'rayvering so'raydiganlaringizni.
- Solihov Yo'Ichivoyning ovozidagi xastalikni, ko'zlaridagi g'amni sezib «juda qo'rqib ketishganga o'xshaydi-ku?» deb o'yladi.
  - Demak, Siddiq Sharipov otangizning soxta ismi-sharifi. Haqiqiy ismi nima?
  - Bilasiz-ku?
  - Savolimga aniq javob bering: haqiqiy ismlari nima?
  - Olamgir...
  - Otalarining ismi?
  - Muhammadrizo o'g'li.
  - Tug'ilgan yerkari?
  - Qirqbel qishlog'i.
  - Jahongir Muhammadrizaev kim bo'ladi?
  - Ukalari.
  - Buni nima uchun yashirdilaringiz?
  - Men bilmas edim.
  - Onangiz-chi?
  - Ayam... qizillar urib o'ldirgan, deb eshitgan ekanlar.
  - Kimdan eshitganlar?
  - Qishloqni yoqqan kishilardan.
  - Kim ular?

- Tanimaydilar.
- Dadangiz ukalari haqida hech gapirganmilar?
- Yo'q.
- Sizga bu qiziq tuyulmayaptimi? Ukalari qizillar qo'liga tushib qolgan, urib o'ldirildi, degan xabarni eshitganlar. Nahot shahid ketgan ukani shu yillar davomida biron marta ham eslamagan bo'lsalar?

«Sirlarimizni to'la bilmaydi shekilli bu odam?» deb o'yladi Yo'Ichivoy.

- Qaytib kelgach esa, — deb so'zini davom qildi Solihov, — ko'rishib, hatto uyiga taklif qilmaganlar. Aka-ukalarning Daydidarada uchrashishi uchun qanday sabab bor edi?

— Bilmayman.

- Biz Jahongir Muhammadrizaevni ozodlikka chiqardik. U qotil emas. Siz ham qo'rwmang. Otangiz yigirma ikkinchi yilda jinoyat qilgan bo'lsa-da, sizni ayblamaymiz. Otaning gunohiga farzand javob bermaydi. To'g'risini ayting: Jahongir Muhammadrizaev shaxsan sizga kim bo'ladi? Amakimi yo otami?

Yo'Ichivoy batamom gangidi: ro'baro'sidagi odammi yo shaytonmi? Hamma narsani bila turib nechun cho'g' ustiga yalangoyoq haydaydi, kuygan yurakni battar kuydiradi? Yo'Ichivoy bu savolga to'g'ridan-to'g'ri javob qaytara olmas edi.

- Ha, bilaman, — dedi Solihov g'olib odamning ovozi bilan, — Jahongir Muhammadrizaev sizning otangiz. Buni sizdan balki yashirishgandir. Bu yerga qaytib kelishni, o'ldi deb o'yagan odamlari bilan uchrashishni o'ylashmagandir. Yopig'liq qozon yopig'ligicha qoladi, deb umid qilishgandir. Bular meni qiziqtirmaydi. Men bir narsani bilishim kerak: aka-uka orasida nima gap o'tgan? Jahongir Muhammadrizaev o'ttiz uch yil qasos umidida yashagan. Peshonasidagi yozuvni bilasizmi? «Alqasosu minal Haq» degan. Kimdan qasos olmoqchi bo'lgan? Buni onangiz bilishlari kerak.

— Ayam bilmaydilar. Kecha gaplashganmiz. Erkaklar ayollariga hamma gapni aytavermaydilar. Dadam... ha, dadam, men kecholmayman u odamdan. Ayamga uylanmaganlarida ham «ota» derdim... Dadam... o'shanda ukalari bilan masjidga chiqib ketgan ekanlar. Avvalgi xotinlari kirib ayamga «Tez narsalaringizni yig'ishtiring, xorijga o'tib ketamiz», debdilar. Anchadan keyin dadam yolg'iz qaytib, «Jahongir bir yumushni bajarib izimizdan yetadi», deb ikki ayolni ergashtirib ketibdilar. Dovonga borishganda «Jahongirni qizillar tutib, kaltaklab o'ldirishdi», degan xabar yetgan. Bo'lган gap shu.

- Qotillik yuz bergen kuni nima deb ketgan edilar?
- Aytganman-ku?.. Birodarimni yo'qlayman, deganlar. O'ttiz yil ko'rishishmagan ekan. Kimligini aytmaganlar. Lekin... o'sha kuni boshqacharoq edilar.

— Bir o'zalri ketcildilarmi?

— Ha.

— U yoqqa borishlarini kim bilardi? Tanishlari, o'rtoqlari eshitishmaganmidi?

— Eshitishmagandir.

— Keyingi paytda uyingizga kim ko'proq kelardi?

— E'tibor bermaganman. Eshigimiz hamisha ochiq, dasturxonimiz tuzog'lik bo'lgan. Mehmondan qochmas edik.

— Harholda, dadangizning yaqinlarini eslang. Ismini, kasbini, turar joyini ayting.

— Rafqat oxun, Tal'at oxun... oshxonada ishlashadi. Ko'kchada turishadi. Midxat aka dorixonada xizmat qiladi, uylari Sebzorda. Murodilla aka do'xtirlar, bitta mahalladamiz.

— Yanglishmasam... qo'shni bo'lganlari uchun ko'proq shu Murodilla akangiz kirib turgan bo'lsalar kerak?

— Ha, u kishi tabiblar, qo'llari yengil. Nima bo'lsa, shu kishiga chopamiz.

— Qashqarda ham yaqin bo'lganmilar?

— Ha, birga kelganmiz.

Mayor Solihov «Buguncha shu ham yetar, siz bilan yana suhbatlashamiz», deb Yo'lchivoyga ruxsat berdi. Yo'lchivoy chiqayotganida Jahongir yotgan kasalxonani ma'lum qildi. So'ng kapitan Ramazonovni yo'qladi.

— Endi chiqib ketmoqchiydim. Komlev kelibdi. Muhammadrizaev bilan uchrashadiray.

— Kasalxonaga kuzatib qo'ying, ammo o'zingiz kirmang. Xoli gaplashishsin, — dedi Solihov. — Ularning suhbati bizga foyda bermaydi. Bugun boshqa yangiliklar tasdiqlandi.

— Solihov Yo'lchivoy bilan bo'lган suhbatni bayon qildi. — Aka-ukanı Daydidarag boshlagan sababni yigirma ikkinchi yıldan, qishloqqa o't qo'yilgan kundan izlash kerak. Ayollarni olib ketgani Olamgir kelgan. Jahongir-chi? U qaerda edi? Nima uchun ketolmay qoldi? Uni kaltaklashganini ko'rishgan. Demak, qochayotganlarning bir guruhi hali qishloqda bo'lган. Ular Jahongirni qutqarishga harakat qilishmagan.

— Balki atayin tuzoq qo'yishgandir? — dedi Ramazonov. — Odamlar Jahongir bilan ovora bo'lib turishganda ular uzoqroqqa borib olishadi. Jahongirni aybdor deb ushslashsa, boshqalarni qidirishmaydi. Balki ota merosga butunlay egalik qilish uchun Olamgirning o'zi fitna uyushtirgandir.

— Gumariningizda jon bor. Lekin qotillik nima sababdan Daydidarada yuz berdi? Uchinchi odam tasodifan kelib qolganmi yo aka-ukaning orasidagi gapdan xabardor bo'lganmi? Siz Komlevni kuzatib qo'ygach, manavi odamlar bilan qiziqib ko'ring, — Solihov shunday deb Yo'lchivoy aytgan odamlarning ro'yxatini berdi. — Suratlarini oling. Erta-indin yana Qirqbelga chiqib kelaman.

Ramazonov ro'yxatni olib xonasiga qaytdi. Tegishli bo'linma bilan bog'langach, Komlev bilan uchrashishga oshiqdi. Bir qavatlari mehmonxona eshigi oldida Sergey Komlev keksaligiga qaramay qaddini tik saqlagan ayol bilan turardi.

— Tanishing, azizim, — dedi Komlev Ramazonovga, — Zinaida Zinovevna. Bu kishining matonatlariga hatto dekabrvchilarining xotinlari ham qoyil qolgan bo'lishardi.

— Seryoja, bas qil, — dedi ayol.

— Menday notavonni shuncha yillar sadoqat bilan kutgan xotinimni maqtashga haqqim bormi yo yo'qmi? Zinaida Jahongirni ko'p eshitgan, ammo ko'rmagan edi. Shu bahonada keldi. Aslida esa... sizlardan xavotirda.

— Seryoja, bas qil, — dedi ayol, bu safar qat'iyoq ohangda.

— Zina, bu o'rtoq ulardan emas. Urushdan qaytib bu xizmatga o'tibdi. Bu o'rtoqning ko'zlarini ularnikiga o'xshamaydi. Ko'zlariga bir qara, Zina.

Ayol erining aytganini qilib, Ramazonovga tik qaradi. Shunda Ramazonov uning ko'zlarida ma'yuslik ko'lankasini sezdi. Bir paytlar chiroyli bo'lган, kulib turgan ko'zlarda endi shodlik uchqunlari so'ngan. Ayriliq yillari har qanday uchqunni so'ndirishga qodir. Ramazonov urushdan qaytgan kuni xotinining ko'zlariga qarab buni anglagan. Erining ajdaho og'zidan tirik qaytishiga bir ishonib, bir ishonmay to'rt yil kutgan xotin ko'zlariga ma'yuslik umrbod parda tashlaganday edi. Xotini hozir kulib, yayrab, yashnasa ham ko'zida uchqun sezilmaydi. Ayriliq bu ayol qaddini bukolmabdi, biroq ko'zidagi cho'g'ni o'chira olibdi...

— Demak, men oshnam bilan nima haqda gaplashishim kerak? — dedi Komlev.

— Istaganingizcha gaplasting. Men sizlarni shifoxonaga kuzatib qo'yamanu qaytaman. U o'zini qotil qilib ko'rsatmoqchi edi. Qo'limizdagi dalillar uning bu da'vosini rad etadi. Biz bahonada eski oshnalarni uchrashdirib qo'yyapmiz. Sizdan iltimosim, lozim topsangiz, gap orsida xotini bilan o'g'li tirik ekanini aytib qo'ying.

— Rost gapmi shu axir?

— Ha, rost.

— Zina, eshityapsanmi? Ular bizni shunchaki uchrashtirishyapti. Biz shunchaki bir gapni aytib qo'yishimiz kerak. Kel o'zimizni go'llikkha solib, ishonaylik bu o'rtoqqa. Bular ishlarini zimdan qilaverishsin. Qani, ketdik.

— Sergey Vasilevich, — dedi Ramazonov keta turib, — sizga bir savolim bor?

— Zina, bekor kelmabmiz, harholda savollari bor ekan. So'rang, azizim.

— Raqiblaringizni yancha oldingizmi?

— O, militsiya bu tomonga ham qiziqadimi? Raqiblarim, azizim, osongina jon beradigan toifa emas. Ularning boshiga gurzi bilan bir ursangiz yerga kirib ketadi, yanchib tashladim, deb o'ylaysiz. Lekin oradan sal o'tmay qarasangiz, yana yashnab turibdi-da! Ular chopsa-chopilmaydigan, o'tda yonmaydigan bandalar. Ha, Xudoning sevgan bandalari. Ular o'ttiz yettida omon qolishdi, urushga borishmadi, urushdan keyin ham mo'yloving qahriga uchrashmadi. Qalay, bularni endi yanchib bo'larmikin?

— O'zingiz yanchaman, deganingizga so'radim-da.

— Yanchish — mening istagim. O'Imas Kashcheyni eshitganmisiz? Ha, balli, uning joni qutichada saqlanadi. Quticha esa uzoq bir orolda. Bularning joni ham qutichada, quticha esa homiylarning po'lat sandig'ida. Homiylari esa qaerda turishini bilasiz. Homiylar yanchilmaguncha bularni birnima qilib bo'lmaydi. Azizim, e'lon qilingan erkinliklarni u homiylar bo'g'ishga qodirlar. Lekin bir kunmas bir kun yanchiladilar, bunga ishonaman!

Komlev vaqtি ado bo'lib qolishidan qo'rqqandek tez gapirardi. Xotini bir necha marta «bas qil», deyishiga qaramay, fikrini to'la bayon qilmaguncha gapdan to'xtamadi.

Ramazonov shifoxonaga kirib, navbatchiga o'zini tanishtirgach, maqsadini bildirdi, Komlevni tanishtirdi-da, xayrlashib iziga qaytdi.

Qamoqxona shifoxonasidan chiqarilib bu yerga kelib qolganidan, vrachlarning mehribonligidan ajablanib yotgan Jahongir ostonada tanish chehrani ko'rib, avval ko'zlariga ishonmadi. Qaddini ko'tarayotganda Komlev tez-tez yurib kelib, uni yelkasidan ushladi:

— Qimirlama, azizim, qimirlama, ahvolingni aytishdi. Buni qara, jonimiz qattiq ekan, o'lmay yurib, oxiri ko'rishdik-a! Zina, kiraver. Ana, kennoyingni olib keldim. O'shanda tanishtirishga ulgurmovidim.

Ayol jilmayib, bosh irg'ab salomlashdi.

— Men bugun sen bilan ko'p gaplashmayman. Shaharda besh-o'n kun bo'lamiz, oldingga yana kelamiz, obdan suhbatlashamiz.

— Sizni bu yerga milisadagilar olib kelishdimi?

— Ha. Buning nimasiga ajablanasan?

— So'rashsa ayting, qahri qattiq edi, odam o'ldirishdan toymas edi, deng. Muzliklarda hech kimga bildirmasdan uch-to'rttasini gumdon qilgan, deng.

— Bekor aytibsan! — Komlev o'rnidan shart turib ketdi. — Bekor aytibsan, eshitdingmi?!

— O'sha odamni o'ldirganimga ular ishonishlari kerak. Hamma ishonishi kerak. Shunda ko'zim ochiq ketmaydi.

— Bekor aytibsan! — dedi yana Komlev. — Shuncha yil birovlar taqagan ayb bilan umrimiz sovurildi. Hech bo'limasa, birov chaqirgan ajal bilan ketmaylik. Odamlardek yashash nasib etmadni, odamlardek o'laylik! — Komlev birdan jimb unga savol nazari bilan tikilib qoldi. — Menga qara, senga aytishmadimi?

— Nimani?

— Avvalo sening da'volaring o'tmabdi. Qotilning iziga tushishganga o'xshaydi. Keyin... xotining bilan bolangdan xabar bormish shekilli?

Bu gapni eshitib, Jahongir ko'zlarini chirt yumib oldi. Ingrab yubormaslik uchun lablarini qimtidi. Komlev «nima qilamiz?» degan ma'noda xotiniga qaradi. Ayol sekin burilib, eshik tomon yurdi.

— O'zingni bos, Jahan, bir kun bo'lsa ham yaxshi kunning toza havosidan nafas olishimiz shart. Bunga haqqimiz bor. «Alqasosu minal Haq»ingni unut. Men o'g'lingni topib, gaplashaman.

Bu gapdan keyin Jahongir o'zini tutolmay yig'lab yubordi.

— Kerak emas... Kerak emas... Istamayman ko'rishni... Men... gunohkorman...

— Bekor aytibsan! Gunohkor emassan! O'zingni qiynama, men ketdim. Qariganim sayin ishim ko'payayapti.

Komlev shunday deb birodarining yuzini silab qo'ygach, o'rnidan turdi. Jahongirning mijjalaridan yosh sizib chiqqanini ko'rib bosh chayqab qo'ydi-da, ostonada paydo bo'lган vrachga minnatdorlik bildirib, dahlizga o'tdi.

Jahongir bilak tomiriga sanchilgan em ignasiga ham parvo qilmadi. Do'xtirning gaplarini ham eshitmadi hisob. Uning ko'z oldida milisaxonada farzandlari ismini aytayotgan yigit yana gavdalandi. «Jahongir...» degan ovoz aks-sado berib jaranglayverdi. «O'sha mening o'g'limmi?» degan savol minginchi (balki o'n minginchi) marta xayolini zabit etdi. Tushlariga kiruvchi do'mboqcha shunday norg'ul yigitga aylanganmi? U o'zi bilmagan holda buva bo'lганmi? «Buvamishman men... bolamni bir marta bag'rimga bosmasam, nabiralarimni ko'rmasam... Shunday kunni orzu qilib edimmi? Akam nima uchun yashirdilar buni mendan. Qo'rqdilarmi? To'g'risini aytsalar gunohlaridan kechib yuborar edim-ku?...» Bu fikr mudarris — Nizom qorovulning vasiyatini eslatdi: «Ollohning vasliga yetmoq istasangiz qarshingizda gunohga botganlarning gunohidan keching. Zinhor kek saqlamang. Uzoq vaqt kek saqlab, avf etmay kelganingiz uchun gunohkordan avval uzr so'rang, so'ngra gunohidan o'ting...» Jahongir bu vasiyatni to'la amalga oshirommasligini bilardi. To'g'ri, u ko'p odamning gunohidan o'tdi. Ammo bir kishini — akasini avf eta olmasdi. Orada ota ruhini qo'yib ichilgan qasam bor edi. U qasamga xiyonat qila olmas edi. O'shanda buni mudarrisga ayta olmadidi. Aytsa mudarris — Nizom qorovul balki boshqa fatvo toparmidi...

Jahongir xotini, o'g'li bilan uchrashuvni yillab orzu qilgan, qo'msagan edi. Endi, yuragi aldamagani aniq bo'lgach, bu uchrashuvdan qo'rqa boshladi. «Endi nima bo'ladi?» Ongi shu savolga javob topishga ojiz edi. Zohiran oson tuyulgan bu savol esa tegimon toshi bo'lib a'zoi badanlarini ezardi. Shu xayollar bilan andarmon bo'lib, Daydidaradagi fojia ham biroz xira parda ortiga o'tdi. Daydidarani eslaganida hatto «gapimdan tonsammikin», degan fikr ham uyg'ondi. Biroq, «Endi gapingga kim ishonardi. Qotilni topisholmay, noiloj, ishingni sudga oshirishadi. Sudning hukmi esa aniq», degan xulosa bu fikrni sindirdi.

Jahongir biri tug'ilib, biri o'layotgan fikrlar to'rida o'ralib yotganida Komlevning ovozini eshitib, ko'zini ochdi. Uch-to'rt kun keyin kelaman, degan odam ertasigayoq paydo bo'libdi. Qo'lida qog'oz xalta.

— Qalay, omonmisan? — dedi u kursiga o'tirib. — Kecha Zinadan baloga qoldim. Kasal ko'rgani quruq bordik, deb menga dashnom berdi. Bugun bozorga kirdim. Bog'bonlarga balli-e, manavi uzumni ko'r! Asraganini qara, — u shunday deb xaltadan bir bosh husayni uzum chiqardi. — Uzummas, oltin-ku! Og'zingni och, — u shunday deb uzum donasini uzib, Jahongirning og'ziga soldi. — Manavi nokni ko'r! Qanday saqlashadi, hayronman.

Komlev olib kelgan narsalarini maqtab bo'lgach, boshqa gapga o'tdi.

— Barvaqt turib sen o'qigan madrasaga bordim. Mudarrisingning qorovulxonasi yo'q, madrasa yamoqchilarning arteli bo'libdi.

- Bilaman, — dedi Jahongir.
- Buni-ku, bilasan, lekin ularga yamoqchi zarurroqmi yo ilm, buni bilmaysan! O'sha yerda turib so'nggi uchrashuvimizni esladim. U yoqda ham yodimga kelardi. Mudarrisining buyuk odam edi. Afsus... men u bilan bir oygina hamsuhbat bo'lganimda edi... Qancha bilimlarni o'zi bilan olib ketdi-ya! U olamdan o'tganida qaerda eding?
- Yonlarida edim, qo'limda jon berdilar.
- O'lib qutulibdi bechora. Bo'lmasa izimga tushganlar uni ham tortishardi.
- Kelishgan edi. Jon talvasasida yotganlarini ko'rib, kutib turishdi. Yarim tunda uzildilar, meni tongda olib ketishdi. O'zim yuvib-taragunimcha indashmadi, shunisiga shukr dedim.
- Men tergovdagagi gaplaringni bilaman, mudarris bilan suhbatlarimizni aytmabsan. Ayrib, meni yomonlab chiqib ketsang ham bo'lardi. Chunki mening taqdirim sening gapingsiz hal qilingan edi.
- Siz... o'ylab gapiryapsizmi? Qo'lingdan qotillik kelmaydi, deysiz-u, xoinlik qilishimga ishonasizmi?
- Men unday deganim yo'q. Xayolimga shunaqa gap kelsa, bu yerda o'tirmasdim, meni bilasan. Sen o'shanda qorovulxonadagi kitoblarni nima qilgansan?
- Olib ketishgan.
- E-eh! — Komlev shunday deb qo'l siltadi. — Orasida nodir nusxa kitoblar bor edi-ya! Odamlardan qo'rqishar ekan, qafasga solishdi. Kitoblarda nima gunoh? Balki eng so'nggi nusxadagi nodir kitoblarni ham yo'q qilishgandir? Bu nima degan gap, bilasanmi? Bilmaysan! Bu tarixdagi yillar o'tda qovjiradi, demak! Qovjiragan yillarni hech kim tiklay olmaydi!
- Komlev karavotda xasta odam yotganini unutib, yonib gapirardi. Madrasada yamoqchilarni ko'rib uyg'ongan nafrati endi avjga chiqqan edi.
- Amir Temur ayrim ellarni bosgan, to'g'ri. U shoh edi, shunga majbur edi, elini ma'mur qilmog'i lozim edi. Dunyodagi hamma shohlar bosgan, talagan. Lekin.. ana shu lekinga e'tibor ber: lekin u buyuk madaniyatga poydevor qo'yib ketgan. Boshqa shohlarda bunday yodgorlik yo'q. Xo'sh, nima uchun undan yuz o'girishimiz kerak? Xo'sh, nima uchun u haqdagi kitoblarni yoqishimiz yo yerga ko'mishimiz kerak? Javob ber!
- Buni ulardan so'rang.
- Men seni, azizim, qotillikda ham, xoinlikda ham ayblamayman. Ammo loqaydlikda ayblayman! Ha, bunga haqqim bor. Sen bilib qo'y: loqaydlik — qotillikdan ham, xoinlikdan ham yomon. Sen va senga o'xshaganlarning loqaydligi tufayli tarix kulga botib yotibdi.
- Komlev ovozini baralla qo'yib gapirayotgani uchun do'xtir kirib tomoq qirib qo'ydi. Komlev chegaradan chiqqanini bilib, yengil yo'talib oldi-da:
- Bir olam ishim bor, men ketdim, — deb o'rnidan turdi.
- Jahongirning nazarida Komlev shamolday kirib, shamolday chiqdi-yu, undagi osoyishta xotiralar g'uborini ko'tardi.
- O'ttiz yettinchi yilning kuzagida Grigorich Jahongirning yo'lga otlanganini ko'rib:
- Bu yilcha bormaganing ma'qulmi, yomon gaplarni ko'p eshitypmiz, — dedi.
- Bu yomon gaplarni Jahongir ham eshitardi. Nemis josuslari, xalq dushmanlari haqidagi xabarlar yetib bormagan joy yo'q edi. «Josuslarga mening nima aloqam bor?» deb o'yladi Jahongir cholning gapidan ajablanib.
- Yurtiga eson-omon yetib keldi. Qishlog'ida, Daminnikida bir kecha tunadi. Qarilik kuchdan qoldirgan mudarrisni yo'qladi. Uning ahvolini ko'rib, «shu yerda qishlasammikin», deb ham o'yladi. Mudarris — Nizom qorovul belorus cholning gapini

aytdi: «Chetroqda yurganiningiz ma'qul». Ustozi bilan xayrashib bekatga chiqdiyu Komlevni uchratib qoldi. Ilmiy kengashga kelgan qadrdonini tashlab ketolmadi. Iziga qaytdi. Kechqurun mudarrisning qorovulxonasida tongotar gurung qildilar. Komlev ertasi oqshom yana kelmoqchi edi, daragi bo'lmasdi. O'sha kech mudarrisning ahvoli og'irlashdi...

Komlevning izidan odam tushganini, qorovulxonadan chiqib borayotganda hibsga olinganini Jahongir keyinroq, so'roq paytida fahmladi. «Shu odam o'zbekni deb qayg'uryapti, unga jabr bo'lmasin», deb so'roqni chalg'itmoqchi edi, bu bilan ayb to'riga o'zi chirmab tashlanganini sezmay qoldi.

## 11. OLOVNI KIM O'CHIRADI?

*Komlevning tashrifidan keyin Jahongir xotirasida uyg'ongana voqealar, xususan shoir va olim yigitlarning ayanchli taqdirlari haqida hikoya.*

Birinchi safar qamalganida «bu ham odam-ku, yana bekorga jabr chekmasin», debmi, harholda uch-to'rt kun so'roq qilishgan edi. Guvohlarning bilib-bilmay aytgan so'zlarini ham eshitishgan edi. Hukmnii esa el oldida o'qishgan edi. Bu safar pachakilashib o'tirishmadi. Masala birinchi so'roqdayoq hal bo'ldi. Jahongir «xalq dushmani» bilan oshna ekanini, shu oshnachiligi tufayli qamoqda o'tirishi lozimligini bildi. Lekin qancha o'ylamasin, Komlevning qaysi xalqqa — rus xalqigami yo o'zbek xalqiga dushman ekanini farqlay olmadi. Qolaversa, o'zining egri fikrli unsur ekanini ham shu so'roqda bildi. Lekin qaysi fikrlari to'g'ri, qaysi birlari egri — ular tushuntirib o'tirishmadi. Jahongirga birov «Qamoqxonada yotishga joy yo'q», desa ishonmagan bo'lardi. O'z ko'zi bilan ko'rib «Yo, alhazar», deb dong qotdi. «Bularning barchasi unsurmi, barchasi boylarning farzandlarimi?» deb o'yladi. Qamoqxona eshigi sharaqlab ochilib-yopilib turardi: birov kiradi, birovni olib chiqib ketadilar. U keyingi so'roqda aytadiganini o'ylab, pishtib o'tirganida, yarim tunda chaqirdilar. Lekin uni so'roq qilmadilar, hukmnii o'qib eshittirdilar. O'n chog'li kishini o'sha tundayoq temir panjarali vagonga bosib jo'natdilar.

Jahongir avvaliga noxush tush ko'rayotgandek bo'ldi: o'n besh yil avvalgi vagon, o'n besh yil avvalgi tanish hid... Faqat odamlar boshqa. Yigirma ikkinchi yilda vagon liq to'la emasdi. Unda odamlar baralla so'kinaverar edi. Soqchilar kattalarning onalarini «shirin so'z» bilan tez-tez eslab turishardi. Bu safar vagon odamga to'la, lekin hech kim yo'qday. Xuddi yigirma ikkinchi yildagi vagonga asov otlar qamalganu bunisiga yuvosh qo'ylar bosilganday. Avvalgisida o'zbeklar kam edi. Bunisida asosan o'zbeklar...

Poezd ilgarilab borgani sayin Jahongirning eti uvishadi. «Yana o'sha muz o'lkaga boramanmi, Xudo bir marta omon qaytardi, endi-chi? Zokirxo'ja singari muz qabrga tushamanmi?» degan xayol yuragini kemirardi.

Bir bekatda poezd ancha vaqt to'xtab qoldi. Qorong'i tushganda vagon eshigi g'aldirg'uldir qilib ochildi. «Yetib keldik shekilli», deb o'yladi Jahongir. Boshqalar ham shu fikrga kelib, hamma buyruqni kutmayoq o'rnidan turdi. Ofitser qo'lidagi ro'yxatni qo'lchiroq yorug'iga tutib, o'nta odamni chaqirdi. Nomi chiqqanlar vagondan pastga sakrab tushib, o'zlarini bir onda soqchilar qurshovida ko'rishdi. Ularni olib ketishgach, boshqalar «bizni ham chaqirarmikin», degan o'yda qotib turaverishdi. Vagon eshigi yopilmadi, ularni chaqirishmadi. Ofitser qo'lidagi ro'yxatni cho'ntagiga solib nimanidir kutib qaqqayib turaverdi.

Kutish jonga tegdimi, vagondagi dadilroq bir yigit ofitserga qarab dedi:  
— O'rtoq, qaerga keldik?

Ofitser javob bermadi.

— Hoy, o'rtoq, qaerga keldik, deb so'rayapman?

— Men senga o'rtoq emasman, jim bo'l, gapirish mumkin emas.

— «O'rtoq», deb bo'lmasa, «janob», deb bo'lmasa, «taqsir», deb bo'lmasa... Menga qarang... bizni qachon tushunasizlar, axir bitga yem bo'lib ketdik-ku?

— Battar bo'llaring! Ovozingni o'chir! — dedi ofitser g'azab bilan.

— Bizni xalq dushmani deyapsiz, — dedi yigit ofitserning dag'dag'asini eshitmaganday, — unda bitlar nima bo'ladi? Bizning qonimizni so'rib ular ham dushmaniga aylanib qoladi-ku? Ularni qanday ushlab, qaerga qamaysizlar?

Asablari tarang tortilib turgan mahbuslar bu gapdan kula boshladilar. Bu kulgida shodlikdan asar ham yo'q, balki zahar zohir edi. Achchiq, ayanchli kulgi ofitserning badan-badaniga sanchilib, vagonga yaqinlashdi.

— Qani, bitliqi, bu yoqqa tush-chi! — deb dag'dag'a qildi.

Gapirgan yigit o'zini vagon ichkarisiga oldi. Aytilgan piching gapdan so'ng boshlangan kulgining adog'i yo'qday edi. Mahbuslar xuddi kelishib olishganday, ofitserga qarab kular edilar. Ularning bundan bo'lak choralar yo'q: bu sharoitda yo kulishlari, yo yig'lashlari, yo nafratlarini ichlariga yutib taqdir o'yiniga bo'yin berishlari mumkin. Gapireshga qo'rqedilar. Tish hatlagan birgina nojo'ya so'z ularni qamoqqa tiqdi. Ikkinci nojo'ya so'z go'rga tiqishi aniqligini biladilar. Shu uchun tillari tish hatlamaydi. Hozir butun g'azablarini shu zo'raki kulgi bilan izhor etardilar. Ofitser do'q-po'pisa bilan ish bitirolmashagini bilgach, soqchilarga «eshikni yop!» deb buyurdi. Bahaybat eshik yana g'aldir-g'uldir bilan urilib yopildi. Shu bilan kulgi ham o'chdi. Dam o'tmay eshik yana ochildi. Bu safar ofitser yonida o'n beshga yaqin mahbus turar edi. Ofitser ro'yxatni yana qo'lchiroq yorug'iga tutib mahbuslarni nomma-non chaqirdi. Shu zayl-da pastdagi mahbuslar bir-bir vagonga chiqqa boshladilar.

Poezd yana ikki joyda to'xtab, mahbuslar «ayir-bosh qilindilar». Uchinchi to'xtaganda barchani tushirdilar. O'rmon yoqasidagi yalanglikda, qor ustida, izg'irin qurshovida uzoq turib qoldilar. Qayta-qayta tekshiruvdan o'tishgach, turnaqator tizilib, o'rmon oralab yurdilar. Bir zum to'xtab, nafas rostlashga ham imkon bermadilar. Mahbuslarning ham, soqchilarning ham sillasi qurib, adoyi tamom bo'lishsa-da, to'xtashga ruxsat berilmadi. Nihoyat, shom qorong'usida o'rmon bag'ridan qutulib chiqishdi. Chiqishdi-yu, yalanglikda jinniliqi tutib, bevoslik qilayotgan shamolga yo'liqishdi. Bir chaqirim narida uylar qorayib turardi. Uylar atrofida qaqqaygan yog'och minoralar bu yer odam yashaydigan qishloq emas, balki qamoqxona ekanidan dalolat berar edi. Kun bo'yi o'rmon oralab yurganlari holva ekan, yalanglikda, izg'irin hukmida bir chaqirim yo'l bosgunlaricha tamoman holdan toydilar. Ayrim nimjonroq mahbuslar tikonli simdevorlarga yetib borolmay yiqildilar. Jahongirning oldida chayqalib borayotgan mahbus ham xuddi o'roq bilan o'rliganday yuztuban tushdi. Jahongir yonidagi yigit bilan uni ko'tarib, qo'ltig'iga kirdi-da, yuzlaridagi qorni sidirib tushirdi.

Mahbuslar ro'yxat bo'yicha yog'och uylarga bo'lingunlaricha yana allaqancha fursat o'tdi. Jahongir yiqilgan yigitning yuzlarini qor bilan ishqaladi. Yigit avvaliga og'riqni sezmadni, so'ng ojiz ingradi. Yuzlariga sal jon kirdi.

Jahongir safda yonma-yon kelayotgan odamlar bilan bir uyga tushdi. Yiqilib qolgan yigitni pechga yaqinroq yog'och karavotga yotqizishdi. Pech yoqilmagan edi, shunday bo'lsa-da, izg'irindan qutulgan mahbuslarga uy ichi jonga rohat beruvchi issiqday tuyuldi. Jahongir yigitning qo'l-oyoqlarini ishqalayotganda soqchi kirib uni chaqirdi. Xonadagilar ham, Jahongirning o'zi ham bundan ajablanishdi. Soqchi uni darvoza yonidagi kichikroq uyga boshlab bordi. Uy ichi nihoyatda issiq, cho'yan pech ustidagi choynakda suv qaynab turardi.

- Muhammadrizaev senmisan? — dedi ofitser unga sinovchan tikilib.
- Menman, — dedi Jahongir.
- Nimaga qamalganingni bilasanmi?
- Bilmayman.
- Xalq dushmanlariga homiylik qilgansan. O'zing ham davlatga qarshi ishlar bilan shug'ullangansan.

— Men halol xizmatim bilan kun ko'rganman, siyosatga aralashmaganman.

— Gapni bas qil! — dedi ofitser stolni shapatilab. — Bu yerdan eson-omon chiqish o'zingga bog'liq. Biz senga ishonch bildirmoqchimiz. Ishonchimizni oqlasang barvaqtroq qutulib ketishing ham mumkin. Sen unsur emassan. Adashgansan. Adashganlar tavba qilsa, to'g'ri yo'lga tushsa — xalq kechiradi. Sen shu marhamatga erishishing kerak. Seni biz to'rtinchi barakka oqsoqol qilib tayinlaymiz. Odamlarga qaraysan, vaqtida ishga olib chiqasan, lo'ttibozlikka yo'l qo'yamsan, ayyorlarni jazolaysan. Agar birortasi qochmoqchi bo'lganini sezsang, darrov bizga ma'lum qilasan. Atrofingdag'i siyosatchilar darrov biron tashkilot tuzishga harakat qilishadi. Ularni ham kuzatasan, ma'qulmi?

Jahongir taklif etilayotgan ishning nimaligini yaxshi biladi. Turmadagi oqsoqol — barchaning nafratiga qolib yashaydigan odam. Qorni boshqalardan ko'ra to'qroq, tirik qolish imkonini ham boshqalardan ko'ra ko'prog'u, lekin har kuni yuzlab ko'zlarning nafrat bilan boqishiga chidab yashash mumkinmi? Jahongir hozir o'sha nigohlarni ko'rib turganday edi.

— Bu ishni eplay olmayman. El qatori ishlaganim ma'qul. Joususlik qilish qo'llimdan kelmaydi, bizning urug'dan xoin chiqmagan, — dedi u dangal.

Ofitser undan bu darajadagi dadillikni kutmagan edi.

— Sen hali buni xoinlik deb tushunasanmi? — u o'rnidan turib Jahongirga yaqinlashidda, g'azab bilan tikildi. — Urug'ingdan xoin chiqmaganmi? — U shunday deb Jahongirning qorniga musht urdi. Jahongir kutilmagan zarbdan bukchaydi. Yana musht tushib qolar yoki tepki yerman, deb o'ylagan edi, hartugur ofitserga insof berdimi, boshqa urmadi. Joyiga borib o'tirdi.

— Feofanov! — deb baqirdi o'tirgan joyidan. Ostonada Jahongirni boshlab kelgan soqchi paydo bo'ldi. — Ertalabgacha tindirmasdan itday ishlat. Bu yerda ishslash qanaqaligini bilib qo'ysin.

Askar yigit Jahongirga yarim tungacha o'tin yordirdi. Keyin soqchining buyrug'i bilan Jahongir bir quchoq o'tinni olib barakka qaytdi. Tashqarida ishlab qizigani uchun Jahongirga uy sovuq tuyuldi. Askar yigitdan gugurt olib pechni yoqdi. Ho'l o'tin tutay-tutay oxiri yondi. Yo'lda yiqilgan yigit bukchayib yotib, beto'xtov yo'talardi. Uning yonida yotgan yigit boshini ko'tarib, Jahongirga qaradi:

- Nimaga chaqirishibdi?
  - O'tin yordirgani, — dedi Jahongir gapni qisqa qilib.
  - Aytgingiz kelmasa, aytmang, lekin yolg'on gapirmang. Biz bu badbaxt yerkirga yolg'on tufayli keldik. O'zimiz ham yolg'onga suyanib yashasak... o'lganimiz yaxshi...
  - Yigitning ovozi titradi. Jahongir unga qaradi: qorong'ida uning ko'zlari ko'rinnadi.
  - O'tin yorganim yolg'on emas, rost. Boshliq shu uyga oqsoqol bo'lasan devdi, urug'imizdan xoin chiqmagan, deb baloga qoldim.
  - Oqsoqollikka nima uchun sizni tanlashibdi?
  - Bilmadim... Harholda men avval o'tirganman. Shuni hisobga olishgandir.
  - Nimaga qamalgansiz?
  - Meni qamashayotganda ham bunchalik ko'p savol so'rashmagan.
- Yigit o'rnidan turib pechga o'tin qalayotgan Jahongirning yoniga kelib, cho'nqayib o'tirdi.

- Ayting, qaerliksiz, otangiz kim edi, balki tanirman?
  - Qirqbel degan qishloqdanman, otamning ismi Muhammadrizo.
  - Muhammadrizo? Siz Shayxotadagi To'xtasin kosibni eshitganmisiz?
  - Ha.
  - Men o'sha To'xtasin kosibning o'g'illariman. Dadangiz biznikiga kelganlar. O'shanda yosh bola bo'lsam ham esimda: kalta soqol, baquvvat kishi edilar.
  - Sizni nimaga qamashdi?
  - E, aka, peshona sho'r ekan-da. Men Olmoniyada o'qir edim. Bir guruh yoshlari «Xorijda ilm olmay turib millatni uyg'otib bo'lmaydi», deb Berlin degan shaharga o'qishga borib edik. Safimizda qizlar ham bor edi. O'qib, tahsilni tugatar chog'imizda to'satdan yurtga chaqirdilar. Oliy maktablarga ishga qo'ydilar. Keyin... bitta-bitta terdilar. Men beshinchisiman. Bizning ishimiz chatoq, aka. Nemis josusi, deb ayb qo'yishgan. Otilmay qolganimga shukr qilib edim. Bu do'zaxdan qutulishimga ko'zim yetmay qolyapti.
  - Bu yer do'zax emas, — dedi Jahongir, — do'zaxda yonasiz. Bu yerda muzlaysiz. Tirik qolaman, desangiz qimirlab turing.
  - Siz oqsoqollikka ko'na qoling.
  - Nimaga?
  - Yaxshi odamga o'xshaysiz. Otalarimiz do'st edi, biz ham og'a-ini bo'lib ketarmiz.
  - Ismingiz nima?
  - Tolibjon.
  - Tolibjon, inim, oqsoqol bo'lsam har kuni bu yerdagilarning ming-ming la'natinini eshitib yashayman. Sizlarni ishlashga majburayman, gaplaringizni ularga yetkazib, xoinlik qilaman.
  - Siz unday qilmang-da, go'yo ularga jon-dildan xizmatda bo'laverasiz-u, aslida bizlarga qayishasiz.
  - Yo'q, Tolibjon inim, bunaqa nomardlik menga to'g'ri kelmaydi. Hozirginada «Yolg'onga suyanib yashamaylik», deganingizda quvongan edim, bu gaplaringizga qoyil emasman.
  - Aka, aybga buyurmang, sizni xafa qilish niyatim yo'q edi. Menga emas... aqalli manaviga o'xshagan xastalarga ko'magingiz tegarmidi, deb edim.
- Jahongir javob qaytarmadi. Bir qaraganda Tolibjonning gaplarida jon bor. Bir uy odamdan bitta insofsiz topilib oqsoqol bo'lib olsa, hammaning sho'ri quriydi. Jahongir bu sovuq, bu mehnat azoblaridan qo'rqlaydi. Agar Xudo bir xastalik yoki bir falokat yuborib jonini olmasa, sovuq yoki mehnat azobi bilan omonatini ololmaydi. Lekin bu bechoralarga qiyin. Egilib mehnat qilmagan, kitobdan boshqa narsani bilmaydigan bo'lib ko'ringan bu yigitlar boshiga Zokirxo'janing kuni tushishi mumkin. «Uxlamay, dam olmay bularning ishini qilishim mumkin, ammo iymonimni bulg'ay olmayman», deb o'yladi Jahongir.
- Tolibjon peshonasida yozushi bor, yuzi hamisha tund bu odamga tushuna olmadi. Shuncha kun birga yo'l yurib, odamga o'xshab gaplashib o'tirganini ko'rmadi. Hatto birinchi to'xtashda ofitserni mazax qilishganda ham u kulmadni. Tolibjon ofitserning dag'dag'asidan qo'rqb, o'zini ichkari olayotganida shu Jahongirning panasiga o'tgan, gavdali bu odamning miq etmay turishidan ajablangan edi. Hozirgi gapidan yana bir karra taajjublandi. «Qo'rqlaydi? Nimadan qo'rqlaydi? Iymonining bulg'anishidanmi? Nahot bu zamonda iymonni o'laydigan odamlar qolgan bo'lsa? Nahot ko'rinishi kallakesarni eslatuvchi bu odam iymon, vijdon, nomus degan tushunchalarni qadrlasa? Bizni tuhmat chodiriga o'rab bergenlarda zig'ircha nomus, vijdon, iymon bormi edi? Bizdan-ku, qutuldilar. Shu yigitlar, qizlar juvonmarg ketishdi, deb yuraklari hech

bo'lmasa bir martagina jizilladimi ekan? Xudodan kechdilar, iymondan yuz o'girdilar, vijdonga tupurdilar, nomusni bulg'adilar... Shunday zamonda bu odamning qamoqda o'tirib olib, nomusdan gapirishi... Qiziq... Men ham o'zimni nomusli deyman. Lekin meni oqsoqol qilib tayinlashsa... inkor eta olmasdim. Bu nomussizlikka kirmaydi. Nomardlarga qarshi ularning o'z qurollari bilan kurashish kerak!».

Tolibjon shu qarorga keldi, ammo fikrini ochiq aytmadı.

Ularni tong qorong'usida uyg'otdilar. Jahongir boshliq yana chaqirarmikin, deb o'yladi. Ammo uni yo'qlashmadı. Nonushtadan keyin labi tirtiq bir davangirmi oqsoqol deb tanishtirishdi. Oqsoqol «turinglar!» deb qichqirdi. Barcha o'rnidan turgach, hirninglab turib dedi:

— Qani, ziyolivachcha safsatabozlar, bir ter to'klaring-chi endi!

Bu gapni eshitib Jahongir beixtiyor Tolibjonga qaradi. «Ana ko'rdingizmi, kunimiz kimga qoldi», derdi Tolibjonning ko'zlari. Tuni bilan yo'talib chiqqan, ozg'in yigitning ko'zida ham afsus bor edi.

Oqsoqolning buyrug'i bilan tashqariga chiqib bolta, arra olishdi. Vazifa daraxt kesish ekan.

— Omadlaring bor ekan, — dedi Jahongir yigitlarga, — muz chopib yer oymaganlaringga shukr qilaveringlar.

Ozg'in yigitni yana yo'tal tutib, bukchayib qoldi. Tomog'ini qirib tupurgan edi, qor qizardi. Jahongir Tolibjonga qarab bosh chayqadi-da, oqsoqol tomon yurdi.

— Qon tupuryapti, ahvoli chatoq, — dedi ozg'in yigitni ko'rsatib.

Oqsoqol qo'l siltadi:

— Ajali yetsa o'ladi, yetmasa o'lmaydi, ishing bo'lmasin.

Jahongir unga tushuntirish ortiqchaligini anglab, afsus bilan iziga qaytdi. Ozg'in yigit yuzini oq qayinga qo'yib jim turardi. Mahbuslar buyruqni ikki qilmay ishga kirishishgach, dastlabki daraxtlar qarsillab yiqilib, qorni to'zita boshlagan edi.

— Islomxon inim, kechgacha chidang, barakka qaytsak, boshliqqa kiramiz. Sizga yengilroq ish berishadi.

Ozg'in yigit — Islomxon yuzini daraxtdan olib, Jahongirga qaradi. Uning ko'zlari yoshsanib borar edi. Jahongir «yigit o'z taqdiriga kuyib ketyapti», deb o'yladi.

— Taqdirga tan bermay ilojimiz yo'q. Bu kunlar ham o'tar-ketar, — deb tasalli bermoqchi bo'ldi.

— Taqdir deysizmi?.. — Islomxon shunday deb xo'rsindi.

«Kim o'lar holatga yetsa, ul bilur jon qadrini» deganlaridek, Islomxon ozodlik qadriga qamoqqa tushib yetgan edi. Sassiq vagonda kela kelguncha erkinlikni, baxtni, muhabbatni ulug'lab yozgan she'rlarini eslab, avvaliga o'zidan o'zi uyaldi. Keyin o'ziga nisbatan bo'lgan nafrati orta bordi. Hozir kesilayotgan daraxtlarga qarab, yuragi ezildi. Kokillarini tarab, ma'yus turgan oq badan kelinchakni eslatuvchi oq qayin uning ko'ziga go'zallik ramzi bo'lib ko'rindi. Mahbuslar uning nazarida daraxtga emas, olam go'zalligiga bolta urar edilar, daraxt emas, go'zallik oh urib yiqilardi. Nazarida ozodlikda odamlara boshiga ham shunday kun tushgan. Kesilgan daraxtlar o'rniga nihol ekilsa o'rmon o'rni to'lar, ammo bevaqt, nojo'ya qirqilgan odamlar o'rni qachon to'larkin?

Islomxon yo'lida kela turib xayolida tug'ilgan satrlarni tiliga ko'chirdi:

*Qo'nma bulbul, qo'nma bulbul,  
Mozor toshiga.*

*Nalar keldi, nalar keldi,  
Yurtim boshiga...*

Pichirlab aytilgan bu satrlarni Jahongir eshitdi.

— Siz... shoirmisiz, inim? — dedi Jahongir biroz ajablanib. Islomxon uning savolidagi bu taajjubni sezdi.

— Hayron bo'lyapsizmi? — dedi savolga savol bilan.

— Shoirlarni ham qamarlar, deb o'ylamagan edim. Qadimda xonlar durust madh etmagan shoirlarni jazolar ekanlar. Men shoirlar hayotidan yiroqman, Vatandan ham yiroqda edim, balki adashgandirman. Mening chamamda shoirlar madh etishni o'rniga qo'yishayotgan edi.

— Madh etardik... ammo dardimiz ichimizda edi. Cho'lpondan ayirdilar, Qodiriyydan judo qildilar. Usmonni haydab ketdilar... Xalqqa kim qoldi? Shayboniyxon zamonida Muhammad Solih degan nuktodon shoir «Bo'ldi tanbalga vatan Farg'ona, qildi Farg'onani tanbalxona», degan ekan. Yurt endi tanbalxonaga aylandimi? Ig'voxona, tuhmatxonaga aylandimi?

— Nimaga qaqqayib turibsanlar?! Ishlalaring!

Labi tirtiq oqsoqolning baqirig'i Islomxoni xayol dunyosidan qaytardi.

— Ishlaymiz, xo'jayin, ishlash uchun kelganimiz bu yerlarga, — dedi Islomxon ma'yuslik bilan, keyin mahzun jilmaydi, — daraxt kesish nima ekan, olamni ostin-ustun qil, desangiz ham qaytmaymiz.

— Olam sensiz ham ostin-ustun bo'ladi. Sen buyurilgan ishni bajar.

Jahongir oqsoqolni bilagidan ushlab, chetga tortdi.

— Menga qara, oqsoqol, — dedi u tahdidli ohangda, — men siyosatchilardan emasman. Pachakilashib o'tirmayman. Sibirning muzliklaridan tirik qaytgan odamman. Sendan beshbattarlarni ko'rganman. Bu yigit bilan anavisi, — u yiqilgan daraxtni butayotgan Tolibjonni ko'rsatdi, — menga tegishli odamlar, ularga osilma. Har qancha gaping bo'lsa, menga aytaver.

Oqsoqol bu gapga javob beraman, deb og'iz juftladi-yu, «Buning peshonasiga bekor yozilmagandir, kel, shu bilan teskari bo'lmay», deb fikridan qaytdi.

— Men daraxt kesa olmayman, — dedi Islomxon Jahongirga. — Otib tashlashsa ham kesmayman.

— Unda yiqilganlarni butang. Men Tolibjon bilan arra tortaman, — dedi Jahongir.

Tolibjonning arra tortishga uquvi yo'q ekan. Jahongirni obdon holdan toydirdi. Peshinda tuzlangan karam solib pishirilgan iliq sho'rva ham totli tuyuldi. Ko'zini bir nuqtaga tikib olgan Islomxon esa tunuka tovoqni yarimlatmadni ham.

— Islomxon, ko'p o'ylamang, qarib qolasiz, — dedi Tolibjon hazil ohangida. — Hali biz bu yerdan chiqib uylanishimiz kerak. O'zimizni o'zimiz qaritsak, qaysi qiz qaraydi bizga.

Islomxon do'stiga qarab jilmaydi. Yigirma beshdan oshgan qoraqosh yigit jilmayganida olam chax-chax urib kulishi kerak. Lekin mahkum yigitning hozirgi mahzun jilmayishidan osmon yanada tundlashgandek bo'ldi.

— Uylanish dedingizmi? Ha, uylanish kerak... Biz qutulib chiqamiz. Lekin bizni kimlar kutib oladi? Men shuni o'ylayapman.

— Kimlar bo'lardi, g'azzola qizlar-da, a, Jahongir aka? — dedi Tolibjon ayyorona ko'z qisib.

Uning sa'y-harakati zoe ketdi. Shoirning zada qalbiga bu kabi arzon hazil malham bo'la olmas edi.

— Qizlar-ku, kutar, — dedi Islomxon o'ychan, — lekin biz borgunga qadar bog'lar qurib, bulbullar qirilib, quzg'unlar bulbul libosini kiyib olsa-chi?

Tolibjon Jahongir bilan ko'z urishtirib oldi. Jahongir «uni o'z holiga qo'ying», degan ma'noda yengil bosh irg'adi. Islomxon buni anglamay gapini davom ettirdi.

— Mashoyixlar «Kuching yetar ekan, olovni shu on o'chir, agar alanga olsa, jahonni kuydiradi. Dushmanani o'q bilan urishga qodir ekansan, uning kamon kerishiga yo'l

qo'yma», deganlar. Biz olovni o'chirish kerak, deb va'z aytdig-u, o'chirishga urinmadik. Kamonni dushman qo'lidan olish lozim dedig-u, olib qo'ymadik. Oqibatda jahon kuydi, kamondan tinmay o'qlar otilyapti. Bu yerlardan eson-omon qutulsak ham yonib ado bo'lgan jahannamga boramiz.

— Islomxon, siz shoirlar falsafaga moyil bo'ladilar, — dedi Tolibjon jiddiy ohangda. — Ammo bu falsafangiz menga ma'qul emas. Bizni nishonga aylantirib, o'z do'stlarimiz qo'liga kamon berdilar. Bu kamon otuvchilar hozir ozodlar, baxtiyorlar. Men to bu yerdan chiqqunimcha ularga omonlik tilayman. Siz ham tilang. Hammamiz tilaylik. Chiqib ularni sog'-omon ko'raylik. Men ularning makkor ko'zlariga bir marta qarasam kifoya. Ularning ko'zlarida bir martagina iztirob ko'rsam yetarli.

Jahongir soddadillik bilan aytilgan bu gapni eshitib, kulimsiradi. Tolibjon bundan ranjidi.

— Nimaga kulyapsiz? Omon chiqishimizga ishonmayapmizmi? — dedi u.

— Rahmatli mudarrisim «Agar olam tig'i qo'zg'olsa, Xudo xohlamasa, biror tomirni ham qirqa olmaydi», der edilar. Xudo xohlasa, eson-omon bundan qutulib chiqasizlar. Ammo... kamon otganlar ko'zida iztirob ko'ruman, deyishingiz xomxayol, inim. Shahar darvozalarini yopib bo'lar-u, ular og'zini yopib bo'lmas. Islomxon topib aytidilar: ular bulbul libosida hunar ko'rsataveradilar.

— Sizning badbin niyattingiz meni hayron qoldirdi. Qachongacha ular gunoh ishlardan zavq olishadi, tavba ham bemaza emas, bir kunmas bir kun undan ham tatib ko'risharku?

— Tolibjon inim, men bilan bahs yuritmang, Xudo xayringizni bersin, — dedi Jahongir vaziyatni yumshatish uchun kulimsirab, — peshonamdag'i yozuvni bilmaysizlar. O'qishga harakat qildinglar, sezib turdim, ammo o'qiy olmadinglar. Oriyatli ekansizlar, so'rashga istihola qildinglar. Endi o'zim aytay: «Alqasosu minal Haq» deyilgan. Siz ham o'zingizga yomonlik qiluvchilarni turmush hukmiga havola eting. Turmush sizga o'ch olib beruvchi xizmatkordir.

Tolibjon bu gapni eshitib, bir zum jimb qoldi. Keyin bosh chayqab dedi:

— Gapingiz rost, siz bilan bahs yuritib bo'lmaydi. Taqdirimiz zohiran bir. Yurakdag'i dardimiz boshqaga o'xshaydi.

Jahongir «na chora», deb yelka qisib qo'ydi. «Bular hali yosh, hademay hovurlari bosiladi, ularning jig'iga tegmay», deb mag'lub odamday bosh egdi. Islomxon uni birinchi marta ko'rayotganday tikilib turdi-da, horg'in odamning tovushida dedi:

*Shabi g'am gird-bodi oham az jo burd gardunro,  
Furo' burd ajdahoi sayli ashkam rub'i maskunro, —*

degan ekanlar Shayhim Suhayliy. Ya'ni, g'amli kechalarda ohimning quyni osmonni o'rnidan qo'zg'otadi. Ko'z yoshim selining ajdahosi yer yuzini yutib yuboradi.

Oqsoqolning «Turinglar!» degan baqirig'i yangramaganda ularning azaga kelgan xotinlar hasratini eslatuvchi bir oz mungli, bir oz alamli gaplari davom etaverishi mumkin edi.

Qishning qahri qirqilib, oftob tez-tez ko'rinarigan bo'lib qolgan kunlarda tikanli sim bilan o'ralgan hovli etagidagi bo'sh uy egalari kelishdi: ustlariga kalta paxtali qora to'n, oyoqlariga qo'pol botinka kiygan, sochlari olib tashlangan, qora ro'mol o'rab olgan, kirtaygan ko'zlar ma'yus boquvchi turli yoshlardagi ayollarni ko'rib, dastlab barcha ajablandi. So'ng kimningdir yuzida kulgi o'ynadi, kimningdir ko'zlarida yosh ko'rindi.

Eng chetdagi bu uyga kimning borishi oqsoqolning himmatiga bog'liq edi. Bir kuni kechki payt u barakka kelib, to'rt kishini chaqirdi. U mahbuslarning ismini aytib chaqirmas edi, oltinchi barakdag'i o'ziga tobe odamlarning hisob raqami yod bo'lib

ketgan, «256097» raqamli kimu «256071» kim — adashmay ajrata olardi. Bu kech ham ro'yxatga qaramay hisob raqamlarini aytib chaqirdi. U go'yo odamlarni emas, tartib bilan taxlangan jonsiz buyumlarni saralaganday harakat qilardi. Bir necha hafta ichida u mahbus ekanini unutgan, o'zini boshliqlar qatori qo'yib kerilishni odat qilgan, ozodlikdagi gunohini unutib, yangi gunohlar sandig'ini ochib olgan edi.

Islomxonning raqami tilga olinganda nainki uning o'zi, balki Tolibjon, hatto Jahongir ham titrab ketishdi. Ular Islomxonning marhamatga sazovor bo'lishi mumkin emasligini, bu «marhamat» uning izzat-nafsi xo'rashdan iboratligini anglab turishardi.

— Men... bormayman, — dedi Islomxon o'rnidan turib.

Oqsoqol unga qarab ishshaydi. Labi tirtiq odamning afti qo'rqinchli tusga kirdi.

— Borasan, bu buyruq! — dedi.

Jahongir o'rnidan turib, oqosoqolga ro'baro' bo'ldi:

— Musulmonlarga tegma! Haromga aralashtirma bizlarni!

— Musulmonlaring yilda bir mov bo'ladijan mushukmi, — oqsoqol shunday deb tisarildi. — Bu kattaning buyrug'i. Hammang galma-galdan kirib chiqasanlar, tartib shu!

... Islomxon tongda g'arib kishi kepatasida qaddini bukib kirib keldi. Churk etib og'iz ochmadi. Nonushtaga qaramadi ham. O'rmonga borib kecha yiqitilgan daraxt ustiga o'tirdi. Boltaning sopini qattiq qisganidan barmoqlari ko'karib ketdi. Jahongir uning barmoqlarini asta bo'shatib, boltani qo'lidan oldi. Tolibjon do'stining yoniga o'tirdi.

— Onam tengi ekan... — dedi Islomxon yig'lamsirab, — olimning xotini ekan. Gunohini o'zi ham bilmaydi... Biz-ku mayli, xotinlarni nimaga qiynashadi? — Islomxon peshonasini Tolibjonning yelkasiga qo'yib ho'ngrab yig'lab yubordi. — Biz kimmiz o'zi, odammizmi, hayvonmizmi? — Islomxonning keyingi gaplarini tushunib olish qiyin bo'ldi.

Oqsoqol «ishlaysanlarmi, yo'qmi!» deb do'q urmoqchi bo'ldi-yu, bolta ushlab turgan Jahongirni ko'rib, shashtidan qaytdi.

Jahongir Islomxonning ahvol-ruhiyasini haromdan hazar qiladigan inson sifatida tushunardi. Shoir yuragidagi cheksiz nafratni his qilish uchun odamda shoir qalbi bo'lishi kerak. Ayollar baragiga qadam bosganda ayrim erkaklarning hayvon kepatasiga kirib qolganlarini, ma'sumaning xonadagi pishillashlar, hiringlashlardan titrab o'tirishini ko'rish, uning «xalq dushmani», deb e'lon qilingan, hozir Sibirning ovloq yerlarida azob chekayotgan keksa eri, qizlari haqidagi hikoyalarni eshitishdan ko'ra jonni Azroil qo'liga topshirmak ming karra afzal edi.

Oradan kunlar, haftalar o'tib, qamoqxonada ayollar baragiga «qiz kirib, qiz chiqayotgan» erkaklar haqida masxaraomuz gaplar oralab qoldi. Shu haqda og'iz ko'pirtirayotgan mahbus Jahongirdan kalla yegach, «g'alati erkaklar» haqidagi gapso'zga xotima yasaldi.

Islomxon qishni ming bir azob bilan chiqardi. Mahbuslar o'zaro suhbatlarda ayrim tuhmatchilarni so'kardilar, la'natlardilar, begunohliklarini isbot qilish maqsadida Stalinga maktub yozib najot kutar edilar. Tolibjon bilan Islomxon ham bu ishdan chetda qolmadilar. Islomxon bu yerdan tirik chiqib ketolmasligiga aqli yetib, tushkunlikka berilgan edi. Tolibjon avval o'zi maktub yozdi. «Almoniya Karl Marks vatani bo'lgani uchun, buyuk dohiymiz Leninni panohiga olgani uchun men u yerga borib o'qidim», deb boshlab, buyuk dohiy Stalinga mehri beqiyosligini bayon qilib tugatdi. Umid bilan yerni yorib chiqqan ko'kat quyosh nuriga to'ymay do'lga tutilgani kabi Almoniyada bilim olgan yoshlар nohaq xazon bo'layotganlarini ham aytди. Islomxonni ham shunday maktub bitishga majburladi.

Jahongirni ham yozishga undashdi. Bu yumushdan foyda unmasligini bilgan Jahongir qo'liga qalam olmadi. Umid bilan javob kutayotgan bu ikki yoshta qarab turib, Jahongir bir hikmatni tez-tez eslar edi: boshqadagi dondan so'rabdilar: «Nechuk imillaysan, tez

yetilmaysan?» Boshoqdagi don javob beribdi: «Tez yetilsam tegirmon toshlari orasida tezroq yanchilaman-da»... «Bu yigitlar tegirmon toshlari kutayotganini bilmay tez yetilishdi. Endi bu toshlar orasidan omon chiqisharmikin?» deb ko'p o'yldi. «Nurga o'lim yo'q, deydilar. Bu yigitlar nurmisol, Xudo xohlasa, omon chiqishadi», deb o'ziga o'zi tasalli berdi.

G'amga saxiy, shodlikka xasis bu dunyo nolalarga parvo qilmay tegirmon toshlarini ayovsiz yurgizardi. Dastlab Tolibjon javob oldi — hukm qat'iy, shikoyatga o'rinni yo'q ekan. Shunda u peshonasiga bir shapaloq urdi.

— Professor Gerkard shu yerda qol, deganda men ahmoq ko'nmbabman. Vatanga xizmat qilaman, debman!

Bu gapni eshitib, Islomxon uning og'zini kafti bilan yopdi.

Islomxonga javob keyinroq, bahor borliqni erkelay boshlaganda keldi.

Oftob issig'i tanalariga o'tib, daraxtlar uyg'ondi. Uyg'ondi-yu, yalang'och badanlardan uyalib, shoshqich ravishda qush tiliday yaproqlardan iborat harir pardaga o'rala boshladilar. Bu yashil harir parda orqasida ularning oq, toza badanlari yanada go'zal ko'rindi. Endigina yaproq chiqargan daraxtlar Islomxonning ko'ziga bu go'zalalikda emas, balki kasaldan turgan bemorday za'faron ko'rinar edilar. U daraxtlarni o'zi kabi o'limga mahkum deb bilardi. O'zining o'nglanmasligiga ishonib qolgan Islomxon har qon tupurganida:

— *Bu dard ilaki o'larman, maraz chu zohir emas,  
Tabiblar bu balog'a ne chora qilg'aylor,* —

deb qo'yardi.

Jahongirning «Bahorga yetib olsak, bu dardlardan forig' bo'lib ketasiz», degan daldasini eshitib, miyig'ida kulardi.

Islomxonni qamoq boshlig'i ayni bahor kuchga kirgan pallada chaqirdi.

— O'rtoq Stalinga yozgan xating yurtingga yuborilgan. O'zingning yozuvchilarindan iborat komissiya «millatchiligi to'g'ri», deb xulosa chiqarib bergan. Shunga qaramay, kasalliging inobatga olingan. Seni janubga, issiqroq yerkirga ko'chiramiz. Hoziroq yo'lga chiqasan.

Islomxon xayrlashar mahali turar joyini yana eslatib, Jahongir bilan Tolibjonga bir o'tinchini aytди:

— Onamga aytinlar, bergan oq sutlariga rozi bo'lsinlar. Men hech kimga xiyonat qilmadim.

Jahongir bu shoirni boshqa ko'rmadi. Urushdan keyin yurtiga qaytib, uni so'roqladi. Onasi o'g'li hajrida kuyib ado bo'libdi. Singillari akaning na tirigini, na o'ligini bilishardi. Islomxonning, u sig'ingan allomalarining nomlari tilga olinmayotganidan bildiki, ularga hali ham omonlik berilmabdi. Shunda Islomxon ulug'lardan misol qilib aytgan bir baytini esladi:

*Ba nomi neko' gar bimiram ravost,  
Maro nom boyad ki tan margrost.*

«Yaxshi nom bilan o'lsam, shu yetadi, menga yaxshi nom kerak, tana esa o'lim uchundir», der edi, bechoraning nomini ham o'chirishibdi», deb achindi.

## 12. XOINLIK DAN XUDO ASRASIN

*Kapitan Ramazonovning so'rog'idan so'ng Jahongir eslagan voqeа bayoni.*

Kapitan Ramziddin Ramazonov mayor Solihovning topshirig'ini bajarib, marhum Sharipov oilasiga yaqin kishilar haqida ma'lumot to'pladi. «Mayor qotilni marhumga yaqin odamlardan qidirib to'g'ri qilyaptimi, — deb o'yladi u. — Muhammadrizaevga yaqin odamlar-chi? Uning urush yillaridagi sirli harakatiga nima uchun qiziqmayapti? Partizanlar otryadida bo'lgan, so'ng asirga tushgan, Turkoshteleda — SS bosh boshqarmasining Turkiston bo'limida xizmatda bo'lgan, u yerdan topshiriq olib, yurtiga kelganu to'g'ri miliitsiyaga uchragan. Nemislar tayyorlab bergen hujjat bilan tinchgina yashab yurishi mumkin edi...»

Ramazonov savollariga javob topolmay Jahongir haqida ma'lumotlar jamlangan papkani ochdi. 1944 yilgi so'roq, to'plangan ma'lumot ajablanarli edi.

*«Jahongir Muhammadrizaev partizan otryadida barcha harbiy operatsiyalarda halol ishtirok etdi. Yurtdoshi Tolibjon To'xtasinov bilan navbatdagi operatsiyaga ketib, nishonsiz g'oyib bo'ldi. Otryadda sotqin, xoin deb gumon uyg'otgan emas.*

*Otryad komandiri, podpolkovnik Strujev»*

1944 yilda Muhammadrizaev harakatida jinoyat alomatlari topilmagan, aksincha, 1938 yilgi hukm bekor qilingan. Lekin oradan to'rt yil o'tib «Vatan xoini» Muhammadrizaev o'n uch yil ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan.

Bu sohaning nozik jihatlarini hali yaxshi o'rganib yetmagan kapitan Jahongirning hayotiga oid ma'lumotlardan bir xulosa chiqara olmas edi. Asirga tushganlarning, Yugoslaviya partizanlari safida jang qilganlarning urushdan keyingi ayanchli taqdiri unga ayon. Qo'shinlardagi maxsus bo'limning berahmligini ham biladi. Qirq to'rtinchi yilda, jouslik vazifasi bilan o'tib kelgan odamning gunohidan o'tishlari mumkinmidi? Ramazonov «Agar bizning razvedkaga xizmat qilgan bo'lsa, gunohidan o'tishgandir», deb xulosa chiqardi. Gunohdan o'tib turib, to'rt yildan so'ng uni yana qamoqqa tiqishlari ajablanarli. «Agar odamni Xudo yaratib, uning taqdirini ham belgilab qo'ygan bo'lsa, bunday chigal taqdirni qanday o'ylab topdi ekan? Taqdir changalida o'yin bo'lgan odam aqdan ozmay yashashi mumkinmi?»

Ramazonov Jahongir haqida o'ylaganlarini mayor Solihovga aytdi.

— Istanasangiz, tegishli bo'lim bilan bog'laning. Istanasangiz, o'zi bilan gaplashing. Lekin mening nazarimda Muhammadrizaevning u yillardagi hayotidan bu ishga aloqador ma'lumot ololmaysiz. Balki... — Solihov picha o'yladi, — bu odamning fe'l-atvorini aniqlashga yordam beradigan biror gap chiqar. Men marhumning yaqinlari bilan shug'ullanaman. Siz Muhammadrizaev bilan uchrashing.

Maxsus bo'limda Ramazonovning iltimosi ikki kundan keyin qondirildi. Muhammadrizaev hayotiga oid ma'lumotlar to'plamini unga ko'rsatishmadi. Buning o'rniha «J. Muhammadrizaev razvedkada xizmat qilmagan», degan qisqagina javob xati berishdi. Turkiston legioniga oid savol-javoblar va ma'lumotlarning eng so'ngiga tikilgan, Jahongirning o'z qo'li bilan arab imlosida xusnixat bilan yozgan tilxati Ramazonov uchun sir bo'lib qolaverdi. Aqalli «Men xoin bo'limganim vajhidan yurtimga qarshi ish ko'rishdan o'zimni tiyib, sizlarga taslim bo'ldim. Ularning buyruqlariga bo'ysunishdan maqsadim — ota yurtimga kelib olish edi. Sizlarga xizmat qilishim u tomonga nisbatan xoinlik bo'lur, men esam xoinlikdan hazar qilaman. Xoinlikdan hazar

qilguvchilar o'limga loyiq topilsa, men kundaga bosh qo'yib berishga roziman», degan tilxatni ko'rsatishganda ham Ramazonovga ko'p narsalar oydin bo'lar edi.

Ramazonov Jahongir yotgan shifoxonaga mavhum taassurotlar ichida bordi. Bosh tabib «Bemorning oromi buzilgan, buguncha so'roq qilmang», dedi. Oromining buzilishiga «o'g'illariman», deb o'zini tanishtirgan bir yigitning tashrifi sabab, deb izohladi.

Ramazonov bosh tabibning gapini ikki qilmay, iziga qaytib, shifoxonaga ertasiga kun yoyilganda keldi. U Jahongir yolg'iz xonaga kirganida hamshiralalar muolajani tugatib chiqishayotgan edi.

Jahongir o'g'li kelib ketganidan keyin Ollohga shukr qilishni ham, jonimni tezroq olaqol, deb faryod urishni ham bilmay qoldi.

Islomxonni o'ylab yotgan paytida yelkasiga oq xalat tashlab olgan tanish yigitni ko'rib, yuragi urishdan to'xtab qolganday bo'ldi. Boshini yostiqdan uzib, qaddini ko'tarmoqchi edi, majoli yetmadi. Yigit — uning pushti kamari, o'ttiz uch yil xayolida erkabal, avaylagani — salom berib, «bezovta bo'l mang», deb yelkasidan ushladi. Jahongir beixtiyor uning qo'liga kaftini qo'ydi. Bu xayolidagi do'mboq qo'lcha emas... Ammo bu qo'lning tafti yuragiga qayta jon berganday bo'ldi. Salom-alikdan so'ng ota-bola tildan qolganday bir-birlariga tikilishdi. Alamlar — shodliklar ham, dardlar — hasratlar ham, faryodlar — baxtiyorlik ham shu qarashlarda zohir edi. Jahongirning qarashida xijolatlik, yo'q, xijolat emas, kechirilmas gunoh qilib qo'yan bandaning iztirobi bor edi: harholda jigarini, pushti kamarini musofirliklarda xor qilib qo'y may voyaga yetkazgan odamning o'limiga sababchi bo'ldi. Yo'Ichivoy uni shohid emas, balki qotil deb bilar, nafratlanar? «Nafratlanarmikin? — Jahongirning ko'ngliga shu savol keldi. — Nafratlanganida yo'qlab kelarmidi? Yo onasi yubordimi? Men qotil emasman, deb aytib qo'yaymi?»

Jahongir bu gapni ayta olmadı. O'zini ochdi-yu, ovozi chiqmadi.

«Boshingizga tushgan savdolarni milisaxonada aytishdi. Bir boshga shunchalara kulfat yetar. Qotilni ko'rgan bo'lsangiz, aytin, bag'rimizga qayting», Yo'Ichivoy shunday demoqchi edi, uydan chiqayotganidayoq shu gaplarni aytaman, deb qaror qilgan ham edi, ammo aytolmadı. Otasining mo'l tillab turgan ko'zlariga qarab gapirolmadı. Noqulay jimlikdan qutulish uchun xaltani ochib, kosani oldi.

— Ayam berib yubordilar, — dedi Yo'Ichivoy kosa ustidagi nonni olib.

Jahongirning dimog'iga tanish hid urilib, entiktirib yubordi: moshkichirining hidimi? Xadicha uning qanday taomni xush ko'rishini, kun ora moshkichiri qilib bergenlarini unutmabdi-da?

— Ayangiz esonmilar? — dedi Jahongir titroq ovozda.

Yo'Ichivoy uning hayajonini tushundi. Ayasining «u kishi moshkichirini xush ko'rardilar, o'zim pishirib beray», degan gaplarini esladi.

— Duo deb yubordilar.

— Ayangizning duolarini olaberling, kam bo'l maysiz.

Ular yana jim qolishdi. So'ng Yo'Ichivoyning qistovi bilan Jahongir qoshiq uchida moshkichiridan «nasiba» deb og'ziga soldi. Biroq yutishi qiyin bo'ldi. Ich-ichida to'lqin urayotgan yig'i bir chimdim ovqatning o'tishiga arang yo'l berdi.

Yo'Ichivoy uzoq o'tirish bemorni toliqtirib qo'yishi mumkinligini fahmlab ketishga izn so'radi.

— Ayangizga duo deng, — Jahongir shunday deb o'g'liga tikilib qoldi. — Yana bir gapni aytin, — Jahongir bu gapni aytishga qiyaldi, ko'zlarini olib qochdi. — Iymoni butun, muslim yigitsiz, so'zlarimga tushunasiz... Ayangizga aytin, u kishining gunohlari yo'q. Bandaning oldida ham, Olloh oldida ham bokiralar. Musofirlikda turmush qurbanlarida boshlari ochiq edi, men bunda yurib, orqalaridan taloq qilib edim.

Ko'ngullari kirlanmasin, ayting. — Jahongir shu gaplardan so'ng ko'zlarini yumib oldi, mijjalari har qancha jipslashmasin, tomchi yosh sizib chiqishga yo'l topdi.

Tunda uxladimi, alahsiradimi bilmaydi. Ertalab hamshiralar kirishgach, sal hushini yig'ishtirdi. Ular chiqib ketib, eshik og'zida oq xalatli odam ko'ringanda dastlab uni tanimadi. Tanigach, «Avval eski oshnamni topib ro'para qildi, keyin o'g'limni... endi nima hunar ko'rsatarkin», degan xayolda qaddini biroz ko'tardi.

Ramazonov so'roq qilish hadisini olmagan edi. Ayniqsa, bemor odamni daf'atan so'roqqa tutishni o'ziga ep ko'rmay taraddudlandi. Agar u to'g'ridan-to'g'ri so'roq boshlaganida Jahongir ajablanmagan bo'lardi. Tergovchining yog'och kursiga noqulay o'tirishi, so'roqni darrov boshlamayotgani aksincha uni taajjublantirdi.

Ramazonov cho'ntagidan «Kazbek» chiqarib, bir dona papirotni labiga qistirdi, so'ng qutini Jahongirga uzatdi. «Chekmayman», dedi Jahongir.

— Yaxshi qilasiz, men ham chekmas edim, urushda o'rgandim, — dedi Ramazonov, keyin papirotni qayta qutiga soldi, — darvoqe, bu yerda chekish mumkinmasdir, a?.. Siz partizanlar otryadida jang qilgan ekansiz, qaysi yerlarda bo'lgansiz?

— Belorusiyada, Bryansk o'rmonlarida.

— Men u tomonlardan o'tmaganman. Stalingraddan Odergacha bordim. Ukrainada partizanlar bilan ko'rishdik. Yigitlar aytib berishgan, partizanlarga og'ir bo'lganini bilaman. Biz-ku, ro'paramizda frits borligini bilardik. Olg'a, yanchib tashlansin, degan buyruq olsak, bas. Partizanlarning esa chor atrofida frits.

— Bu gaplarni menga nima uchun aytyapsiz? Buni qotillikka daxli yo'q. So'raydiganingizni so'rang.

— Daydidaradagi ish bo'yicha mayor so'raydi. Meni sizning o'tgan hayotingiz, do'st-birodarlarining qiziqtiradi.

— Mening do'st-birodarlarim yo'q.

— Unchalikmasdir. Masalan... Tolibjon To'xtasinov kim edi? Yo uni tanimaysizmi?

Jahongir achchiq kulimsiradi.

— Tolibjondan gumon qilmay qo'yavering... U bechoraning jasadi Almoniyada qolgan...

Jahongir shunday deb ko'zlarini yumi. «Tolibjoni nimaga surishtiryapti? Yo Turkosshtellening yuvindilarini suzib olmoqchimi? Tolibjoni Sotti otib tashlaganini qirq to'rtinchi yilda aytgan edim-ku? Bularning maqsadi nima o'zi? Qotilni aniq bilsam edim, endi aytardim, qutulib qo'ya qolardim. Orqasidan ko'rgan bo'lsam, aniq o'sha edimi yo yo'qmi — bilmasam, gumon bilan bir odamni abgor qilib gunohga botaymi? Gumnooni aytgan taqdirimda bular ishonadilarmi? O'g'limni ko'rdim, Xadicha ham Xudoga shukr, tirik ekan. Menga yana nima kerak? Tirik qolib nima karomat ko'rsataman? U odamning akamda nima qasdi bor ekan, bilmayman. Lekin mening qasdim ham bor edi-ku? Nima uchun yashashni istab qoldim? Meni shayton yo'ldan uryapti. So'zimdan qaytsam — Xudo urgani shu bo'ladi. Bu hiylagarlar mendan nimani istashyapti? Maqsad Daydidara emas, boshqa. Jasadi begona yurtda qolib ketgan bir bechorani nimaga eslab qolishdi?»

Jahongir partizanlar otryadi komandirining xatini Ramazonov o'qiganidan bexabar, Tolibjon bilan shunchaki qiziqayotganini bilmaydi. Jahongirda uyg'onan ozgina sarosimani ham Ramazonov ilg'ab, «Bunda bir gap bor shekilli?» deb qo'ydi. «Men qotilman, deb turishi bejizmasdir, balki? Xoinligi ochilsa, Vatan xoini sifatida otlishdan ko'ra, qotil sifatida otlishni afzala ko'rayotgandir? Bu odam xoinlik qilishi mumkinmi? — Ramazonov Jahongirga tikildi-da, «mumkin», degan xulosa chiqardi. — Bu jamiyatdaadolat topmadi, faqat ezildi, shu alam tufayli fashistlarga xizmat qilgan bo'lsa qilgandir. Keyin... qo'rqqanidan bosh egib kelgandir. Agar shunday bo'lsa... o'zim otib tashlardim buni...»

Ramazonovning xayolini yoritgan bu fikr asabini qo'zg'adi. Yaqindagina «ko'p azob chekkan ekan», deb achingani bu odamga nafrat bilan qaradi. U urushdan qaytganida do'stlariga «Stalingraddan Oderga qadar Azroilni opichib yurdim, istagan paytida jonimni sug'urib olishi mumkin edi», deb hazillashardi. Har qadamida o'lim chohiga tortilishi mumkinligini bilib janglarga kirgan odamning xoinga yoki sotqinga nisbatan nafratini chetdan turib qoralash noinsoflik hisoblanadi. Boz ustiga Ramazonovning bu damdagini nafrati o'tkinchi, Muhammadrizaevni xoinlikda ayplashga asosi yo'qligini o'zi ham sezib turardi. Yashin nuri zaminni bir zumgina yoritgani kabi, gumondan uyg'ongan nafratning kuchi ham uzoqqa bormaydi.

— Tolibjon To'xtasinov siz bilan partizan otryadida birga bo'lган. Germaniyaga qanday borib qolgan? — deb so'radi Ramazonov, ko'zini yumib yotgan Jahongirdan.

Jahongir ko'zini yarim ochib, unga qaradi. «Bilmaydimi, yo meni laqillatmoqchimi?» deb o'yladi.

— Hamma gaplarni qirq to'rtinchchi yilda aytganman. Hujjatlarga tirkalgan.

Jahongir shunday deb yana ko'zini yumdi. «Tolibjondan xavfsirayaptimi? Tolibjonning qaysi ishi ularning tinchini oldi?» Jahongir xayolan yaqin o'tmishta qaytishga majburiyat sezdi.

Ular bahorda issiqroq o'lkalardagi qamoqxonaga jo'natalayotgan Islomxon bilan xayrlashishdi. Bahorning yomg'irli kunlari ado bo'lgach, daraxta kesishni ham bas qildilar. So'ngsiz o'rmonzorning qoq o'rtasida nima uchun daraxt kesganlari shunda ma'lum bo'ldi: bu yerda zavod qurilarkan. Ularning qilmagan ishlari qolmadi: yer kavlashdi, g'isht tashishdi, qorishma qorishdi... Tolibjon o'tgan kunlarni erinmay sanardi. Ozodlikka chiqquniga qadar qolgan yillarni, oylarni, haftalarni, kunlarni, hatto soatlarni hisoblardi. Yorug' olamda bo'layotgan voqealar haqidagi sarosimali xabarlar o'rmonlar oshib, tikonli sim to'siqlar oshib mahbuslar qulog'iga yetib kelardi. Tebranib turgana notinch dunyoning erta-indin portlab, alanga olishiga barchaning aqli yetardi. Dunyoning qachon portlashi haqida turlicha taxminlar qilishardi. Zavod qurilishining susaymayotganiga qaraganda portlashga picha vaqt bor edi. Lekin qiyomat kutilmaganda barvaqt boshlandi. Uni mahbuslar soqchilarning xavotirli qarashlaridan, boshliqlarning behalovat yurishlaridan sezishdi. Zavodda qurilish ishlari to'xtatilib, o'rnatilgan jihozlar qayta ko'chirila boshlangach, xavotirlar bejiz emasligi bilindi. Ko'p o'tmay portlash ovozlari qulog'qa chalindi. «Urush boshlanibdi», degan xabar bir zumda barchaga ayon bo'ldi. «Endi nima qilarkinmiz?» degan savolga javob topishga ulgurishmay osmonni bir to'p chigirtkamisol samolyotlar bosdiyu qiyomat boshlandi.

Yarim soat ichida qariyb uch yil davomida qad rostlagan zavod binolari ham, ular yashagan yog'och uylar ham, tikonli sim to'siqlar ham yakson bo'ldi. Boshi majaqlangan, qo'li yoki oyog'i uzilib ketgan odam jasadlari, yonayotgan uy xarobalari bu yarim soatlik qiyomatdan xotira bo'lib qoldi.

Joni foydaga qolgan mahbuslar «samolyotlar hozir yana qaytadi», deb o'rmonidan panoh izlab qochdilar. Bir mo'jiza bilan qiyomat olovidan omon chiqqan soqchilar ularga e'tibor ham bermadilar. Jahongir Tolibjonning bilagidan ushlab, boshqalar kabi o'rmon sari yugurdi. Qiyshayib yonayotgan minora yonidan o'tishayotganda chap qo'liga tiralib turishga urinayotgan keksa mahbus «Birodarlar, meni tashlab ketmang», deb iltijo qildi.

— Professor-ku? — Tolibjon shunday deb uni qo'ltig'iga kirib ko'tardi.

Qo'shni barakdagi bu qariyani Tolibjon hurmat qilar, ish chog'ida ham og'irini yengil qilishga intilardi. Jahongir uning olim bo'lganini, bu yerga o'zi ham bilmagan sabab bilan kelib qolganini Tolibjonning gaplaridan bilardi.

Ular holdan toyguncha yurdilar. Professor oyog'idan yaralangani boisidan uni ikki qo'lting'iga kirib deyarli ko'tarib borishdi. Kambag'alning hovlisidek keladigan yalanglikka chiqib to'xtashdi.

— Endi qayoqqa boramiz? — dedi Tolibjon Jahongirga qarab. Professor o'zbekchani bilmasa ham, gap ohangidan savol mazmunini uqdi.

— Agar nemislar bostirib kelishayotgan bo'lsa, sharqqa qarab boraverish kerak, u yoqda o'zimiznikilar, — dedi u.

— O'zimiznikilar? — dedi Tolibjon o'ylanib. — O'zimiznikilar yana qamoqqa tiqishmaydimi?

— Harholda shu yoqqa qarab boraverish kerak, — dedi Jahongir. — Balki uyimizga yetib olarmiz?

Qo'l bola yasalgan zambilga professorni yotqizib, yo'lni tusmollab yuraverishdi. Ertasiga kunbotarda bir qishloqdan chiqishdi. Jahongir Tolibjon bilan professorni butazorda qoldirib, o'zi qishloq tomon yurdi. Ko'p o'tmay qo'lida yarimta non, uchta tuxum ko'tarib qaytdi.

— Urush boshlanganiga yarim oy bo'libdi, — dedi u, — nemislar yaqinmis. Kecha bu yerdan chekinayotgan qizil askarlar o'tishibdi. Professorni olib qolishga ko'nishmadi. Qamoqdan chiqqanimizga qo'rqlihyapti. Lekin, bu yerdan yigirma chaqirim yursak, bir qishloq bor. Qamalgunimga qadar men o'sha yerda yashaganman.

«Qaerda, nima uchun yashagansan», deb surishtirib o'tirishmadi. Non bilan tuxumni bo'lishib yeb, qorong'i tushguncha yo'l bosishdi. Jahongir yashagan qishloqqa ertasi kuni peshinga yaqin yetib borishdi.

Ostonada o'tirgan Grigorich bilan kampirni Jahongir uzoqdan ko'rib «xayriyat», deb quvondi. Grigorich ularni avvaliga chekinayotgan askarlardir, deb o'yladi. Keyin Jahongirni tanib, hayratdan yoqasini ushladi.

— Seni uzoq kutdik, xavotir oldik, — dedi chol professorni uyg'a yotqizib chiqqach, — uch kun oldin kizimkani katta yo'lga kuzatib qo'ydim. Chekinayotgan askarlar, odamlarga qo'shilib ketdi. Shu bahonada uyiga yetib oladi. Kelishingni yuragi sezgan ekan, senga bir gap aytib ketuvdi. Opangning omonatini olibdi, rozi bo'larmishsan. Xudo xohlasa omonatingga xiyonat qilmas emish.

Jahongir Oynisaning maqsadini tushundi. Boshini changallab, indamay o'tirdi.

— Grigorich, professorni siznikiga tashlab ketamiz. Yaxshi odam u. Tuhmatga uchrab qamalgan, — dedi u uzoq davom etgan sukutdan so'ng.

— Yaxshimi-yomonmi, u ham bir odam, — dedi chol. — Qaraymiz, umri uzoq bo'lsa, tuzalib ketadi. Nasibasi qirqilgan bo'lsa, chorasmiz. Sen o'zing nima qilmoqchisan?

Jahongir javob o'rniga bosh qimirlatdi.

— Ketolmaysan. Katta yo'llarga nemislar yetib kelgandir. Shu yerda kut. Nemislar kelsa ham senga tegishmas. Bolshevik emassan. Quvg'in qilingan odamsan. Sheriging ham qolaversin.

Cholning maslahati Tolibjonga ma'qul kelmadi.

— Bu yerda qolsak, sotqin degan tamg'adan umrbod qutulamaymiz, ketamiz, — dedi.

Qorinni to'qlab, kiyimlarni almashtirib, yo'lga tushishdi. O'rmonni panalab yurib, nemislarga duch kelishdi. Ulardan berkinamiz deb, o'rmonga ichkarilab, yo'ldan adashib, ochlikdan o'lar holga tushganlarida qurshovdan chiqishga urinayotgan askarlarga duch kelishdi. O'zlarini O'zbekistondan Belorussiyaga tajriba o'rganish uchun kelgan chorvadorlar deb tanishtirishdi. Komandir peshonasida yozushi bor Jahongirga ishonqiramay qarab qo'ydi, ammo indamadi. Ular qurshovdan chiqolmay, o'rmon ichkarisiga qarorgoh qurishdi. Shu zaylda partizanlik hayoti boshlandi. Jahongirning

merganligi, dovyurakligi ayon bo'lgach, komandir qarashlaridagi xavotir, ishonchhsizlik yo'qoldi.

Bir kuni kichkina guruh bilan ketishayotganda Jahongir Tolibjonga:

- Bular bizga endi ishonishdi, sezdingizmi? — dedi.
- Buni-ku, sezdim, — dedi Tolibjon. — Lekin boshqa narsani ham sezib yuribman.
- Nimani?
- Ikkimizni boshqalarga qaraganda ko'proq yuborishyapti bunaqa janglarga.

Nimagaligini bilasizmi?

- Nimaga?
- Biz bularga begonamiz. O'lsa ham shular o'lsin, deyishadi.
- Undaymasdir, — dedi Jahongir. — Ko'pga kelgan to'y...
- Bilasiz-ku, men hamma narsani hisob-kitob qilib yuraman.
- Xudoning o'zi asrasin bizni, urushdan keyin bir parcha qog'oz yozib bersa, yurtimizga yorug' yuz bilan qaytsak bas.

Tolibjon «buncha soddasiz», deganday kulimsirab qo'ydi. Bir nafaslik bu kulimsirash Jahongirning xotirasiga mixlanib qolgan ekan. Keyinroq pistirmaga duch kelishganda ham, nemis qamoqxonasiga tushganida ham, so'ng «Turkiston legioni» deb atalmish qo'shinga borganida ham bu istehzoli kulimsirashni tez-tez esladi.

Bir kuni kutilmaganda Sottini uchratib lol qolganida ham Tolibjon xuddi shunday kulimsiradi.

— Bolsheviklarga ham, fashistga ham xizmat qiladigan toifa ko'p. Bu raisingiz bitta bo'lsa ekan, ajablansangiz. Bizning boshimizga kimlar balo yog'dirdi. Shunaqalar-da. Eslaysizmi, Islomxon bir bayt aytgan edi: «Qaerda gul bo'lsa — unda asalari bor, qaerdaki foyda cho'g'i bo'lsa — unda yovuzlik alangasi bor». Kimning bayti edi?

- Yodimda yo'q, Bedilniki bo'lsa kerak.
- Kim bo'lsa ham to'g'ri aytgan. Biz ana shu yovuzlik alangasida qovrilyapmiz.

Turkiston qo'shiniga tushgan Sotti Jahongirni ko'riboq «Meni Xudo urdi», deb o'takasi yorildi. Lekin birato'la qo'rquv chodiriga burkanib olmadi. Uning hiylasini ko'rganda hatto shayton ham hayratdan yoqa ushlardi. Sottining birinchi hiylasi — Jahongirni ko'rishi bilan qo'rquvni yengib, orada hech nima bo'Imaganday uni quchoqlab oldi. Jahongir uning qo'llarini qayirib, itarib tashlab, so'ng kalla qo'yib og'zi-burnini qonatganda ham «Tavba qildim, Jahongirjon», deb elanib turaverdi. Unga qarab Jahongir Daminning gapini eslagan edi: «Bu haromini tug'ilganda cho'miltirishgan ekan, o'shanda tog'oradagi mag'zavani ilon ichib o'lgan ekan...» Bu — Damin to'qigan gap.

Kunlar, haftalar, oylar o'taverdi. Tolibjon «qachon jangga tashlashar ekan bizni», deb betoqatlanardi. Jahongir uning maqsadini bilib turardi. Jang bahonasida o'tib ketish, yurtga tig' ko'targan degan la'nat tamg'asidan qutulish — uning ham niyati edi.

«Hatto poda ham kech kirganda uyiga qaytadi. Biz-chi, biz podadan ham battarmizmi?» Tolibjon shunday degan kunning ertasiga Sotti bilan yoqa bo'g'ishib qoldi. Shunchaki mushtlashish bo'lib tuyulgan to'qnashuv to'pponchalarni g'ilofdan chiqarish, bir ma'sum va bir mal'un jonning so'nishi bilan tugadi...

Jahongir Tolibjonning qonini shimib olgan tuproqni qirib, ro'molchasiga tugdi. Nemislari bergan yolg'on hujjatga ko'ra «Og'ir yaralanib, iste'foga chiqqan askar» qiyofasida yurtiga josus sifatida qaytgach, Tolibjonning qishlog'iga bordi. Onasi hayot ekan, shu tuproqni ko'zlariga surtib, aza ochdi. Tuproqni o'z kafani — o'sha ro'molchaga o'rog'liq holda qabristonga eltdilar, janoza o'qidilar. «Partizanlikda shahid ketdi», degan shum xabar ona yuragidagi umidni o'ldirgani holda, og'ir toshni ham ko'chirdi. Jahongir yetkazgan xabar uni «Dushman onasi», degan la'nat toshidan qutqargan edi.

Jahongir qisqa muddat ichida mana shularni eslab, «Tolibjon begunoh banda edi, hamma hujjatlarni, xotiralarni titib chiqishsa ham uni ayblasha olmaydi», degan qarorga keldi. U Ramazonovning keyingi savoliga javob bermadi. Ko'zini yumib yotaverdi. Kapitan noo'rin tashrif buyurganini anglab, afsuslandi-da, o'rnidan turdi.

### 13. «XITOY DO'XTUR»

*Kapitan Ramziddin Ramazonov Jahongirning o'tmishini o'rganayotgan chog'da mayor Sanjar Solihovning Qirqbel qishlog'iga borgani, so'ng marhumning yaqinlari bilan uchrashgani haqida.*

Mayor Solihov depara ichki ishlar bo'limiga kirib, ajablanarli yangilik eshitdi: kapitan Jabborov jumhuriyat prokuraturasiga ishga o'tibdi. Begunoh odamlarni asossiz ayblab qamashdagi gunohlari uchun yaqindagina vazifasidan pastlatilgan odamning yana cho'qqi sari parvozi ajablanarli hol edi. Yig'layotgan go'dakni ovutish uchun shirinlik ko'rsatiladi, bola ovunishi bilan shirinlik joyiga qo'yiladi. Xuddi shunga o'xshab haqiqat qaror topyapti, deb jar solindi-yu, eski hammomga eski tos bilintirmay olib kirib qo'yilibdi. Barcha chirigan toslar joyiga qaytariladimi yo bittasi istisno bo'ldimi — bu Solihov uchun hozircha muammo. Jabborovning yana mas'ul vazifaga ko'tarilishidan tushundiki, ishlarida shakl biroz o'zgaradi, mazmun esa aslicha qolaveradi. «Odamlar bizga ishonishmas edi, bizni yomon ko'rishardi, — deb o'yladi Sanjar Solihov, — gunohkorlarga jazo berib, begunohlarni ozod qilib, endigina ishonch uyg'otayotgan edik. Endi yana la'nat toshlari ostida yasharkanmiz-da»... Istisno degani xatarli bo'ladi. Bir odam uchun istisno tariqasida ignadek teshik ochiladi. So'ng ikkinchi istisnoga hojat seziladi. Qarabsizki, ignadek teshik kattalashib, karvonsaroyning darvozasiga aylanadi — undan it ham, eshak ham o'taveradi. Jabborov uchun qilingan istisno kelajagini Solihov shunday tasavvur etdi.

U Qirqbelga yolg'iz o'zi yo'l oldi. Ilgarigi borishida Jabborov bilan noxush suhbat qurgani, yo'l loy bo'lgani uchun ko'nglida xiralik qolgan edi. Bu safar yo'l loy emas — hammayoq oppoq qor, yonida yoqimsiz odam ham yo'q. Havoning tozaligi, qorning g'irchillashi noxush yangilik tufayli ko'nglida uyg'ongan g'ashlik olovi taftini bir oz bosdi.

Burniga ko'zoynak qo'ndirib olgan Damin tanchada kitob o'qib o'tirardi. Xonaga pech o'rnatilmagan, oynagi singan deraza ko'ziga gazeta yopishtirib qo'yilgan. Damin o'rnidan turib, uni qarshilab, tanchada o'tirishga taklif qildi. So'ng o'txona yonidagi choynakni olib, choy quyib o'zatdi-da:

- Sherigingiz qani? — deb so'radi.
- Sherigim... — Solihov hozir eshitgan yangiligi bu odamni lovullatib yuborishini anglab, yolg'on gapirdi, — ishi chiqib qoldi.
- Olib kelmaganingiz yaxshi bo'libdi. Qarashi xunuk edi.
- Men oshnangizni so'raysiz desam, sherigimni surishtirib qoldingiz?
- Oshnamning ishi yaxshilik tomon yuz burganini kelishingizdan sezdim. Ishi yomon bo'lsa kelmas edingiz. Yana nimalarni so'ramoqchisiz mendan?

Solihov cho'ntagidan suratlarni chiqardi.

— Shularni taniysizmi? Diqqat bilan qarang: ularni yoshligida ko'rgan bo'lisingiz mumkin?

Damin suratlarga qayta-qayta razm solib, Murodillaning rasmini ajratdi.

— Tepabelda bir yigit bo'lardi. Chamamda Olamgir akaning ulfatlaridan edi. O'shangan o'xshaydi.

- Hozir qaerda u?
- O'sha paytda chetga o'tib ketgan.
- Biron belgisi bormidi?
- Qanaqa belgi?
- Masalan, chandig'imi, xolimi? Olamgir akani oqsar edi, devdingiz, esingizzami?
- Damin o'ylanib turib dedi:
  - Belgisini bilmayman... Olamgir akani topdilaringizmi?
  - Topdik. Daydidarada shu odamni o'ldirib ketishgan. Oshnangiz akasi ekanini yashirib, «Men o'lídirdim», deb turib olibdi. Shunisiga hayronmiz. Aka-uka orasida biron gap o'tganmidi?
- Damin ko'zoynagini qo'liga olib, deraza osha tashqariga qarab o'nga toldi.
- Jahongir akasi haqida yomon so'z aytmagan sira.
- Peshonasidagi yozuv-chi?
- «Alqasosu minal Haq»mi? Akasiga tegishli deb o'layapsizlarmi? Men buni xayolimga keltirmagan ekanman. Nohaq qamaganlarga atalgan gap, deb yurarkanman.
- Bizni bir narsa ajablantiryapti. Harholda aka-uka Daydidaraga bekorga borishmagan.
- Jahongir har kelganida Daydidaraga bir borardi. Qamalmasidan burun o'sha yerga uy qurib chiqaman, shu yerlarni bog' qilaman, derdi. Oxirgi qamoqdan chiqib kelib ham shunaqa degan. «Uyimizni kolxoz endi omborxona qilibdi, o'ligim ko'chada qolmasin. Menam ajdarqoyaning panohida yotay», devdi.
- Daydidara chetroqda-ku? Nima uchun aynan o'sha yerda uy qurmoqchi bo'lgan?
- Bir so'raganimda «bahavo joy», degan. Bahavolikka bahavo. Otasi rahmatli o'sha yerda sayl qilib, mehmon kutardilar. Jahongir uy quraman, deganida otasi tirik edi. Uy qurib chiqqanida, o'sha yerlar ham obod bo'lib ketarmidi...
- Daydidarada o'sha kuni biror kishi ovga chiqishi mumkinmidi?
- Be, u yerda nimani ovlaydi? Ov qiladigan odam bu yerdan uchta tog'ni oshib o'tishi kerak. Ilgari kaklik ovi bo'lib turardi. Endi u ham yo'q.
- Siz savolimga javob bermadingiz, biroz chalg'ib ketdik. Aka-uka nima uchun Daydidarada uchrashishgan? Bu uchrashuv tasodifiy bo'limgan. Jahongir Muhammadrizaev siz bilan xayrashish uchun atayin uyingizga kelgan.
- Ha, gapingiz to'g'ri. Ko'ngli g'ash edi, mening ko'nglim ham bir nimani sezuvdi. Savolningizga javob bera olmayman. Sababini Jahongirning o'zi aytishi mumkin. Lekin u o'jar odam, lozim topmasa aytmaydi. Otib yuborsangiz ham aytmaydi.
- Agar qotilni topmasak, otilishi mumkin.
- Nega endi otarkansiz? Bekordan bekorga-ya?!
- Qotil topilmasa...
- Nega topilmas ekan, topping!
- Qidiryapmiz. Siz achchiqlanmang. Bekor o'tirganimiz yo'q. Oshnangizni qo'yib yubordik. Hozir tobi yo'q, shifoxonada yotibdi.
- Unga nima bo'ldi?
- Yuragi charchagan shekilli, Xullas, biz unga xotini, o'g'lini topib berdik.
- Xadicha tirik ekanmi? Jahonning o'g'li yo'q edi-ku?
- O'g'li yo'lda tug'ilgan. Olamgir Xadichaga uylangan. Bolani katta qilgan...
- Yo, Parvardigor!... — Damin shunday deb yoqa ushladi. — Yo qudratingdan, o'zi biladimi shuni, ko'rdimi ularni?
- O'g'lini ko'rди. Xadichani orqasidan taloq qilganman, debdi.

— Ana, ko'rdingizmi? — Damin shunday deb xitob qilib, oyoqlarini tanchadan chiqardi-da, cho'kkalab o'tirib oldi. — Farosatiga qoyil qoldingizmi? Bitta gap bilan Xadichasini gunohlardan forig' qilib yuboribdi.

— Bir-ikki kunda shifoxonadan chiqadi. Turgan gapki o'g'lining oldiga bormaydi. Bu yerga ham kelmasa kerak. Balki...

— Gapingizni tushundim. Bugun-erta tushib boraman. Uch-to'rt kun uyida turaman. Keyin zo'r lab bo'lsa ham bu yerga olib chiqaman. Yo'q... yaxshisi Xadichasini o'ziga nikohlab qo'yish kerak.

Damining gaplari Solihovga ma'qul kelib, u bilan xayrashdi.

Shaharga oqshomda qaytdi. Idorasiga borishdan avval Jahongirning holidan xabar olish uchun shifo uyiga bordi. Navbatchi uni kutilmagan yangilik bilan qarshiladi:

— Bemorning o'g'li bir odam bilan keldi. O'zining aytishicha xitoylik tabib ekan. Bemor uni ko'rib tikilib qoldi. Keyin ahvoli o'zardi. Tabibni o'ziga yaqinlashtirmadi.

Solihov «Xitoylik tabib ekan», degan so'zni eshitib, sergak tortdi. Yonidagi suratlarni chiqarib, navbatchi tabibga berdi. U Murodillaning suratini ajratib, «shu kishi» dedi.

«Yo'Ichivoy uni nima uchun olib keldi? Maqsadi nima? Jahongir uni ko'rib, nima sababdan bezovtalandi?»

Mayor Solihov shu muammo bilan Jahongir yotgan xonaga kirdi.

— O'g'lingiz bilan kim keldi? — deb so'roqni boshladi.

Uning fikricha endi qat'iyoq harakat qilish vaqtি yetgan edi. Shu sababli gapni uzoqdan boshlab o'tirmadi. Mayorning maqsadini Jahongir ham tushundi. «Vaqt o'tgani sayin ularning asablari qaqshayveradi. Pichoq suyakka taqalibdi. Endi lutfu karam qilib o'tirishmaydi» — Jahongir shu to'xtamga kelib, javob berdi:

— Tabib emish.

— Uni tanimaysizmi?

— Yo'q.

— Damin oshnangiz tanir ekan.

— U aytaveradi.

— Akangizni ham tanigan edi. Akangizning oshnasi Murodillani ham tanidi.

— Damin tanigan bo'lsa tanigandir, men u odamni birinchi ko'rishim.

— Shundaymi? — Solihov unga savol nazari bilan tikildi. Jahongir bu qarashga dosh berolmay, yuzini burdi. Shunda mayor tavakkal qildi: — Siz uni oldin ham ko'rgansiz. Daydidarada, beshinchi oktyabrda...

Solihovning gapi og'zida qoldi.

— Yo'q.

Jahongir jon holatda shunday deb, titroq qo'llari bilan yuzini changalladi.

— Yo'q, — dedi yana xirildoq ovozda.

— Uchinchi odam kim edi? — deb so'radi mayor uning ahvoliga parvo qilmay.

— Bilmayman.

— Siz uni ko'rgansiz, aytинг!

— Ko'rmaganman.

— Akangizni nima uchun o'ldirgan?

— Bilmayman...

— Qasdi bo'lsa, endi navbat oilasiga yetsa-chi?

— A? — Jahongir mayorga baqrayib qarab qoldi. U shunday bo'llishi mumkinligini o'ylab ko'rmagan edi. «Bu qanaqasi?! Yetdim deganimda yiqilamanmi, ulardan ajraymanmi?» Shu fikrning o'ziyoq badanini muzlatib yubordi.

— Nachaynik, meni bu yerdan chiqaring, — dedi u g'o'l dirab. — Uni o'zim topaman... o'zim o'l diraman...

- Yo'q, azizim, uni o'ldirmaysiz, kimligini bizga aytasiz.
- Kimligini bilmayman... orqasidan ko'rib qoldim.
- Murodillamidi?
- O'shangan o'xshatdim.
- Akangiz bilan Daydidarada uchrashishingizdan u xabardormidi?
- Bilmayman.
- Siz hech kimga aytmaganmidingiz?
- Yo'q.
- Nima uchun Daydidarada uchrashmoqchi edinglar?
- Yigirma ikkinchi yilda yechimsiz qolgan gapimiz bor edi. Qanaqa gap, deb so'ramang, sizga dahli yo'q.
- Harholda Daydidaraning tanlanishi qiziq menga.
- Daydidara — tabarruk joy, — Jahongir shunday deb picha sukut saqladi. — Avvallari qishloq oqsoqollari o'sha yerda kengashib yechimga kelmagan masalalarni yechib berishar ekan. Olamni shakkok bosib, u yerning tabarrukligini ham unutishdi. Daydidaraga Ollohning nazari tushgan. Haqiqat yechimi faqat o'sha yerda.

Solihovga bu izoh erish tuyuldi. «Tabarruk» degan tushuncha bilan gapni aylantiryapti, deb o'yladi. Jahongirning titrog'i biroz bosilib, xayolga cho'mganini ko'rib savolni bas qildi.

— Erta-indin Damin oshnangiz kelmoqchi. Bu yerning tabiblari ruxsat berishsa, uyingizga borasiz. Ammo... Mening ruxsatimsiz bir qadam ham bosmaysiz, boshqaga bir og'iz gapirmaysiz. Ayniqsa oshnangizga.

Solihov shunday deb chiqib ketdi. Xitoy do'xturing tashrifi, Jahongirdagi o'zgarishdan, uning gaplaridan dastlab lol qoldi. Endi biroz fursat o'tib esa, tugunlar yechimini ko'rganday bo'ldi. Chigal ishlar zimiston ko'chalarga boshlab gangitgan choqda milt etgan chiroq ham odamning ko'ziga olamni yoritguchi quyoshday ko'rindi. Murodilladan shubha qilmoq uchun Solihovda hali yetarli asos bo'lmasa-da, ayrim narsalarni sinab ko'rishni lozim topdi. Shu maqsadda bosh tabib xonasiga qaytdi.

— Muhammadrizaevning o'g'li «Otamning dardiga davo bersin», deb xitoylik tabibni boshlab kelgan. U odam qanday shifo berishi mumkin? — deb so'radi u.

— Ularning eng ko'p qo'llaydigan usullari — igna bilan davolash. Badanda asab hujayralarining ma'lum nuqtalari mavjud. Xitoylik tabiblar nihoyatda ingichka tilla ignalarini shunday nuqtalarga sanchishadi. Shu davo usuli bilan turli og'riqlar to'xtaydi, qon bosimi mo'tadillashadi. Xullas, xitoy tabobati bu sohada ko'p mo'jizaga ega. Afsuski, biz buni yaxshi bilmaymiz. Aniqrog'i, rad etib kelamiz.

- O'sha igna bilan odamga salbiy ta'sir ham qilish mumkinmi?
- Qanaqa salbiy ta'sir?
- Masalan... — Solihov o'yladi. — Masalan... odamni behush qilish yoki aqdan ozdirish...

- Mumkin. Gap o'sha nuqtani topishda.
- Tabib shunday harakat qilsa, chetdan turib bila olasizmi?
- Yo'q, men bila olmayman.
- Mutaxassis-chi?
- Uning ko'zini ham shamg'alat qilish mumkin.

«Agar uchinchi odam xitoy do'xtur bo'lsa, u Jahongirni yo'q qilish niyatida shu yerga kelmadimi, ignalari bilan uni yo'qotishga urinmadimi? Yo Muhammadrizaevning tuzalib chiqishini kutadimi?»

Solihov shu savollarga javob topish uchun sukutga berildi. «Uchinchi odam uchun Muhammadrizaev xavfli bo'lib qoldi. Muhammadrizaev uni ko'rgan. Demak, uchinchi

odam ham uni ko'rib qolgan. U Muhammadrizaevning qotillikni bo'yniga olganini ham eshitgan, ochqlikka chiqqanini ham bilgan. Hozir oyog'i kuygan tovuqday pitirlayapti. Xitoy do'xtur yana kelib ko'rarmikin? Muhammadrizaev uyiga borsa-chi?»

— Bemorning ahvoli qalay, uni uyiga jo'natish mumkinmi? — deb so'radi Solihov aniq qarorga kelib.

- Yana picha davolanishi kerak.
- Uyida yotib davolansa-chi?
- Agar zarur desangiz... iloj qancha?
- Biz sichqon qopqonga qachon tusharkin, deb poylay olmaymiz.
- Tushunarli. Uyiga borib xabar olib turamiz.

Solihov bosh tabibga minnatdorchilik bildirib, xayrlashdi. Idorasiga borib, to'g'ri Amazonovning xonasiga kirdi. Kapitan bir dasta hujjatlarni stol ustiga yoyib olib, bosh qotirib o'tirardi. Solihovni ko'rib, o'rnidan turdi.

— Katta yo'qladilar, — dedi u. — Yangilikni eshitgandirsiz?  
— Jabborovnimi? Eshitdim. Bizga osilmasa edi, deb turibman. Bir-ikki og'ir gap aytgan edim, bunaqa odamlar kekchi bo'lishadi.

— Osilishni boshlabdi. Muhammadrizaevni ozod etganimiz uchun tanbeh beribdi. Qamoqqa olishni buyuribdi.

— Shu yermay turuvdi, — Solihov shunday deb shoshilib chiqdi. Avval viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'iga, so'ng viloyat prokuroriga vaziyatni tushuntirgach, Jabborovning buyrug'i bekor qilindi. Solihov biroz yengil tortib chiqayotganida prokur uni to'xtatdi:

- Qirqbelta bir odam jamiyatni haqoratlaganda siz javob bermabsiz?

Solihov g'ijinib, bo'lgan voqeani qisqacha bayon qildi.

— Siz tajribali odamsiz. Bunaqa sharoitda o'zingizni qo'lga olishingiz shart. Yoningizda kim borligini ham unutmasligingiz kerak. Bu masalaga keyinroq yana qaytamiz.

Solihov prokuroring xonasidan asabiylashib chiqdi. Jabborovning yana yuqori martabaga qaytishi, g'alamisligini beto'xtov boshlashi uni umidsizlik jari sari yetaklagan edi. Ishga bunday bemavrid aralashishlar ilgari ham tez-tez uchrar edi. Qotil qo'lga olinay deganda ish to'xtatilsin, degan buyruq boshlariga gurziday urilib, tovonlariga qadar zirillatib yuborardi. Yoki, aksincha, shubha ostidagi odamning beaybligi isbotlanay deganda, ishni sudga oshirishga majbur etishar edi. Shunday onlarda o'zlarini haqiqat uchun kurashuvchi degan solihovlar temir qafasda na'ra tortayotgan yo'lbars holiga tushar edilar. Choralari yo'q edi unda. Endi yaxshi kunlar yuz ochib, yaxshilar qafas qulfiga kalit solgan edilar, qafasni ochamiz,adolatni erkin qush kabi moviy osmonga uchiramiz, deb edilar... Kalit qulfga solindi-yu, buralmad... adolat qushi ham, haqiqat yo'lbarси ham tang ahvolda qolaverdi.

Solihov idoraga qaytganida kapitan Amazonov uni betoqatlanib kutar edi.

— Siz hozir uyingizga borib, damingizni oling. Ertalab Tepabelga jo'naysiz. Rahmatullaevni bilgan odamlarni topib, gaplashasiz. Keyin Qirqbelga o'tib, Damin Eralievni boshlab kelasiz. Muhammadrizaevni ertaga uyiga qaytaramiz. Endi bu yog'iga mushuk-sichqon o'yini boshlanadi. Biz sichqon deb o'ylayotganimiz tulki bo'lib chiqishi ham mumkin. ertaga ertalabdan Muhammadrizaev uyi doimiy nazoratga olinishi kerak. Aslida ilgariroq nazorat qilishimiz lozim edi.

Solihov gap tamom, deganday stol ustiga kafti bilan urib qo'ydi.

- Asosiy gumon marhumning yaqinlariga qaratiladimi?
- Sizda boshqa fikr bormi?
- Muhammadrizaevning yaqinlari-chi? Turkiston legionida orttirgan do'stlarini bilmaymiz-ku?

— Hozir siz bilan ikki qirg'oqqa o'tirib olib bahslashishga fursat yo'q. Tavakkal qilamiz: qotil kimning yaqini bo'lishidan qat'i nazar Muhammadrizaevni o'ldirishga harakat qiladi. Uning boshqa chorasi yo'q.

— Muhammadrizaevni qurban qilib, og'zimizni ohib qolmaymizmi?

Solihov okapitanni chuqur mulohaza yuritgani uchun yaxshi ko'rardi. Mulohaza degani haddan ziyod chuqurlashib ketsa ham bo'lmas ekan — Solihov qo'pol tarzda javob qaytarganini o'zi ham sezmay qoldi:

— Og'iz ohib, chapak chalib qolmaslik uchun kamroq gapirib, ko'proq o'ylash kerak.

Kapitanga bu gap g'oyat malol keldi. «Men bilan bunday muomala qilmang», demoqchi bo'ldi-yu, gap chuvalashib ketishi mumkinligini fahmlab tilini tiydi. Osoyishtalikning yagona yo'li ham shu — bir tomon jirillaganida ikkinchi tomon og'irlilikni bo'yniga olmog'i darkor.

Solihov marhumning uyiga hozir borsammi yo tong sahardami, deb ikkilandi. Oxiri, kech bo'lsa ham hozir borish shart, degan qarorga kelib, o'rnidan turdi. Ko'chaga chiqib «kazbeg»ini tutatayotgan Ramazonovni ko'rди-da, unga yaqinlashdi.

— Bizning ishimizda shunaqa nohaqliklar ham bo'lib turadi, mendan ranjimang, — deb xayrashdi-da, eski shahar tomon yurdi.

Darvozaning taqillashidan cho'chib uyg'ongan Yo'Ichivoy Solihovning ovozini eshitib, ham ajablandi, ham xavotirlandi. Mayor darvozaxonaga o'tib, ichkari kirishga unamadi.

— Bemahalda bezovta qilishimning sababi bor. Ish tezlashib ketdi, — dedi u uzrli ohangda. — Masalani tez yechmasak, otangiz qora kursiga o'tiradi. Siz bugun Murodilla Rahmatullaevni shifoxonaga boshlab boribsiz. Uni siz taklif qildingizmi yo o'zi borib ko'rishni ixtiyor qildimi? Har bir gapni yaxshilab eslab, aniq javob bering.

Nogahoni tashrifdan va mayorning gapidan gangigan Yo'Ichivoy o'ychanlik bilan gap boshladi:

— Ayam betoblar. Murodilla amakim ertalab xabar olgani chiquvdilar. Dadamni yo'qlaganimni aytdim.

— U odamning yangilikdan xabari bormi?

— Ha.

— Qachon xabar topgan?

— Ayam betoblangan kuni... Siz Safarqul akani boshlab kelgandingiz.

— Muhammadrizaevning qotillikni bo'yniga olayotganini bilarmidi?

— Bilardilar.

— Aybi isbotlanmay, ochiqlikka chiqqanini bilganidan keyin nima dedi?

— Siz Murodilla amakimdan gumonsirayapsizmi?

— Savol bermay, javob qaytaring. Nima ish qilishni biz o'zimiz yaxshi bilamiz. Demak, nima dedi?

Yo'Ichivoy o'ylanib, yelka qisdi.

— «Otang xasta bo'lsa, borib ko'rib qo'yaymi», dedilar, xolos. Xo'p, dedim, olib bordim.

— Siz bu odamni necha yildan beri taniysiz?

— Esimni taniganimdan beri.

— Bugun otangizga yaqinlashmabdilar, eshitdim. Ertaga yana olib borish kerak.

— Nimaga?

— Shunday qilish kerak. Mening kelganimni, ayniqsa, taklifimni bildirmang. Otangizning sihatidan bezovta ekaningizni aytинг. Keyin... gap orasida «Otam qotilni ko'rib qolgan ekanlar», deng.

— Rostdanam Murodilla amakimdan shubhalanyapsizmi?

— Ishimiz shunaqa — haqiqatga shubhalar orqali boramiz. Rahmatullaev onangizga igna sanchadimi?

— Yo'q, ayollarga yangam qo'yadilar.

— Harholda... ish bir yoqlik bo'Imaguncha qo'ydirmay turinglar. Siz vahimaga tushmang. Lekin e'tiborsiz ham bo'lmang. Endi men onangiz bilan ham gaplashib olishim kerak.

Yo'Ichivoy «Yo'q, deb chiqarib yuboraymi», degan xayolda turganida Solihov uning yelkasiga qo'lini qo'ydi.

— Gaplashib olishim muhim. Endi maqsad faqat qotilni topish emas. Endi otangiz bilan onangizning hayotlari ham qil ustida bo'ladi. Boshqa qurbonga yo'l bermaslik uchun aniq va tez harakat qilishimiz shart...

— Yuring, — Yo'Ichivoy shunday deb uni mehmonxonaga boshladi. Chiroqni yoqib Solihovni ichkari taklif etdi-da, o'zi onasi yotgan xonaga kirdi.

Mehmonxona orasta: o'rtada xontaxta, atrofga gulli ko'rpačhalar to'shalgan. Xontaxta ustidagi ne'matlar ustiga dasturxon yopib qo'yilgan. Solihov ko'rpačhaning bir chetiga o'tirdi. Boshiga uzun ro'mol tashlab, yuzini to'sgan Xadicha ichkari kirib salomlashdi.

— Yanga, gaplarimdan cho'chimay, faqat to'g'ri javob bering. O'tmis ayblaridan qo'rwmang. Endi Jahongir Muhammadrizaevning taqdirini o'ylashimiz kerak. Uni biz qo'yib yuborganimiz bilan qotil tinch qo'ymas. Muhammadrizaev qotil emas, u asosiy guvoh, jinoyatchilar guvohlardan qutulishga harakat qilishadi.

— Voy sho'rim, — dedi Xadicha. Solihovning bu gapidan so'ng, uning nazarida, badbashara bir maxluq Jahongirning jonini sug'urishga shaylangan edi.

— Murodilla Rahmatullaev yigirma ikkinchi yilda sizlar bilan birga ketgan, asli Tepabeldan bo'lgan, to'g'rimi?

Xadicha darrov javob bermadi. O'g'liga qarab oldi. Keyin past ovozda «to'g'ri», deb qo'ydi.

— Ketish manzarasini eslang. Siz kim bilan yo'lga chiqdingiz?

— Dadasi bilan.

— Qaysi dadasi?

Xadicha nima deb javob berishni bilmay taraddudlandi.

— Olamgir Muhammadrizaev bilanmi?

— Ha... Aka-uka masjidga chiqib ketishgan edi. Opam... ovsinim kirdilar. Tez tayyorlaning, ketmasak mol-mulkimiz ham, o'zimiz ham o'rtada bo'lar ekanmiz, dedilar. Bir sidra kiyim oldik. Keyin dadasi keldilar... Dadasi bir yumush bilan boshqa yoqqa ketgan ekanlar.

— Jahongir Muhammadrizaevmi?

— Ha, shu kishi... Izimizdan yetib boradilar, deyishdi. Yetib kelmadilar. Shumxabar yetkazdilar.

— Kim yetkazdi?

— Shu... Murodilla aka.

— Rahmatullaev sizlarga keyin yetib keldimi?

— Ha, uch kishi edi ular. Yo'lda aza ochdik... Tirik ekanlarini ko'nglim sezardi. Ammo choram yo'q edi-da...

— Olamgir Muhammadrizaev bilan bu haqda keyin hech gaplashmaganmisiz?

— Yo'q.

— Rahmatullaev uchinchi yo to'rtinchi oktyabrda bu yerga kelmaganmi?

— Kelganlar.

— Nimalarni gaplashishgan?

— Bilmasam... gap poylash odatim yo'q.

— Gaplarida, qarashlarida o'zgarish sezmaganmisiz?

Xadicha javob bermadi. Hamisha chaqchaqlashib o'tiruvchi ikki oshnaning past ovozda gaplashayotganidan ajablangan edi. Xadicha shum xabar yetkazgani uchun Murodillani yomon ko'rib qolgan edi. Qashqarda yashab yurganlarida bir kuni jur'at qilib eriga: «Shu oshnangiz kamroq kelsa edi, qarashi sovuq», degan, bunga javoban Olamgir achchiqlanib: «Musofirlikda qishlog'imning iti bo'lsa ham og'a-ini tutinaman», deb edi. Olamgir bu oshnasidan cho'chirmidi yo behad hurmat qilarmidi, Xadicha shularni xayoliga keltirdi-yu, biroq «begunoh odamni yomonotliq qilib qo'ymayin», degan istiholaga borib, tiliga chiqarmadi.

## 14. OQIBAT

*Jahongir shifoxonadan chiqqanidan keyin yuz beradigan voqealar.*

Mayor Solihov ketgach, Jahongir o'rnida yota olmadi. Turib, deraza oldiga bordi. Simyog'ochdag'i chiroq yoqib qo'yilgan, atrofga hali qorong'ulik cho'kmagani uchun chiroq o'lar holda lipillab turganday ko'rindi. Qor uchqunlari ham jonsiz — qo'nim topmay shamol hukmida uchib yuradilar. Shifoxona hovlisi kimsasiz. Yo'qlovchilar ketib bo'lishgan. Hamshiralalar kechki muolajani hali boshlashmagan.

Jahongir ko'zi hovlida bo'lsa-da, bularni ko'rmaydi, sezmaydi. Mayor uning ko'zi oldida go'yo o'q o'tmas qalin parda osib ketganday. Jahongir shu parda ortida nima borligini, kim turganini ko'rmoq istaydi. Mayor uning birdaniga bo'sh kelganidan quvondi. U «Qasdi bo'lsa, endi oilasiga navbat yetsa-chi?» degan gapim ta'sir qildi, deb o'yladi. Ha, to'g'ri, bu gapdan Jahongir seskandi. Lekin mayor uning yuragida shundan so'ng bir fitna uyg'onganidan bexabar edi.

... Jahongir akasining murdasini ko'riboq «Qasos Haqdan bo'libdi», deb o'yladi. U qochib borayotgan odamni uzoqdan ko'rди, taniganday ham bo'ldi. Shunga qaramay, qotillikni bo'yniga olishiga uch sabab bor edi: birinchisi — asar davomida qayta-qayta eslaganimiz — bu ishni men amalga oshirishim lozim edi, degan qat'iy o'y; ikkinchisi — baribir menga ishonishmaydi, degan fikr; uchinchisi esa — bu hayotdan batamom to'ydym, degang ishonch edi. Butun ilinji — qasos unga ravo ko'rilmagach, endi yashashning hojati yo'q, degan qarorga kelgandi.

Kunlar o'tib, voqealar o'zgarib, o'g'lini ko'rgach, o'zi sezmagan holda gunohlariga tavba qila boshladi: yashashni istab qoldi. Shu istak uni fitnaga tortdi. U ozodlik shabadasini his etgach, akasining qotilini o'ldirish bilan murodiga yetmoqchi bo'ldi. Qamoqda yotganida ham bu xohish bosh ko'tarib qolar, biroq, toshdevorlar, temir panjaralar bu xohishni birpasda bo'g'ib tashlar edilar. Endi toshdevor yo'q, temir panjara yo'q, fitnani amalga oshirish yo'lidagi to'siqlar olib tashlandi. Endi hamma gap rejani to'g'ri, binoyi tuzishda. Reja degani ham suyuq ayloga o'xshagan bevafo bo'ladi. Jahongir o'ttiz uch yil badalida akasi bilan uchrashuv rejalarining ming bir xilini tuzdi. Oqibat nima bo'ldi: bironta rejasi ham vafo qilmadi. So'nggi uchrashuvga, Ollohnning nazari ostida gunohlardan poklanib olishga akasining bir mal'unni boshlab kelishi mumkinligini hisobga olib edimi? Yo'q. Daminnikiga kirmay, uning tanchasini ochmay, to'g'ri Daydidaraga kelganida bu mashmashalar yo'q edi.

Chinor tomon ko'tarilayotganda o'sha tomondan o'q ovozi eshitilgach, Jahongir xavotirlanib, qadamini tezlatgan, toyib ketib, yonboshiga yiqilgan edi. Hozir, shifoxona derazasi yonida turganida ham qulog'i ostida o'q otilganday bo'ldi. Seskanib, atrofiga

alangladi, quloq tutdi. Atrof sokin. Qamoqda yotgan paytida ham ikki-uch bor xuddi shunday o'q ovozini eshitganday bo'lgan edi. O'shanda ham qonga belanib yotgan akasi, atrofga alanglab qochib borayotgan qotil ko'z oldiga kelgandi. O'shanda ham o'ylab o'yiga yetmagan edi: Daydidarada faqat aka-uka uchrashishlari lozim edi. O'ttiz uch yil muqaddam Xudo bittagina bargni uzmay, bu boshlarini shuncha kulfatlarga duchor etdi. Endi barg uzelishi, so'nggi o'q otilishi shart edi. Akasi buni bilardi. Bila turib nima sababdan oshnasini boshlab keldi — o'zini himoya etish uchunmi yo Jahongirni o'ldirish uchunmi? Akasi o'shanda ham qo'rqqan edi. Qarigan chog'ida ham o'limdan shunchalik qo'rqedimi ekan? Boshlab kelgan odami nima sababdan uning o'zini o'ldirdi?

Jahongir bu savollarga javob topishga ojiz edi. Bu dunyoda boylik bo'lgani uchun ham yolg'on, tilyog'lamatlik, yovuzlik borligini bilmasmidi? Bilardi. Faqat yovuzlik chegarasini belgilashga qodir emasdi. Otasini o'ldirgan bu yovuzlik akasiga ham chang solganini hali bilmas edi. Jahongir akasining bir kun avval ukasi bilan orani ochiq qilmoq uchun Daydidaraga borajagini oshnasiga aytganidan xabarsiz edi. Olamgir esa o'sha kech o'ya tolib o'tirgan oshnasining ko'nglida kechayotgan gaplarni bilmasdi. Oshnasi ertaga bo'lajak aka-uka mojarosini emas, oqibatda topilishi mumkin bo'lgan tillalarni o'ylardi. U o'ttiz yildan ziyod vaqt mobaynida bu oqsoq bilan bekorga oshna bo'lib yuribdimi? U yigirmanchi yilda, Zafarbek bilan tog' kezgan chog'larida bekning tilla to'la xurjunini ko'rgan, lekin bu xurjunning qayga yashirilganini payqamay qolgan edi. Zafarbek qizillar pistirmasiga duch kelib, shahid ketdi. O'shanda xurjun yo'q edi. Bek Muhammadrizonikida tunab, yo'lga chiqqan edi. Demak, xurjun shu atrofda qolgan. U Olamgirni xorijga o'tishga undaganida shu xurjun topilishidan umidvor edi. Olamgirning boyligi bor edi, biroq, bu boylik uning mo'ljaliga mos emasdi. Jahongirning bu tomonlarda qolib ketishidan «xurjun shunda», degan xulosada yurardi. Zafarbekning xurjuni haqidagi uning tusmoli bir jihatdan to'g'ri edi. Chindan ham bek xurjunni Muhammadrizoga qoldirgan, bir ulush tillani xizmat haqi sifatida unga bergen edi. Ota esa ulushini bolalariga bo'lib berib, xurjunni Jahongirga ishongan edi.

Kunduzi osmon bag'riga ming-ming yulduzlarni yashirgani kabi, odam ham bag'riga behisob sirlarni yashiradi. Beshinchi oktyabrda Daydidara sari yo'lga otlangan uch odamning bir-birlariga ayon bo'limgan sirlari, maqsadlari bor edi. Ulardan biri bu sirlarini, maqsadlarini go'riga olib ketdi. Bittasi o'lja payida mushukday astoydil payt poyleyapti. Uchinchisi shifoxona derazasi yonida muammolar panjasidan chiqolmay turibdi. Tirik qolgan ikki odam reja tuzadi. Rejadan maqsad bir — o'ldirish. Biri o'limdan qo'rqb o'ldirish rejasini tuzadi, ikkinchisi qasos g'amida, gunohdan forig' bo'lish umidida.

Jahongir Murodilla akasining ko'chasida qo'qqis duch kelgan edi. Avvaliga ikkovi ham bir-birini tanimadi. Besh-o'n qadam yurib, xuddi kelishib olganday baravar orqaga qarashdi-yu, ko'zlar to'qnashdi.

«Tirik ekan-da?» — ikkovining xayolidan shu gap o'tdi.

Ikkovi ham iziga qaytib bir-biriga ro'baro' bo'ldi. Birinchi bo'lib Murodilla salom berdi. Orada o'ttiz uch yillik hijron emas, o'ttiz uch yillik gumon bor edi. Shu bois quchoqlashib so'rashmadilar. Sovuqqina salomlashdilar. «Uy yonsa suv o'chiradi, vaqt yonsa ne o'chiradi», deganlaridek, orada vaqt yonib bitgan edi. Jahongir jilmayishga urinayotgan ko'zlarda hadik ko'rdi.

— Jahongirjon, inim, Xudoga shukr, tirik ekansiz. Endi Xudo xohlasa yopiqlik qozon yopiqligicha qolaversin. Biz musofirlikda jazomizni tortdik...

Jahongir indamadi. Murodilla yopiqlik qozon deb, nimani nazarda tutganini anglamadi. Murodilla qishloq faollarini otganim, so'ng o't qo'yganimdan Jahongir xabardor, deb yanglishgan edi. Jahongir «Faollarni boshqa qishloqlik yigitlar otgan», degan gapni eshitgan, biroq u yigitlarning kimligini hanuz bilmas edi. Murodillaning gapidan so'ng

«o'shalardan biri shu emasmi?» degan shubha uyg'ondi. Hozir deraza yonida turgan paytida o'sha shubhani esladi.

Mayor Solihov Yo'Ichivoyning xonadonida haqiqatni oydinlashtirish maqsadida so'roq so'rayotganida Jahongir oham o'ziga kerakli haqiqat yuzini ochish uchun o'zini o'zi so'roqqa tutar edi.

Daydidara voqeasiga aloqador odamlar uchun bu kecha behalovat kechdi.

Ertasiga Yo'Ichivoy «Otam sizni boshqa birovga o'xshatibdilar, men kimligingizni aytdim», deb izoh berib Murodillani yana shifoxonaga boshlab keldi. Murodilla yigitning bu gapiga unchalik ishonmadi. «Jahongir meni yaxshi taniydi, boshqa odamga o'xshatishi mumkin emas. Yo'Ichivoy meni laqillatmoqchimi yo u chindan ham meni yo'qlaganmi?» degan ikkilanish bilan yo'lga chiqdi. U fitnadan bexabar, ko'nglida hali gumon uyg'onmagan edi. U dahlizga kiraverishda, ostonaga nima uchun ho'l latta tashlanganu ostonaning u tomoniga qalin qog'oz to'shalganiga e'tibor bermadi. Jahongir yotgan xonaga kirkach, oyog'i iz qolgan qalin qog'oz darrov olinganini ham bilmadi. Jahongirning tomirini ushlab, yurakning bejo tepayotganini aytib shifoxona bosh tabibining tashxisini isbotladi. «Agar ijozat bersangiz, igna bilan davolayman», deb taklif qildi.

— Biz bugun bemorga ruxsat beramiz. Uylarida davolay qoling. Bu yerda ishlasangiz, bizga gap tegadi, — dedi bosh tabib.

Bu taklif Murodilla uchun muddaoning o'zi edi. Dahlizga qaytib chiqishgach, u bosh tabibni chetga tortib:

— Ahvoli unchalik umidbaxsh emas, lekin urinib ko'raman, — dedi.

Murodilla ketgach, bosh tabib xonasiga qaytib, Solihovga u aytgan gapni ma'lum qildi.

— Ehtiyyot bo'linglar, bemor u aytganchalik og'ir kasal emas. Uning ogohlantirishida bir sir borga o'xshaydi, — dedi.

— Buni bilamiz, rahmat sizga, — dedi Solihov. — Bemorga ruxsat bering.

Solihov aytganiday, Jahongirga oqshomda ruxsat tegdi.

Kecha qor uchqunlarini o'ynab yurgan shamol tingan, havo ochiq, joyimni bo'shatmayman, deb o'jarlik qilayotgan kuz bilan «Boshqa ilojing yo'q, hademay qor bo'ronlarim bilan bostirib boraman», deb po'pisa qilayotgan qish o'rtaida osoyishta muzokara boshlangan edi.

Bir necha kun qamoqda zax, sassiq aralash havoda, so'ng shifoxonada dori isini hidlay-hidlay o'pkasi kirlangan Jahongir ko'chaga chiqdi-yu, chuqur-chuqur nafas oldi. May lazzatini mast bilur, hushyorlarga mundan nima bahra bor, deganlaridek, ozodlikda bir martagina bo'lsin chuqur nafas olish lazzatini Jahongirdan so'rash kerak. Ayniqsa, endi ozodlikdan bebahraman deb, o'limni bo'yniga olib qamoqqa kirgan odam uchun toza havodan nafas olish onadan qayta tug'ilganday gap edi.

Uning shoshiladigan yeri yo'q edi. Eski shahar dehqon bozori biqinidagi hammomga kirib, rohatlandi. Undan choyxonaga o'tib, choy ichdi. Nazarida Xudo uni «so'nggi marta erkinlik nash'asidan, hammom, choyxona degan mo'jizalardan bahra ol, so'ng joningni achinmay topshirasan», degan shart bilan qamoqdan chiqargan edi.

Jahongir yo'lda ketayotganida, ayniqsa hammomga kirayotganida izidan odam tushganiga ishonch hosil qildi. Hozir ham eshik yonidagi so'ridan joy olgan ikki yigitning ko'zlari bejo edi. «Nomiga ozod etishgan. Menden tuzoqqa qo'yiladigan yolg'on xo'rak o'rnida foydalanishmoqchi. Men ularga tutib beramanmi? Yo'-o'q, yanglishasiz taqsirlarim. O'zim pishirgan oshni o'zim ichaman...» — Jahongir shunday fikrga kelib choyxonadan chiqdi.

Uyiga borib, Daminni ko'rди-yu, «mayorning gapi chin ekan-da», deb o'yladi.

— Senam milisaga yollanganmisan? — dedi oshnasi bilan salomlashgach.

— Qamoqdan chiqdingmi yo garmdori ustiga ag'anab kelyapsanmi, buncha tiling zahar? — dedi Damin ko'ngli ozor chekib.

— Orqamdan odam qo'yishgan. Seni bekorga chaqirishmagandir?

— Chaqirishdigina emas, olib kelishdi.

— Ha, ana, hatto olib kelishibdi. Senga qanday topshiriq berishdi?

— Oshnangiz betob, uch-to'rt kun hamroz bo'lib, so'ng qishlog'ingizga olib keting, deyishdi. Ishonsang, ishonmasang, bor gap — shu.

— Akamni tanibsan, Murodillani tanibsan — yaxshi. Endi meni poylaysan. Qochib ketsam, borib aytasan. Murodilla o'ldirmoqchi bo'lsa, ko'ksingni qalqon qilasan. Sening vazifang shu, bilib ol.

— Yana bitta chirigan gap aytsang, jiyda-xaltamni ko'tarib ketvoraman. Men jonim achib, sog'inib kelsam, bu qopadi-ya!

Jahongir sal oshirvorganini fahmlab, «Bu bechorada nima ayb», deb uni quchoqladi. Yuzini yuziga qo'ydi.

— Men dardimni sendan boshqa kimga aytaman, — dedi shivirlab.

Damin uyni yig'ishtirib, primusni yoqib, qozonga bir bo'lak go'sht tashlab, qaynatib qo'yishga ulgurgan edi. Xontaxtaga dasturxon yozib, o'zi olib kelgan qand-qurs, ikkita yumshoq non, choynakda choy qo'yan, uy mehmon kutayotgan bir fayzga ega bo'lgan edi. Buni ko'rib Jahongirning tomog'iga yig'i bostirib keldi: ko'pdan beri uni hech kim bir burda nonni ilinib kutmagan edi.

Jahongir uzatilgan bir piyola choyni ichib, o'rnidan turdi-da qoziqdan joynamozni oldi.

U ibodat qilardi. Damin esa unga qarab o'tirib xayolga tolgan edi. «Jahon, qanday yigit edi-ya! Tog'ni urib talqon qilarli kuchi bor edi. Birovga so'zini bermasdi. Endi-chi? Mo'min bir odamga aylanibdi. Bu qamoqlar, xo'rliklar uni sindiribdi. Uzoq vaqt qullikda o'tgan odam qo'lidagi kishanga muhabbat qo'yadi, deyishadi. To'g'ri shekilli».

Do'stiga tikilib, xayolga botgan Damin yanglish xulosa chiqargan edi. To'g'ri, Jahongirning avvalgi jumardligi endi yo'q. To'g'ri, Jahongir hayot, borliq deb ataluvchi ko'rinas devorga ko'p marta boshi urilib azob chekdi. To'g'ri, u ibodatni kanda qilmaydi. Lekin bu — yuragidagi po'rtana ko'lmakka aylandi, degan gap emas. Hayot uni kalaka qilgani, ezib-yanchgani holda, bu po'rtanani vaqtida jilovlashni ham o'rgatdi. U ilgari ham toat-ibodatni kanda qilmas edi. Ammo Zokirxo'ja bilan suhbatlar qurgach, uning taqdirini ko'rgach, bu jafolardan qutqaruvchi faqat Xudo deb, butun borlig'ini unga hadya etdi. «Bu dunyoda biz muhabbat qo'yan narsalar aldamchi, bizni tashlab ketadi. Faqat Yaratganga bo'lgan muhabbatgina haqiqatdir» — Zokirxo'ja aytgan bu aqida uning qoniga, joniga singdi. «Shu muhabbatim evaziga Xudo meni niyatimga yetkazdi», deb qattiq ishondi. Hatto akasi boshqa odam qo'lidan qazo topganida ham bu muhabbatdan kechmadi. Hozir Yaratganga yana yuzlanib, maqsadini bayon qilyapti, undan madad so'rayapti...

Namozdan so'ng ham Jahongir uzoq vaqt harakatsiz o'tirdi. U xayolan fano joddasi orqali baqo dashtiga o'tgan, erkin ruhlarga bandi bo'lgan edi. Damin unga xalal bermaslik uchun jim o'tirdi. Oxiri toqati toq bo'lib, yengil yo'taldi. Shu yengil yo'tal Jahongirni mavjudlik dunyosiga qaytardi — duo o'qib, yuziga fotiha tortib, o'rnidan turdi.

Qaynatma sho'rvani ichib bo'lishgach, Jahongir oshnasidan savol kutdi. Daydidaradagi fojiani, qamoqdagi gaplarni so'rар, deb o'yladi. Lekin Damin bu haqda og'iz ochmadi. Uning boshqa mavzudagi gaplari ham Jahongirga «Qirqbelga chiqib xayrlashishing bosh-qacha edi-ku», degan kinoya bilan jaranglaganday bo'lardi. Jahongir bunga ortiq toqat qilmay izoh bera boshladi:

— Men boshqa ko'rishmasak kerak, deb o'ylovdim. O'limni chaqirsang kelmas ekan, yayrab-yashnayman, deganingda qo'qqisdan bostirib kelsa kerak.

— Kishi agar yuz, agar ming yil yashasa ham o'ladi. Faqat bu kuch qachon kelishini bilmaydi. Umrizim boricha yashayveraylik-chi.

Jahongir bu gapini eshitib, mudarrisi tez-tez takrorlaydigan baytni esladi:

— «*Agar sad sol moni var yake ro'z,  
Biboyad raft azin koxi dilafro'z*».

Damining forschaga tishi o'tmas edi.

— O'zbekchalab tushuntir, — dedi u.

— O'zbekchasi sen aytgan gapga o'xshaydi: agar yuz yil va agar birgina kun yashasang ham, ko'ngil ochuvchi bu qasrdan ketish kerak bo'lur.

— Ha, afsuski, ketish onlarimiz yaqinlashyapti. Men o'lib ketishimdan afsuslanmayman. Armonim boshqa — havoda qushning, suvda baliqning, hayotda esa bizning izimiz qolmaydi. Shunisiga dog'man.

Jahongir sukut saqladi. So'ng do'stini ranjitib qo'ymaydigan ohangda dedi:

— Damin, mening izim qoladi. Xudoga shukr, o'g'lim, nevaralarim bor...

— Bilaman... Shuning uchun endi ko'proq yashashing kerak.

— Sen afsus chekma. Odamlar yuragiga yaxshilik urug'ini qadagansan. Sening izing shu. Odamning barcha yaxshi-yomon ishlari ketidan soyadek ilashib yuradi. Sening yaxshi ishlaring ko'p. Men birovga yaxshilik qilishga ham ulgurmadim. Men armon qilsam arziyi.

— Sen... Xadichani taloq qilgan ekansan... Endi... nikohingga ol.

Jahongir darrov javob bermadi. U do'stiga ko'nglidagi niyatini oshkor qila olmas edi, shu niyati nikohga yo'l bermasligini tushuntirishga haddi sig'mas edi.

— Ko'p o'ylama, shariat yo'l beradi, — dedi Damin.

— Shariat-ku, yo'l beradi... — Jahongir shunday deb xayoliga kelgan bahonadan quvondi. — Iddat degan qoidalar bor.

— Iddating nima?

— Beva ayol erining vafotidan so'ng bir yuz o'ttiz kun sabr qilishi kerak. Shu vaqtgacha men unga nomahramman.

Damin tizzasiga shapatilab qo'ydi. Yarim tunga qadar ikki oshna o'tgan-ketganlarni eslab, gaplashib o'tirishdi.

Ertalab Damin uyg'onganida Jahongir tasbeh o'girib o'tirardi. Endigina tong otgan, tunning o'zi chekingani bilan, salqini hali hukmron edi. Ko'cha tomondan charxning shig'llashi, charxchingning «Pi-choq chax-layman!» degan xitobi eshitilardi.

— Namuncha ertalabdan kelmasa bu charxching, — dedi Damin oyog'iga maxsisini kiya turib.

— Bu charxchi anoyi emas, pichoq bahona meni poylayotgandir.

Damin uning gapiga ishonmay, ko'cha eshigini ochib qaradi: charxchi — o'rta yosh kishi — qo'li ishda-yu, ko'zi alang-jalang edi.

Nonushta qilib o'tirishganda eshikda Yo'Ichivoy, so'ng Murodilla ko'rindi. Jahongir uning albatta kelishini bilardi. Lekin bunchalik tez yo'qlar, deb o'ylamagan edi. Ular bir piyoladan choy ichishgach, Murodilla muddaoga ko'chdi:

— Kecha o'rtog'ingizni shifoxonaga borib ko'rgan edim. Rozi bo'lsalar bugun muolajani boshlasak, — dedi u Daminga qarab. — Kasalning kelishi oson, ketishi qiyin deydilar.

— Damin, bu kishi Xitoydan kelgan tabiblar. Seni ham ko'rib qo'yadilar, — dedi Jahongir hayron bo'lib o'tirgan do'stiga.

— Xitoylik deysanmi? Taqsir, men sizni bir odamga o'xshatdim. Tepabellik Murodilla aka emasmisiz?

Murodilla kulimsiradi.

- Xotirangizga balli, o'sha odamman. Men sizni tanimadim-ku?
- Biz u paytda yalangoyoq bo'z bola edik. Ko'rgan bo'lsangiz ham bizga o'xshagan chuvrindilarga e'tibor bermasdingiz. Ot o'ynatib yurar edingiz. Rahmatli Olamg'ir aka bilar ulfatchilik qilardingiz...
- Hammasini bilan ekansiz. Tuz-nasiba bor ekan, Xitoyga o'tib, unda tabiblikni kasb etdim. Qani, qo'lingizni bering-chi, ie, oshqozonga ovqat yaxshi botmas ekan-ku?
- Jahongir Murodillani zimdan kuzatib, fikrni chalg'itishga ustaligiga tan berdi. Damin esa joniga darmon bo'luvchi tabibni uchratganidan xursand, mayor Solihov surishtirib borganida ko'nglida oralagan shubhani unutayozgan edi.
- Oyog'im qattiq og'riydi, aka, — deb hasrat boshlaganida Jahongir uning so'zini shart bo'ldi:
  - Damin, tabib akang sen bilan meni davolayman, deb yuribdilar. Sen Yo'Ichivoy bilan hovliga chiqib, gaplashib tur. Mening bu kishiga aytadigan so'zim bor.
  - Damin ham, Yo'Ichivoy ham bu qarordan ajablanib, Jahongirga qarab qoldilar. Yo'Ichivoyning nigohida ajablanish bilan birga xavotir ham zohir edi.
  - Ikki og'izgina gapimiz bor. Chiqib turinglar.
  - Ular noiloj turib, chiqishdi. Eshikni yopishdi-yu, lekin uzoqlashishmadi.
  - Akamni nimaga o'ldirdingiz? — dedi Jahongir unga tik qarab. U Murodilla bu savoldan gangib qolar, deb o'ylagan edi. Murodilla bu savolni avvaldan kutgani uchun ham xotirjamligini yo'qotmadni.
  - Akangiz rahmatli nodonlik qildilar.
  - Sizni boshlab chiqishlaridan maqsad — meni o'ldirishmidi?
  - Nauzambilloh! Qaysi musulmon odam ukasini o'ldiraman, deb qasd etadi. Akangiz sizni insofga chaqirmoqchi edilar.
  - Siz-chi?
  - O'tgan gapni qo'zg'amang, chuvi chiqmasin.
  - Yaxshi, qo'zg'amayman. Endi nima maqsadda o'g'limga ergashib yuribsiz?
  - Yo'Ichivoy sizni davolashimni o'tinib so'radi.
  - O'g'il bola gapni aytning.
  - O'g'il bola gapmi? Sizni o'ldirmoqchi emasman. Orqangizdan odam qo'yilgan, bilaman. Men sizni ham, o'g'lingiz, nevaralaringizni ham o'ldirmoqchi emasman.
  - «Ularni o'ldirishim ham mumkin, lekin o'ldirmayman» degan ma'noda burab-burab aytilgan keyingi so'z Jahongirni sergak torttirdi.
  - Maqsadingizni aytning, — dedi u qat'iy tarzda.
  - So'zimga tushundingiz-a: men sizni ham, o'g'lingiz, nevaralaringizni ham o'ldirmoqchi emasman.
  - Maqsadingizni aytning, deyapman!
  - Otangiz rahmatlidan qolgan boylik sizga endi kerak emas. Mening esa bola-chaqam ko'p. Musofirlikda aziyat chekkan bandaman.
  - Shuning o'zimi?
  - Ha, shuning o'zi. Keyin qiyomatli og'a-ini bo'lib ketamiz. Nevaralaringizning to'ylarini ko'rasiz.
  - Inshoollo!
- Jahongir shunday deb unga tikildi. Uni shu yerning o'zida bo'g'ib tashlasammi deb ham o'yladi. Hozir tashlansa, shubhasiz, birinchi bo'lib o'g'li yugurib kiradi. So'ng ko'chadagi charxchi... Umidi ushalmay qoladi. «Bu mal'un hiyla ishlatyaptimi, bas, men ham hiyla qilay», degan qarorga keldi.
- Ertaga choshgohda Daydidarada uchrashamiz, — dedi u Murodilladan nigohini uzmay. Daydidarani eshitib, Murodilla yengil seskandi.

— U yerda nima qilamiz?

— Xazina o'sha yerda. Kerak bo'lsa, borasiz. Ammo dum ilashtirib bora ko'rmanq.

— O'zingiz ham shunday qiling.

Jahongir undagi xotirjamlikdan, yo'q, surlikdan tobora battarroq ajablanardi. «Xudoning mard bandasi bir noning yarmini o'zi yesa, qolgan yarmini darveshlarga beradi, bular esa bir iqlim mulkini olib yana boshqa iqlimni olish fikriga tushgan podshohga o'xhashadi. Akam bilan ham balki shu boylikni talashishgandir?»

— Shoh Jamshid «Olamni mardlik va zo'rlik bilan oldik, lekin o'zimiz bilan go'rga eltmadik», degan ekan. Siz boylikka to'ymas ekansiz-da?

— Inim, men ham boylikni go'rimga eltmayman. Aytdim-ku, bola-chaqam bor.

— Kelishdik: o'rtada — bola-chaqalarimiz.

Shu gap bilan Jahongir Murodillaning bolalari ham garovda ekaniga shama qilib qo'ydi. Murodilla buni shunchaki po'pisa deb qabul qilsa-da, yuragida xavotir uyg'ondi. Yuziga fotiha tortib, o'rnidan turdi.

Murodilla chiqishi bilan ostonada Yo'Ichivoy paydo bo'ldi.

— Amakingizni kuzatib qo'ying, onangizga duo aytинг. Bolalaringizni men uchun o'pib qo'ying. Biz Damin akangiz bilan Qirqbelga jo'naymiz, meni yo'qlab ovora bo'lmanq.

Bu gapni Damin ham eshitdi. Yo'Ichivoy ketgach, oshnasini savolga tutdi:

— Nimalarni gaplashding?

— Senga aytadigan gap emas.

— Qirqbelga nima uchun chiqmoqchisan?

— Senikiga, mehmonga.

— Darding — Daydidaradir yana?

— Daydirada... E, xomkalla, Yo'Ichivoya aytish xotiramdan ko'tarilibdi. Shahardagi uyni sotib, qishloqqa ko'chib chiq, Daydidarani bog' qil, demoqchi edim. Shu chinor ostida bir samovarxonan ochsam, deb niyat qilardim. Yo'Ichivoy eplaydi, nima deding?

Damin u bir baloni boshlayotganini sezdi.

Ular yo'lga otlanayotganda ozg'in, qaddi buzik odam eshik og'zida ko'rindi.

— E, xayriyat, uyda ekansiz, — dedi u Jahongirga quchoq ochib. — Uch-to'rt keldim-a, qo'shnilaringizdan so'rasam, ular ham bilishmaydi. Tinchlikmi o'zi?

— Tinchlik, bir oz tobim qochdi.

— Xudo saqlasin. Men sizni yo'ldan qoldirdim, shekilli, — u o'tirib, fotiha o'qigach, muddaoga ko'chdi: — Soqov omonatini topshirgan ekan, kecha yettisi ham o'tdi.

Jahongir pichirlab duo o'qib, yuziga fotiha tortdi-da, sukulga cho'mdi.

Soqovning ismini bilishmas edi. Elliginchi yilning yozida shaxtada ko'mir qazib yurganida, bir guruh mahbuslar bilan Soqov va mana shu kishi — Shoymardon kelishgan edi. Shoymardon dastlab ko'p yig'lardi. Taqdiridan nolirdi. Qirq birinchi yilda urushga chaqirilganini, qishloqdan olib ketilgan bo'z yigitlar qo'liga miltiq berib jangga boshlashganini, hali jangga kirmay, bitta ham o'q otmay turib asirga tushib qolishganini qayta-qayta, o'kinib-o'kinib gapirardi. Boshqalar to'rt yil jang qilgan bo'lsa, bu to'rt yil nemis lagerida azob chekkan, so'ng uyiga qaytgan, endi uylanib, odam qatoriga kirganida hibsga olinib, bu yerlarga jo'natilgan edi. U Jahongirning boshiga tushgan savdolarni bilmas edi. Shu sababli o'zini eng bebaxt odam deb bilib, taqdirini la'natlardi. Shoymardon bilan birga kelgan Soqov ko'zlarini javdiratib nimadir demoqchi bo'lardi-yu, tushuntiroldi mas edi. Kabobpzaga yordam berib yuruvchi bu odam kabobni Stalinnning surati bor gazetaga o'rab berish gunohligini qaydan bilsin? Jahongir unga nima deb dalda berishni bilmas edi. Faqat Soqovni ko'zlarida yosh ko'rganida yelkalarini silab qo'yardi.

...Shu jabrdiyda olamdan o'tibdi. Jahongir o'limni kutib yotganida, Azroil Soqovnikida ekan-da...

— Qanoat qila-qila boradigan joyimiz tayin ekan, — dedi Shoymardon, chuqur uf tortib. Keyin Daminga qarab, dedi: — Aka, biz ko'p nohaq jabr tortganmiz.

— Akangiz ham jabr chekkanlar, — dedi Jahongir, — siz-ku, asir tushganingiz uchun qamalgansiz. Bu kishi kitob o'qiganlari uchun o'tirganlar.

— Vo. Xudo, necha ko'rgiliklar ko'rdik-a,adolat qolmagan ekan dunyoda.

— Adolat bor, — dedi Damin unga, — lekinadolat deganlari hamisha kuchga xizmat qilgan. Ichki yaralar yuzaga chiqib, endi bilyapmiz bularni. Donishmand deganimiz qoqilgan ekan, orqasidan butun xalq qoqilibdi. Qanoat deysiz. Qanoat tuyada ham bor. Tuyaning qanoati tugab, g'azabi uyg'onsa, kushxonaga jo'natiladi. Odamniki tugasa-chi?

— Yaxshi gap aytdingiz, aka, kam bo'l mang. Endi men boray. Sizlarni yo'ldan qoldirmay. Soqovning yigirmasiga birga boramiz, o'zim kirib o'taman.

Shoymardon chiqib ketgach, Jahongir eshikka qulf urib, Damin bilan birga yo'lga tushdi.

Qirqbelga yaqinlashishganda Jahongir Ajdarqoya sari burildi. Qabristonga borib qor ustiga tiz cho'kdi. Yuqorida ajdarning uchta boshi oq qalpoq kiygan. Pastda do'mpaygan qabrlar ham oq o'rangan. Jahongir tilovat qildi. Har kelganida ota-onasi bilan xayolan suhabat qurardi. Bu safar ham odatini kanda qilmadi:

«Dada, akamni bag'ringizga oldingiz, gunohlaridan o'tdingizmi?»

— ...

«Menden rozimisiz? Gunohlarimdan o'tasizmi?»

Bu ikki savol qayta-qayta takrorlandi, lekin javob bo'l madidi.

Jahongir Daminning uyiga qaytib, u bilan deyarli gaplashmadidi. Ertasiga nonushtadan keyin duo o'qidi-da, oshnasiga iltijo bilan dedi:

— Damin, bergen osh-tuzingga rozi bo'l.

— Jalon, esigni yig', nima qilmoqchisan, menga ayt. Murod keladimi Daydidaraga?

— Damin, jon oshna, so'rama. Joyingdan jilmay o'tir. Kechgacha kelmasam, milisaga xabar ber. Yana bir omonat gapimni Yo'Ichivoyga yetkazasan. Daydidaradagi chinordan qibla tomonga ellik qadam sanab odam bo'y i kavlasin. Bobosining omonati o'sha yerda.

— Jalon!

— Biz birovga yomonlikni ravo ko'rmadik. Oshnachiligidimizga xiyonat qilmadik, shunisiga shukr.

Jahongir shunday deb Damin bilan xayrashdi.

Daydidara kimsasiz edi. Chinor ham, do'ngliklarni turtib chiqqan katta-kichik qoyalar ham, qoyalarga tojday qadalgan do'lana ham sukutda. Jahongir chinorga yaqinlashib, atrofni diqqat bilan kuzatdi. Oppoq qordan ko'zlari qamashdi. Hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilgach, daraxtdan sharq tomonga o'n qadam o'Ichab pichog'ini qinidan chiqardi. Qorni oyog'i bilan nari-beri surib, so'ng yerni o'ya boshladi. Jahongir akasi bilan uchrashishdan avval bu yerga kelgan, otasidan qolgan omonatning katta bir ulushini ellik qadam nariga olib chuqurroq ko'mgan edi. U yerni tizza bo'y i o'ygach, pichoqqa bir latta ilashdi. Jahongir latta tugunchani ehtiyyotlik bilan olib ochdi. Tugunchadagi to'pponchani yengiga artdi-da, o'qdonini chiqardi. Bittagina o'qni qoldirib qolganini chuqurchaga tashladi. So'ng o'rani asliday qilib ko'mdi. Ustiga qor ham surib qo'ydi.

U dam-badam atrofga alanglardidi. Qancha tikilmasin, uzoqdagi qoya ortida Solihov, Ramazonov va yana uch yigitning durbinda kuzatayotganini sezmas edi. Solihov Jahongir Qirqbel tomon yurgandayoq uning maqsadini fahmlagandi. Erta tongda u odamlari bilan Daydidaraga yetib kelgan, xuddi bo'rige o'xshab chinor o'sib turgan do'nglikni aylanib o'tgan edi. Shu sababli bu atrofda odam izlari ko'zga tashlanmas edi.

U to'pponcha olganida Solihov sergaklandi. O'qlarni chiqarib tashlaganda esa «shunchaki qo'rqtmoqchi shekilli» deb o'yladi.

Choshgohda Jahongirning qorda qoldirgan izlari yonida yana bir iz paydo bo'ldi: Murooddila asta chinor tomon ko'tarila boshladi.

Jahongir o'ng qo'lini qo'yniga tiqqan ko'yi qilt etmay turardi. Murodilla undan ko'zini uzmagan holda bir-bir qadam tashlab unga yaqinlashaverdi. Uning o'ng qo'li paltosining cho'ntagida, Jahongir sal nojo'ya harakat qilsa bas — to'pponchani chiqarib otib tashlashga shay edi.

Oradagi masofa uch qadam qolganida Jahongir orqaga chekindi-da, qo'ynidan pichoq chiqarib yerga tashladi.

— Xazina shu yerda, — dedi u Murodillaga tikilib.

Murodilla bir pichoqqa, bir Jahongirga qarab, nima qilishini bilmay ikkilanib turdi-da:

— O'zing kavla, — deb buyurdi.

— Men qul emasman. Birovga xizmat qilib o'rganmaganman.

— Qazi deyman! — Murodilla shunday deb to'pponchani chiqardi.

— Qo'rqtang mang meni. Men shartni bajardim. Xazinani ko'rsatdim.

— Qazimasang, ayab o'tirmayman. Akangning izidan jo'naysan. U yoqda... nevaralaring bor-a?

Jahongir qorni oyog'i bilan surib yerni qaziy boshladi.

«Bu akasidan ko'ra aqlliroy ekan, — deb o'yladi Murodilla, uning chaqqon harakatini kuzatib, — akasi ahmoq edi, shu ahmoqligi tufayli o'lib ketdi».

Jahongir yerni pichoq bilan kavlay turib, dambadam Murodillaga qarab qo'yardi.

«Olamgir ham taxminan shu yerda turgan edi, — deb o'yladi Murodilla. — Demak, bilar ekan-da, bila turib aytmagan ekan-da?»

Murodilla tepadan aylanib tushib kelganida Olamgir chindan ham shu yerda turgan edi. Murodillani ko'rib cho'chib tushdi.

— Murod, nimaga kelding? — dedi.

— Seni himoya qilgani, — dedi Murodilla kulimsirab.

— Kelganing chakki bo'libdi, qayt. Jahan ko'rmasin.

— Ko'rsa ko'raversin.

— Murod, bizning ishimizga sen aralashma.

— Gap bunday, Olamgir: sen shoxida yursang, men bargida yuraman. Mojrolaringni bilaman. Lekin men ham quruq qolmasligim kerak. Ulushimni berasan. To'rtdan uchi meniki. Bo'lmasa, men ukangga xotining kim, o'g'ling kim — aytaman.

— Aytaysan!

— Aytaman, bunaqa ishlar qo'limdan keladi.

— Shunaqami... unda qishloqqa kim o't qo'yanini, faollarni kim otganini men ham aytaman.

— Sen odam emas, to'ng'izsan, Olamgir. Eskini kavlash to'ng'izning ishi.

— Sen esa iblissan...

Shu zaylda boshlangan mashmasha so'nggida Olamgir cho'ntagidan pichoq, Murodilla to'pponcha chiqardi. Tayin gapki, to'pponcha oldida pichoq ojiz...

«O'shanda nima uchun qo'rqb qochib ketdim, o'sha kuniyoq hammasi hal bo'lar ediku?» — Murodilla shu savolni avval ham o'ziga-o'zi ko'p bergen, hozir ham takrorladi.

Jahongir qaddini ko'tarib, Murodillaga qaradi.

— Bo'ldi.

— Xurjunni chiqar.

— Kerak bo'lsa, chiqaring, men ketdim.

— To'xta, chiqar deyapman.

Jahongir Murodillaga g'azab bilan tikilib qaradi, so'ng engashib tugundagi tilla tangalardan bir hovuch oldi-da, unga qarab otdi.

— Ma, to'y, iblis!

Murodilla uning gaplariga parvo qilmadi. Sochilib yotgan tilla tangalarga ochko'zlik bilan qaradi-da, yugurib borib o'raka engashdi. Shu vaqtida Jahongir qo'yniga qo'l tiqib so'nggi, bittagina o'qi qolgan to'pponchani oldi.

Bu vaqtida Solihov sheriklari bilan chinorga yaqinlashib qolgan edi.

## XOTIMA

Qissaga shu yerda nuqta qo'ydim. Shu nuqtaga qadar men bilan hamfikr, hamnafas, hamdard bo'lganiningiz uchun Sizdan minnatdorman.

Bu uchrashuvdagi so'nggi so'zim: Toshkentning kunchiqariga joylashgan, bir vaqtlar ovloq joy bo'lgan Daydidarada, qorniga o't qalab, o'yib tashlangan keksa chinor poyida choyxona bor. Yo'Ichivoyning choyxonasi qaerda, deb so'rasangiz, yoshu qari yo'l ko'rsatadi. Xuddi shu choyxonada o'tirib, hayratlanarli voqealarni eshitganidan so'ng menda mazkur asarni yozish fikri tug'ildi. Agar bayonimga ishonmasangiz, Daydidaraga boring, o'z qulog'ingiz bilan eshititing.

Vassalom. Siz bilan yana uchrashish umidida xayrlashaman.

1988 yil.

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

2007